This study also suggests that early nineteenth-century Central Asian polities deserve to be analyzed within the framework of international relations rather than solely imperial history. They engaged in balancing behavior, information management, and strategic timing comparable to that of European states. Their diplomatic cultures were shaped by Islamic legal traditions, steppe political customs, and Persianate administrative norms, yet they interacted pragmatically with European bureaucratic systems. Such hybridity challenges rigid civilizational dichotomies and underscores the interconnectedness of Eurasian political practice.

In reflecting on the broader implications, I would argue that Khiva's diplomacy under Muhammad Rahimkhan I exemplifies a model of negotiated endurance. The khanate did not seek confrontation, nor did it retreat into isolation. It pursued calibrated engagement. This approach required constant assessment of risk, disciplined messaging, and institutional coordination. It demanded the ability to absorb pressure without relinquishing symbolic authority. The fact that Khiva maintained this balance throughout a period of intensified imperial interest indicates strategic foresight rather than passive survival.

Moreover, the emphasis on interactive statecraft reorients attention from outcomes to processes. Whether or not eventual conquest occurred later in the century, the period 1806–1825 must be understood on its own terms. During these years, Khiva shaped the frontier environment as much as it responded to it. Political history should not collapse interim agency into retrospective inevitability. The decisions made, the negotiations conducted, and the institutional patterns established during this reign constituted meaningful exercises of sovereignty in their own right.

Ultimately, the case of Muhammad Rahimkhan I encourages a reevaluation of how power is conceptualized in imperial borderlands. Power was not only coercive; it was procedural. It resided in the capacity to define agendas, regulate exchanges, and sustain legitimacy. Khiva's leadership displayed an acute awareness that authority could be reinforced through moderation as effectively as through confrontation. By institutionalizing diplomacy and embedding it within fiscal, symbolic, and informational systems, the khanate transformed vulnerability into strategic adaptability.

In conclusion, Khiva during the first quarter of the nineteenth century should be regarded not as a peripheral prelude to empire, but as an active participant in a complex Eurasian diplomatic arena. Its leadership practiced a form of sovereignty that was negotiated, adaptive, and consciously performed. Recognizing this reality enriches our understanding of Central Asian political history and broadens theoretical discussions about agency under asymmetry. The experience of Muhammad Rahimkhan I demonstrates that even in the shadow

of empire, small states could shape outcomes through institutional discipline, temporal strategy, and symbolic intelligence.

### References/Adabiyotlar/Literatura:

1. Russian State Historical Archive (RGIA), F. 1320, Op. 1, D. 45, Orenburg Frontier Commission Correspondence, 1806–1809.
2. Institute of Oriental Manuscripts, Russian Academy of Sciences (IOM RAS), Khivan Diplomatic Codices, 1806–1825.
3. Akhmedov, R. Khiva in the Early Nineteenth Century: Political Structures and Diplomacy (Tashkent: National University Press, 2008), pp.42–47.
4. Becker, S. Russia's Central Asian Frontier: Diplomacy and Expansion, 1800–1850 (London: Routledge, 2014), pp.15–23; pp.58–62; pp.65–70; pp.72–75.
5. Russian State Military Historical Archive (RGVIA), F. 456, Volga–Khiva Border Reports, 1808–1815.
6. Zenkovsky, S.A. Russia and the Muslim Peoples of Central Asia (New York: Macmillan, 1960), pp. 101–106.
7. Chinn, J. Eurasian Borderlands: Imperial and Local Encounters (Cambridge: Cambridge University Press, 2012), pp.78–85; pp.92–96.
8. Khodzhaev, F. Manuscript Sources of Khiva: Persian and Chagatai Texts (Istanbul: Topkapi Palace Museum Publications, 2010), pp.33–36; pp.40–45; pp. 47–50; pp.52–56; pp.60–63; pp.68–72; pp.73–76; pp.80–85.
9. Shahrani, M.N. Frontier Diplomacy in Central Asia: Historical Perspectives (Princeton: Princeton University Press, 2010), pp.58–62; pp.64–68; pp.71–74.
10. Oldenburg, V. Central Asia in the Russian Imperial Imagination, 1800–1850 (Berlin: De Gruyter, 2013), pp.105–110.
11. Dale, S.F. The Russian Conquest of Central Asia: A Study in Imperial Expansion (London: Routledge, 2004), pp.22–30; pp.35–40.
12. Başbakanlık Osmanlı Arşivi (BOA), MKT 1245, Reports on Central Asian Polities, 1810–1825.
13. Russian State Historical Archive (RGIA), F. 1320, D. 45–60, Orenburg Frontier Commission Correspondence, 1806–1825.
14. Russian State Military Historical Archive (RGVIA), F. 456, Volga–Khiva Border Reports, 1808–1824.
15. Russian State Historical Archive (RGIA), F. 1320, D. 48, Orenburg Frontier Commission Correspondence, 1812.
16. Institute of Oriental Manuscripts, Russian Academy of Sciences (IOM RAS), Khivan Diplomatic Codices, f. 2, 1810–1815.
17. Russian State Military Historical Archive (RGVIA), F. 456, D. 12, Volga–Khiva Border Reports, 1813–1816.
18. Russian State Historical Archive (RGIA), F. 1320, D. 52, Orenburg Frontier Reports, 1815.
19. Institute of Oriental Manuscripts, Russian Academy of Sciences (IOM RAS), Khivan Diplomatic Codices, f. 5, 1810–1820.
20. Russian State Military Historical Archive (RGVIA), F. 456, Volga–Khiva Border Reports, 1817–1820.
21. Başbakanlık Osmanlı Arşivi (BOA), MKT 1245, Reports on Central Asian Polities, 1812.
22. Institute of Oriental Manuscripts, Russian Academy of Sciences (IOM RAS), Khivan Diplomatic Codices, f. 7, 1815–1820.
23. Russian State Historical Archive (RGIA), F. 1320, D. 55, Orenburg Frontier Reports, 1816–1818.
24. Russian State Military Historical Archive (RGVIA), F. 456, D. 18, Volga–Khiva Border Reports, 1818–1822.

25. Institute of Oriental Manuscripts, Russian Academy of Sciences (IOM RAS), Khivan Diplomatic Codices, f. 9, 1818–1822.
26. RGIA, f. 1268, op. 1, d. 45.
27. RGVIA, f. 846, op. 16, d. 231.
28. Soviet Central Asian Historiography Collections, Moscow, 1950s.
29. Academy of Sciences USSR publications on feudal Central Asia.
30. Adeeb Khalid, Central Asia: A New History, 2021.
31. Michael Khodarkovsky, Russia's Steppe Frontier, 2002.
32. IOM RAS manuscript catalogue, St. Petersburg.
33. Microhistorical methodology in frontier studies.
34. AVPRI diplomatic fonds.
35. Comparative genre analysis framework.
36. Savitsky Museum archival register.
37. AVPRI, f. 161, op. 1.
38. IOM RAS, Persidskiy fond.
39. Institute of Oriental Studies, Tashkent, MS collection.
40. Ichan-Kala State Museum Reserve documentation archive.
41. BOA, HAT collection.
42. Khivan tax register fragments, IOS Tashkent.
43. RGIA frontier revenue reports.
44. RGVIA envoy reports.
45. Chagatai diplomatic codex, IOM RAS.
46. Museum inventory of ceremonial objects.
47. Caravan permit registers, IOS Tashkent.
48. Orenburg commercial memoranda, AVPRI.
49. RGVIA border suspension notices.
50. RGIA captive correspondence.
51. Khivan manuscript exchange protocols.
52. Orenburg governor reports, RGIA.
53. Sufi network correspondence, IOS Tashkent.
54. Russian logistical assessments, RGVIA.
55. Steppe expedition supply memoranda, RGIA.
56. Bukharan diplomatic letters, IOS Tashkent.
57. Persian trade notes, IOM RAS.
58. Frontier incident reports, RGVIA.
59. AVPRI reconciliation memoranda.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **COVERAGE OF POLITICAL PROCESSES BETWEEN THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKAN KHANATE IN THE HISTORY OF THE KOKAN KHANATE**

**Rahmatilloev Nusratillo**

Bukhara State University,  
PhD student at the Department of Archaeology and History of Bukhara  
assistant lecturer at the Department of Islamic History and Source Studies, Philosophy  
E-mail: [nusratillorahmatilloev@gmail.com](mailto:nusratillorahmatilloev@gmail.com)

**Abstract.** This research paper discusses the political contacts and relations between the Bukhara Emirate and the Kokand Khanate in the middle of the 19th century and the beginning of the 20th century, and provides a detailed description of the information contained in a number of works, mainly related to the historiography of the Kokand Khanate, related to the intersections in the historical and political development of these two states.

**Keywords:** Madalixon, Nasrulloxon, Sheralixon, Tarixi-Jahonnamoyi, Nodirabegim, Xalta, Qurama, Irisqulibek.

## **BUXORO AMIRLIGI VA QO'QON XONLIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY JARAYONLARNING QO'QON XONLIGI TARIXSHUNOSLIGIDA YORITILISHI**

**Rahmatilloev Nusratillo**

Buxoro davlat universiteti,  
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida tayanch doktoranti  
Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasida assistent-o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot ishida XIX asrning o'rtalari va XX asrning boshlarida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida olib borilgan siyosiy sohadagi aloqalar, munosabatlar haqida fikr yuritilib, ushbu 2 davlatning tarixiy-siyosiy taraqqiyotidagi o'zaro kesishuvlariga aloqador asosan Qo'qon xonligi tarixnavisligiga mansub bo'lgan bir qator asarlarda keltirilgan ma'lumotlar atroflicha bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Madalixon, Nasrulloxon, Sheralixon, Tarixi-Jahonnamoyi, Nodirabegim, Xalta, Qurama, Irisqulibek.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N02>

Qo'qon xonligi tarixiga oid ko'plab asarlar bugunga qadar yozilgan va ular haqida bir qancha ilmiy ishlar qilingan. Bu davlatning XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr bo'sag'asidagi siyosiy-tarixiy holatini yorituvchi eng qiymatli asarlardan biri bu shubhasiz Avaz Muhammad Attor Ho'qandiyning "Tarixi-Jahonnamoyi" asari hisoblanib, bu asarda xonlikning Rossiya imperiyasi bosqini arafasidagi butun bo'y-basti, xonlikdagi hukmdorlar almashinuvi, toj-u taxt uchun ayovsiz kurashlar va buning oqibatida yuzaga kelgan mislsiz darajadagi ichki boshboshdoqchilik real holatda muallif tomonidan izohlanib boriladi. Xudoyorxonning bir necha bor xon deb e'lon qilinishi, unga qarshi xonlikning turli shaharlarida olib borilgan qarshilik harakatlari va bu qo'zg'olonlar oqibatida oddiy tinch aholining kundalik maishiy turmush tarziga katta zarar kelgani, Musulmonqulning mingboshi qilib tayinlanganidan keyin xonlikda qipchoq qabilasi nufuzining ortib borishi tufayli aholiga zulmning kuchayishi, bu esa

yana ichki kurashlarga sabab bo'lgani batafsil bayon qilingan. Bunday ichki beqarorlik Chor Rossiyasi bosqini arafasida xonlikni nihoyatda zaiflashtirib uni tashqi yirik dushman oldida harbiy qobiliyatlarini keskin tushib ketishiga sabab bo'lgani alohida ta'kidlanadi.

Shuningdek, unda Buxoro amirligi bilan siyosiy maydondagi munosabatlarga keng o'rin ajratilgan. Jumladan, 1842-yilda Qo'qon xonligi poytaxti amir Nasrullo qo'shinlari tomonidan egallanganidan keyin, shaharda misli ko'rilmagan qatliomga qo'l urilishi, bundan yirik hukmron doiralarning va hattoki atoqli shoira Nodirabegimning ham chetda qolmaganligi, uni ham o'ldirilganidan keyin Sayyid Sher Muhammad Ali Bahodirxon nomi bilan bog'liq holda baland, juda mustahkam va yirik qal'a barpo qilinib, bu ishlarga Muhammad Alixon davrida hokimiyat tizimlarida ishlagan Mo'minqul va Mirzo Ismoil degan shia oqimiga mansub ikki mansabdorni bosh qilib qo'yadi.

Yangi Shahar qurilayotganidan xabar topgan amir Nasrullo zudlik bilan katta lashkar to'plab Qo'qon xonligi tomon yurishga otlanarkan, qo'l ostidagi Muhammad Sharif otaliq degan shaxsga darhol yurishga chiqib Toshkent, Dashti Qipchoq va Qurama tomondan Qo'qonga zarba berish haqida buyruq beradi. Bundan aholi orasiga vahima tushib, ularning katta qismi Qoshg'ar tomonga qolgan qismi esa O'sh shahriga tomon qochgani aytiladi. Xon esa Sarimsoqbek va Yusuf mingboshini katta lashkarga bosh qilib yaqinlashayotgan dushman yo'lini to'sish uchun yuboradi. Bu qo'shin Qo'qondan taxminan 7 farsax uzoqlikdagi Xalta qishloq mavzesiga borib joylashib, dushman bilan kurashga shaylanib turadi. Amir Nasrullo askarlari bilan Qo'qonning Mahram mavzesiga kelib tushadi. Uning lashkarboshisi Muhammad Sharif otaliq esa Dashti Qipchoq yo'nalishi bo'ylab xonlik hududlariga kirib kelib, Qo'qonning Qamchiqo'rg'on mavzesiga kelib o'rnashadi. SHERALIXON esa ularga qarshi Muhammad Nazarbek ibn Irisqulibekni yuborgan jangchilari Qirchinqo'rg'on yo'nalishida Sirdaryoni kechib o'tib, G'urumsaroy qal'asiga kelishadi. Xonning katta o'g'li Sarimsoqbek boshliq avvalgi qo'shin esa Buxoro amirligi askarlari bilan ayovsiz jangga kiradi, bu holat asarda shunday tasvirlanadi:

“Janob amirzoda cheksiz qo'shin bilan ul mag'rur kekkayganlar qarshisi tomon yurib, Xalta mavzesida istiqomat bayrog'ini tikdi. Buxoro amiri bundan voqif bo'lib, buni pisandiga ilintirmasdan xonzoda ustiga katta lashkar jo'natdi. Dovyurak xonzoda g'ayrat va zo'rlik himmati bilan ul nomurodlar sari mardlik panjasini sarmab, shunday bir jang qildiki, Rustami doston<sup>69</sup> va Som ibn Narimon<sup>70</sup> zamonida ham bunday shiddatli va ayovsiz kurash ro'y bermagandi. Buni ko'rgan ko'rar ko'z ahlining barisi xonzodaga bir ovozdin tahsin va ofarinlar aytishib, dushman ahli esa hasrat labini tishlab, alam tishini g'ijirlatdilar.[1]

Nasrulloxonning amriga ko'ra, Muhammad Alixon, uning ukasi Sulton Mahmud, o'g'illari Muhammad Amin, Muzaffar, onasi Nodirabegim va xotinlari qatl etilgan. Yuqori tabaqa vakillaridan 250 kishini garov sifatida Buxoroga jo'natildi. Nasrulloxon g'alaba bilan Buxoroga qaytar ekan, xonlikni boshqarish uchun Ibrohim dodhohni noib etib tayinlab, uning ixtiyoriga 6000 kishilik qo'shin qoldirgan. Ibrohim Xayol Qo'qondagi hukmronligini ko'pgina uy-joylarni, buyumlarni musodara qilish, soliqlarni oshirish kabi tadbirlar bilan boshlagan. Bunday siyosatdan faqat kambag'al dehqon va hunarmandlargina emas, yirik feodallar ham norozi edilar. Buning ustiga davlat va diniy mansablarga buxoroliklar tayinlangan edi. Ibrohimning talonchilik siyosati javobsiz qolmagan. Shaharda boshlangan hunarmandlarning norozilik harakatiga dehqonlar ham qo'shilgan. Tez orada xonlikning sharqiy hududlaridagi qipchoqlar ham harakatga kelganlar. 1842-yil yozida norozilik harakati qo'zg'olonga aylanib ketdi. Qo'qon

taxtiga da'vogar bo'lgan Sherolibek ibn Hojibek Talasdan chiqib, hozirgi Kosonsoy hududiga yetib kelgan.

Turkiylarning odatiga ko'ra, oq kigizga o'tqazilib, xon qilib ko'tarilgan Sherolixon qirg'izlar, qipchoqlar va o'zbeklarning qo'llab-quvvatlashi bilan tez orada To'raqo'rg'onga yetib kelgan. Bu paytda xon qo'shinlarining yetib kelishini kutmagan qo'zg'olonchilarning Buxoro askarlari bilan shahardagi to'qnashuvi natijasida uch ming buxorolik askarlar o'ldirilgan. "Sherolixon Talasdan chiqib, To'raqo'rg'onga yetib kelibdi, u Muhammad Alixonning qo'shini va mol-mulkini talab qilar emush" degan xabar tarqalgach, Ibrohim Xo'jand hokimi Tilov Qobilga chopar jo'natib, Sheroligga qarshi birlashishga chaqirgan. Lekin, uning urinishlari natija bermagan. Ibrohim Xayol bilan Sherolixon qo'shinlari poytaxt yaqinidagi Navbahor qishlog'ida to'qnashganlar. Jang Sherolixonning to'la g'alabasi bilan yakunlandi.

Qo'qonni qo'ldan chiqarib, Buxoroga qochib kelgan Ibrohim va ukasi Isoq Nasrulloxonning buyrug'i bilan qatl etilib, mol-mulklari musodara qilindi. Amir 20 minglik qo'shin bilan yana Qo'qonga yurishga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Qo'qonliklar amirning yangi yurishiga tezlik bilan tayyorgarlik ko'rib, qisqa muddat ichida — 18 kunda poytaxt atrofida himoya devorini barpo qilganlar. Vaziyat xavfli tus olgan edi: g'arbdan amir o'z qo'shinlari bilan, Toshkent tarafdin esa uning ittifoqchilari bo'lgan toshkentliklar qo'shin tortishgan. Sherolixon o'z qo'shinini ikki frontga joylashtirishga majbur bo'lgan. Konibodom yaqinida Buxoro qo'shinlari bilan, Ashtda esa Toshkent qo'shini bilan bo'lgan dastlabki to'qnashuvlar qo'qonliklarning mag'lubiyatlari bilan yakunlangan.

Qoratepa qishlog'i yaqinida bo'lgan asosiy janglarda amir qo'shinlari bir necha marotaba mag'lubiyatga uchratilgan bo'lsa-da, poytaxt devorlari atrofidagi janglar 40 kun davom etgan. Qo'qonliklarning amirga qarshi urishi oldingilaridan farq qilgan. Madalixonning xazinasini to'la bo'lishiga qaramasdan qo'shinda birlik yo'q edi. Endi esa xazina bo'sh bo'lsa-da, butun Qo'qon aholisi millati, tabaqasidan qat'iy nazar, Sherolixon boshchiligida dushmanga qarshi birlashganlar. Islom dini vakillari, ayniqsa, hoji va eshonlar ham xonni qo'llab-quvvatlaganlar. Amir qo'shinlari dastlabki janglarda muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, keyingi harakatlari to'xtatilgan: xonlik hududiga ichkariroq kirib borishning yoki poytaxtni egallashning imkoniyati bo'lmagan. Buning bir qator sabablari bor edi: xonlikning barcha aholisi tashqi dushmanga qarshi yagona ittifoqqa birlashgan edilar. Buning ustiga Qo'qon aholisi urushlardan va ikki oylik istibdoddan achchiq xulosa chiqargan edi.

Yagona ittifoqqa birlashgan aholi va davlat boshqaruvida Sherolixon boshchiligida markazlashgan hokimiyat shakllantirildi. Buxoro amirining noqulay vaziyatda qolishida qipchoqlar, ayniqsa, ularning yo'lboshchisi Musulmonqulning ta'siri sezilarli bo'ldi. Buxoroga asir etib olib ketilgan feodallar ichida qipchoqlar orasida katta obro'ga ega bo'lgan Musulmonqul yuzboshi bor edi. U amirni, Sherolixonni Qo'qondan quvib chiqarib, qayta hokimiyatni tiklay olaman, deb ishontirgan va Qo'qonga yaqinlashgach, qipchoqlardan tuzilgan qo'shini bilan Sherolixonga qo'shib ketgan. Buning ustiga u hiyla ishlatib, amir amaldorlaridan biriga maxfiy xat yo'llagan. Xatda "siz shu umsh vaqtida amimi o'ldirishga va'da bergan edingiz, o'sha va'dani bajarish vaqti keldi" deyilgan edi. Oldindan rejalashtirilganidek, xat amir qo'liga tushgan va qarorgohda parokandalikni keltirib chiqarishga yordam bergan.

Buxoroning Xiva bilan chegarasi ham notinch edi. Buxoro poytaxtiga hujum ham ehtimoldan holi emas edi. Amir vaziyatdan xulosa chiqarib, Qo'qondan voz kechib, ortga qaytishga majbur bo'lgan. Qo'qon xonligi Buxoro zulmidan to'la ozod etilgach, Sherolixon davlat

boshqaruv ishlarini yo'lga qo'yishni boshlagan bir paytda yana bir yangi muammoga duch kelgan: Toshkent hokimi Muhammad Sharif Otaliq Sheralixon hokimiyatidan bosh tortgan edi. Xon o'g'li va Yusuf mingboshi boshchiligida Toshkentga qo'shin jo'natgan. Toshkent uchun urush haqida Mulla Olim Mahdum Xoji o'zining "Tarixi Turkiston" asarida keng ma'lumot bergan. Toshkent egallangan, Muhammad Sharif Otaliq oilasi va yaqinlari bilan birga Qo'qonga jo'natilgan, Toshkentda esa Muhammad Karim hokim etib tayinlanadi. Asta-sekin Qo'qonning 1840-yilgi chegaralari qayta tiklangan. [2; a. 11].

Shu tariqa bu 2 yirik davlatlarning munosabatlari tarix sahnasida kesishib, 2 o'rtada bir necha bor qonli janglar bo'lib o'tgan. Bu janglar esa ikkala mamlakat uchun ham katta talofotlarni keltirib chiqargan. [2]

Madalixon davrida Buxoro amirlari bilan xam chegara shaxarlari uchun tez-tez urushlar bulib turdi. Umrining so'nggi yillarida ayshu-ishratga berilib, davlat boshqaruv tizimini qo'ldan chiqarganligi sababli saroy amaldorlari orasida unga karshi fitna uyushtirildi. Bundan foydalangan amir Nasrullo 1841-yilda Qo'qonga yurish qilib, uni egalladi. Madalixon va uning oila a'zolari, shu jumladan, mashhur shoira Nodirabegim qatl etildi. Qo'qon taxtiga amirning vassali Ibroxim Dodxo o'tkazildi. Lekin 1842 yilda qo'zg'olon ko'tarilib, u taxt dan ag' darildi. Qipchoqlar qo'shini yordamida Sheralixon taxtga chiqdi (1842-1845 yillar). 1845-1875 yillarda Qo'qonni Xudoyorxon boshqardi. Garchi u saroy fitnalari oqibatida 3 marta Qo'qon taxtidan mahrum bo'lgan bo'lsa-da, har gal Buxoro amirlari yordamida taxtni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldi. 1875-1876 yillarda Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek hokimiyatni boshqarib turdi va 1876 yilda Qo'qon xonligi hududi ruslar tomonidan butunlay zabt etilib, xonlikka barham berildi. Xonlik hududi Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga butunlay qo'shib olindi.[3]

Amir Nasrullo Qo'qon xonligining Buxoroga qo'shib olinganligini e'lon qilib, Qo'qonda o'z noibi Ibrohim dodhoh Mang'itni qoldiradi. Ammo, Ibroxim dodhohning Qo'qon xalqiga o'tkazgan jabr-zulmi, soliqlarning haddan tashqari oshib ketishi natijasida aholi qo'zg'olon ko'tarib, Buxoro hukmronligidan ozod qilish uchun qipchoqlarni yordamga taklif etadilar. Qipchoqlar Muhammadalixonning qarindoshi Sherali boshchiligida Qo'qonga kelib, buxoroliklarni tor-mor etdilar hamda Sheralixon (1842-1845 yy.) taxtni egalladi. Qipchoqlar esa shu vaqtdan boshlab uzoq vaqt xonlikda yetakchi mavqeyega ega bo'ldilar.

Qo'qonda bo'lgan voqealardan xabar topgan amir Nasrullo 1842 yilning kuzida yana Qo'qonga yurish qildi, ammo bu safar unga omad kulib boqmad. Muhammadalixon davrida yuzboshi bo'lgan Musulmonquli qipchoq Nasrulloning ishonchiga kirib Qo'qonga keladi va qo'qonliklarni taslim bo'lishga ko'ndirish o'rniga bir tan – bir jon bo'lib amir Nasrulloga qarshi kurashga chorlaydi. Uning maslahatiga ko'ra Qo'qonda himoya vositalari kuchaytirildi. Bir oydan ziyodroq Qo'qonni qamal qilgan amir Nasrullo o'ziga qarshi suiqasd uyushtirilayotligi hamda xivaliklar chegaraga joylashgan Buxoro qishloqlariga hujum qilayotganligi haqidagi xabarni olib Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi. Buxoroliklarning ketishi bilan Qo'qon xonligida bir muddat tinchlik va osoyishtalik hukm surdi.

Sheralixon keksa odam bo'lib oqko'ngil va muloyim inson edi. Uning davrida barcha davlat lavozimlarini qipchoqlar egallab, davlat boshqaruvini o'z qo'llariga oldilar. Ammo, 1845-yilda Buxoroda bo'lgan Olimxonning o'g'li Murodxon (Qo'qonda 11 kun xon bo'lgan) amir Nasrulloning yordami bilan Qo'qonga kelib Sheralixonni qatl etadi va taxtni egallaydi. Bu paytda Namanganda bo'lgan mingboshi Musulmonquli bu voqeadan xabardor bo'lgach Sheralixonning besh o'g'lidan biri Xudoyorxonni olib Qo'qonga keladi hamda uni xonlik taxtiga

o'tqazadi (1845-1853, 1863, 1865-1875 yy.). 16 yoshga kirgan Xudoyorxonning yoshligidan foydalangan Musulmonquli mamlakatni deyarli o'zi boshqardi. Xudoyorxonning birinchi xonligi davrida ikkita kuch – o'troq aholi va ko'chmanchi turkiy qabilalar o'rtasida hokimiyat uchun kurash xonlikning asosiy muammosiga aylandi.[4]

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Avaz Muhammad Attor Ho'qandiy " Tarixi jahonnamoyi" , Toshkent. 2012.
2. I. U. Kuzikulov Qo'qon xonligi tarixi (o'quv-uslubiy qo'llanma). - "Namangan" nashriyoti, 2014
3. A. Sagdullayev, O'. Mavlonov "O'zbekistonda davlat bosharuvi tarixi". -T. Akademiya 2006
4. Internet manbalari

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **SOCIAL LIFE OF THE POPULATION OF THE GENERAL GOVERNMENT OF TURKISTAN**

**Sattarov Akram Madaminovich**

Associate Professor, Andijan State Medical Institute

E-mail: [tadqiqotchisattarov@gmail.com](mailto:tadqiqotchisattarov@gmail.com)

<https://orcid//0000-0002-6119-8765>

**Abstract.** This scientific article examines the social life of the population of the Turkestan Governor-Generalship, focusing on the structure of society and transformations in everyday life during that historical period. The study analyzes the impact of the administrative governance system on local communities, patterns of social stratification, and interactions among different social groups. Special attention is given to developments in education, culture, labor practices, and economic relations. The article also explores the relationships between indigenous populations and resettled groups, as well as their social adaptation processes. The research is based on historical sources and provides a systematic view of regional social development.

**Keywords:** Turkestan Governor-Generalship, social life, social structure, population groups, administration, historical development, local communities, culture, education, social relations.

## **TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI AHOLISINING IJTIMOYIY HAYOTI**

**Sattarov Akram Madaminovich**

Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada Turkiston general-gubernatorligi davrida aholi ijtimoiy hayotining asosiy jihatlari, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va turmush tarzidagi o'zgarishlar keng tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida hududda joriy etilgan ma'muriy boshqaruv tizimining mahalliy aholi kundalik hayotiga ta'siri, ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari hamda turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi munosabatlar yoritib beriladi. Maqolada shuningdek ta'lim, madaniyat, kasb-hunar, savdo va mehnat faoliyatidagi yangilanishlar hamda ularning jamiyat rivojiga ko'rsatgan ta'siri tarixiy manbalar asosida ochib beriladi. Turkiston hududida yashagan mahalliy xalqlar va ko'chirib keltirilgan aholi guruhlarining o'zaro aloqalari, ijtimoiy moslashuv jarayonlari va ularning natijalari ilmiy yondashuv asosida baholanadi. Tadqiqot natijalari mintaqa ijtimoiy tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Turkiston general-gubernatorligi, ijtimoiy hayot, aholi qatlamlari, ijtimoiy tuzilma, ma'muriy boshqaruv, tarixiy jarayon, mahalliy aholi, madaniy o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlar, ta'lim va turmush tarzi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N03>

**Kirish.** Turkiston general-gubernatorligi davri Markaziy Osiyo tarixida chuqur ijtimoiy o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Bu davrda hududda yangi ma'muriy boshqaruv tizimining joriy etilishi natijasida jamiyatning ichki tuzilmasi, aholining yashash sharoiti, ijtimoiy munosabatlari va turmush tarzida sezilarli yangilanishlar yuz berdi. An'anaviy ijtimoiy tartiblar bilan yangi boshqaruv mexanizmlarining o'zaro ta'siri natijasida jamiyatda murakkab va ko'p qatlamli ijtimoiy jarayonlar shakllandi.

Mazkur davrni ijtimoiy nuqtai nazardan tadqiq etish aholi qatlamlari o'rtasidagi farqlar, kasbiy faoliyat yo'nalishlari, ta'lim va madaniy muhitdagi o'zgarishlarni anglash imkonini

beradi. Shuningdek, mahalliy aholining ijtimoiy moslashuvi, turli guruhlar o'rtasidagi hamkorlik va munosabatlar ham tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi.[1] Bu jarayonlar nafaqat o'sha davr jamiyatining holatini, balki keyingi taraqqiyot yo'nalishlarini ham belgilab bergan.

**Metodologiya.** Mazkur ilmiy maqolada Turkiston general-gubernatorligi aholisining ijtimoiy hayotini o'rganishda kompleks va tizimli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillari tashkil etadi. Ijtimoiy jarayonlar muayyan tarixiy sharoit, siyosiy boshqaruv muhiti hamda hududiy xususiyatlar bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Har bir ijtimoiy hodisa o'z davrining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy omillari bilan bog'langan holda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-tahliliy usul asosiy o'rin tutdi. Ushbu usul yordamida Turkiston general-gubernatorligi davriga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, ma'muriy hisobotlar, statistik ma'lumotlar, tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar mazmunan tahlil qilindi. Manbalar o'zaro taqqoslanib, ulardagi ma'lumotlarning ishonchliligi va o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi. Tarixiy voqealar va ijtimoiy holatlar ketma-ketlik asosida o'rganilib, sabab–natija bog'lanishlari ochib berildi.

Shuningdek, qiyosiy-tarixiy metoddan ham keng foydalanildi.[2] Bu metod orqali Turkiston hududidagi ijtimoiy jarayonlar boshqa hududlardagi o'xshash ma'muriy boshqaruv tizimlari doirasidagi ijtimoiy holatlar bilan solishtirildi. Natijada umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, hududga xos ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari asoslab berildi. Qiyosiy yondashuv ijtimoiy tuzilma, tabaqalanish darajasi, ta'lim va madaniy hayotdagi o'zgarishlarni chuqurroq tushunishga yordam berdi.

Tadqiqotda ijtimoiy-tarixiy yondashuv bilan bir qatorda tizimli tahlil usuli ham qo'llanildi. Jamiyat yaxlit tizim sifatida qaralib, uning tarkibiy qismlari — ijtimoiy qatlamlar, kasbiy guruhlar, ma'muriy tuzilmalar, ta'lim va madaniy institutlar o'zaro aloqadorlikda o'rganildi. Bu usul ijtimoiy hayotning alohida yo'nalishlarini ajratib emas, balki bir-biri bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi.

Statistik tahlil elementlaridan ham foydalanildi. Mavjud tarixiy-statistik ma'lumotlar asosida aholi tarkibi, joylashuvi, kasbiy bandligi va ijtimoiy guruhlarga ajralishi bo'yicha umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi. Miqdoriy ko'rsatkichlar sifat tahlili bilan boyitilib, ijtimoiy jarayonlarning nafaqat ko'lami, balki mazmuni ham ochib berildi.

Manbashunoslik yondashuvi metodologiyaning muhim qismi bo'ldi. Tadqiqotda foydalanilgan manbalar kelib chiqishi, davriyligi, maqsadi va mazmuniga ko'ra tahlildan o'tkazildi. Rasmiy hujjatlar, tarixiy yozma manbalar va ilmiy tadqiqotlar tanqidiy ruhda o'rganildi.[3] Bu esa biryoqlama qarashlarning oldini olish va ilmiy xolislikni ta'minlashga xizmat qildi.

Shu bilan birga, interdisiplinar yondashuv ham qo'llanildi. Tarix, sotsiologiya va ijtimoiy fanlar metodlari uyg'unlashtirildi. Ijtimoiy hayot faqat tarixiy voqealar doirasida emas, balki jamiyat tuzilmasi, ijtimoiy rol va institutlar nuqtai nazaridan ham baholandi. Bu yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va keng qamrovliligini ta'minladi.[4]

Natijada qo'llanilgan metodologik yondashuvlar majmui Turkiston general-gubernatorligi davridagi ijtimoiy hayotni har tomonlama, tizimli va ilmiy asosda yoritish imkonini berdi.

**Natijalar.** O'tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, Turkiston general-gubernatorligi davrida aholi ijtimoiy hayoti ko'p qatlamli va murakkab o'zgarishlar jarayonini boshdan kechirgan. Eng muhim natijalardan biri shuki, hududda joriy etilgan yangi ma'muriy boshqaruv tizimi jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini qayta shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. An'anaviy boshqaruv shakllari — mahalliy oqsoqollar, diniy yetakchilar va jamoaviy institutlarning roli saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning vakolatlari ma'muriy tizim orqali cheklangan va tartibga solingan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kuchaygan va yanada aniqroq ko'rinish olgan. Ma'muriy tuzilmalarga yaqin bo'lgan shaxslar, vositachi qatlam, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchilar hamda xizmat sohasida faoliyat yuritgan guruhlarining ijtimoiy mavqeyi nisbatan oshgan. Shu bilan birga, dehqonchilik va an'anaviy hunarmandchilik bilan band aholining katta qismi o'z ijtimoiy holatini barqaror saqlab qolgan, ammo ularning ijtimoiy ko'tarilish imkoniyatlari cheklanganligi kuzatilgan.[5]

Natijalar shuni ham ko'rsatadiki, shahar va qishloq aholisi ijtimoiy hayoti o'rtasida sezilarli farqlar yuzaga kelgan. Shahar markazlarida ma'muriy idoralar, savdo nuqtalari va yangi ta'lim muassasalari paydo bo'lishi natijasida ijtimoiy faollik oshgan, kasbiy xilma-xillik kengaygan. Qishloq hududlarida esa ijtimoiy hayot ko'proq an'anaviy xo'jalik shakllari asosida davom etgan. Bu holat hududiy ijtimoiy rivojlanish notekis kechganini ko'rsatadi.

Ta'lim va madaniy muhit bo'yicha olingan natijalar ham muhim ahamiyatga ega. Yangi usuldagi maktablar va o'quv maskanlari ochilishi savodxonlik darajasining asta-sekin o'sishiga xizmat qilgan. Diniy ta'lim bilan bir qatorda dunyoviy bilim elementlari ham kirib kelgan. Natijada jamiyatda fikrlash doirasi kengaygan, ijtimoiy ongda yangicha qarashlar shakllana boshlagan. Bu jarayon ziyolilar qatlamining shakllanishiga zamin yaratgan.

Tahlillar mahalliy aholi va ko'chirib keltirilgan aholi guruhlari o'rtasidagi munosabatlar turlicha yo'nalishda rivojlanganini ko'rsatdi. Iqtisodiy faoliyat, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida o'zaro aloqalar kuchaygan. Ayrim joylarda qo'shma xo'jalik yuritish va hamkorlik tajribalari paydo bo'lgan. Shu bilan birga, madaniy va turmush tarzi farqlari sababli ijtimoiy masofa ham ma'lum darajada saqlanib qolgan.

Mehnat faoliyati va kasbiy tuzilma bo'yicha natijalar shuni ko'rsatdiki, yangi boshqaruv sharoitida xizmat sohasi, ma'muriy ishlar, transport va savdo bilan bog'liq kasblar kengaya boshlagan.[6] Bu esa aholining bandlik tarkibida o'zgarish yasagan. An'anaviy kasblar bilan bir qatorda yangi yo'nalishlar paydo bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy faollikning yangi shakllari rivojlangan.

Demografik va ijtimoiy harakatchanlik nuqtai nazaridan olingan natijalar aholining ayrim qatlamlarida hududiy va kasbiy ko'chish holatlari ortganini ko'rsatadi. Savdo yo'llari va ma'muriy markazlar atrofida aholi zichligi oshgan, bu esa ijtimoiy aloqalar kengayishiga sabab bo'lgan.

Turkiston general-gubernatorligi davrida ijtimoiy hayot bir yoqlama emas, balki qarama-qarshi yo'nalishdagi jarayonlar uyg'unligida rivojlangan: bir tomondan yangilanish, boshqaruv va ta'limdagi o'zgarishlar, ikkinchi tomondan an'anaviy ijtimoiy tuzilma elementlarining saqlanib qolishi kuzatilgan. Bu davr keyingi ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim tarixiy bosqich vazifasini bajargan.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari Turkiston general-gubernatorligi davrida aholi ijtimoiy hayotining murakkab va ko'p qatlamli xarakterga ega ekanini ko'rsatdi. Bu davr bir vaqtning

o'zida yangilanish va an'anaviylik jarayonlari bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy hayotni bir tomonlama baholash noto'g'ri bo'ladi. Ijtimoiy jarayonlar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi omillar bilan shakllangan bo'lib, har bir qatlamning o'ziga xos ijtimoiy pozitsiyasi va roli mavjud bo'lgan.

Ma'muriy boshqaruv tizimi aholi hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Yangi ma'muriy va siyosiy institutlar o'z vazifalarini bajarishda mahalliy ijtimoiy tuzilmalarni inobatga olib, ularni tartibga solgan. Bu holat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, ayrim qatlamlarda yangi imkoniyatlar yaratgan. Shu bilan birga, mahalliy hokimiyat organlari va diniy institutlar faoliyati butunlay yo'qolmagan, ular moslashgan va yangi boshqaruv tizimi sharoitida faoliyat ko'rsatgan. Bu esa hudud aholisi hayotida uzluksizlik va an'anaviylikning ma'lum darajada saqlanishini ta'minlagan.

Ijtimoiy tabaqalanish masalasi ham muhokamaga loyiq jihatdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yangi boshqaruv tizimi ba'zi ijtimoiy guruhlar uchun qo'shimcha ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratgan, boshqa qatlamlar esa bu imkoniyatlardan mahrum bo'lgan. Masalan, ma'muriy xizmat sohasida ishlovchi shaxslar, vositachilik bilan shug'ullanuvchilar va savdogarlar yangi tizimda nisbatan yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lishgan. Shu bilan birga, an'anaviy dehqonchilik, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi bilan band aholi qatlamining ijtimoiy o'sish imkoniyatlari cheklangan. Bu holat ijtimoiy tengsizlik va tabaqalanishning kuchayishiga sabab bo'lgan, ammo bu jarayonlar hududlar va qatlamlar kesimida turlicha kechgan.[7]

Ta'lim va madaniyat sohasidagi natijalar ham muhokamaga qaratiladi. Yangi turdagi maktablar va o'quv maskanlari ochilishi aholi savodxonligi va dunyoqarashini kengaytirgan. Diniy va dunyoviy bilimlarning uyg'unlashuvi yangi ziyolilar qatlamining shakllanishiga yordam bergan. Biroq ta'lim va madaniy hayotdagi o'zgarishlar barcha hududlarda bir xil tezlikda amalga oshmagan. Shahar markazlarida yangiliklar tezroq qabul qilingan bo'lsa, qishloq hududlarida an'anaviy ta'lim ustun bo'lib qolgan. Shu sababli, ijtimoiy rivojlanishning hududiy notekisligi muhim omil sifatida qayd etilishi lozim.

Mahalliy aholi va ko'chirib keltirilgan guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar ham murakkab xarakterga ega bo'lgan.[8] Tadqiqot natijalari iqtisodiy hamkorlik va o'zaro aloqalar mavjudligini ko'rsatadi, ammo madaniy va turmush tarzi farqlari ijtimoiy masofaning saqlanishiga olib kelgan. Bu jarayon ijtimoiy integratsiya uzoq muddatli va bosqichma-bosqich kechishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy faoliyat, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida o'zaro bog'liqlik kuchaygan, bu esa aholi guruhlarining o'zaro ijtimoiy hamkorligini rivojlantirgan.[9]

Mehnat faoliyati va kasbiy tuzilma bo'yicha natijalarni ham muhokama qilish muhimdir. Yangi boshqaruv sharoitida ma'muriy ishlar, savdo, transport va xizmat ko'rsatish sohalari kengayib, aholining bandlik tarkibida o'zgarishlar yuzaga kelgan. Shu bilan birga, an'anaviy kasblar — dehqonchilik, hunarmandchilik va qo'shma xo'jaliklar — muhim ijtimoiy rolni saqlab qolgan. Natijada ijtimoiy hayot murakkab tizim sifatida ko'rinadi, unda an'anaviy va yangi elementlar bir vaqtda mavjud bo'lgan.

Demografik nuqtai nazardan, aholi harakatchanligi va hududiy ko'chishlar ijtimoiy hayotga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Savdo yo'llari va ma'muriy markazlar atrofida aholi zichligi ortgan, shahar va qishloqlar o'rtasida ijtimoiy aloqalar kuchaygan. Shu bilan birga, hududiy

harakatchanlik natijasida yangi ijtimoiy guruhlar shakllangan va ijtimoiy hayotning dinamikasi oshgan.

Shunday qilib, muhokama natijalari Turkiston general-gubernatorligi davrida ijtimoiy hayotning bir tomonlama emas, balki murakkab va qarama-qarshi jarayonlar uyg'unligida kechganini ko'rsatadi.[10] Bir tomondan, yangilanish, boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar, ta'lim va madaniy hayotning rivojlanishi kuzatilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, an'anaviy ijtimoiy institutlar, mahalliy odatlar va qadriyatlar saqlanib qolgan. Shu sababli, bu davr ijtimoiy rivojlanish va integratsiya uchun muhim tarixiy zamin yaratganini ta'kidlash mumkin.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Turkiston general-gubernatorligi davri hududdagi aholi ijtimoiy hayotining murakkab va ko'p qirrali xarakterini belgilaydi. Bu davrda jamiyat bir tomondan yangilanish va boshqaruv tizimidagi islohotlar natijasida yangi imkoniyatlar va ijtimoiy rol o'zgarishlarini boshdan kechirgan, ikkinchi tomondan esa an'anaviy ijtimoiy institutlar va mahalliy odatlar o'z mavqeyini saqlab qolgan. Shu bilan birga, hududiy tafovutlar, ijtimoiy tabaqalanish va aholi qatlamlari o'rtasidagi farqlar ijtimoiy hayotning murakkab dinamikasini yuzaga keltirgan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki:

1. Yangi ma'muriy boshqaruv tizimi jamiyat tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan va ba'zi ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy mavqeyini oshirgan.
2. Ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kuchaygan, shahar va qishloq aholisi, mahalliy va ko'chirib keltirilgan aholi o'rtasida farqlar saqlanib qolgan.
3. Ta'lim va madaniy hayotdagi o'zgarishlar jamiyat tafakkurini kengaytirgan, yangi ziyolilar qatlamining shakllanishiga imkon yaratgan.
4. Mehnat faoliyati va kasbiy tuzilma sohalarida yangilanishlar aholi bandligi va ijtimoiy hayotning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.
5. Ijtimoiy moslashuv jarayonlari bosqichma-bosqich kechgan, hududiy va madaniy farqlar saqlangan.

Shu bilan, Turkiston general-gubernatorligi davri ijtimoiy tarixni chuqurroq o'rganish, hududdagi ijtimoiy institutlar, aholi hayoti va boshqaruv tizimi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunish uchun muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Bu davr keyingi ijtimoiy rivojlanish va integratsiya jarayonlari uchun mustahkam tarixiy zamin yaratgan.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Abdullayev, O. (2007). *Turkiston general-gubernatorligi tarixi: demografik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar*. Toshkent: Fan.
2. G'ulomov, T. (2010). *Markaziy Osiyoda demografik jarayonlar va ijtimoiy rivojlanish*. Toshkent: Sharq.
3. Qodirov, N. (2012). "Turkiston hududida migratsiya va aholining ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri" // *Tarixshunoslik jurnali*, №4, 34-48.
4. Rasulov, S. (2015). *Demografiya va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish: Turkiston tajribasi*. Toshkent: Akademiya.
5. Karimov, I. (2016). "Shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi demografik farqlar va iqtisodiy tizimga ta'siri" // *O'zbekiston tarixi va madaniyati*, №2, 12-26.
6. Akhmedov, F. (2018). *Demografik jarayonlar va iqtisodiy rivojlanish munosabatlari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Beisebayev, A. (2019). *Demographic Processes in Turkestan General-Governorship: Socio-Economic Implications*. Almaty: Eurasia Press.

8. Trofimov, P. (2005). *Ethnic Composition and Social Structure in Turkestan: Historical Analysis*. St. Petersburg: Nauka.
9. Саттаров А.М. XIX аср ўрталарида Туркистондаги демографик вазият//Ўтмишга назар. – Тошкент, 2025. 8-жилд, 4 сон – Б. 52-57.
10. Sattarov A.M. Maxmudov M.A., Azimov A.M., Qurbonova M.A//International Journal of Interdisciplinary Cultural Studies ISSN: 2327-008X (Print), ISSN: 2327-2554 (Online) Volume 20, Issue 2, 2025. – P.916-929

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **ISSUES OF ENHANCING STUDENTS' LEGAL KNOWLEDGE IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN**

**Djabbarova Yulduz Djumaniyazovna**

Senior Lecturer of the Department of Social Sciences,  
Pedagogy and Psychology  
Tashkent State Medical University

**Abstract.** This article examines the key issues and prospects for improving the level of legal knowledge among students in higher education institutions of Uzbekistan. Modern methods of teaching legal disciplines are analyzed, the main obstacles to the formation of professional competence of future specialists are identified, and practical recommendations for improving the quality of legal education are proposed. The study is based on the analysis of sociological data, regulatory legal acts of the education system of the Republic of Uzbekistan, as well as a comparative analysis of domestic and foreign educational practices.

**Keywords:** legal education, legal competence, higher education institution, pedagogical technologies, legal culture, professional training, Uzbekistan.

## **ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЮРИДИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА**

**Джаббарова Юлдуз Джуманиязовна**

старший преподаватель кафедры «Социальных наук, педагогики и психологии»  
Ташкентского Государственного Медицинского Университета

**Аннотация.** В статье рассматриваются основные проблемы и перспективы повышения уровня юридических знаний студентов в высших учебных заведениях Узбекистана. Анализируются современные методики преподавания юридических дисциплин, выявляются основные препятствия для формирования компетентности будущих специалистов, а также предлагаются практические рекомендации по улучшению качества юридического образования. В работе используются социологические данные, нормативно-правовые акты системы образования Республики Узбекистан, а также результаты сравнительного анализа зарубежных и отечественных образовательных практик.

**Ключевые слова:** юридическое образование, компетентность, высшее учебное заведение, педагогические технологии, правовая культура, профессиональная подготовка, Узбекистан.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N04>

Юридическое образование играет важнейшую роль в современной системе подготовки кадров, обеспечивая формирование высококвалифицированных специалистов, способных эффективно функционировать в правовой системе общества. В условиях трансформации общественных отношений и развития правового государства качество юридической подготовки становится приоритетным фактором устойчивого развития. В Республике Узбекистан за последние годы предпринимаются целенаправленные меры по совершенствованию образовательной сферы, в том числе по повышению качества юридического образования в высших учебных заведениях [1].

Несмотря на очевидное значение правовой подготовки, на практике наблюдается ряд проблем, препятствующих достижению высокого уровня юридических знаний у студентов. Среди них — недостаточность практико-ориентированных форм обучения, низкая правовая грамотность учащихся на начальных этапах, а также ограниченное применение современных педагогических технологий [8].

Цель настоящей статьи — выявить ключевые направления повышения юридических компетенций студентов вузов Узбекистана, проанализировать существующие проблемы и предложить пути их решения. Для достижения цели используются методы сравнительного анализа, обзора нормативно-правовой базы, педагогической диагностики и эмпирического исследования.

### 1. Понятие и структура юридических компетенций

Юридические знания — это совокупность представлений, понятий, основополагающих правовых норм, правил и принципов, которые позволяют студентам ориентироваться в правовой среде и применять правовые нормы на практике [2]. Компетентность студента-юриста включает как теоретическую подготовку, так и практические умения: анализ правовых ситуаций, применение норм права, участие в моделировании юридических процедур.

Компетенции классифицируются на следующие группы:

Общепрофессиональные компетенции — способность к логическому мышлению, анализу ситуаций, коммуникации.

Профессиональные юридические компетенции — знание отраслей права, умение применять правовые нормы.

Практические компетенции — навыки правоприменения, юридического делопроизводства, участия в судебных прениях.

Такое структурирование позволяет создавать индивидуальные образовательные траектории для студентов, ориентированные на их будущую профессиональную деятельность.

### 2. Современное состояние юридического образования в Узбекистане

В Узбекистане юридическое образование реализуется в большинстве классических университетов, а также в профильных юридических академиях и институтах. В последние годы правовая подготовка получила дополнительный импульс в рамках реформы образования, направленной на повышение качества подготовки специалистов [6].

В системе высшего образования внедрены государственные образовательные стандарты, ориентированные на компетентностный подход.

Однако, несмотря на нормативно-правовые рамки, ряд проблем остается актуальными:

Недостаточная связь теоретического обучения с практикой правоприменения.

Ограниченное использование цифровых образовательных ресурсов.

Недостаток практических занятий, тренингов и стажировок в реальных юридических организациях [10].

По данным социологического опроса студентов юридических факультетов, около 62% опрошенных считают, что практические навыки усваиваются менее эффективно, чем теоретические знания [7].

### 3. Проблемы формирования юридических знаний

Среди основных препятствий можно выделить:

#### 3.1 Теоретическая перегруженность

Учебные программы юридических дисциплин часто содержат большое количество сухих юридических терминов и понятий, что затрудняет их усвоение без привязки к практическим кейсам. Такая структура приводит к отсутствию мотивации и снижению интереса у студентов [11].

#### 3.2 Недостаточное применение активных методик обучения

Традиционные лекции и семинары по своей природе мало вовлекают студентов в процесс анализа правовых проблем. В настоящее время современные педагогические технологии — кейс-методы, ролевые игры, судебные симуляции — применяются недостаточно.

#### 3.3 Низкий уровень правовой культуры в среде студентов

Правовая культура студентов формируется не только в вузе, но и в обществе в целом. Недостаток правовых знаний на базовом уровне приводит к тому, что многие студенты приходят на юридический факультет без мотивации к глубокому изучению предметов.

#### 3.4 Ограниченные возможности стажировок

Стажировка является важным компонентом формирования профессиональных компетенций. Однако не все студенты получают равный доступ к качественным стажировкам в судах, прокуратуре, юридических службах государственных органов [9].

### 4. Пути повышения уровня юридических знаний

На основе анализа теории и практики можно предложить следующие направления:

#### 4.1 Внедрение проблемно-ориентированных методик

Проблемно-ориентированные методы обучения способствуют развитию аналитического мышления и навыков практического применения правовых норм. Это может быть анализ правовых кейсов, моделирование судебных процессов, работа в группах.

#### 4.2 Сотрудничество с практикующими юристами

Привлечение практикующих юристов к образовательному процессу — лекторами, консультантами, наставниками — позволяет студентам лучше понять специфику профессиональной деятельности.

#### 4.3 Использование цифровых образовательных платформ

Современные платформы (правовые базы данных, онлайн-симуляторы, интерактивные курсы) расширяют возможности студентов для самостоятельного изучения материала и развития навыков правоприменения.

#### 4.4 Развитие системы стажировок и практик

Создание партнерских программ с государственными органами, судами и юридическими компаниями поможет студентам получать практический опыт уже в процессе обучения.

#### 4.5 Формирование правовой культуры с ранних этапов

Рекомендуется внедрять элементы правового образования в средних школах и колледжах, чтобы будущие абитуриенты приходили в вуз с базовым уровнем правовых знаний [5].

#### 5. Сравнительный анализ зарубежного опыта

В странах с развитой юридической системой (например, Германия, США) большое внимание уделяется практическому компоненту обучения: стажировки, судовые клиники, юридические лаборатории. Судебная клиника — это студенческое юридическое бюро, где под руководством опытных юристов студенты помогают реальным клиентам [3]. Такие модели эффективно повышают правовую компетентность и мотивацию студентов.

В Узбекистане опыт студенческих юридических клиник начинает развиваться, однако требует институциональной поддержки со стороны вузов и государственных структур.

Юридическое образование как ключевой элемент системы подготовки квалифицированных специалистов требует постоянного совершенствования [4]. Анализ показывает, что для повышения уровня юридических знаний студентов в вузах Узбекистана необходимо:

Активнее внедрять современные педагогические технологии, ориентированные на практику.

Расширять сотрудничество с юридической практикой и правоприменительными органами [8].

Развивать систему стажировок, практик и судебных клиник.

Уделять внимание формированию правовой культуры в образовательной среде в целом.

Такие шаги способствуют не только повышению качества юридической подготовки, но и укреплению правового государства, которое является приоритетом современных реформ в Узбекистане.

#### Литература/References/Adabiyotlar:

1. Бозоров, А. М. (2019). Правовое образование в системе высшего образования Республики Узбекистан. — Ташкент: Фан.
2. Иванов, П. В. (2018). Компетентностный подход к обучению студентов-юристов. — Москва: Юрайт.
3. Николаев, С. И. (2017). Судебные клиники как элемент практической подготовки юристов. — Журнал юридического образования, № 3.
4. Петрова, Е. Н. (2020). Проблемы практической подготовки студентов-юристов. — Образование и право, № 4.
5. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» (2020). — Ташкент: Legislator.
6. Постановление Кабинета Министров РУ «О совершенствовании образовательных стандартов» (2021).
7. Собственные эмпирические данные автора (2024): опрос студентов юридических факультетов.
8. Djabbarova Yulduz Djumaniyazovna Bioethice in Uzbekistan:Laws and practice of mebical universities //Galaxy international Interdisciplinary Researchn journal. In Volume 13,Issue 9 September, 2025 ст.58-62.
9. Djabbarova Yulduz Djumaniyazovna. Tne legacy of Abu Ali Ibn Sina and Its impacf on modern medical scidnce and education in Uzbekistan. Edu Vision:Journal of Innovafions

- in Pedagogy and Educational Advancements. In Volume 1, Issue 09 September 2025. 197-203 стр.
10. Юлдуз Джаббарова. Интеграция правовых знаний в медицинское образование в Узбекистане: необходимость и перспективы. Спецвыпуск междисциплинарного электронного научного журнала «Общество и инновации» Том 6 № 9/S (2025): 107-114 стр.
  11. Y.Dj. Djabbarova. Pedagogical heritage of the jadids. Science and Innovation journal. Volume 4 Issue 2 February 2025. 151-154 p.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **IN THE FORMATION OF MUSEUMS AND TOURISM COMPETENCE OF SURKHANDARDO REGION: THE PLACE OF THE TERMIZ MUSEUM OF LOCAL STUDIES**

**Boytorayev Sirojiddin Usmon o'glu**

Teacher of the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

**Abstract.** This article covers the tourism potential of Surkhandarya region, its historical and cultural heritage, and the process of formation and development of the Termez Museum of Local Lore. The article presents analytical views on the cultural and political changes that occurred in Uzbekistan at the beginning of the 20th century, the expansion of local lore movements, and the establishment of a museum system based on scientific sources. In particular, the importance of rare exhibits found as a result of archaeological research in the Surkhandarya region by scientists such as G.V. Parfyonov, M.E. Masson, S.K. Kabanov in enriching the Termez Museum of Local Lore fund is emphasized. The article also analyzes the role of museum activities in the development of tourism in the region, preservation of historical memory, and spiritual education of the younger generation.

**Keywords:** Surkhandarya, Termez Museum of Local Lore, G.V. Parfyonov, M.E. Masson, S.K. Kabanov, archeology, cultural heritage, tourism potential, Hakim at-Termizi Mausoleum, Fayoztepa, Qoratepa, museology.

## **SURXONDARYO VILOYATI MUZEYLARI VA TURIZM SALOHIYATINING SHAKLLANISHIDA: TERMIZ O'LKASHUNOSLIK MUZEYINING O'RNI**

**Boyto'rayev Sirojiddin Usmon o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: [s.boyturayev@dtpi.uz](mailto:s.boyturayev@dtpi.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining turizm salohiyati, tarixiy-madaniy merosi hamda Termiz o'lkashunoslik muzeyining shakllanish va rivojlanish jarayoni yoritilgan. Maqolada XX asr boshlarida O'zbekiston hududida yuz bergan madaniy-siyosiy o'zgarishlar, o'lkashunoslik harakatlarining kengayishi va muzeylar tizimining barpo etilishi haqida ilmiy manbalar asosida tahliliy fikrlar keltirilgan. Ayniqsa, G.V. Parfyonov, M.E. Masson, S.K. Kabanov kabi olimlarning Surxondaryo hududidagi arxeologik izlanishlari natijasida topilgan nodir eksponatlarning Termiz o'lkashunoslik muzeyi fondini boyitishdagi ahamiyati ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada muzey faoliyatining viloyatda turizmni rivojlantirish, tarixiy xotirani asrash va yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashdagi o'ri tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Surxondaryo, Termiz o'lkashunoslik muzeyi, G.V. Parfyonov, M.E. Masson, S.K. Kabanov, arxeologiya, madaniy meros, turizm salohiyati, Hakim at-Termiziy maqbarasi, Fayoztepa, Qoratepa, muzeyshunoslik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N05>

**Kirish:** Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng janubiy qismi bo'lib, geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti, tarixiy-madaniy boyliklari bilan mamlakatimizda alohida o'rin egallaydi. Viloyat markaziy hududlardan uzoqda joylashgan bo'lishiga qaramay, u turizmning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Tog'li va tog' oldi hududlarda joylashgan rekreatsiya resurslari, qadimiy madaniy meros obidalari hamda arxeologik topilmalari bu yerning sayyohlik salohiyatini yanada oshiradi. Bugungi kunda viloyatda 561 dan ortiq madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan bo'lib, ularning aksariyati

Termiz shahri va uning atrofida joylashgan. Shuningdek, bu hudud islom va buddaviylik yodgorliklariga boyligi bilan xalqaro miqyosda tanilgan ayniqsa, Al Hakim at-Termiziy maqbarasi, Fayoztepa, Qoratepa kabi qadimiy yodgorliklar Janubiy va Sharqiy Osiyo davlatlaridan keluvchi ziyoratchilar va turistlar uchun muhim manzilga aylangan. Iqtisodchi olimlarning fikricha, 2010–2021-yillar oralig'ida viloyatda turizm sohasi korxonalari soni barqaror o'sish trendini ko'rsatgan. Shu bilan birga, uning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi hali past bo'lib, bu sohani rivojlantirish uchun yanada ko'proq e'tibor, investitsiya va infratuzilma zarurligini ko'rsatadi. Mahalliy tadqiqotchi A. Tursunovning ta'kidlashicha, "Surxondaryo viloyatida turizmni barqaror rivojlantirish uchun nafaqat infratuzilma, balki mahalliy aholining turizm madaniyatini oshirish, ekologik va etnoturizm yo'nalishlarini faol yo'lga qo'yish muhimdir". Hozirda viloyatda qator istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda jumladan, Boysun va Sariosiyo tumanlarida "Kichik Shveysariya" turizm zonalarini barpo etish ko'zda tutilgan[1].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Surxondaryo viloyatining turizm salohiyati va muzeylar tarixi masalasi mahalliy hamda respublika olimlari tomonidan turli aspektlarda o'rganib kelinmoqda. Tadqiqot obyekti bo'lgan Termiz o'lkashunoslik muzeyining shakllanishi va uning ilmiy fondini boyitishda arxeologik qazishmalarning o'rni beqiyosdir.

Muzey fondining shakllanishida G.V. Parfyonov, M.E. Masson va S.K. Kabanov kabi olimlarning tadqiqotlari fundamental ahamiyatga ega. Xususan, Dalvarzintepa, Fayoztepa va Kampirtepa kabi yodgorliklardan topilgan eksponatlar muzeyning ilmiy nufuzini belgilab bergan. O'zbekiston muzeylar tizimining shakllanishi va Surxondaryo o'lkashunoslik muzeyining 1933-yildagi tashkil etilish jarayoni ilmiy manbalarda tizimli yoritilgan. I. Botirovning ishlarida muzeyning 1933-yildan keyingi rivojlanish bosqichlari va fondning miqdoriy o'sishi (111 tadan 72 000 tagacha) tahlil qilingan. M. Muxamedova va S. Jo'rayevalarning tadqiqotlarida tarixiy shaharlardagi muzeylashtirilgan obyektlarning turistik salohiyati hamda janubiy hududlardagi ziyoratgohlarning (masalan, Al Hakim at-Termiziy) mahalliy aholi va sayyohlar hayotidagi o'rni ko'rsatib o'tilgan. A. Tursunov kabi tadqiqotchilar turizmni barqaror rivojlantirishda infratuzilma bilan birga mahalliy aholining turistik madaniyatini oshirish masalasini dolzarb deb hisoblaydilar.

Ushbu tadqiqotni yoritishda obyektivlik, tarixiy izchillik va tizimli tahlil tamoyillariga tayanildi. Maqolani yozishda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: Termiz o'lkashunoslik muzeyining turli davrlardagi (1933, 1950, 1992-yillar) faoliyati, eksponatlar soni va tashrif buyuruvchilar dinamikasi o'zaro qiyoslandi. Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurgan turistlar oqimi (2018-yildagi 85 mingdan 2022-yildagi 128 mingdan ortiqqa) va turizm eksporti hajmi bo'yicha ko'rsatkichlar raqamli ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Muzeyning tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lgan Termiz shahar kengashining 1934-yildagi buyruqlari va boshqa arxiv hujjatlariga asoslangan ma'lumotlar o'rganildi. Viloyatdagi 561 dan ortiq madaniy meros obyekti, muzeylar, mehmonxonalar va turistik axborot markazlari yaxlit bir tizim sifatida ko'rib chiqilib, ularning hududiy mahsulotdagi ulushi va rivojlanish istiqbollari baholandi.

**Muhokama va natijalar.** Surxondaryo viloyati bugungi kunda O'zbekistonning turizm sohasida yuksak salohiyatga ega hududlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Viloyatning tabiiy go'zalligi, shifobaxsh buloq suvlari, quyosh nuri bilan to'yingan mevalari, milliy taomlari va hunarmandlik buyumlari sayyohlar qalbida unutilmas taassurotlar qoldirmoqda. 2018-yilda viloyatga 85 ming sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 128 ming 300

nafar chet ellik va 593 ming mahalliy turistga yetdi. Turistlar oqimining ortishi zamonaviy mehmonxona, restoran va ko'ngilochar maskanlar sonining ko'payishiga, xizmat ko'rsatish sifatining yanada oshishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, turizm eksport hajmi 2021-yildagi 12,6 million dollardan 2022-yilda 21,6 million dollarga oshgani ham bu sohaning barqaror rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bugungi kunda viloyatda 70 ta mehmonxona, 185 ta oilaviy mehmon uylari, 8 ta xostel, 3 ta turistik agentlik, 5 ta turoperator, 15 ta turizm axborot markazi va 100 ta WI-FI nuqtasi faoliyat yuritmoqda. Bu esa turistlarga qulay sharoit yaratish va xizmat sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim omil bo'lmoqda. Shu o'rinda, muzeylarning turizmga tutgan o'rnini alohida ta'kidga loyiq xususan, 2001-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan Termiz arxeologiya muzeyi nafaqat Surxondaryo, balki butun O'zbekistonning eng yirik ilmiy-ma'rifiy markazlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, Termiz davlat muzey-qo'riqxonasi ham qadimiy yodgorliklarni asrab-avaylash, o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizda qabul qilinayotgan qonunlar, Prezident farmon va qarorlari doirasida so'nggi yillarda viloyatdagi muzeylar soni ham ortib, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. Bu esa Surxondaryo turizm salohiyatining yanada oshishiga, xalqaro miqyosda uning o'ziga xos tarixiy, madaniy va tabiiy qiyofasini targ'ib etishga xizmat qilmoqda[2].

XX asr boshlariga kelib, O'rta Osiyo hududlarida siyosiy va madaniy hayotda tub o'zgarishlar yuz berdi. 1917-yil inqilobidan so'ng milliy respublikalar tashkil etilishi, yangi madaniy siyosat yuritilishi natijasida o'lka tarixini o'rganish, xalq madaniyati va merosini saqlab qolish masalalari davlat miqyosida yo'lga qo'yildi. Shu davrda sobiq Turkiston o'lkasida birin-ketin o'lkashunoslik muzeylari tashkil etila boshladi. 1918-yilda Toshkentda O'rta Osiyo Davlat muzeyi (keyinchalik O'zbekiston Davlat Tarix muzeyi) ochildi. Bu tajriba asosida 1920–1930-yillarda hududiy muzeylar ham shakllana boshladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Surxondaryo o'lkashunoslik muzeyi 1933-yilda o'sha davrda Termizda faoliyat yuritgan ziyolilar tashabbusi bilan tashkil etilgan. Muzeyning dastlabki fondi viloyatdagi arxeologik qazishmalar natijasida topilgan qadimiy buyumlar, yozma manbalar, etnografik ashyolar va xalq amaliy san'atiga oid namunalar asosida shakllangan[3].

Arxeolog olimlar M.E. Masson, G.V. Parfyonov va S.K. Kabanovlarning Surxondaryo hududida olib borgan izlanishlari natijasida topilgan Dalvarzintepa, Fayoztepa, Kampirtepa kabi yodgorliklardan olingan topilmalar muzey fondini boyitdi. Ayniqsa buddizm davriga oid haykalchalar, tangalar, sopol idishlar va diniy marosim buyumlari muzeyning ilmiy nufuzini yanada oshirdi. Shu tariqa, Surxondaryo o'lkashunoslik muzeyi nafaqat voha tarixining guvohi bo'lgan moddiy-madaniy boyliklarni saqlab qolish, balki ularni ilmiy asosda o'rganish va targ'ib etishda ham muhim o'rin tutdi. Inson fikricha, bunday muzeylar xalqning o'z tarixiga hurmatini oshiruvchi, o'tmish bilan bugunni bog'lovchi ma'naviy ko'prikdir. Bugungi kunda muzey fondida minglab noyob eksponatlar saqlanmoqda. Ularning aksariyati Surxondaryo hududining qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lganligini isbotlovchi tarixiy dalil hisoblanadi[4].

Tarixiy manbalarga ko'ra, 1928-yil 26-iyunda Termiz shahridagi meteorologiya stansiyasi boshlig'i o'lkashunos olim Lelong tashabbusi bilan Termiz o'lkashunoslik to'garagi tashkil etiladi. Ushbu tashabbus Termiz shahri raykom sekretari Andreyev tomonidan ham to'liq qo'llab-quvvatlanadi. Lelong rahbarligida to'garak dasturi ishlab chiqilib, arxeologik tadqiqotlar, mahalliy tarixni o'rganish, topilmalarni tizimlashtirish bo'yicha keng ko'lamli

ishlar amalga oshirilgan. 1930-yillarga kelib, mazkur faoliyat yangi bosqichga ko'tarildi, 1932-yilda o'lkashunos olim G.V. Parfyonov Termiz o'lkashunoslik to'garagi ishlarini davom ettirib, Sherobod tumanida tumanlararo ko'chma ko'rgazmalar tashkil etdi. Bu ko'rgazmalar o'sha davrda nafaqat Surxondaryo, balki butun janubiy O'zbekiston tarixini o'rganish borasida muhim ahamiyat kasb etdi. Aynan shu ko'rgazmalar asosida 1932-yil 7-noyabrda Sherobod tuman o'lkashunoslik muzeyi tashkil etildi ushbu muzey qisqa muddat 1933-yil 7-sentyabrgacha faoliyat yuritgan bo'lsa-da, keyinchalik uning ilmiy-tashkiliy tajribasi asosida Termiz shahrida yangi muzey ochildi. 1933-yil 13-sentyabrda Termiz shahrida o'lkashunoslik muzeyi rasman tashkil etildi, bu jarayonda Parfyonovning xizmatlari beqiyos bo'ldi. U nafaqat muzeyni shakllantirish, balki uni moddiy-texnik baza bilan ta'minlash, ilmiy yo'nalishini belgilashda ham katta ishlarni amalga oshirgan. Parfyonov boshchiligidagi jamoa qisqa fursatda ishlarini poyoniga yetkazib, hatto Toshkentdan bir qancha noyob eksponatlarni Termizga olib keladi shu bilan birga, 1934-yil 1-yanvardan boshlab muzey "Surxondaryo tumanlararo davlat muzeyi" deb rasman qayd etiladi. Termiz shahar kengashining 1934-yil 2-yanvardagi buyrug'i bilan Parfyonov muzey direktori etib tayinlanadi, muzey qorovuli bo'lib Daydar Shixaliyev, ilmiy texnik xodim Georgiy Nikolayevich Maksimov, Yevdokiya Padchalenova esa qorovul bo'lib dastlab to'rt kishi faoliyat yuritgan. Muzey 1934-yil 1-may kuni o'z eshiklarini tomoshabinlarga ochadi shu yil may oyining oxiriga kelib, muzey hovlisida maktab o'quvchilari va xodimlar ishtirokida tirik burchak hayvonot xonasi tashkil etiladi. 1934-yil 7-iyungacha kelib, bu burchakda 41 turdagi hayvon saqlangan muzeyning tez sur'atlarda o'sib borishi yangi binoga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi shu sababli Termiz shahar ijro qo'mitasi tomonidan 1935-yil rejasiga muzey uchun yangi bino qurilishi kiritiladi. Xodimlarning mehnati e'tirof etilib, ularning ish haqi Xalq ta'limi xodimlariniki bilan tenglashtiriladi, bu esa o'sha davrda madaniy muassasalarga bo'lgan davlat e'tiborining yaqqol ifodasi edi[5].

Tarixiy kitoblarda qayd etilishicha, 1933-yilda muzey fondida atigi 111 ta eksponat mavjud bo'lgan bo'lsa, 1936-yilga kelib ularning soni 366 taga, 1971-yilda 48 798 taga, 1983-yilda 64 000 taga, 1993-yilda esa 72 000 taga yetgan. Ushbu raqamlar Surxondaryo o'lkashunoslik muzeyining ilmiy va madaniy salohiyatining yildan-yilga ortib borayotganini yaqqol ko'rsatadi. Muzey fondining boyib borishi tabiiyki, tomoshabinlar sonining ham oshishiga sabab bo'ldi. 1933-yilda muzeyga 6 834 kishi tashrif buyurgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1950-yilda 23 000 kishiga, 1992-yilda esa 80 132 kishiga yetgan, shuningdek 1933-yilda 84 marta ekskursiya tashkil etilgan bo'lsa, 1950-yilda 316 marta, 1970-yilda 542 marta, 1992-yilda esa 1 510 marta ekskursiyalar o'tkazilgani diqqatga sazovordir[6].

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, Surxondaryo viloyati nafaqat tabiiy go'zalligi, balki boy tarixiy-madaniy merosi bilan ham yurtimiz turizm xaritasida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, Termiz o'lkashunoslik muzeyining tashkil topishi mintaqa tarixini chuqur o'rganish, qadimiy yodgorliklarni asrab-avaylash va ularni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim burilish nuqtasiga aylandi. Muzey faoliyati orqali Surxondaryo o'zining ko'hna sivilizatsiya markazi sifatidagi nufuzini tikladi, xalqning o'tmishiga bo'lgan hurmatini mustahkamladi bugungi kunda muzeylar turizmni rivojlantirish, madaniy merosni targ'ib etish va xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirishning eng samarali vositalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois Termiz o'lkashunoslik muzeyi Surxondaryo tarixining yuragi, milliy o'zligimizni ifoda etuvchi ma'naviy maskan sifatida qadrlanadi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Muxamedova Munisa. “ O`zbekiston tarixiy shaharlaridagi muzeylashtirilgan obektlarda turizmning shakllanishi va rivojlanish istiqbollari” – T. “O`zbekiston” NMIU: 2023-yil 160-bet.
2. Juraeva S. “O`zbekistonning janubiy hududlaridagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o`rni” - Monografiya. Toshkent: “O`zbekiston savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi” 2021yil 352 bet.
3. “O`zbekiston muzeylari tarixi”- Toshkent: 1982-yil.
4. “O`zbekiston arxeologiyasi tarixi” – Toshkent: 1979-yil.
5. Y.Altiboyev va S.Toshtemirova. “Mustaqillik yillarida yurtimizdagi muzeylar faoliyati” (Surxondaryo misolida) – Chirchiq davlat pedagogika universiteti: 2024-yil.
6. I.Botirov. “Surxondaryo viloyati o`lkashunoslik muzeyi tarixi” - O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. “Fan nashriyoti”, Toshkent: 2011-yil.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **SCIENTIFIC NEED AND CONCEPTUAL BASIS OF DIGITIZATION OF MEDIEVAL SOURCES**

**Qobulova Gulzoda Makhsud**

Abu Rayhon Beruniy

Urgench State University

Basic doctoral student in the specialty of History of Uzbekistan

**Abstract.** This scientific article analyzes the scientific necessity, theoretical and methodological foundations of the process of digitizing medieval written sources, and the role of modern information technologies in source studies. The results of the study reveal the importance of the digitization process in preserving historical heritage, introducing it into scientific circulation, and ensuring global scientific integration. The study scientifically substantiates the role of multispectral imaging (MSI), XML-TEI standards, and artificial intelligence (AI) technologies in the preservation of manuscripts. The author evaluates the digitization process as a strategic step in creating a “digital twin” of the source and introducing it into global scientific circulation.

**Keywords:** digitization, source studies, medieval manuscripts, cultural heritage, digital humanities, information technologies, metadata, electronic archives, codiology, MSI, XML-TEI, artificial intelligence.

## **O’RTA ASR MANBALARINI RAQAMLASHTIRISHNING ILMIY ZARURATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI**

**Qobulova Gulzoda Maxsud qizi**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranti

E-mail: [qobulova.g@urdu.uz](mailto:qobulova.g@urdu.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada o‘rta asr yozma manbalarini raqamlashtirish jarayonining ilmiy zarurati, nazariy-metodologik asoslari hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining manbashunoslik tadqiqotlaridagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari raqamlashtirish jarayonining tarixiy merosni saqlash, ilmiy muomalaga kiritish hamda global ilmiy integratsiyani ta‘minlashdagi ahamiyatini ochib beradi. Tadqiqotda qo‘lyozmalarni asrashda multispektral tasvirlash (MSI), XML-TEI standartlari va sun‘iy intellekt (AI) texnologiyalarining o‘rni ilmiy asoslab berilgan. Muallif raqamlashtirish jarayonini manbaning “raqamli egizagi”ni yaratish va uni global ilmiy muomalaga kiritishning strategik bosqichi sifatida baholaydi.

**Kalit so‘zlar:** raqamlashtirish, manbashunoslik, o‘rta asr qo‘lyozmalari, madaniy meros, digital humanities, axborot texnologiyalari, metadata, elektron arxivlar, kodiologiya, MSI, XML-TEI, sun‘iy intellekt.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N06>

**Kirish.** XXI asrda tarixiy merosni saqlash va ilmiy muomalaga kiritish masalasi global ilmiy hamjamiyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Ayniqsa, o‘rta asr yozma manbalari insoniyat sivilizatsiyasining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy taraqqiyotini aks ettiruvchi noyob tarixiy hujjatlar sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega. Zamonaviy tarixshunoslikda manbalar bilan ishlashda an‘anaviy usullar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalardan foydalanish dolzarb vazifaga aylandi [1; P.367-378]. Tadqiqotchilar

ta'kidlashicha, "raqamlashtirish madaniy merosni saqlashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, u tarixiy manbalarning uzoq muddatli saqlanishini hamda keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etilishini ta'minlaydi [2; P.406]".

O'rta asr qo'lyozmalari ko'pincha noyob nusxalarda mavjud bo'lib, ularning jismoniy eskirishi, tabiiy omillar ta'sirida zararlanishi va yo'qolib ketish xavfi mavjud. Shu sababli ularni raqamlashtirish nafaqat ilmiy, balki madaniy va sivilizatsion ahamiyatga ham ega. O'rta asr manbalari o'ta nozik va tashqi ta'sirlarga chidamsiz moddiy substratga (pergament, qog'oz, ipak) ega. Vaqt o'tishi bilan ularning tabiiy emirilishi (biodegradatsiya) qaytarilmas jarayondir. Shu sababli, preservatsiya (asrash) va aksessibililik (foydalanish imkoniyati) muammolarini hal etish dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – o'rta asr manbalarini raqamlashtirishning ilmiy zarurati, konseptual asoslari va amaliy natijalarini tahlil qilishdan iborat. Ilmiy zarurat quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Paleografik tahlil imkoniyatlari: Yuqori aniqlikdagi (HD) skanerlash orqali inson ko'zi ilg'amaydigan matn qatlamlarini (palimpsestlar) o'rganish.
2. Global integratsiya: Milliy merosni jahon skriptoriylariga (masalan, Europeana yoki World Digital Library) integratsiya qilish.

**Metodologiya.** O'rta asr qo'lyozmalari va tarixiy hujjatlari milliy o'zlikni anglash hamda jahon sivilizatsiyasi merosining poydevori hisoblanadi. Bugungi raqamli transformatsiya davrida ushbu manbalarni asrash va tadqiq etish yangi bosqichga ko'tarildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Tarixiy-tahliliy metod orqali o'rta asr yozma manbalarini saqlash va o'rganish jarayonining tarixiy evolyutsiyasi o'rganiladi.
2. Komparativ metodda turli davlatlarning raqamlashtirish loyihalari tajribasi solishtirildi hamda ularning samaradorligi baholanadi.
3. Digital manbashunoslik metodlarida metadata yaratish, OCR texnologiyalari, raqamli arxivlash tizimlari tahlil qilinadi.
4. Tizimli yondashuv metodida raqamlashtirish jarayoni madaniy merosni saqlash, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi.

Tadqiqotda zamonaviy ilmiy konsepsiyalar, xususan, digital humanities nazariyasi metodologik asos sifatida qo'llanildi. Konseptual asos sifatida "Raqamli restavratsiya" metodologiyasi olindi, bunda manbaning asl holatiga zarar yetkazmagan holda uning virtual rekonstruksiya yaratiladi. Berry ta'kidlashicha, raqamli gumanitar fanlar tarixiy manbalarni o'rganish metodologiyasini tubdan o'zgartiradi [3; P.10-12]. O'rta asr manbalarini raqamlashtirish jarayoni ko'p bosqichli bo'lib, u nafaqat texnik operatsiyalarni, balki chuqur kodiologik ekspertizani ham talab etadi. Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuvlar ham qo'llanildi.

Multispektral vizualizatsiya (MSI) metodi matnning turli to'lqin uzunliklaridagi (infraqizil va ultrabinafsha) nurlar ostida tasvirga olishga asoslanadi. Vaqt o'tishi bilan o'chib ketgan siyohlarni, palimpsest (yuqib tashlangan eski matn) qatlamlarini va qog'ozning kimyoviy tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlash. Inson ko'zi ilg'amaydigan 700 dan 1000 nanometrgacha bo'lgan diapazonda matnni qayta tiklash imkonini beradi.

XML-TEI (Text Encoding Initiative) standartlashtirish raqamlashtirish faqat "rasmga olish" bilan cheklanib qolmasligi uchun matnni semantik markirovka qilish metodi qo'llaniladi. Har bir sahifa, xatboshi va kishi ismlari maxsus teglar (tags) yordamida kodlanadi. Masalan:

<persName> Alisher Navoiy </persName>. Bu usul kompyuterga matnning shunchaki nuqtalar to'plami (piksel) emas, balki mantiqiy birlik ekanligini anglatadi, bu esa global qidiruv tizimlarida manbaning topilishini ta'minlaydi.

Sun'iy intellektga asoslangan OCR (Optical Character Recognition) metodi o'rta asr arab va fors yozuvlari (nasta'liq, suls, kofiy) o'zining ligaturali (harflarning bog'lanish) xususiyati bilan farqlanadi [4, b.448]. Tadqiqotda "Deep Learning" (chuqur o'rganish) va "Convolutional Neural Networks" (CNN) algoritmlari orqali qo'lyozma xatlarini tanib olish metodi taklif etiladi. Har bir so'z va harf alohida tanib olinib, raqamli matn formatiga (Plain text) o'tkaziladi.

Raqamli kodiologik ekspertiza metodida manbaning fizik holatini (qog'oz turi, suv belgilari — filigranlar, muqova tuzilishi) raqamli makrosuratlar orqali tahlil qilinadi. Bu metod orqali qo'lyozmaning yaratilgan sanasi va hududini 95 % aniqlik bilan belgilash mumkin. Raqamlashtirish manbaning "ontologik xavfsizligini" ta'minlaydi. Ya'ni, moddiy nusxa yo'qolgan taqdirda ham, uning barcha ilmiy parametrlari raqamli bulutlarda (cloud storage) saqlanib qoladi. Asosiy muammo — O'zbekiston fondlaridagi millionlab sahifalarni bunday yuqori aniqlikda ishlash uchun katta hisoblash quvvati (Supercomputing) va mutaxassis-kadrlar (Digital Humanists) yetishmasligidir. O'rta asr manbalarini raqamlashtirish — bu shunchaki arxiv ishi emas, balki milliy merosni global raqamli iqtisodiyot va ilm-fan zanjiriga ulovchi strategik zaruratdir.

**Adabiyotlar tahlili.** O'rta asr manbalarini raqamlashtirish masalasi zamonaviy ilm-fanda ikki yo'nalishda ya'ni klassik manbashunoslik va axborot texnologiyalari kesishmasida o'rganilmoqda.

G'arbiy Yevropa va AQShda "Raqamli gumanitar fanlar" (Digital Humanities) yo'nalishi doirasida o'rta asr matnlari bilan ishlashning metodologik asoslari P. Sahle va M. Driscoll kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. P. Sahle o'zining "Digital Scholarly Editions" konsepsiyasida raqamli nusxa shunchaki tasvir emas, balki "transmutation" (shakl o'zgarishi) jarayoni ekanligini ta'kidlaydi [5; P. 19-39]. Olim digital editions (raqamli tahrirlar) tushunchasini, ularning tarixiy matnlar bilan ishlashdagi metodologiyasini, hamda DH doirasida skriptlar va manbalar bilan qanday intellektual ishlash talab etilishini yoritadi. U digital tahrirni "critical representation of historical documents or texts" deb belgilaydi va bu termin o'rta asr matnlari tahlili va joylashuvi uchun digital metodlarni nazariy asoslarini beradi. Shuningdek, TEI (Text Encoding Initiative) xalqaro konsorsiumi tomonidan ishlab chiqilgan standartlar qo'lyozma matnlarini XML formatida kodlashtirishning ilmiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda [6; P.460]. Bu usul matnning nafaqat mazmunini, balki uning paleografik xususiyatlarini (siyoh rangi, qog'oz nuqsonlari, yozuv uslubi) ham raqamli formatda saqlashga imkon beradi.

#### 1. Sharq qo'lyozmalari tahlilidagi o'ziga xosliklar

Islom sivilizatsiyasi va o'rta asr Sharq manbalarini raqamlashtirishda Y. Sarkis [7; P.412], A. Gacek va F. Déroche [8; P.352] kabi kodiolog-olimlarining asarlari metodologik ahamiyatga ega. Ayniqsa, Adam Gacekning "The Arabic Manuscript Tradition" asarida keltirilgan terminologik tizim qo'lyozmalarni raqamli tavsiflashda (metadata yaratishda) asosiy manba [9; P.152] hisoblanadi. F. Déroche islomiy qo'lyozmalar kodiologiyasining nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqqan yetakchi olimlardan biridir [10; P.284].

O'zbekistonlik olimlardan A. O'rinboyev, Sh. Munavvarov va M. Hasaniylar qo'lyozmalarni klassik usulda tavsiflash maktabini yaratgan. Ushbu olimlar tomonidan ishlab chiqilgan an'anaviy tavsiflash modeli qo'lyozmalarning kodikologik, paleografik va matniy

xususiyatlarini izchil yoritishga asoslangan bo'lib, bugungi kunda ham ilmiy tavsiflash va raqamlashtirish jarayonlari uchun muhim metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi. A. O'rinboyev qo'lyozmalarni klassik tavsiflashning asosiy komponentlari — asar nomi, muallif, xat turi, qog'oz, siyoh, kolofon va muqova tavsifini tizimli ravishda ishlab chiqqan [11; B.186]. Sh. Munavvarov qo'lyozmalarni klassik manbashunoslik va kodikologiya tamoyillari asosida tavsiflash usullarini ishlab chiqqan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida shakllangan tavsiflash maktabini ilmiy jihatdan asoslab beradi [12; B.204]. M. Hasaniy O'zbekistonda qo'lyozmalar bilan ishlashning klassik tavsiflash maktabi shakllanishini tarixiy-ilmiy jihatdan tahlil qiladi va O'rinboyev hamda Munavvarov maktabining davomchiligi masalasini yoritadi [13; B.172]. So'nggi yillarda raqamli transformatsiya masalalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti tadqiqotchilari tomonidan o'rganilmoqda [14; B.312]. Biroq, mahalliy tadqiqotlarda ko'proq “texnik saqlash” (scanning) masalasiga urg'u berilib, “raqamli filologik tahlil” va “avtomatlashtirilgan qidiruv tizimlari” (OCR for Arabic scripts) masalalari hali yetarli darajada nazariy asoslanmagan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rta asr manbalarini raqamlashtirishda “tasvirdan — ma'lumotga” (from image to data) o'tish konsepsiyasi bugungi kunning asosiy ilmiy talabidir. Bu esa manbaning nafaqat vizual nusxasini, balki uning semantik qidiruvga mos modelini yaratishni taqozo etadi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijasida o'rta asr manbalarini raqamlashtirishning konseptual modeli ishlab chiqildi va uning samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali tasdiqlandi:

1. Ma'lumotlarni qayta tiklashning samaradorligi (MSI natijalari)

Multispektral tasvirlash metodini qo'llash orqali namuna sifatida olingan XIV asrga oid, namlikdan zarar ko'rgan qo'lyozma sahifalarining 85 % qismidagi matnlar qayta tiklandi. Spektral tahlilda siyoh tarkibidagi temir-gall (iron-gall) elementlarining nurni qaytarish koeffitsiyenti o'rganilganda, 940 nm to'lqin uzunligida matnning kontrastligi 40 % ga oshishi aniqlandi. Bu esa inson ko'zi ilg'amaydigan hoshiya qaydlarini o'qish imkonini berdi.

2. Raqamli paleografik klassifikatsiya

Sun'iy intellekt (CNN algoritmi) yordamida o'rta asr xattotlik uslublarini tanib olish bo'yicha quyidagi aniqlik darajalariga erishildi: Kufiy xati: 92 % aniqlik; Nasta'liq va Suls xatlari: 88 % aniqlik (ligaturalar murakkabligi sababli). Bu natija manbalarni avtomatik kataloglashtirish va ularning davriy identifikatsiyasini amalga oshirish vaqtini 70 % ga qisqartiradi.

3. Semantik markirovka (XML-TEI samaradorligi)

Manbalarni TEI standartida kodlash natijasida “aqlli qidiruv” tizimi shakllantirildi. Bu tizim orqali nafaqat so'z bo'yicha, balki, tarixiy shaxslar (antroponimlar); geografik joy nomlari (toponimlar); sana va voqealar (xronologiya) bo'yicha kross-platfomalik qidiruv imkoniyati yaratildi.

**Muhokama.** Olingan natijalar o'rta asr manbalarini raqamlashtirish shunchaki texnik jarayon emas, balki yangi gumanitar metodologiya ekanligini ko'rsatadi. An'anaviy kutubxonashunoslikda manbani saqlash uning foydalanishini cheklashni (konservatsiya) anglatadi. Biroq, raqamli model bu paradoksni hal qiladi. Manba “yopiq fond” jismonan saqlangani holda, uning “Raqamli egizagi” (Digital Twin) global ilmiy muomalada bo'ladi [15; P.425-438]. Bu o'z navbatida, asl nusxaning mexanik yemirilish xavfini nolga tushiradi. Muhokama qilinishi lozim bo'lgan asosiy jihat — bu sun'iy intellektning matnni tanib olishdagi xatoliklari hisoblanadi. O'rta asr qo'lyozmalaridagi diakritik belgilar (nuqtalar) va

harakatlarning yo‘qligi algoritmik tahlilda qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun, natijalarni “Human-in-the-loop” (inson nazoratidagi tizim) tamoyili asosida filolog-manbashunos tomonidan verifikatsiya qilish strategik zarurat bo‘lib qolmoqda. Raqamlashtirilgan manbalarning ochiq kirish (Open Access) tizimiga qo‘yilishi intellektual mulk va milliy xavfsizlik masalalarini keltirib chiqaradi. Muhokama shuni ko‘rsatadiki, o‘rta asr manbalari “Umuminsoniy meros” maqomida bo‘lishi bilan birga, ularning yuqori aniqlikdagi metama‘lumotlari davlat nazoratidagi yagona reyestrda saqlanishi shart. Tadqiqotimiz shuni isbotladiki, MSI, TEI va AI texnologiyalarining sintezi o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda “Katta ma‘lumotlar” (Big Data) davrini boshlab beradi. Bu esa o‘z navbatida, subyektiv yondashuvlardan xoli bo‘lgan miqdoriy va sifat tahlillarini amalga oshirish imkonini yaratadi.

**Xulosa.** O‘rta asr manbalarini raqamlashtirishning ilmiy zarurati va konseptual asoslarini tadqiq etish natijasida bir qator xulosalarga kelindi. Raqamlashtirish shunchaki texnik nusxa ko‘chirish emas, balki manbani “Raqamli obyekt” sifatida qayta kashf etish jarayonidir. MSI va AI texnologiyalari an’anaviy manbashunoslikda yechilmagan (o‘chgan matnlarni o‘qish, anonim mualliflarni aniqlash) muammolarni hal etishga qodir. XML-TEI standartlarining qo‘llanilishi milliy merosimizni jahon raqamli kutubxonalari bilan semantik jihatdan bog‘lash imkonini beradi. Bu esa o‘zbek davlatchiligi tarixiga oid manbalarning xalqaro miqyosda qidiruvga berilishini ta‘minlaydi. Raqamli nusxalar yaratilishi “axborot yo‘qolishi” xavfini minimallashtiradi va kelajak avlodlar uchun manbalarning “invaziv bo‘lmagan” (asliga zarar yetkazmagan holda) tadqiqot usullarini taqdim etadi.

Tavsiyalar (Recommendations):

1. Milliy standartni ishlab chiqish: O‘rta asr qo‘lyozmalarini raqamlashtirish bo‘yicha yagona davlat standarti va metama‘lumotlar formatini (masalan, UzTEI) tasdiqlash.
2. Kadrlar tayyorlash: Oliy ta‘lim tizimida “Raqamli gumanitar fanlar” (Digital Humanities) yo‘nalishini joriy etish orqali ham dasturlashni, ham manbashunoslikni biladigan mutaxassislarni shakllantirish.
3. Elektron platforma yaratish: O‘zbekistondagi barcha qo‘lyozma fondlarining yagona raqamli reyestri va ochiq ma‘lumotlar bazasini (Open Data Portal) ishga tushirish.

O‘rta asr manbalarini raqamlashtirish zamonaviy sharqshunoslik va tarixshunoslikning nafaqat texnik ehtiyoji, balki metodologik zaruratidir. Ushbu jarayon an’anaviy tadqiqot chegaralarini kengaytirib, ilmiy bilim olish usullarini tubdan o‘zgartirish potensialiga ega. Taklif etilgan konseptual model – raqamli saqlash, metama‘lumotlar tizimi, yaxlit ma‘lumotlar bazasi, ochiqlik va fanlararo integratsiya asosida – ushbu muhim ilmiy zaruratni amalga oshirish yo‘lini ko‘rsatadi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Suter S., et al. Digital Imaging of Ancient Manuscripts: Beyond Visual Appearance // Journal of Cultural Heritage. — 2014. — Vol. 15. — № 4. — P. 367–378.
2. Smith M. E., Lobo J. Digital Humanities. — London: Excelic Press LLC, 2020. — 406 p.
3. Berry, David M. (ed.). Understanding Digital Humanities. — London: Palgrave Macmillan, 2012. 10-12-p.
4. Warwick C., Terras M., Nyhan J. Digital Humanities in Practice. — London: Facet Publishing, 2012. — 448 b.
5. Sahle P. What is a Scholarly Digital Edition? // Digital Scholarly Editing: Theories and Practices / Ed. by M. J. Driscoll, E. Pierazzo. — Cambridge: Open Book Publishers, 2016. — P. 19–39.

6. Driscoll M. J., Pierazzo E. (eds.) *Digital Scholarly Editing: Theories and Practices*. — Cambridge: Open Book Publishers, 2016. — 460 p.
7. Sarkis Y. *Catalogue of the Arabic Manuscripts in the Library of the Patriarchate of Jerusalem*. — Jerusalem, 1929. — 412 p.
8. Déroche F. *Islamic Codicology: An Introduction to the Study of Manuscripts in Arabic Script*. — London: Al-Furqān Islamic Heritage Foundation, 2006. — 352 p.
9. Gacek A. *The Arabic Manuscript Tradition: A Glossary of Technical Terms*. — Leiden: Brill, 2001. — 152 p.
10. Déroche F. *Qur'ans of the Umayyads: A First Overview*. — Leiden: Brill, 2014. — 284 p.
11. O'rinboyev A. *Sharq qo'lyozmalarini tavsiflash masalalari*. — Toshkent: Fan, 1978. — 186 b.
12. Munavvarov Sh. *O'rta asr Sharq qo'lyozmalarining ilmiy tavsifi*. — Toshkent: Fan, 1985. — 204 b.
13. Hasaniy M. *O'zbekistonda sharq qo'lyozmalarini o'rganish va tavsiflash an'analari*. — Toshkent: Fan, 1992. — 172 b.
14. O'rinboyev A. *Manbashunoslik asoslari*. — Toshkent, 2002. — 312 b.
15. Terras M. *Digital Curiosities: Resource Creation Via Amateur Digitisation // Literary and Linguistic Computing*. — 2011. — Vol. 25. — № 4. — P. 425–438.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **SOCIAL PROTECTION ISSUES IN CONFUCIAN EDUCATION**

**Kudratillayev Parviz**

National University of Uzbekistan

Faculty of History History (countries and areas)

3rd year student

**Scientific supervisor:** DSc, associate professor B. Khaynazarov

**Abstract.** This article provides a scientific and theoretical analysis of the views on ensuring the social well-being of members of society in Confucianism. It reveals the role of moral norms, humanism, mutual respect, and social duty in the formation of protective mechanisms in society in Confucian philosophy. The teachings interpret the ideas of the harmony of state governance and personal responsibility, care for the needy segments of the population as important social principles. It also highlights the importance of family values and moral education in ensuring social stability. The article aims to substantiate the concept of social protection in Confucianism and its theoretical significance for modern society.

**Keywords:** Moral philosophy, Spring and Autumn period, Xiao, Long Yu, Ren, Han Dynasty, Emperor.

---

## **KONFUTSIYLIK TA'LIMOTIDA IJTIMOYIY HIMOYA MASALALARI**

**Qudratillayev Parviz**

O'zbekiston Milliy universiteti

Tarix fakulteti Tarix(mamlakatlar va yo'nalishlar)

3-kurs talabasi

E-mail: [parvizqudratillayev@gmail.com](mailto:parvizqudratillayev@gmail.com)

**Ilmiy rahbar:** DSc, dotsent B.Xaynazarov

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Konfutsiylik ta'limotida jamiyat a'zolarining ijtimoiy farovonligini ta'minlashga oid qarashlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Unda Konfutsiy falsafasida axloqiy me'yorlar, insonparvarlik, o'zaro hurmat va ijtimoiy burch tushunchalarining jamiyatdagi himoya mexanizmlarini shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi. Ta'limotda davlat boshqaruvi va shaxsiy mas'uliyat uyg'unligi, aholining ehtiyojmand qatlamlariga g'amxo'rlik qilish g'oyalari muhim ijtimoiy tamoyil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, oilaviy qadriyatlar va axloqiy tarbiyaning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Maqola Konfutsiylik ta'limotining ijtimoiy himoya konsepsiyasi va uning zamonaviy jamiyat uchun nazariy ahamiyatini asoslashga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Axloqiy falsafa, Bahor va Kuz davri, Syao, Lun Yu, Ren, Xan sulolasi, imperator.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N07>

**Kirish.** Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat barqarorligini ta'minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda nafaqat zamonaviy ijtimoiy siyosat yondashuvlari, balki qadimiy falsafiy ta'limotlarning ijtimoiy hayotga oid qarashlarini o'rganish ham dolzarb hisoblanadi. Ana shunday ta'limotlardan biri bo'lgan Konfutsiylik Sharq falsafasi tarixida jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarni axloqiy mezonlar asosida tartibga solishga qaratilgan g'oyalari bilan ajralib turadi.

Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy himoya tushunchasi bevosita axloq, burch va mas'uliyat bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Unda jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlari, davlat boshqaruvi, oilaviy qadriyatlar hamda ehtiyojmand qatlamlarga g'amxo'rlik qilish masalalari muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, insonparvarlik, adolat va mehr-shafqat tamoyillari orqali ijtimoiy barqarorlikka erishish g'oyasi ta'limotning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu bois Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy himoya masalalarini ilmiy tahlil qilish, uning nazariy asoslarini ochib berish va zamonaviy ijtimoiy munosabatlar bilan qiyosiy o'rganish mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Konfutsiy haqida juda ko'plab tadqiqotchilar o'z izlanishlarini olib borishgan. Masalan shunday olimlardan biri Malyavin V. hisoblanadi. U o'zining "Konfutsiy" nomli risolasida uning ta'limoti va ijtimoiy hayotdagi o'rni, boshqa jihatlar kerakli manbalar orqali ochib beriladi. Malyavinning fikricha Konfutsiy ta'limoti xalq orasida juda tez ommalashadi va qirol saroyiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Bu davr tarixini o'rgangan yana bir yirik olim Wilson T., konfutsiy ta'limotini sharq uyg'onishing bo'g'ini sifatida baholaydi. Uning taxminlarida ko'ra Qadimgi Xitoyda juda ko'p saroy ayonlari va davlat xizmatchilari aynan Konfutsiy ta'limotidan to'la xabardor bo'lgan shaxslardan tayinlangan ekan. Bu esa xalqqa va imperatorga sodiqlik bilan xizmat qilishni ta'minlagan.

Konfutsiy haqida yana bir qator olimlar Perelomov L., Shryok J., Yang L., Chen J., Nivison D. kabi bir qator olimlar ham o'z tadqiqotlarini olib borishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy himoya masalalari ilmiy-nazariy va falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi mavzuni umumiy va konseptual darajada yoritishga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagi asosiy metodlardan foydalaniladi.

Birinchi, ilmiy-nazariy metod asosida Konfutsiylik ta'limotining asosiy g'oyalari va tushunchalari tahlil qilinadi. Bu metod Konfutsiy va uning izdoshlari qarashlarida ijtimoiy mas'uliyat, jamiyat va davlatning zaif qatlamlarga munosabati kabi masalalarni ochib berishga xizmat qiladi.

Ikkinchi, tarixiy-tahliliy metod orqali Konfutsiylik ta'limotining shakllanish davri, qadimgi Xitoy jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy himoya g'oyalarining tarixiy ildizlari o'rganiladi. Ushbu metod ijtimoiy himoya masalalarining o'sha davr ijtimoiy-siyosiy sharoit bilan bog'liqligini aniqlash imkonini beradi.

Uchinchi, mantiqiy-tahliliy metod yordamida Konfutsiylikdagi asosiy axloqiy g'oyalari — insonparvarlik, adolat, burch va oila mas'uliyati tushunchalari izchil tahlil qilinib, ularning ijtimoiy himoya bilan bog'liqligi asoslab beriladi.

**Tahlil va natijalar.** Qadimgi Xitoy ijtimoiy-siyosiy falsafasining shakllanishida ulkan iz qoldirgan mutafakkir Konfutsiy (miloddan avvalgi 551-479-yillar) konfutsiychilik oqimining asoschisi va yirik davlat arbobi hisoblanadi. Uning davlatni boshqarish va jamiyatni tartibga solish borasidagi qarashlari shogirdlari tomonidan jamlangan "Lun yuy" (Suhbatlar va mulohazalar) asarida o'z aksini topgan bo'lib, ushbu ta'limot asosida davlatning o'ziga xos patriarxal-paternalistik modeli yotadi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, davlat yaxlit bir katta oila sifatida tasvirlanadi: unda hukmdor, ya'ni "Osmon o'g'li" mutlaq ota maqomida bo'lsa, fuqarolar uning farzandlari sifatida talqin qilinadi. Bu tizimda kichiklarning kattalarga so'zsiz bo'ysunishi va ijtimoiy tabaqalanish tabiiy tartib sifatida qabul qilinadi. Konfutsiy davlat boshqaruvini

aristokratik qatlam qo'lida bo'lishini ma'qullagan holda, oddiy xalqni siyosiy jarayonlardan uzoq tutish tarafdori edi, biroq uning nazdidagi boshqaruvchilar faqat nasl-nasabi bilan emas, balki yuksak fazilatlar va bilimi bilan ajralib turuvchi "olijyanob kishilar" bo'lishi lozim edi. Shifokor kabi jamiyat illatlarini davolashga intilgan faylasuf o'sha davrning siyosiy tartibsizliklarini tanqid qilsa-da, har doim murosas va barqarorlikni inqiloblardan ustun qo'yan. Uning boshqaruv falsafasi kuch ishlatishga emas, balki axloqiy o'rnatilgan asoslanadi. Konfutsiyning fikricha, agar hukmdor o'zini ezgu tutsa, xalq ham o'z-o'zidan yaxshilikka intiladi. U bu holatni tabiat hodisasiga qiyoslab, yuqori tabaqa vakillarining axloqini shamolga, quyi tabaqanikini esa maysaga o'xshatadi shamol qay tomonga essa, maysalar ham o'sha tomonga egiladi. Shu bois, sadoqat, keksalarga ehtirom va tartib-intizomga itoat qilish konfutsiychilikda fuqaroning eng asosiy ma'naviy burchi bo'lib qolgan.

Konfutsiyning siyosiy-etik qarashlari asosan davlat boshqaruvini barqarorlashtirish hamda jamiyatning turli tabaqalari o'rtasida ichki totuvlikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mutafakkir faqatgina ma'naviy jihatlardan cheklanib qolmay, aholi o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik va moddiy tabaqalanishni yumshatish muhimligini ham uqtirgan. Uning ta'kidlashicha, moddiy ne'matlar adolatli taqsimlangan jamiyatda yo'qchilik bo'lmaydi, o'zaro hamjihatlik bor joyda esa davlat zaiflashmaydi. Agar yuqori tabaqa va quyi qatlam o'rtasida barqarorlik bo'lsa, hokimiyatga nisbatan tahdidlar o'z-o'zidan yo'qoladi. Isyon va taxt uchun kurashlarni qat'iy rad etgan faylasuf fuqarolar totuvligini har qanday siyosiy o'zgarishdan ustun qo'yan. Shuningdek, u tashqi agressiya va saltanatlarining o'zaro urushlariga nisbatan ham keskin salbiy munosabatda bo'lgan. Konfutsiy Xitoy hukmdorlarining gegemonlik intilishlarini inkor etmagan bo'lsa-da, itoat etishni istamaydigan xalqlarni qurol kuchi bilan emas, balki "ma'rifat va yuksak axloq" vositasida bo'ysundirishni taklif qilgan. Uning fikricha, ma'naviy ustunlik orqali erishilgan g'alaba haqiqiy tinchlikni ta'minlaydi. Biroq, keyingi asrlarda uning ushbu insonparvar g'oyalardan ko'plab hukmdorlar o'z bosqinchilik siyosatlarini oqlash va boshqa xalqlarni bo'ysundirishda ma'naviy niqob sifatida foydalanishgan.

Konfutsiy ta'limotida ijtimoiy himoya zamonaviy ma'nodagi institutsional tizim sifatida emas, balki axloqiy mas'uliyat shaklida talqin etiladi. "Ren" (insonparvarlik) tushunchasi jamiyatdagi har bir shaxsga nisbatan mehr-shafqat va g'amxo'rlikni ifodalaydi. Ayniqsa, kambag'allar, keksalar va yetimlarga e'tibor berish hukmdorning muhim vazifasi sifatida ko'riladi. Konfutsiy fikricha, davlat rahbari xalq uchun namuna bo'lishi lozim. Agar hukmdor adolatli va rahmdil bo'lsa, jamiyatda ijtimoiy tenglik va barqarorlik qaror topadi[2]. Soliq yukining haddan tashqari oshirilmasligi, ocharchilik davrida aholiga yordam ko'rsatish kabi masalalar Konfutsiy ta'limotida bevosita ijtimoiy himoya shakllari sifatida qaraladi.

Konfutsiy fikricha oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. "Syao" (ota-onaga sadoqat) tamoyili keksalarni ijtimoiy himoyalashning muhim vazifasi sifatida namoyon bo'ladi[3]. Bu jarayonlar birlashib oila a'zolarining bir-biriga g'amxo'rliqi, jamiyat miqyosida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga katta hissa qo'shadi. Konfutsiylik Xan sulolasi davridan boshlab davlat mafkurasi darajasiga ko'tarildi. Natijada, ijtimoiy siyosatda axloqiy boshqaruv, xalq farovonligini ta'minlash va adolat tamoyillari muhim o'rin egalladi. Bu holat Xitoyda uzoq asrlar davomida ijtimoiy himoya g'oyalarining shakllanishiga zamin yaratdi. Konfutsiy ta'limotida ijtimoiy himoya masalalari bevosita tizimli siyosat shaklida bo'lmasa-da, axloqiy-ijtimoiy tamoyillar orqali chuqur asoslangan[4]. Insonparvarlik, adolat va mas'uliyat g'oyalari

jamiyatdagi zaif qatlamlarni himoyalashning muhim falsafiy negizini tashkil etadi. Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy himoya masalalari qadimgi Xitoy jamiyatining ijtimoiy va axloqiy tartibiga asoslangan holda shakllangan[5].

Ushbu ta'limotda jamiyat barqarorligi va tartibi har bir shaxsning o'z o'rnini bilishi, burchini ado etishi hamda o'zaro hurmat va mas'uliyat tamoyillariga amal qilishi bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Konfutsiylikda ijtimoiy himoya g'oyalari asosan oila va jamoa doirasida namoyon bo'lib, ota-onaga hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga g'amxo'rlik qilish muhim axloqiy me'yor sifatida qaraladi[6]. Hukmdor va amaldorlarning xalq oldidagi mas'uliyati, kambag'al va muhtoj qatlamlarga e'tibor qaratish jamiyatdagi muvozanatni saqlash vositasi sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan, Konfutsiylik ta'limotidagi ijtimoiy himoya qarashlari qadimgi Xitoy ijtimoiy hayotining ajralmas qismi bo'lib, u jamiyatni axloqiy tamoyillar asosida boshqarish va tartibga solishga qaratilgan tarixiy-falsafiy qarashlarning muhim namunasi hisoblanadi[7].

**Xulosa.** Xulosa sifatida aytish mumkinki, Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy tartib va o'zaro mas'uliyat masalalari qadimgi Xitoyning an'anaviy axloqiy qarashlari zaminida talqin etiladi. Bu ta'limotda jamiyatning mustahkamligi shaxslarning burchga sodiqligi, o'z mavqeyini anglab ish tutishi hamda o'zaro hurmatni saqlashi bilan izohlanadi. Konfutsiylik qarashlarida g'amxo'rlik va himoya tushunchalari avvalo oilaviy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ota-onaga itoat, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlik, yoshi ulug'larga ehtirom va nochorlarga mehr ko'rsatish jamiyat hayotini muvozanatda ushlab turuvchi axloqiy mezonlar sifatida baholanadi. Hokimiyat egalari esa xalqning turmushi va farovonligi uchun mas'ul bo'lgan shaxslar deb qaraladi.

Shunday qilib, Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy himoya alohida qoida yoki qonunlar majmui sifatida emas, balki axloqiy tartib va an'anaviy munosabatlar tizimi orqali ifodalangan bo'lib, u qadimgi Xitoy jamiyatining ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan tarixiy-falsafiy qarashlar majmuasini tashkil etadi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Конфуций. Лунь-юй // Древнекитайская философия: Собрание текстов. – Москва: 1972. – С. 363.
2. Малявин В.В. Конфуций. М. 1992. Москва: 1972. – С. 231.
3. Переломов Л. С. Конфуций. Лунь юй. Москва:, 1998. – С. 245.
4. Духовная культура Китая. Мифология. Религия. – М.: Восточная литература РАН, 2007. – С. 118.
5. On Sacred Grounds: Culture, Society, Politics and the Formation of the Cult of Confucius / Ed. by T.A. Wilson. Harvard, 2002. – С. 108.
6. Shryok J.R. The Origin and Development of the State Cult of Confucius. N.Y., 1966. – С. 121.
7. Allan S. Songs of Suns: Myths and Totemism in Early China. 1961, – P. 314.
8. Wilson T.A. The Ritual Formation of Confucian Orthodoxy and Descendants of the Sage // JAS. 1996. – P. 55.

**08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES**

**Received:** 30 January 2026

**Accepted:** 15 February 2026

**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

**NEW INSTRUMENTS OF PREVENTIVE REGULATION OF PUBLIC PROCUREMENT IN UZBEKISTAN: INSTITUTIONAL AND LEGAL INNOVATIONS**

**Yuldasheva Nadira Viktorovna**

Doctor of Philosophy (PhD) in Economic

Associate Professor of the

Budget accounting and treasury

Tashkent State the University of Economics

E-mail: [nadira3266@gmail.com](mailto:nadira3266@gmail.com)

<http://www.orcid.org/0000-0002-5994-6787>

**Abstract.** The article examines institutional and legal innovations of preventive regulation in public procurement in the Republic of Uzbekistan introduced by Presidential Decree N 259. The current practice of public procurement regulation is analyzed, and the limitations of the reactive control model focused on ex-post detection of violations are identified. Particular attention is paid to the development of ex-ante and risk-oriented mechanisms, the shift of regulatory focus toward the planning and preparation stages of procurement, as well as the introduction of a new competitive method — the request for proposals. The study concludes that the implemented reforms create institutional prerequisites for improving efficiency, competitiveness, and performance of public procurement and highlight the need for further development of preventive regulatory instruments.

**Keywords:** public procurement; preventive regulation; risk-oriented approach; ex-ante mechanisms; institutional reforms; competitive environment; request for proposals; efficiency of public expenditures; value for money.

**НОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПРЕВЕНТИВНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК В УЗБЕКИСТАНЕ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ПРАВОВЫЕ НОВАЦИИ**

**Юлдашева Надира Викторовна**

доктор философии (PhD) по экономическим наукам

доцент кафедры бюджетного учета и казначейства

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В статье рассмотрены институциональные и правовые новации превентивного регулирования государственных закупок в Республике Узбекистан, закреплённые в Указе Президента Республики Узбекистан УП-259. Проанализирована действующая практика регулирования государственных закупок и выявлены ограничения контрольно-реактивной модели, ориентированной на последующее выявление нарушений. Особое внимание уделено развитию ex-ante и риск-ориентированных механизмов, смещению регуляторного акцента на стадии планирования и подготовки закупок, а также внедрению нового конкурентного способа — запроса предложений. По результатам исследования сделаны выводы о формировании институциональных предпосылок для повышения эффективности, конкурентности и результативности государственных закупок и необходимости дальнейшего развития превентивных инструментов регулирования.

**Ключевые слова:** государственные закупки; превентивное регулирование; риск-ориентированный подход; ex-ante механизмы; институциональные реформы; конкурентная среда; запрос предложений; эффективность государственных расходов; value for money.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N08>

**Введение.** В современных условиях система государственных закупок Республики Узбекистан занимает одно из центральных мест в процессе реформирования механизмов управления государственными финансами и реализации бюджетной политики. Указанная сфера характеризуется высокой степенью нормативной динамики, что выражается в последовательном принятии указов и постановлений Президента Республики Узбекистан, решений Кабинета Министров, а также ведомственных и методических нормативных правовых актов, направленных на совершенствование правовых и институциональных основ функционирования системы государственных закупок. Данные процессы свидетельствуют о формировании комплексного подхода к регулированию закупочной деятельности, ориентированного на повышение эффективности, транспарентности и устойчивости использования государственных ресурсов.

В рамках проводимых реформ особую значимость приобретает развитие новых направлений регулирования, включая внедрение зелёных государственных закупок как инструмента достижения целей устойчивого социально-экономического развития и повышения результативности государственных расходов. Согласно оценкам международных финансовых организаций, государственные закупки выступают важнейшим механизмом государственной политики, посредством которого обеспечивается не только экономическая эффективность (value for money), но и реализация долгосрочных структурных и экологических приоритетов. В этой связи формирование нормативно-правовых и институциональных условий для интеграции экологических и инновационных критериев в закупочный процесс рассматривается как объективная необходимость и соответствует современным глобальным тенденциям развития систем государственных закупок.

Концептуальные ориентиры реформирования системы государственных закупок нашли отражение в программных установках Президента Республики Узбекистан, в которых акцент делается на обеспечении эффективного, целевого и прозрачного использования бюджетных средств, а также на переходе от преимущественно контрольно-реактивных механизмов к превентивным и риск-ориентированным инструментам регулирования. Указ Президента Республики Узбекистан УП-259 институционализировал данные подходы, заложив правовые основы для дальнейшей модернизации закупочной системы, включая развитие цифровых инструментов, усиление профилактики нарушений и повышение ответственности участников закупочного цикла.

Вместе с тем результаты практической реализации действующих механизмов государственного регулирования в сфере закупок указывают на сохранение ряда системных проблем. Счётная палата Республики Узбекистан на регулярной основе представляет Парламенту отчёты о результатах контрольной деятельности, в том числе по итогам проведения государственных закупок за соответствующий отчётный период, в которых выявляются недостатки, связанные с планированием закупок, соблюдением

установленных процедур, качеством исполнения договоров и достижением показателей эффективности. Указанные обстоятельства обуславливают необходимость дальнейшего развития и научного осмысления превентивных инструментов регулирования, а также определяют актуальность исследования институциональных и правовых новаций, закреплённых в УП-259, в контексте формирования современной результат-ориентированной модели государственных закупок.

**Методология исследования.** Методологическую основу исследования составляет качественный институциональный дизайн, основанный на комплексном сочетании правового, институционального и экономического подходов. В рамках работы применялись методы формально-юридического анализа и системного толкования для изучения правовых новаций, закреплённых в Указе Президента Республики Узбекистан УП-259 и сопутствующих нормативных правовых актах, регулирующих сферу государственных закупок. Институциональный подход использовался для выявления трансформации регуляторной модели — от контрольно-реактивных механизмов к превентивным и риск-ориентированным инструментам регулирования на различных стадиях закупочного цикла. Сравнительный анализ позволил соотнести национальные реформы с международными стандартами и рекомендациями, разработанными OECD, Всемирным банком и Transparency International.

**Обзор литературы.** В современной научной литературе превентивное регулирование государственных закупок рассматривается как ключевой элемент трансформации традиционных моделей государственного контроля, ориентированных преимущественно на выявление нарушений *post factum*. Усиление сложности закупочных процедур, рост фискальных рисков, а также расширение стратегических функций государственных закупок обусловили смещение исследовательского фокуса в сторону *ex-ante* механизмов регулирования, направленных на предупреждение нарушений, снижение неопределённости и формирование предсказуемой институциональной среды. В рамках данного подхода превентивное регулирование интерпретируется не как совокупность изолированных процедур, а как институционально встроенная система правовых, организационных и информационных инструментов, обеспечивающих управление рисками на всех стадиях закупочного цикла. Это обусловило формирование междисциплинарного научного дискурса, объединяющего положения теории государственного управления, институциональной экономики, публичных финансов и антикоррупционной политики, что нашло отражение в работах международных организаций и ведущих исследователей в области государственных закупок.

В научных и аналитических работах международных организаций и ведущих исследователей превентивное регулирование государственных закупок рассматривается как ключевой элемент современной модели институционального управления закупочной деятельностью. Так, в документах Всемирного банка превентивное регулирование трактуется как система *ex-ante* инструментов, ориентированных на выявление и минимизацию рисков на ранних стадиях закупочного цикла [1]. При этом особое внимание уделяется принципу *fit-for-purpose*, предполагающему адаптацию процедур государственных закупок к целям, масштабу,

сложности и рисковому профилю конкретных проектов. В рамках данного подхода акцент смещается с формального соблюдения процедурных требований на достижение измеримых результатов и повышение эффективности использования государственных средств

Сходная логика прослеживается в рекомендациях Организации экономического сотрудничества и развития, где превентивное регулирование государственных закупок интерпретируется как совокупность институциональных и процедурных механизмов, обеспечивающих предсказуемость, транспарентность и подотчётность закупочных процессов. По мнению экспертов ОЭСР, именно данные характеристики позволяют предупреждать нарушения до их фактического возникновения и формировать устойчивые доверительные отношения между государством и участниками рынка. В данном контексте государственные закупки рассматриваются как неотъемлемый элемент архитектуры государственного управления, в рамках которого качество институционального дизайна напрямую влияет на уровень эффективности и добросовестности закупочной системы [2].

Теоретическое обоснование превентивного подхода находит отражение в концепции качества государственного управления, разработанной Б. Ротстайном [3]. В его работах подчёркивается, что доверие к государственным институтам формируется прежде всего через беспристрастность и предсказуемость применения правил, а не посредством санкционных и репрессивных механизмов. С точки зрения данного подхода превентивное регулирование выступает как способность институтов выстраивать стабильные и понятные процедуры, минимизирующие пространство для оппортунистического поведения и тем самым снижающие вероятность нарушений ещё до их проявления

В эмпирических исследованиях М. Бауэр и М. Фазекаша превентивное регулирование государственных закупок раскрывается через категорию *ex-ante* прозрачности. Авторы исходят из того, что раскрытие информации на стадиях планирования и объявления закупок усиливает конкурентную среду, снижает вероятность манипуляций и ограничивает коррупционные риски ещё до заключения договоров. В отличие от исключительно *ex-post* контрольных механизмов, *ex-ante* прозрачность, по их мнению, обладает выраженным профилактическим эффектом и способствует институциональному оздоровлению закупочной системы [4].

Многокритериальный характер превентивного регулирования государственных закупок подчёркивается в работах С. Л. Шунера, который рассматривает закупочную систему как сложный институциональный механизм, требующий одновременного обеспечения эффективности, справедливости, добросовестности, конкуренции и достижения *value for money* [5]. В рамках данного подхода предотвращение нарушений достигается не столько посредством последующего контроля, сколько через корректный дизайн правил, процедур и стимулов, изначально ограничивающих возможности недобросовестного поведения участников закупочного процесса.

Системное видение превентивного регулирования представлено и в работах К. В. Тая, который трактует государственные закупки как элемент целостной системы управления, в рамках которой правовые нормы, институциональные структуры и управленческие инструменты находятся в тесной взаимосвязи [6]. С точки зрения

данного подхода предупреждение неэффективности и злоупотреблений возможно лишь при комплексном воздействии на все стадии закупочного цикла — от планирования и выбора процедур до исполнения и мониторинга контрактных обязательств.

В совокупности рассмотренные подходы позволяют сделать вывод о том, что превентивное регулирование государственных закупок в современной научной литературе рассматривается не как набор отдельных контрольных мер, а как институционально встроенная, многоуровневая система управления рисками, ориентированная на предупреждение нарушений, повышение доверия и обеспечение устойчивой эффективности закупочной деятельности.

Как показал анализ научных и международных подходов, закреплённых в документах Всемирного банка, ОЭСР и работах ведущих исследователей, ключевыми элементами превентивного регулирования выступают риск-ориентированность, ex-ante прозрачность, институциональная предсказуемость и многокритериальная оценка эффективности, что получило нормативное закрепление в Указе Президента Республики Узбекистан УП-259.

**Анализ и результаты.** Анализ действующей практики регулирования государственных закупок в Республике Узбекистан показывает, что до принятия Указа Президента Республики Узбекистан УП-259 в системе преобладала контрольно-реактивная модель, ориентированная преимущественно на выявление нарушений по итогам заключения и исполнения договоров. Согласно обобщённым данным ежегодных отчётов Счётной палаты Республики Узбекистан, значительная доля выявляемых нарушений (более половины от общего числа) приходилась на стадии исполнения договоров и последующего финансового контроля, что свидетельствовало о недостаточной эффективности механизмов раннего предупреждения рисков.

Эмпирический анализ материалов контрольных мероприятий за последние годы позволяет констатировать устойчивость повторяющихся нарушений. В частности, в отчётах контролирующих органов систематически фиксируются случаи необоснованного завышения начальной стоимости закупок, дробления лотов, а также формального применения конкурентных процедур. По оценкам контрольных органов, до 20–30 % проверенных закупочных процедур содержали нарушения, связанные с этапом планирования и обоснования потребности, что указывает на структурные проблемы именно на ранних стадиях закупочного цикла. При этом последующее выявление нарушений не всегда сопровождалось снижением их повторяемости в последующие периоды.


Принятие УП-259 ознаменовало переход к превентивной и риск-ориентированной модели регулирования, что выразилось в институциональном усилении ex-ante механизмов.



**Рис.1 Новые целевые показатели, предусмотренный УП-259[7]**


Достижение целевых ориентиров, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан УП-259, включая повышение эффективности использования бюджетных средств, усиление конкурентности закупочных процедур, снижение уровня нарушений и формирование устойчивой системы государственного финансового контроля, объективно требует пересмотра традиционных подходов к регулированию закупочной деятельности. Реализация данных целей невозможна исключительно за счёт усиления последующего контроля и санкционных мер, поскольку они не устраняют первопричины нарушений и не обеспечивают устойчивого снижения рисков. В этой связи нормативная логика УП-259 ориентирована на смещение регуляторного фокуса в сторону превентивных инструментов и раннего управления рисками, интегрированных в закупочный цикл. В рамках новой регуляторной логики акцент смещается на стадии планирования и подготовки закупок, на которые, по оценкам международных финансовых организаций, приходится до 70 % потенциальных закупочных рисков.

Введение риск-индикаторов, расширение аналитического использования цифровых платформ и повышение требований к обоснованию закупочной документации направлены на сокращение доли проблемных процедур ещё до принятия финансовых обязательств.




**Рис. 2. Изменение отдельных механизмов закупочной процедуры в соответствии с УП-259[7]**

Введение нового конкурентного способа государственных закупок — запроса предложений, предусмотренного Указом Президента Республики Узбекистан УП-259, направлено на развитие конкурентной среды и повышение качества закупочных решений в условиях перехода к превентивной и результат-ориентированной модели регулирования. Данный механизм ориентирован на многокритериальную оценку заявок, при которой наряду с ценой учитываются качественные, технические и функциональные характеристики предложений, что позволяет минимизировать риски формального выбора наименьшей цены и повысить соответствие закупаемых товаров, работ и услуг реальным потребностям заказчика. С институциональной точки зрения запрос предложений расширяет возможности участия поставщиков, предлагающих альтернативные и инновационные решения, стимулирует конкуренцию по качеству и способствует реализации принципа *value for money*. Ожидаемая эффективность применения данного способа закупки выражается в повышении качества договоров, снижении числа последующих изменений договорных условий и укреплении доверия между государством и участниками рынка.



**Рис. 3. Запрос предложений: цель внедрения и сфера применения[7].**

Процесс осуществления запроса предложений в системе государственных закупок выстраивается как последовательная процедура, ориентированная на обеспечение конкуренции, прозрачности и сопоставимости предложений участников.



**Рис. 4. Процесс осуществления закупок посредством «Запроса предложений» [7].**

Первые результаты внедрения превентивных инструментов, предусмотренных УП-259, позволяют говорить о качественном изменении структуры выявляемых нарушений. Аналитические материалы свидетельствуют о постепенном снижении доли грубых процедурных нарушений и смещении контрольного фокуса в сторону оценки экономической обоснованности и эффективности закупочных решений. Так, по предварительным оценкам, количество нарушений, выявляемых на стадии исполнения

договоров, имеет тенденцию к сокращению, тогда как доля предупреждённых рисков на этапе планирования демонстрирует устойчивый рост.

Таблица 1

### Трансформация механизмов регулирования государственных закупок в Республике Узбекистан

(в контексте институциональных и правовых новаций УП-259)

Критерии	До принятия УП-259	После принятия УП-259
<b>Модель регулирования</b>	Преимущественно контрольно-реактивная, ориентированная на выявление нарушений post factum	Превентивная и риск-ориентированная модель, направленная на предупреждение нарушений
<b>Фокус контроля</b>	Последующий контроль исполнения договоров	Усиление ex-ante контроля на стадиях планирования и выбора процедур
<b>Подход к управлению рисками</b>	Фрагментарный, без системной оценки рисков	Институционализация риск-ориентированного подхода и использование риск-индикаторов
<b>Роль государственного контроля</b>	Фиксация нарушений и применение санкций	Интеграция контроля в управленческий цикл государственных закупок
<b>Планирование закупок</b>	Формальный характер, ограниченное обоснование потребности	Повышенные требования к обоснованию закупочной потребности и стоимости
<b>Прозрачность процедур</b>	Преобладание ex-post раскрытия информации	Расширение ex-ante прозрачности на стадии подготовки и объявления закупок
<b>Ответственность заказчиков</b>	Смещена на стадию исполнения договоров	Усилена на ранних стадиях закупочного цикла
<b>Использование цифровых инструментов</b>	Преимущественно регистрационно-процедурное	Аналитическое использование данных для мониторинга и превенции нарушений
<b>Подход к эффективности</b>	Оценка соответствия процедурам	Ориентация на результат и достижение value for money
<b>Институциональная логика</b>	Контроль как самостоятельная функция	Контроль как элемент институционального дизайна и управления

**Выводы.** В совокупности полученные результаты подтверждают, что институциональные и правовые новации, закреплённые в УП-259, создают предпосылки для снижения фискальных потерь, повышения конкурентности закупок и роста эффективности использования бюджетных средств. Вместе с тем количественный эффект внедрения превентивных механизмов в значительной степени будет зависеть от дальнейшего развития методического сопровождения, качества риск-аналитики и уровня институциональной компетентности заказчиков. Это позволяет рассматривать УП-259 как основу для долгосрочной трансформации системы государственных закупок, ориентированной не на фиксацию нарушений, а на их системное предупреждение.

Проведённое исследование позволяет сделать вывод о том, что институциональные и правовые новации, закреплённые в Указе Президента Республики Узбекистан УП-259, отражают качественный переход от контрольно-реактивной модели регулирования государственных закупок к превентивной и риск-ориентированной системе, ориентированной на управление рисками на ранних стадиях закупочного цикла. Смещение регуляторного акцента на этапы планирования и подготовки закупок, на которые, по оценкам международных финансовых организаций, приходится основная доля потенциальных закупочных рисков, создаёт предпосылки для повышения эффективности использования бюджетных средств и снижения повторяемости системных нарушений.

Установлено, что развитие ex-ante механизмов регулирования, включая усиление требований к обоснованию закупочной потребности, внедрение риск-индикаторов и аналитическое использование цифровых платформ, способствует трансформации государственного контроля из инструмента последующего реагирования в элемент управленческого цикла, направленного на предупреждение неэффективных решений до принятия бюджетных обязательств. Особую роль в данной модели играет внедрение нового конкурентного способа закупки — запроса предложений, который обеспечивает многокритериальную оценку заявок, расширяет реальную конкуренцию и способствует реализации принципа *value for money*.

В совокупности результаты исследования подтверждают, что реализация положений УП-259 формирует институциональные предпосылки для создания более прозрачной, устойчивой и результат-ориентированной системы государственных закупок. Вместе с тем достижение заявленных целей в долгосрочной перспективе будет зависеть от качества практической имплементации превентивных инструментов, уровня институциональной компетентности заказчиков и дальнейшего развития методического и аналитического сопровождения закупочной деятельности, что определяет направления последующих научных исследований и прикладных разработок в данной сфере.

#### Литература/References/Adabiyotlar:

1. Procurement Framework. Washington, DC: World Bank Group. <https://www.worldbank.org/en/what-we-do/project-procurement/framework>
2. Recommendation of the Council on Public Procurement. Paris: OECD Publishing, 2015. <https://legalinstruments.oecd.org/en/instruments/OECD-LEGAL-0411>
3. Rothstein, B. The Quality of Government: Corruption, Social Trust, and Inequality in International Perspective. Chicago: University of Chicago Press, 2011.
4. Bauhr, M., Fazekas, M. Lights on the shadows of public procurement: Transparency as an antidote to corruption. *Governance*, 2020, Vol. 33(3), pp. 495–523.
5. Schooner, S. L. *Objectives for a System of Government Contract Law*. Public Procurement Law Review, 2002.
6. Thai, K. V. Public Procurement Re-examined. *Journal of Public Procurement*, Vol. 1, No. 1, 2001.
7. Указ Президента Республики Узбекистан от 26 декабря 2025 года, УП-259 «Об очередных мерах по обеспечению конкурентной среды и прозрачности в системе государственных закупок»

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES**

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

**MAHALLA AS THE HISTORICAL HERITAGE OF UZBEK SOCIETY, THE MAIN FOUNDATION OF PEACE AND PROSPERITY IN THE COUNTRY**

**Saifnazarov Ismail Saifnazarovich**

Professor of the Tashkent state university of economics,  
Doctor of Sciences in Philosophy (DSc)

**Abstract.** The article analyzes the strategic importance of the mahalla institution in the development of society based on the address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people. The mahalla is interpreted as an important social institution that forms social capital, strengthens national unity, and ensures state stability. The initiative to declare 2026 the “Year of Mahalla Development and Enhancement of Society” is assessed as a new stage aimed at further strengthening the mahalla system, reducing poverty, developing human capital, and educating young people based on national and universal values. Also, the project “My Mahalla – My Pride” is considered as an effective model for increasing civic activity and educating students in the spirit of patriotism. In conclusion, the mahalla is an important foundation of sustainable development, social cohesion, and modernization of society.

**Keywords:** mahalla, social capital, development of society, youth education, patriotism, human capital.

**MAHALLA – O‘ZBEK JAMIYATINING TARIXIY MEROSI, MAMLAKAT TINCHLIGI VA RAVNAQINING ASOSIY POYDEVORI**

**Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,  
falsafa fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqqa yo‘llagan murojaatnomasi asosida mahalla institutining jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Mahalla ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi, milliy birdamlikni mustahkamlovchi va davlat barqarorligini ta‘minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida talqin etiladi. 2026-yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilish tashabbusi mahalla tizimini yanada mustahkamlash, kambag‘allikni qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish va yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga qaratilgan yangi bosqich sifatida baholanadi. Shuningdek, “Mening mahallam – mening faxrim” loyihasi talabalarning fuqarolik faolligini oshirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samarali modeli sifatida ko‘rib chiqiladi. Xulosa qilib aytganda, mahalla barqaror rivojlanish, ijtimoiy hamjihatlik va jamiyat modernizatsiyasining muhim poydevori hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** mahalla, ijtimoiy kapital, jamiyat taraqqiyoti, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik, inson kapitali.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N09>

**Kirish.** Bugungi global o‘zgarishlar va jamiyat modernizatsiyasi sharoitida ijtimoiy barqarorlik, milliy birdamlik va fuqarolik hamjihatligini ta‘minlaydigan institutlarni chuqur o‘rganish dolzarb vazifaga aylanmoqda. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida mahalla instituti ana shunday asosiy tayanch bo‘g‘in sifatida qaralmoqda. Mahalla nafaqat tarixiy-madaniy

meros, balki zamonaviy davlat boshqaruvi, ijtimoiy himoya, tarbiya va jamoatchilik nazorati tizimining muhim qismi hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va xalqqa yo'llagan murojaatnomasida mahalla institutiga alohida e'tibor qaratilishi, uni jamiyat rivojlanishining strategik markazi sifatida talqin etilishi ushbu mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Ayniqsa, 2026-yilni "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilish tashabbusi mahallani davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Bu holat mahalla institutini ijtimoiy kapitalni shakllantirish, yoshlar tarbiyasi, kambag'allikni qisqartirish va inson kapitalini rivojlantirish nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilishni taqozo etadi.

**Adabiyotlar sharhi va metodologiya.** Mahalla institutining ijtimoiy-falsafiy mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni masalasi milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. I.Saifnazarov, F.Saifnazarova, M.Quronov, N.Gafurova, O.Topildiyev, D.Meliboyeva, F.Yuldasheva, R.O'rinboyev kabi O'zbekistonlik olimlar mahallani fuqarolik jamiyatining muhim instituti, ijtimoiy hamjihatlik va milliy qadriyatlarni saqlash mexanizmi sifatida talqin qiladilar. Ayniqsa, davlat va jamiyat munosabatlarida mahallaning o'rni, uning ijtimoiy nazorat, tarbiya, ma'naviy muhitni shakllantirishdagi ahamiyatiga bag'ishlangan ishlar alohida ahamiyatga ega.

Xorijiy tadqiqotlarda, jumladan D.Fane, R.Daniels, M.Trebilcock, D.Abrahamsonlarning ishlarida mahalla instituti ijtimoiy kapital, jamoaviy identifikatsiya va lokal o'zini o'zi boshqarish tizimi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ijtimoiy kapital nazariyasi va kommunitarizm konsepsiyasi doirasida mahallaning o'zaro ishonch, hamkorlik va jamoaviy mas'uliyatni shakllantirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuvga asoslanib, ijtimoiy-falsafiy tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish va interpretatsiya usullarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, maqolada davlat hujjatlari, strategik dasturlar va amaliy tajribalar tahlili qo'llanildi. Metodologik jihatdan mahalla instituti jamiyatning mikroijtimoiy modeli sifatida ko'rib chiqilib, uning tarbiya, ijtimoiy himoya va fuqarolik faolligini shakllantirishdagi roli kompleks yondashuv asosida o'rganildi.

**Natijalar va muhokama.** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va mamlakatimiz xalqiga yo'llagan murojaatnomasi mamlakat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, jamiyat birligi va davlat siyosatining ustuvorliklarini belgilab berdi [1]. Ushbu murojaatnomada mahalla institutiga alohida urg'u berilishi, uning ijtimoiy kapitalni shakllantirish va milliy birdamlikni mustahkamlashdagi beqiyos o'rnini yana bir bor tasdiqladi. Prezidentning nutqi mahallani nafaqat ma'muriy birlik, balki O'zbekistonning betakror taraqqiyot modelining markaziy bo'g'ini sifatida qabul qilishga qaratilgan strategik yondashuvni aks ettiradi. Prezidentimizning 2026-yilni "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilish taklifi mahalla institutiga bo'lgan davlat e'tiborining yangi bosqichiga ishora qiladi [1]. Bu nafaqat mahalla tizimini yanada mustahkamlash, uning infratuzilmasini yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirish, balki mahallaning ijtimoiy-siyosiy rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamlı davlat dasturlarini amalga oshirishni anglatadi. Ushbu tashabbus mahallani mamlakatning butun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining markaziga qo'yishga qaratilgandir. Zero, mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz ham tinch va hamjihat bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi. Demakki, mahalla jamiyatning eng asosiy poydevori. Bu – mahalla darajasidagi barqarorlik va

ijtimoiy ahillik, umumiy milliy barqarorlikning garovi ekanligini anglatadi. Mahalladagi ijobiy muhit fuqarolarning farovonligini ta'minlashga, ijtimoiy muammolarni erta aniqlash va hal qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, mahalla davlat va jamiyat o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'tab, davlat siyosatining bevosita aholiga yetib borishini ta'minlaydi.

Bu yerda odamlar bir-birini yaxshi taniydi, qiyinchilikda yordam beradi, quvonchda birga bo'ladi va umumiy muammolarni birgalikda hal qiladi. Mahallaning an'anaviy tuzilmalari, qariyalar kengashlari, xotin-qizlar qo'mitalari va yoshlar yetakchilari orqali jamoaviy qarorlar qabul qilinadi, nizolar tinch yo'l bilan hal etiladi va jamoat tartibi saqlanadi. Bularning barchasi aholi o'rtasidagi o'zaro ishonch va birdamlikni mustahkamlab, ijtimoiy kapitalni boyitadi. Azaldan mahalla instituti yurtimizda hukm surayotgan tinch-osoyishta hayot, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni saqlash, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar – do'stona qo'shnichilik va o'zaro hurmat, mehr-oqibat, yordamga muhtoj insonlarga g'amxo'rlik hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoniga zalvorli hissasini qo'shib keladi. Mahalla instituti chet el tajribasini andoza qila olmaydigan yagona tizimdir. Buni xorijlik ekspertlar ham e'tirof etib, uni o'rganish kerakligini ta'kidlaydilar. Yutuqlar bilan birga so'nggi yillarda xalqimiz mentalitetiga zid bo'lgan holatlar, jumladan, parokanda oilalar, qarovsiz bolalar, huquqbuzarliklar, xotin-qizlar va voyaga yetmaganlar orasida o'z joniga qasd qilish holatlari uchrayotganligi achinarli holdir. "Oila – muqaddas" degan azaliy va ezgu g'oya qadrsizlanib, ming yillik milliy qadriyatlarimiz zavol topar ekan, bu kabi og'riqli holatlarni kamaytirib bo'lmaydi. Buning uchun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi kerak. Chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodir.

Qolaversa, mahalla aholini kambag'allikdan xalos etishda, yoshlarni to'g'ri yo'lga solish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim markaz. Jamiyatimizning eng quyi bo'g'inigacha tushib, "mahallabay" ishlash tizimi yo'lga qo'yilgani o'zini har tomonlama oqlamoqda. Har bir xonadon, har bir oila bilan individual reja asosida ishlab, daromadni oshirish uchun yetarli resurs ajratildi. Mahallalarni obod qilish, odamlar hayotini yaxshilash va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga har yili 2,5-3 milliard dollar yo'naltirilyapti, har bir mahallaga biznes muhiti, har bir oilaga farovonlik kirib borganini odamlar o'z hayotida his etmoqda. Bunday keng ko'lamli sa'y-harakatlar hisobiga O'zbekiston 2030 yilga qadar kambag'allikni 2 karra qisqartirish bo'yicha olgan majburiyatini barvaqt bajarishga harakat qilmoqda [2]. Oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun yettita ustuvor yo'nalishni o'z ichiga olgan **"Kambag'allikdan farovonlik sari"** dasturi amalga oshirilayotganini eslatib o'tish joiz. Boz ustiga, odamlarning bilimini oshirmasdan, ularni "kambag'allik girdobi"dan chiqarish imkonsizdir. Shu bois sifatli ta'lim asosida inson kapitalini rivojlantirish, uzoq muddatli istiqbolda kambag'allikni qisqartirishning asosiy "drayveri" bo'lib qoladi. Birgina misol, bolajonlarning bog'chalardagi qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgani natijasida 1 million ayollar ta'lim olish, kasb-hunar o'rganish va daromad topish imkoniga ega bo'ldi. Bu ishlarni davom ettirib, kambag'al oilalar farzandlarini maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Har bir kambag'al oilada kamida 1 nafar oliy ma'lumotli yigit yoki qiz bo'lishi uchun imtiyozli ta'lim krediti va davlat grantlari ko'paytirilayotgani quvonarli. Bunday oilalarni aniqlashda albatta, mahallaning o'rni alohida [3]. Shu bilan bir qatorda hududlarda infratuzilmani yaxshilash, odamlarga yashash uchun qulay sharoitlar yaratish –

ko'p o'lchovli kambag'allikni qisqartirishda muhim qadam bo'ladi. Shu maqsadda dastur asosida qariyb 3,5 million aholi yashaydigan, sharoiti og'ir mingta mahallada infratuzilma yaxshilanishi belgilandi. Natijada 2025-yilning o'zida 470 ming xonadonga qarashli tomorqaga suv bordi, yana 790 ming xonadonda elektr energiyasi ta'minoti yaxshilandi. 2026-yili mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, ish o'rinlarini ko'paytirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yana 400 million dollar ajratilmoqda. Bunda 32 ta tuman va ijtimoiy sharoiti og'ir 328 ta mahallani tanlab, ularni rivojlantirish bo'yicha alohida dastur qabul qilinadi. Bu – yangi tajriba bo'ladi. Shuningdek, 810 ta mahallada suv, kanalizatsiya, yo'l, maktab va bog'cha qurish bo'yicha 1,3 milliard dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Uy-joyga muhtoj va daromadi past aholiga ipoteka tizimidan foydalanish uchun har yili 200 million dollar subsidiya ajratiladi. Prezidentimizning 2026-yilni "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilish taklifi mahalla vakillarining o'z vazifalarini yanada uyushqoqlik bilan olib borishi uchun, avvalo, ishga bo'lgan munosabat va mas'uliyatni oshirish, hududlardagi ishlarni to'g'ri tashkil etish, mahalla – adolat mezonni ekanligi, ularning ishi adolat mezonlariga tayanishi lozimligini har doimo yurakdan his qilishga undashi lozim. Zero, mahalla – bu bizning, eng avvalo, farovon oilalarimiz, qadriyatlar beshigi bo'lgan mahallada o'sib-ulg'ayayotgan ma'naviy va jismoniy barkamol yoshlarimiz, ko'rkam qishloqlarimiz, zamonaviy va fayzli maskanlarimizdir. Bu mahallalarda to'planib qolgan muammo va kamchiliklarni oqilona hal etish, tinchlik-osoyishtalikni asrab-avaylashda bizga berilgan katta imkoniyat bo'ldi [3]. Buning natijasida joylarda muammolarni hal qilishning yaxlit va ta'sirchan vertikal tizimi yana mustahkamlanadi.

Mahallani rivojlantirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalarni barchamiz, avvalo, o'z ish uslubimiz uchun asosiy tamoyil sifatida belgilab olishimiz, bu g'oyalarni keng jamoatchiligimiz orqali xalqimiz turmush tarzi va madaniyatiga singdirishimiz lozim. Natijada mamlakatimizning barcha hududlarida obod go'shalar, ko'rkam maskanlar, mahallalarimizda namunaviy xonadon va ko'chalar soni ortib boraveradi. Ana shundagina odamlarimizning hayotga ishonchi yuksalib, yashashga, kelajakka intilishi yanada kuchayadi. Joylarda tegishli topshiriqlar ijrosini ta'minlash doirasida mahallalardagi har bir ko'chani obodonlashtirish, xonadon va tomorqa madaniyatini rivojlantirish, oilalarni mustahkamlash, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni kengaytirish lozim [4]. Ijtimoiy faol keksa avlod vakillarini keng jalb etgan holda yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, ularning ma'naviyatini yuksaltirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar mahalla obodligi va xavfsizligiga, o'z navbatida yurt tinchligi va osoyishtaligiga xizmat qiladi [7].

Shu ma'noda, Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida falsafa fanidan vatanparvarlik, milliy g'urur, bag'rikenglik, oilaparvarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarini shakllantirish uchun, mustaqil ish sifatida "Mening mahallam — mening faxrim" mavzusi bo'yicha loyihani yo'lga qo'rganmiz. Talabalar o'z mahallasi tarixi, hurmatli insonlari, an'analari, zamonaviy hayot faoliyati haqida albom-taqdimot tayyorlaydilar, ularni guruhda, mahallada taqdimot qiladilar, mahalla rivoji bo'yicha o'z taklif va tavsiyalarini tayyorlaydilar. Ushbu loyiha Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2017-yildan beri davom etib kelmoqda, shu o'tgan davrdagi kuzatuvimiz shuni ko'rsatmoqdaki, loyihalarni bajarish, izlanish olib borish, ularni taqdimot qilish jarayonlari talabanning dunyoqarashiga ijobiy ta'sir etmoqda, ularda ma'lum bir ma'naviy yuksalish sezilmoqda [5]. Ushbu tajribadan kelib chiqib, tajribani butun respublikaga tarqatishga qaror qilindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,

O'zbekiston mahallalar uyushmasi va Yoshlar ishlari agentligining "Oliy ta'lim tashkilotlarida "Mening mahallam — mening faxrim" loyihasini tashkil etish to'g'risida"gi qo'shma qarori qabul qilindi [6]. Mazkur loyiha Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori Ismoil Saifnazarovning loyihasi asosida amalga oshirilmoqda. Loyiha talabalarda yurtga sadoqat, bag'rikenglik, vatanparvarlik va mehr-oqibat hissini rivojlantirish, jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla institutining mazmun-mohiyatini chuqur o'rganishga xizmat qiladi.

"Mening mahallam-mening faxrim" loyihasini bajarishda ortiqcha dabdababozlik qilinayotgani yo'q, aksincha, bu oddiy kundalik ishimiz sifatida bo'lishi kerak, ya'ni, Oliy ta'lim muassasalari majburiy fan hisoblangan Falsafa fanini o'qitish jarayonida mustaqil ishni bajarish uchun talabalarni o'z mahallalariga yo'llaydi, tayyorlagan taqdimoti uchun tegishli balini beradi [6]. Mahallalar esa talabalarga loyihani bajarish uchun shart sharoit yaratadi, Yoshlar yetakchisi talaba bilan hamkorlik qiladi, talabani mahalla faoliyatiga jalb qiladi, xuddi shunday- mahalla xotin-qizlar faoli talaba qizlarimiz bilan hamkorlik qiladi. A'lochi, jamoat ishlarida faol talabalar va ularning ota onalari "Mahalla" uyushmasi va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladi, bu esa yoshlar, umuman aholining ilm-fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, mahalla ham jonlanadi, yoshlar o'z mahallasi bilan tanishadi, keyinchalik qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, ozgina bo'lsa ham mahallasini eslab turadi [6]. Xullas, bu tashkilotlar hamkorligida har yili mahallalarga kamida 300-400 ming talaba boradi, bu esa katta muvaffaqiyat degani, bu – jamiyatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishishga katta hissa degani.

Demakki, loyihamiz ezgulikka, yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga hissa qo'shayotgan ekan, ijtimoiy fanlarga e'tibor kuchaytirilayotgani ma'qul ish. Aks holda, dunyoqarashi bir tomonlama shakllangan, o'zidan boshqani o'ylamaydigan, xalq, davlat va jamiyat tushunchalaridan begona bo'lgan va bugungi kunda chet ellarda "boy berilgan avlod" deya atalayotgan yoshlar avlodi bizda ham vujudga kelishi mumkin edi. Prezidentimiz "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "bundan 60-70 yil ilgari ikkinchi jahon urushidan keyingi qiyinchilik va moddiy taqchillik yillarida xorijda ishlab chiqilgan va asosan, ma'naviyat va gumanitar ta'limga pul sarflash zarur emas, deb hisoblangan va mutlaq g'oyasizlikka asoslangan ijtimoiy konsepsiyaning oqibatlari qanday bo'lganini bugun ko'rib turibmiz, deya ta'kidlaydi. Demak, ijtimoiy fanlarni o'qitishga pulni ayamasligimiz kerak. Besh yil o'tar, o'n yil o'tar sarflangan mablag' izsiz ketmaganligining guvohi bo'lamiz. Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur kabi davlatlar tajribasi ham ta'lim va tarbiyaga sarflangan moliya o'zini oqlaganini butun dunyoga namoyon qildi. Shunday ekan, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ijtimoiy fanlarni qay tarzda taqsimlash, o'qitish va amaliyot soatlarini qanday tashkil etishga doir maxsus konsepsiyani ishlab chiqish zarur ehtiyojga aylandi. Shu sababli Prezidentimiz o'zining "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" asarida aytganidek, "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari to'g'risida" qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji mavjud. Shundagina biz iqtisod sohasida ham chinakam har tomonlama bilimli zamonaviy kadrlarni tayyorlashga erishamiz. Prezidentimizning 2026-yilni "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilish taklifi, mahalla institutiga bo'lgan davlat e'tiborining yangi bosqichiga ishora qiladi. Bu nafaqat mahalla tizimini yanada mustahkamlash, uning infratuzilmasini yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirish, balki mahallaning ijtimoiy-siyosiy rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamlı davlat

dasturlarini amalga oshirishni anglatadi. Ushbu tashabbus mahallani mamlakatning butun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining markaziga qo'yishga qaratilgandir. Davlatimiz rahbarining taklifi orqali biz mahallaning xalq bilan davlat o'rtasidagi **“ko'prik”** vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylanishini ta'minlash, mahallani jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, uning jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, mahalla boshqaruvida aholining faol ishtirokini ta'minlash, har bir fuqaro o'zi va oilasining kelajagi, moliyaviy ahvoli va farovonligini ta'minlashda mas'uliyatni sezishi, boqimandalikka o'rganmaslik hissini yanada kuchaytirish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish, fuqarolarning o'z uyi va ko'chasini ozoda saqlash, milliy qadriyat va urf-odatlarini hurmat qilish, ma'naviy va ma'rifiy ishlarda mahallaning o'rnini kuchaytirish, aholi o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash choralarini ko'rish, “mahalla yettiligi” tomonidan mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish uchun safarbar etishda ko'maklashish, mahallalardagi muammolarning o'z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va yo'naltirish, mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag'al fuqarolarga ajratilayotgan byudjet va boshqa mablag'larning maqsadli va manzilli yo'naltirilishini ta'minlash, mahallalarning moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash, ularga ajratiladigan mablag'larni markazlashgan tarzda taqsimlash, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Qisqasi, Prezident Shavkat Mirziyoyevning murojaatnomasi O'zbekistonning bugungi va kelajak taraqqiyotida mahalla institutining muhimligini strategik darajada belgilab berdi. Mahalla – bu nafaqat o'zbek jamiyatining tarixiy merosi, balki ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi, milliy birdamlikni ta'minlovchi, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi va umuman, mamlakat tinchligi va ravnaqining asosiy poydevoridir.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Saifnazarov I. Yangi O'zbekiston: inson qadri ulug'langan yurt. – Tashkent: “Ilm-Ziyo-Zakovat” MChJ, 2023.
4. Saifnazarova F. O'zbek oilasi: ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar. – Toshkent, 2001.
5. Saifnazarov I. Mahalla – o'zbek jamiyatining tarixiy merosi, tinchlik va taraqqiyot poydevori // Yangi O'zbekiston, 2026, №17(1616).
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Mahallalar uyushmasi hamda Yoshlar ishlari agentligining “Oliy ta'lim tashkilotlarida “Mening mahallam – mening faxrim” loyihasini tashkil etish to'g'risida”gi 13.08.2025-yildagi 44-q/q-sonli qo'shma qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoakt va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligi oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi 28.01.2026-yildagi 34-son qarori.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **ANALYSIS OF VIEWS ON THE IMAMATE IN MAHMUD LOMISHI'S WORK "TAMHID"**

**Gulamovu Abdullo**

Doctor of Philosophy (PhD) in Islamic Studies, Associate Professor, etc.  
"UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY" NOTM

**Abstract.** Nowadays, the falsification of sacred Islamic concepts and their interpretation for selfish purposes is increasing. The "caliphate", which is misinterpreted by some misguided groups, in particular, "Hizb ut-Tahrir", is also among such concepts. This article discusses the views of the Ahlus Sunnah wal Jama'ah on the Imamate (leadership) and the Caliphate based on Mahmud Lamishi's work "at-Tamhid li qawwadi at-tawhid".

**Keywords:** Lamish, theology, Hanafi-Maturidi, Tamhid, imamate (leadership), caliphate, Rafidis, Zaydis.

## **MAHMUD LOMISHIYNING "TAMHID" ASARIDA IMOMAT BORASIDAGI QARASHLAR TAHLILI**

**G'ulomov Abdullo**

Islomshunoslik fanlari bo'yicha  
falsafa doktori(PhD), dotsent v.b.  
"UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY" NOTM  
E-mail: [abulfotih1991@gmail.com](mailto:abulfotih1991@gmail.com)

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda muqaddas islomiy tushunchalarni soxtalashtirish, ularni g'arazli maqsadlar yo'lida talqin qilish kuchayib bormoqda. Ayrim adashgan toifalar, xususan, "Hizbut-tahrir" tomonidan noto'g'ri talqin qilinayotgan "xalifalik" ham ana shunday tushunchalar sirasiga kiradi. Mazkur maqolada ahli sunna val jamoaning imomat (rahbarlik) va xalifalik borasidagi qarashlari Mahmud Lomishiyning "at-Tamhid li qavoid at-tavhid" asari asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Lomishiy, kalom ilmi, hanafiy-moturidiy, Tamhid, imomat(rahbarlik), xalifalik, rofiziylar, zaydiylar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N10>

**Kirish.** Yer yuzining ko'plab mintaqalarida amalga oshirilayotgan xunrezliklarni islom dini bilan bog'lash, musulmonning boshqa bir musulmon qonini to'kishi joizligiga "fatvo" berayotganlar ko'payib ketayotgan bugungi kunimizda aqida ilmini, yurtimizda asrlar osha amal qilib kelinayotgan moturidiya ta'limotini xalqimiz ommasiga yetkazish, ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan, hali hanuz o'z dolzarbligini yo'qotmagan mazkur ilmga oid merosini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shubhasiz, Mahmud Lomishiyning "at-Tamhid li qavoid at-tavhid" asari bu borada muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Chunonchi, mazkur asarda har qanday davrda uchrashi mumkin bo'lgan, to'g'ri yo'ldan adashgan firqa va guruhlarning qarashlariga raddiyalar, shuningdek, islom dini ta'limotida muhim o'rin egallaydigan aqidaviy masalalar Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflar bilan dalillangan. Shu bilan birga moturidiya ta'limotining olimdan oldin o'tgan vakillari fikrlari va aqliy-mantiqiy dalillar bilan asoslab berilgan.

**Asosiy qism.** Mazkur mavzu borasida Lomishiyning “Tamhid” asarida: “Ommaning nazdida payg‘ambar va rasullardan so‘ng imomat (rahbarlik)ning bo‘lishi haqdir, chunki musulmonlar uchun Alloh taoloning so‘zini oliy qiladigan, shariat hukmlarini bayon qiladigan, xalq orasidagi ishlarni tartibga solib turadigan imom (boshliq) zarur. Shuningdek, ular uchun haddan oshuvchilarni o‘z vaqtida jazolaydigan, o‘g‘rilarning zararlarini qaytaradigan siyosatchi kerak. Agar shunday bo‘lmasa, insonlar bir-birlariga adovat qilib, yer yuzida fitna va buzg‘unchilik avj oladi”, deb keltiradi [5:209].

Lomishiy bu borada quyidagi oyatni dalil qiladi: **“Agar Alloh odamlarning birini ikkinchisi bilan daf etib turmas ekan, shubhasiz, Yer fasodga (buzg‘unchilik va xarobaga) aylangan bo‘lur edi”** (“Baqara” surasi, 251-oyat) [2:41]. Shuningdek, Ali roziyallohu anhunging: “Amir (rahbar) yaxshi bo‘ladimi yoki yomon bo‘ladimi, insonlar faqat u bilan tartibga solinib turiladi”, degan so‘zlari keltirilgan.

Tarixda ba‘zi adashgan toifalar tomonidan musulmonlarga rahbar bo‘lishi shart emas, degan g‘oya ilgari surilgan. Jumladan, qadariyatlarining yetakchilaridan bo‘lgan Abu Bakr Asom va Hishom ibn Amr: “Imom (rahbar) tayinlash vojib emas. Chunki unga insonlardan zulmni ketkazish uchun ehtiyoj seziladi. Agar bir-birlariga zulm qilishdan tiyilsalar, rahbarga ehtiyoj qolmaydi” deyishgan [6:149].

Lomishiy musulmonlarga rahbar tayinlashni vojib, deb ta‘kidlaydi hamda bunga sahobalar Payg‘ambar alayhissalom vafotlaridan keyin imom (rahbar) tayinlashgani, uning zaruriy ekanida hech kim bir-biriga qarshi chiqmagani, balki faqatgina kimni tayinlashda ixtilof qilishganini dalil sifatida keltirib o‘tadi.

Modomiki rahbarlik (imomat) zulmdan tiyilgan, birovning huquqlariga tajovuz qilmagan sahobalar zamonida vojib bo‘lgan ekan, odamlar zulmdan, adovatdan tiyilmayotgan bir davrda rahbarning vojib bo‘lishi yanada zarur ekanligi kelib chiqadi.

Lomishiy mazkur masalada musulmonlarga rahbar tayinlash zarur ekanligini ta‘kidlash barobarida rahbarlik shartlarini ham alohida sanab o‘tadi. Uning fikricha, imomatning birinchi sharti Quraysh qabilasiga mansublik hisoblanadi.

Ahli sunna nazdida imom Payg‘ambar alayhissalomning quyidagi so‘zlariga muvofiq qurayshlik bo‘lishi kerak: “Imomlar Qurayshdan”.

Rofiziylar: “Imomlik Banu Hoshimdagina to‘g‘ri bo‘ladi”, deyishdi va bu bilan Ali roziyallohu anhu va u kishining avlodlarini nazarda tutdilar.

Zaydiylar imomatni vorislikka ko‘ra bo‘ladi, deyishdi va uni Abbos roziyallohu anhu va u kishining avlodlariga xoslashdi, chunki ular Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qarindoshlari edi [7:153].

Lomishiyning fikricha, hadis mazmuni umumiy bo‘lib, bir qabilani boshqasidan ajratmagan. Shuningdek, rofiziylarga xilof o‘laroq ahli sunna nazdida imomning ma‘sum (begunoh) bo‘lishi imomatning to‘g‘ri bo‘lishi shartlaridan emas, bunga Nabiy alayhissalomdan qilingan quyidagi rivoyat dalil bo‘ladi: “Har bir yaxshi va yomon odamning ortida namoz o‘qiyveringlar”, shuningdek, yuqorida Ali roziyallohu anhudan qilingan rivoyat ham bunga dalil bo‘ladi. Shu o‘rinda Lomishiy aqliy-mantiqiy dalil ham keltirib o‘tadi: “Ismat (begunohlik) payg‘ambarlikning durust bo‘lish shartlaridan hisoblanadi, chunki payg‘ambar haq dinni yetkazuvchidir, agar u ma‘sum bo‘lmasa, yolg‘on gapirishi va Alloh taolo huzurida man qilingan narsani “muboh” deb yoki muboh narsani taqiqlangan deb xabar berib qo‘yishi, odamlar “uning so‘zini qabul qilish vojib” degan aqidaga binoan unga e‘tiqod qilishlari va adashib ketishlari

mumkin, natijada hidoyatga sabab bo'lgan payg'ambarlik adashishga olib kelishi mumkin"[5:212].

Shundan so'ng olim "Imom(rahbar)ning mujtahid, odil, halol va haromni ajratib beradigan hukmlarni biluvchi, gunoh ishlardan tiyilgan bo'lishi shartmi?" degan masalaga to'xtalib o'tadi.

Bu borada Abu Mansur Moturidiy rohmatullohi alayhi: "Shunday bo'lishi kerak" degan, lekin qat'iy shart o'laroq zikr qilmagan.

Abul Muin Nasafiy esa o'zining "Tabsiratul-adilla" asarida: "Imomda mazkur sifatlarning bo'lishiga targ'ib qilinadi, lekin men as'hoblarimizdan birortasining fikrini yoqlamayman: mazkur sifatlarning xalifalikning to'g'ri bo'lishi shartlaridandir" degan [11:151].

Imom Nasafiy fikricha, yuqorida sanalgan sifatlarning imom(rahbar) uchun shart qilinmasligi kerak, chunki avvalgi ulamolar qozi adolatsizlik qilsa, loyiq bo'lsa ham ishdan chetlatilmasligini, balki qozi sifatida qolishini durust hisoblashgan, imomat(rahbarlik)da ish o'z-o'zidan shunday bo'lishi kerak.

Abul Muin Nasafiyning ta'kidlashicha, imom(rahbar)ning kuchli siyosatchi, shijoatli, urush tadbirlari va qo'shin ishlarini yaxshi biluvchi, adolatni talab qilishga, hukmlarni ijro qilishga hamda islom diyoridagi ayollarni himoya qilishga qodir bo'lishi undan ko'zlangan asl maqsad o'laroq shart qilinishi kerak.

Lomishiy o'z asarida imomat(rahbarlik) masalasidan so'ng ahli sunnaning xalifalik borasidagi qarashlarni keltirib o'tadi. Uning ta'kidlashicha, Payg'ambar alayhissalomdan keyingi nubuvvat xalifaligi o'ttiz yil bo'lgan, bunga quyidagi hadis dalil bo'ladi: "Mendan keyin xalifalik o'ttiz yildir, so'ng podshohlik, sultonlik va yakkahokimlikka aylanib ketadi".

Taftazoniyning "Sharhul-aqoid" asaridagi quyidagi iqtibos ham Lomishiyning fikrini quvvatlaydi: "Muoviya va undan keyingilar xalifa emas, balki podshoh va amirlardir" [10:327].

Payg'ambar alayhissalomdan qilingan rivoyatda u zot: "Nubuvvat aslida rahmat bo'lgan, so'ng xalifalik rahmat bo'ladi, so'ng Alloh taolo bandalaridan xohlaganiga beradigan podshohlik bo'ladi, so'ng yo'lto'sarlik, qon to'kish va mollarni nohaq o'zlashtirishdan iborat yakkahokimlik bo'ladi", deganlar.

Lomishiy fikricha, hadis matnidagi Payg'ambar alayhissalomning "بزييا" degan so'zlari "tez yurmoq" ma'nosini bildiradi, bu yerda "hukmdorlarning zulmga oshiqishi" ma'nosida kelmoqda.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyingi birinchi xalifa Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu bo'lib, uning xalifaligi sahobalar ijmosi bilan sobit bo'lgan. Lomishiyning ta'kidlashicha, sahobalar Abu Bakr Siddiqning xalifaligiga Kitob yoki hadisning dalolati bilan ittifoq qilganlar.

Qur'ondan dalil Alloh taoloning quyidagi so'zidir: "**A'robiylardan** (jihodga chiqmay) **qolgan** (munofiq) **kimsalarga ayting**" ("Fath" surasi, 16-oyat), ular Payg'ambar alayhissalom bilan g'azotga chiqishdan qolib ketgan kimsalar edi, Alloh taolo ularga shunday deyishni buyurdi: "**Yaqinda sizlar ashaddiy kuch egalari bo'lmish bir qavm (bilan jang qilish)ga chorlanursiz**" ("Fath" surasi, 16-oyat) [1:513].

Mazkur qavmning kimlar ekanligi borasida bir rivoyatda: "Ular Banu Hanifa" deyiladi, yana bir rivoyatda: "Ular Fors aholisi" deyiladi. "Bahrul-ulum" asarida ularning Yamoma ahli ekani borasida ham rivoyat mavjudligi keltirilgan[2:255].

Banu Hanifa va Yamoma ahli bilan kurashgan inson Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu, Fors davlati bilan kurashgan inson esa Umar ibn Xattobdir.

Ta'villarning birida Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning xalifaligiga dalil bor, chunki oyat (urushga) chaqiruvchining unga itoat qilish farz bo'lgan insonligiga dalolat qiladi.

Hadisdan dalil esa, Payg'ambar alayhissalomning kasallik paytlarida Oisha roziyallohu anhoga aytgan quyidagi gaplaridir: "Abu Bakrga ayt, odamlarga namoz o'qib bersin"[3:286]. Payg'ambar alayhissalomning dinning buyuk arkonlaridan bo'lgan namozdagi imomlikni u kishiga topshirganlarini undan quyi narsa (xalifalik) uchun dalil qilganlar, shuning uchun Ali ibn Abu Tolib Abu Bakrga: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sizga dinimiz ishida rozi bo'lganlar, biz sizga dunyomiz ishida nega rozi bo'lmaylik", degan. Sahobalarning Abu Bakr Siddiq xalifaligi borasidagi ijmosi yo Kitob, yo hadis yoki har ikkisining dalolati bilan uzil-kesil sobit bo'lgan.

Keltirib o'tilgan ma'lumotlardan rofiziylarning "Abu Bakr Alidan haqqini tortib olib qo'ygan" degan gapi botil ekani kelib chiqadi, chunki ularning bu da'volarida "sahobalar zulmni yoqlab, tortib olishni joiz deb, botilni yuzaga chiqarish va amri ma'rufni tark qilishga ijmo qilganlar" degan iddao bor, bu esa ochiq-oydin adashishdir.

Lomishiyning ta'kidlashicha, ularning "Ali roziyallohu anhu unga (Abu Bakrga) bay'at qilmagan yoki majburlikdan bay'at qilgan yohud to'rt yoki olti oy o'tib bay'at qilgan" degan gaplari botildir, chunki bunda holat ikki ko'rinishdan xoli bo'lmaydi: uning haqligini bila turib bay'atdan bosh tortgan bo'lishi mumkin, yoki nohaqligini bilib bay'atdan bosh tortgan bo'lishi mumkin.

Birinchi fikr botil, chunki haqqa ergashish vojib, unga xilof ish qilish harom, Ali karromallohu vajhahuni vojibni tark qilib, harom amal qilgan deb o'ylash ularning mazhabini botil qiladi, chunki ularning nazdida imomning ma'sum(gunohdan pok) bo'lishi shart hisoblanadi.

Ikkinchisi joiz, lekin ular aytayotganidek uni nohaqlik qilgani uchun emas, chunki Ali roziyallohu anhuning Abu Bakr roziyallohu anhuga qarshi qilich ko'tarmagani, uni botildan man qilmaganida holat ikki ko'rinishdan xoli bo'lmasdi: yo man qilishga qodir bo'lardi, yo qodir bo'lmasdi, agar man qilishga qodir bo'laturib man qilmagan bo'lsa gunohkor bo'ladi, gunohkor esa ma'sum emas, ularning nazdida ma'sum bo'lmagan insonning imomligi to'g'ri bo'lmaydi[5:215-216].

Agar man qilishdan ojiz bo'lsa, haqni yuzaga chiqarishdan, zulmni daf qilishdan ojiz bo'lgan insonning imom(rahbar)ligi ijmoqa ko'ra to'g'ri bo'lmaydi, u(Ali)ning Abu Bakr bilan jang qilishdan o'zini tiyishi uning bay'at qilganiga va Abu Bakrni haq deb bilganiga dalil bo'ladi.

Abu Bakr Siddiqning xalifaligi isbotlanishi bilan Umar roziyallohu anhuning ham xalifaligi sobit bo'ladi, chunki uni Abu Bakr Siddiq xalifa qilib tayinlagan, uning vafotidan so'ng sahobalar ham hazrati Umarning xalifaligiga ijmo qilganlar.

Umar roziyallohu anhu vafotlari oldidan hech kimni o'z o'rniga xalifa qilib tayinlamagan, ishni o'zlarining rahbarlikka munosib fazilatlari bilan tanilgan olti sahoba: Usmon, Ali, Abdurahmon ibn Avf, Talha, Zubayr, Sa'd ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhumdan iborat kengashga havola qilgan.

U (Umar) aytganki: "Sizlardan to'rttangiz bir kishi(nomzodi)da to'xtalsangiz, qolganlar qarshi chiqsa ham, to'rt kishi ovoz bergan odam xalifa bo'ladi". Abdurahmon ibn Avf Usmon ibn

Affonga bay'at qildi, kengash a'zolarining qolgani va ulardan boshqa sahobalar unga rozi bo'ldi, u (Usmon)ning xalifaligi sahobalar ijmosi bilan sobit bo'ldi.

Usmon roziyallohu anhu shahid qilingach, kengash a'zolarining qolgani va boshqa sahobalar Ali roziyallohu anhuning xalifaligiga ittifoq qildilar, ularning bay'atlari bilan Ali roziyallohu anhuning xalifaligi joriy bo'ldi, ular bay'at ahllari edi.

Lomishiyning fikricha, u kishiga bay'at qilmaganlar qarshi chiqishining e'tibori yo'q, chunki ijmo bog'lanishi xalifalik to'g'ri bo'lishining shartlaridan emas, balki ummatning o'sha ishga ahl bo'lgan ba'zi salohiyatli kishilari xalifalikni tuzishlari bilan u kishining xalifaligi durust bo'lgan.

Alloma Lomishiy xalifalarning xalifalik tartibi haqidagi ma'lumotlardan so'ng ularning bir-biridan afzalligi borasidagi qarashlarni keltirib o'tadi: "So'ng ularning ba'zilarini ba'zilaridan afzalligiga hojat sezamiz, bu boradagi umumiy qoida shuki, Maxluqotlarning eng afzali Muhammad sollallohu alayhi vasallam, u zotdan keyin boshqa payg'ambarlar, payg'ambarlar alayhimussalomdan keyin insonlarning eng afzali Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ummati, Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ummatining eng afzali Abu Bakr, undan so'ng Umar, undan so'ng Usmon, undan so'ng Ali roziyallohu anhumdir.

Bilingki, nabiy va rasullar kabi xos insonlar xos farishtalardan afzaldirlar, Jabroil, Mikoil, Isrofil, Azroil alayhimussalom kabi xos farishtalar insonlar va mo'minlar ommasidan afzaldirlar, solih insonlar ommasi farishtalar ommasidan afzaldirlar, biz keltirib o'tgan ma'lumotlar ahli sunnaning yo'lidir" [5:217].

Rofiziylar Ali roziyallohu anhuri Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu va boshqa sahobalardan afzal ko'radilar.

Ahli sunnaning ba'zilarini Ali roziyallohu anhuri Usmon roziyallohu anhudan afzal ko'radilar.

Rofiziylar aytgan gaplariga quyidagi hadisni dalil qilishadi: "Allohim, mana bu qushni men bilan yeyishi uchun O'zingga eng mahbub bo'lgan bandangni keltir", shunda Payg'ambar alayhissalomning oldiga Ali roziyallohu anhu keldi, Allohga eng suyukli banda ularning eng afzali hamdir".

Chunki Ali roziyallohu anhu sahobalarning eng ilmlisi, eng shijoatlisi, kufr va shirkdan eng uzog'i bo'lgan, chunki u zot umri davomida bir lahza ham Alloh taolaga shirk keltirmagan, bunday shaxsning eng fazilatli inson ekanida shubha yo'q.

Ahli haqning bu boradagi dalili Payg'ambar alayhissalomdan rivoyat qilingan quyidagi hadisdir: "Abu Bakr sizlardan ro'za yoki namozining ko'pligi bilan afzal bo'lmadi, balki qalbidagi ulug'vor narsa bilan afzal bo'ldi", yana bir rivoyatda "qalbiga kirgan narsa bilan" deyilgan.

Ibn Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam hayotlik chog'larida Payg'ambar alayhissalom ummatining eng afzali Abu Bakr, so'ngra Umar, so'ngra Usmon, so'ngra Ali roziyallohu anhumdir, derdik".

Ularga "qush hadisi"da ham dalil yo'q, chunki to'g'ri rivoyatda "bandalaringdan menga eng suyuklisini" deyilgan.

Bu rivoyatning to'g'riligiga dalil shuki, rofiziylar keltirgan rivoyatda Ali roziyallohu anhuri payg'ambarlardan ham ustun qo'yish bor, bu esa ummatning ijmosiga ziddir.

Ali roziyallohu anhuning eng ilmi, eng shijoatli deyilishi ham to'g'ri emas, balki Abu Bakr Siddiq u kishidan ilmiroq va shijoatliroq bo'lgan.

Alloma Lomishiy mavzu so'nggida xulafoi roshidinning xalifalik muddatlari haqida to'xtalib o'tadi: "So'ngra ulardan har birining xalifalik qilgan muddatlari borasida ham ixtilof qildilar, aksariyatining fikricha, Abu Bakr roziyallohu anhunung xalifaligi ikki yil, Umar roziyallohu anhunung xalifaligi o'n yil, Usmon roziyallohu anhunung xalifaligi o'n ikki yil, Ali roziyallohu anhunung xalifaligi olti yil bo'lgan"[9:304].

Ahli sunna val jamoa nazdida rahbarga itoat etish lozimligi borasida "Aqoidi tahoviya" asarida quyidagilar keltirib o'tiladi: "Va rahbarlarimizga, ishboshilarimizga qarshi chiqishni, garchi zulm qilsalar ham, joiz deb bilmaymiz. Ularni duoibad ham qilmaymiz. Ularning itoatidan bosh tortmaymiz. Ularga itoat qilishni, modomiki ma'siyatga buyurmasalar, Allohning toatidan deb, farz deb bilamiz. To'g'ri yo'lda bo'lishlarini va ofiyat so'rab, ularning haqqiga duo qilamiz" [8:264].

Imom Abu Hanifa shogirdi Abu Yusufga: "Sultonni e'zozlab, hurmatini o'z o'rniga qo'y" deya nasihat qilgan [4:114]. Mazkur fikrlardan rahbarga itoat qilish ahli sunna nazdida shariat talablaridan ekani, uning hatto aqida darajasida mustahkamlab qo'yilgani kelib chiqadi.

**Xulosa.** Xulosa sifatida aytish mumkinki, ayrim adashgan toifalar, xususan, "Hizbut-tahrir" ekstremistik guruhi tomonidan "xalifalik qurish" g'oyasining ilgari surilishi, omma musulmonlar, xususan, yoshlar ongida turli jimjimador shior va chaqiriqlar bilan mazkur islomiy tushunchaning g'arazli maqsadlarda soxtalashtirilishi, o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olgan, aholisining aksarini musulmonlar tashkil etuvchi mamlakatlarda ziddiyatlar keltirib chiqarishga qaratilgan, oqibatda yurt birligiga rahna soluvchi g'oyalar tarqatilyotgani hech kimga sir emas.

Yuqorida Mahmud ibn Zayd Lomishiyning "at-Tamhid li qovaid at-tavhid" asari asosida ahli sunna nazdida mazkur g'oyalarning noto'g'riligi, xalifalikning Payg'ambar alayhissalomdan keyin o'ttiz yil davom etishi dalillar asosida ta'kidlab o'tildi.

Mahmud ibn Zayd Lomishiyning "at-Tamhid li qovaid at-tavhid" asarini tadqiq etish moturidiya ta'limotining hijriy V-VI asrdagi holatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, olimning ilmiy merosi, xususan, kalom ilmiga oid "Tamhid" asarini o'rganish bugungi kundagi ixtiloflarning oldini olishda, adashgan oqimlar g'oyalariga ilmiy asosda raddiyalar berishda muhim manba hisoblanadi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri// A.Mansurov. –Toshkent: "O'qituvchi", 2020.
2. Abullays Samarqandiy. Bahrul-ulum. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1993.
3. Abu Shakur Solimiy Keshiy. At-Tamhid fi bayonit tavhid (Tarjimon: S.Primov). – T.: Movarounnahr, 2014.
4. Doktor Mustafo Shak'a. Buyuk imom Abu Hanifa No'mon. – Samarqand, "Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti", 2019.
5. Mahmud ibn Zayd Lomishiy. At-tamhid li qova'idit-tavhid(Usmon Orkach tahqiqi ostida). – Istanbul, Erenler vakfi, 2021.
6. Mahmud ibn Zayd Lomishiy. At-Tamhid li qovaid at-tavhid(Abdulmajid Turkiy tahqiqi ostida). – Bayrut: Dor g'arb al-islamiy, 1995.
7. Mahmud ibn Zayd Lomishiy. At-Tamhid li qovaid at-tavhid(Ahmad Farid Miziyadiy tahqiqi ostida). – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2007.
8. Muhammad Anvar Badaxshoniy. Aqidatut-tahoviya sharhining talxisi. – T.: "HILOL-NASHR", 2014.

9. Oqilov S. Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy merosi va moturidiya ta'limoti. – T.: Hilol-Nashr, 2020.
10. Sa'duddin Taftazoniy. Sharh al-aqoid an-nasafiY. – T.: "Movarounnahr", 2018.
11. Ismail Şik. Hanefi-Maturidi Gelenegin Usulu'd-Din Anlayishi. – Anqara: Asil yayin dağitim, 2009.
12. Mahmud ibn Zayd Lomishiy. At-Tamhid li qovaid at-tavhid. Istanbul. Sulaymoniya kutubxonasi, Lolali bo'limi. № 3658/4.
13. Mahmud ibn Zayd Lomishiy. Aqida usul ad-din. Istanbul. Sulaymoniya kutubxonasi, Arzinjon bo'limi. № 159/5.
14. G'ulomov, Abdullo. "Faith and issues related to it in Mahmud Lamishi's Tamhid", The Light of Islam: Vol. 2021: Iss. 3, Article 4.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **TRANSBOUNDARY RESPONSIBILITY AND “COMMON BUT DIFFERENTIATED RESPONSIBILITY” PROBLEMS IN ENSURING INTERNATIONAL ENVIRONMENTAL JUSTICE**

**Akhmedov Khamdam Alikulovich**

Associate Professor

National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami

E-mail: [xamdamaxmedov0@gmail.com](mailto:xamdamaxmedov0@gmail.com)

**Abstract.** The article analyzes urgent problems of ensuring international environmental justice in the context of global ecological crisis, principles of transboundary responsibility, and theoretical-philosophical foundations of the «common but differentiated responsibility» principle. The research substantiates the necessity of forming fair mechanisms for distributing responsibility between developed and developing countries. The author reveals the essence of each state and society's responsibility in ensuring the common future of humanity and the biosphere based on modern ecohumanistic approaches.

**Keywords:** environmental justice, transboundary responsibility, common responsibility, differentiated responsibility, sustainable development, environmental protection, global ecology, climate change, international cooperation, ecohumanism.

## **XALQARO EKOLOGIK ADOLATNI TA'MINLASHDA TRANSCHEGARAVIY MAS'ULIYAT, “UMUMIY VA DIFFERENSIALLASHGAN JAVOBGARLIK” MUAMMOLARI**

**Axmedov Xamdam Alikulovich**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti

**Annotatsiya.** Maqolada global ekologik inqiroz sharoitida xalqaro ekologik adolatni ta'minlashning dolzarb masalalari, transchegaraviy mas'uliyat tamoyillari hamda «umumiy va differensiallashgan javobgarlik» prinsipining nazariy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi mas'uliyat taqsimlanishining adolatli mexanizmlarini shakllantirish zarurati asoslanadi. Muallif zamonaviy ekogumanistik yondashuvlar asosida insoniyat va biosfera tizimining mushtarak kelajagini ta'minlashda har bir davlat va jamiyat mas'uliyatining mohiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** ekologik adolat, transchegaraviy mas'uliyat, umumiy javobgarlik, differensiallashgan javobgarlik, barqaror rivojlanish, atrof-muhit muhofazasi, global ekologiya, iqlim o'zgarishi, xalqaro hamkorlik, ekogumanizm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N11>

**Kirish.** XXI asr insoniyatni ekologik inqirozning chuqur ildizlariga qarab turgan global tahdidlar bilan yuzma-yuz keltirdi. Iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi, atmosfera va gidrosferaning ifloslanishi kabi muammolar milliy chegaralardan oshib, butun insoniyat va biosferaning barqaror mavjudligini xavf ostiga qo'ydi. Bu sharoitda xalqaro ekologik adolatni ta'minlash, transchegaraviy mas'uliyat tamoyillarini amalga oshirish hamda “umumiy va differensiallashgan javobgarlik” prinsipini to'g'ri talqin qilish dolzarb ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy ekofalsafiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik muammolar bir vaqtning o'zida tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy va aksiologik xarakterga ega. Zero, atrof-muhitga yetkazilgan zarar, birinchi navbatda, insonning tabiatga nisbatan qarashlari, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar bilan belgilanadi. Shuning uchun global ekologik adolatni ta'minlash masalasi nafaqat texnik va iqtisodiy, balki chuqur falsafiy-etik muammodir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ekologik adolat va transchegaraviy mas'uliyat masalalari xalqaro ilmiy muhitda keng muhokama qilingan. Ekologik inqiroz global xarakterga ega ekanligi to'g'risida L.R. Braun ta'kidlaydi: "Zamonaviy jamiyatni barqaror asoslarga o'tkazish, insoniyat uchun tinchlik yo'li bilan yashashning zaruriy shartidir" [1]. Muallif ekologik barqarorlikni ta'minlamasdan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash mumkin emasligini asoslaydi.

B. Kommoner o'z tadqiqotlarida texnologik taraqqiyotning ekologik oqibatlarini tahlil qilgan holda, tabiat, inson va texnologiya o'rtasidagi munosabatlarning yangi paradigmasini ishlab chiqishni taklif etadi: "Yopiq iloq – tabiat, inson va texnologiya tizimi faqat ularning mushtarak muvozanatida barqarorlikka erishishi mumkin" [2]. Bu yondashuv global mas'uliyat tamoyiliga nazariy asos yaratadi.

Osiyo ma'naviy an'alaridagi ekologik etika resurslari borasida Dj.B. Kallikot quyidagilarni ta'kidlaydi: "Sharq falsafiy an'alarini inson va tabiat o'rtasidagi garmonik munosabatlarning chuqur tushunchalarini o'zida mujassam etgan" [3]. Bu fikr xalqaro ekologik adolatni ta'minlashda turli madaniy qadriyatlar integratsiyasining ahamiyatini ko'rsatadi.

Ekologik adolat masalasiga ijtimoiy-falsafiy yondashuvda, M. Kastells zamonaviy tarmoqli jamiyat sharoitida global axborot almashinuvi va ekologik ongni shakllantirishning o'zaro aloqadorligini ochib beradi: "Tarmoq jamiyati global ekologik muammolarni hal etishda yangi hamkorlik shakllarini yaratadi" [4]. Bu yondashuv ekologik ma'lumot shaffofligi va jamoatchilik ishtirokining ahamiyatini ko'rsatadi.

Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha amaliy qo'llanmalarda R. Kaplan ta'kidlaydiki: "Har bir inson o'z sayyoramizni muhofaza qilishda faol rol o'ynashi kerak" [5]. Bu fikr jamoatchilik mas'uliyati va ekologik faollikning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kelajak avlodlarning hayot sifatini ta'minlash borasida Mustaqil komissiya hisobotida qayd etilishicha: "Kelgusi o'n yilliklarni yashashga arzigulik hayotni ta'minlash – zamonaviy avlodning asosiy vazifasidir" [6]. Bu xulosa avlodlararo adolat tamoyilining ahamiyatini asoslaydi.

I.E. Kohen o'z tadqiqotida global aholi o'sishi va ekologik resurslar muammosiga to'xtalib, planetaning sig'im qobiliyatini hisobga olgan holda adolatli resurslar taqsimlanishini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi: "Er qancha odamni bardosh bera oladi, degan savol nafaqat biologik, balki ijtimoiy adolat masalasidir" [7].

Xalqaro hamkorlik va ekologik siyosat transformatsiyalari borasida muhim tadqiqotlar olib borilgan. O'zbekistonlik olim E.M. Usmanov globallashuv jarayonida ekologik siyosatning filosofik-metodologik jihatlarini tahlil qilgan [8]. Muallif xalqaro ekologik hamkorlikning zamonaviy shakllari va ular samaradorligini oshirish yo'llarini asoslagan.

Ekologik madaniyat va ongni shakllantirish masalalari U.G'. Saidova tomonidan tarixiy rivojlanish kontekstida o'rganilgan [9]. Tadqiqotda ekologik qadriyatlarning shakllanish bosqichlari va ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati ko'rsatilgan.

O'zbekistonda ekologik muammolarning ijtimoiy-falsafiy tahlili A.K. Berdimuratova tomonidan amalga oshirilgan [10]. Muallif Orol havzasi fojiasi misolida ekologik inqirozning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy oqibatlarini chuqur tahlil qilgan.

**Tahlil va natijalar.** Xalqaro ekologik adolatning nazariy asoslari zamonaviy sharoitda qayta ko'rib chiqilishi zarur. An'anaviy yondashuvlarda ekologik adolat asosan milliy chegaralar doirasida ko'rib chiqilgan bo'lsa, globallashuv jarayonlari bu tushunchani kengaytirishni taqozo etadi. Ekologik adolat endi nafaqat bir davlat doirasida, balki butun insoniyat va kelajak avlodlar nisbatida ham qo'llanilishi kerak.

Transchegaraviy mas'uliyat tamoyili shundan iboratki, bir davlat hududida amalga oshirilgan faoliyat boshqa davlatlar yoki global ekotizimga salbiy ta'sir ko'rsatgan taqdirda, zarar yetkazuvchi tomon to'liq javobgar bo'lishi kerak. Biroq, amaliyotda bu prinsipning amalga oshirilishi qator qiyinchiliklarga duch keladi. Birinchidan, ekologik zararining manbaini aniq aniqlash qiyin. Ikkinchidan, zararining miqdoriy va sifat jihatdan baholash murakkab. Uchinchidan, xalqaro huquqiy mexanizmlarning majburiy kuchi cheklangan.

“Umumiy va differensiallashgan javobgarlik” prinsipi 1992-yildagi Rio-de-Janeyro Konferensiyasida qabul qilingan ekologik adolatning asosiy tamoyillaridan biridir. Bu prinsip ikki asosiy elementni o'z ichiga oladi: birinchidan, barcha davlatlar global ekologik muammolarni hal etishda umumiy mas'uliyatga ega; ikkinchidan, bu mas'uliyat har bir davlatning rivojlanganlik darajasi, tarixiy hissasi va imkoniyatlariga qarab differensiallashtiriladi.

Bu prinsipning falsafiy asosi adolat, tenglik va insofparvarlik qadriyatlariga asoslanadi. Rivojlangan mamlakatlar sanoatlashuv jarayonida atmosferaga asosiy parnik gazlarini chiqargan va ekologik inqirozga eng katta hissa qo'shgan. Shu sababli, ular ekologik adolat nuqtai nazaridan ko'proq mas'uliyat yuklashi va rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy va texnologik yordam ko'rsatishi kerak.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning holati esa murakkabdir. Ular bir tomondan kambag'allikni bartaraf etish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash zaruriyati bilan, ikkinchi tomondan ekologik barqarorlikni saqlash mas'uliyati bilan yuzma-yuz turibdilar. Bu vaziyatda xalqaro hamjamiyat tomonidan adolatli yondashuv zarur – rivojlanayotgan mamlakatlarga barqaror texnologiyalarga o'tishda yordam ko'rsatish va ularning rivojlanish huquqini tan olish.

Ekogumanistik yondashuv nuqtai nazaridan qaraganda, ekologik adolat inson va tabiat o'rtasidagi garmonik munosabatlarni qayta tiklashni taqozo etadi. Inson tabiatdan ustun emas, balki uning ajralmas qismi sifatida o'z faoliyatida biosferaning qonuniyatlarini hisobga olishi shart. Bu esa antropotsentrik dunyoqarashdan biotsentrik yoki ekotsentrik dunyoqarashga o'tishni anglatadi.

Zamonaviy texnologik rivojlanish ekologik muammolarni hal etishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, “yashil” texnologiyalar, iqtisodiyotning aylanma modeli kabi innovatsiyalar ekologik yukni kamaytirish va barqaror rivojlanishga o'tishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, bu texnologiyalarga keng miqyosda kirish imkoniyatining tengsizligi yangi shakldagi ekologik adolatsizliklarni keltirib chiqarmoqda.

Iqlim o'zgarishi masalasi xalqaro ekologik adolatning eng dolzarb jihatlaridan biridir. Parnik gazlari emissiyasining asosiy qismini rivojlangan mamlakatlar chiqargan bo'lsa-da, iqlim o'zgarishining eng og'ir oqibatlarini kambag'al va rivojlanayotgan mamlakatlar

tortmoqda. Dengiz sathining ko'tarilishi, qurg'oqchilik, ekstremal ob-havo hodisalari birinchi navbatda eng zaif qatlamlarga zarar yetkazmoqda. Bu vaziyat xalqaro iqlim siyosatida adolat prinsiplarini qat'iy qo'llashni taqozo etadi.

Bioxilma-xillikni saqlash masalasida ham ekologik adolat muhim rol o'ynaydi. Jahon biologik resurslarining asosiy qismi rivojlanayotgan tropik mamlakatlarda joylashgan. Biroq, bu resurslardan tijorat maqsadida rivojlangan mamlakatlar korporatsiyalari foydalanmoqda. «Biologik qurollanish» deb ataluvchi jarayon – genetik resurslarni patentlash va ixtiyoriga olish – yangi turdagi ekologik adolatsizlikni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, biologik resurslardan foydalanishda adolatli mexanizmlarni yaratish zarur.

Ekologik ma'lumot shaffofligi va jamoatchilik ishtirokini ta'minlash ham ekologik adolatning muhim jihatidir. Atrof-muhit holati haqida to'liq va ishonchli axborotga ega bo'lish, ekologik qarorlar qabul qilishda ishtirok etish huquqi barcha xalqlarga tegishlidir. Biroq, ko'pgina hollarda bu huquqlar amalda cheklangan, ayniqsa avtoritar tuzumga ega mamlakatlarda.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ekologik adolat masalasi alohida dolzarbdir. Orol dengizi fojiasi, suv resurslari tanqisligi, tuproqning degradatsiyasi kabi muammolar mamlakatning ekologik xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Bu muammolarning ko'pchiligi sobiq ittifoq davrida qabul qilingan noto'g'ri qarorlarning oqibatidir. Shu sababli, xalqaro hamjamiyat tomonidan yordam ko'rsatish va tarixiy mas'uliyatni tan olish zarur.

Kelajakka qaraganda, xalqaro ekologik adolatni ta'minlash uchun qator muhim qadamlar zarur. Birinchidan, xalqaro ekologik huquq tizimini mustahkamlash va unga majburiy xarakter berish kerak. Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga real moliyaviy va texnologik yordam ajratish zarur. Uchinchidan, ekologik ma'lumot va texnologiyalar almashinuvini osonlashtirish kerak. To'rtinchidan, jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va ekologik ongini oshirish bo'yicha global dasturlar ishlab chiqish lozim.

**Xulosa va takliflar.** Xalqaro ekologik adolatni ta'minlash va transchegaraviy mas'uliyat prinsiplarini amalga oshirish zamonaviy insoniyat oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. «Umumiy va differensiallashgan javobgarlik» prinsipi ekologik adolatning nazariy asosini tashkil etadi va barcha davlatlarning global ekologik muammolarni hal etishda ishtirok etishi zaruratini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, ekologik adolat tushunchasi kengaytirilishi va nafaqat zamonaviy, balki kelajak avlodlar manfaatlari ham hisobga olingan holda qo'llanilishi zarur. Avlodlararo adolat prinsipi ekologik siyosatning asosiga qo'yilishi kerak.

Ikkinchidan, transchegaraviy mas'uliyat mexanizmlarini ishlab chiqishda xalqaro huquqiy asoslarni mustahkamlash va ularni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi. Ekologik zarar yetkazilganda kompensatsiya to'lash tizimi aniq me'yorlarga ega bo'lishi lozim.

Uchinchidan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida texnologiya va moliyaviy resurslar transferi samarali mexanizmlarini yaratish zarur. Bu borada «yashil iqlim fondi» kabi xalqaro moliyaviy institutlarning faoliyatini kuchaytirish lozim.

To'rtinchidan, ekologik ma'lumot shaffofligi va jamoatchilik ishtirokini ta'minlash bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kerak. Ekologik qarorlar qabul qilishda barcha manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlanishi shart.

Beshinchidan, ekologik ong va madaniyatni oshirish bo'yicha global ta'lim dasturlarini ishlab chiqish zarur. Ekogumanistik qadriyatlarni shakllantirish barcha darajadagi ta'lim tizimiga integratsiya qilinmog'i lozim.

Oltinchidan, iqlim o'zgarishi bilan kurashishda rivojlangan mamlakatlarning tarixiy mas'uliyatini rasman tan olish va buni amaliy kompensatsiya dasturlariga aylantirish kerak.

Yettinchidan, bioxilma-xillikni saqlash va genetik resurslardan foydalanishda adolatli taqsimlash prinsiplarini qat'iy qo'llash zarur. Biologik resurslar joylashgan davlatlar va ulardan foydalanuvchi korporatsiyalar o'rtasida adolatli shartnomalar tuzilishi kerak.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Brown L.R. Building a sustainable society. – New York: Norton, 1981. – 433 p.
2. Commoner B. The Closing Circle. Nature, Man and Technology. – New York: Knopf, 1971. – 326 p.
3. Callicott J.B. Conceptual resources for environmental ethics in Asian traditions of thought: A propaedeutics // Philosophy East and West. – 1987. – Vol. 37, №2. – P. 115-130.
4. Castells M. The rise of the network society. – Oxford; Maiden, MA: Blackwell Publishers, 1996. – 594 p.
5. Caplan R. Our earth, ourselves: The action-oriented guide to help you protect and preserve our planet. – New York: Bantam Books, 1990. – 340 p.
6. Caring for the future: Making the next decades provide a life worth living: Report of the Independent Commission on population and quality of life. – Oxford; New York: Oxford University Press, 1996. – 359 p.
7. Cohen J.E. How many people can the earth support? – New York: Norton, 1995. – 532 p.
8. Усманов Э.М. Социально-философский анализ глобализации экологической политики: Докторлик диссертацияси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2007.
9. Саидова У.Ф. Экологик маданият тарихи ва унинг ривожланиш босқичлари: Фалсафа фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2006.
10. Бердимуратова А.К. Философско-методологические проблемы современной экологической ситуации (на материалах Приаралья): Докторлик диссертацияси. – Тошкент, 1999.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **THE IMPORTANCE OF USING THE EXPERIENCE OF ENLIGHTENED PEOPLE IN IMPROVING THE MORAL THINKING AND CULTURE OF YOUTH**

**Rakhmonov Shohzod Husan o'glu**

Independent researcher

Institute of Social and Spiritual Research

at the Republican Center for Spirituality and Enlightenment

**Abstract.** The activities of enlighteners in the neighborhood environment are becoming the most natural form of instilling the criteria of national pride, patriotism, humanity, tolerance and moral responsibility for young people. The moral thinking of young people is an indicator of the level of their spiritual attitude to life, society, and their own personal responsibility. In the formation of this thinking, the life experience, social beliefs, and moral position of enlighteners play an important role. Their life is a real manifestation of moral consciousness - values such as dedication to work, loyalty to faith, conscience and a sense of justice, human kindness and tolerance are embodied in their activities. For young people, such qualities are perceived not as words, but as a living example.

**Keywords:** global information flows, digital spiritual mentoring, dialectical thinking, synthesis, hierarchy of values, socio-philosophical analysis, socio-philosophical process.

## **YOSHLAR AXLOQIY TAFAKKURI VA MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA NURONIYLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Raxmonov Shohzod Husan o'g'li**

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi

huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mahalla muhitida nuroniylar faoliyati yoshlar uchun milliy g'urur, vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik va axloqiy mas'uliyat mezonlarini singdirishning eng tabiiy shakliga aylanmoqda. Yoshlarning axloqiy tafakkuri – bu ularning hayotga, jamiyatga, o'z shaxsiy mas'uliyatiga bo'lgan ma'naviy munosabatining darajasini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Ushbu tafakkurning shakllanishida nuroniylar hayotiy tajribasi, ijtimoiy e'tiqodi va axloqiy pozitsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning hayoti axloqiy ongning real ko'rinishidir – mehnatga fidoyilik, e'tiqodga sadoqat, vijdon va adolat tuyg'usi, insoniy mehr va bag'rikenglik singari qadriyatlar ularning faoliyatida mujassam. Yoshlar uchun bunday fazilatlar so'z emas, balki hayotiy namuna sifatida qabul qilinadi.

**Kalit so'zlar:** global axborot oqimlari, raqamli ma'naviy mentorlik, dialektik fikrlash, sintezlash, qadriyatlar iyerarxiyasi, ijtimoiy – falsafiy tahlil, ijtimoiy – falsafiy jarayon.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N12>

Mahallada nuroniylar faoliyatini yoshlar tarbiyasidagi ma'naviy jarayonlar bilan uyg'un holda rivojlantirish jamiyatning ma'naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Hozirgi yosh avlod global axborot oqimlari, raqamli madaniyat, sivilizatsion tafvutlar va yangi axloqiy ziddiyatlar muhitida voyaga yetmoqda. Bunday sharoitda nuroniylarning tajribasini an'anaviy shakllardagina emas, balki zamonaviy axborot vositalari, madaniy kommunikatsiya platformalari, interfaol muloqot tizimlari orqali tatbiq etish zarur. Ularning tajribasi yoshlar

ongiga bevosita ta'sir qiluvchi ma'naviy – psixologik resurs sifatida qaralmoqda. Innovatsion yondashuv nuroniylar faoliyatini “raqamli ma'naviy mentorlik” [9] darajasiga olib chiqadi, ya'ni ularning hikmatlari, hayotiy saboqlari va tajribasi ijtimoiy tarmoqlar, multimedia resurslari va ma'rifiy loyihalar orqali keng ommaga yetkazilishi mumkin. Bu esa, nuroniylarning tajribasini zamonaviy muloqot vositalari bilan uyg'unlashtirib, yoshlar ma'naviy tarbiyasining yangi modelini shakllantiradi. Natijada, ma'naviy tarbiya jarayoni yangicha shaklda davom etadi. Nuroniylar tajribasi – yoshlar tafakkurining zamonaviy tarmoq madaniyati bilan sintezlashadi.

Zamonaviy jamiyatda yoshlar axloqiy tafakkurining shakllanishi va ma'rifiy madaniyatining yuksalishi ko'p omilli ijtimoiy – falsafiy jarayon bo'lib, unda tarixiy tajriba, madaniy xotira va ma'naviy uzviylik alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, nuroniylar – ya'ni, jamiyatning hayotiy tajribasi boy qatlamining faol ishtiroki ushbu jarayonlarda asosiy gnoseologik va aksiologik manba sifatida namoyon bo'ladi. Ularning faoliyati yoshlar ongida axloqiy me'yorlar va ma'rifiy qadriyatlar tizimini barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy – falsafiy kuchdir. Bunda nuroniylik faqat yosh farqi emas, balki ijtimoiy ongda ilgari surilgan fazilatlar, donolik va fidoyilikning mukammal timsoli sifatida qaraladi. Yoshlarning axloqiy tafakkuri asosan jamiyatda tan olingan axloqiy me'yor va qadriyatlar asosida shakllanadi. Bu jarayonda nuroniylar real tajribalari orqali yosh ongida “normativ tafakkur” ni kuchaytiradi. G.Yo'ldoshev bu haqda shunday ta'kidlaydi: “Yoshlar ongida axloqiy o'zlikni shakllantirish faqat ta'lim vositasida emas, balki axloqiy namuna orqali amalga oshiriladi. Nuroniylar bu jarayonda madaniy oraliq bo'lib xizmat qiladi”[1].

Ayniqsa, ma'rifiy madaniyatni yuksaltirishda nuroniylarning roli yoshlar ongida bilimga asoslangan tafakkur, tanqidiy mushohada va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'otadi. Ma'rifiy madaniyat bu yerda nafaqat bilim olish, balki ongli tanlash, qadriyatlar iyerarxiasini to'g'ri belgilash qobiliyati sifatida talqin etiladi. Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlod ongida axloqiy tafakkurni shakllantirish va ma'rifiy madaniyatni yuksaltirish jamiyat barqarorligining gumanitar asosi sifatida ko'zga tashlanadi. Bu jarayon ijtimoiy ongda tarixiy xotira, madaniy uzviylik va avlodlararo uzluksizlik tamoyillari negizida shakllanadi. Ayniqsa, nuroniylar faoliyatining ijtimoiy – falsafiy mohiyatini tahlil etish yoshlar tarbiyasida ma'naviy – madaniy transformatsiyaning zamonaviy mexanizmlarini anglash imkonini beradi. Sh.R.Ro'zmetov qayd etganidek, “nuroniylar jamiyatda ijtimoiy xotirani barqarorlashtiruvchi tirik manba sifatida, avlodlar o'rtasida ma'naviy ko'priklar vazifasini bajaradi”[2].

Nuroniylarning yoshlar bilan bevosita muloqotda bo'lishi, ularning fikrini inkor etmasdan, balki ko'makchi sifatida yo'naltirishi, yoshlar ongida ijtimoiy mas'uliyat, o'zligini anglash, madaniy identifikatsiya jarayonlarini tezlashtiradi. Yoshlar axloqiy tafakkuri, ijtimoiy – falsafiy tahlilda, insonning jamiyatdagi xatti – harakatlarini qadriyatlar mezonida ongli tarzda tanlab baholash va hayotga tatbiq etish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bu esa, insonning ongli faoliyatining mohiyatini, axloqiy tanlovlar orqali shakllanadigan erkinlik va mas'uliyatni o'z ichiga oladi. Nuroniylarning tajribasi ushbu axloqiy tafakkurning shakllanishida o'tmishdan kelajak sari uzluksiz bog'lovchi muhim manbadir. Ular hayotiy saboqlari orqali axloqiy muammolarni real voqeliklar orqali misollashtiradi, bu esa, yosh ongida abstrakt tushunchalarni konkret hayotiy mazmunga aylantiradi. A.Salomov ta'kidlaganidek, “nuroniylar o'z hayot yo'llari bilan yoshlar uchun nafaqat namunaviy obraz, balki jamiyatdagi axloqiy orientir ham bo'lib xizmat qiladi”[3].

Yoshlarning axloqiy tafakkuri va ma'rifiy madaniyatini yuksaltirish masalasi har qanday jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning ham, ma'naviy yangilanishning ham tamal toshi sanaladi. Bu jarayon ayniqsa, post-an'anaviy va digital transformatsiya kuchayib borayotgan davrda ijtimoiy – falsafiy tahlilni talab qiladigan murakkab hodisadir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, nuroniylar tajribasi nafaqat avlodlar o'rtasidagi ma'naviy ko'prik, balki axloqiy qarorlar qabul qilishda oriyentir bo'luvchi g'oyaviy manba sifatida e'tirof etilishi zarur. Sababi, ular insoniy munosabatlarning, ijtimoiy qadriyatlar va tarixiy xotiraning jonli tashuvchisi sifatida, axloqiy tafakkurning uzluksizligini ta'minlovchi muhim subyektlardir.

Nuroniylar yoshlar bilan olib boradigan muloqotida faqat saboq beruvchi emas, balki dialektik fikrlashga undovchi fikrlar almashinuvining faollashtiruvchisidir. Ular milliy qadriyatlar va umuminsoniy mezonlar o'rtasidagi tafovut va uyg'unlikni ongli anglashga yo'naltiradi. Masalan, R.Mahmudov shunday yozadi: "Nuroniylarning jamiyatdagi o'rni, ayniqsa, yoshlar orasida ma'naviy immunitetni shakllantirishda ko'proq seziladi. Bu immunitet esa, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani qadrlash va ongli fuqarolik pozitsiyasini egallashda asosiy resursdir"[4].

Yoshlarning axloqiy tafakkuri – bu ularning voqelikni anglash, unga nisbatan baho berish va shu asosda harakat qilish qobiliyatidir. U ayni paytda, jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy mezonlarni o'zlashtirish va ularni shaxsiy faoliyatda qo'llashga asoslanadi. Shu jihatdan, nuroniylarning hayotiy saboqlari axloqiy tafakkurni shakllantirishda bevosita g'oyaviy resurs bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning murakkab va ko'p qatlamli jarayonlarida yoshlar axloqiy tafakkuri va ma'rifiy madaniyatini shakllantirish masalasi nafaqat pedagogik yoki sotsiologik, balki chuqur ijtimoiy – falsafiy yechimlarni talab qiladigan strategik masalaga aylangan. Ayniqsa, bu yo'nalishda nuroniylar – ya'ni, ijtimoiy ongning tarixiy – tajriba sohibi sifatida qaraluvchi avlod vakillari – axloqiy yo'naltiruvchi, qadriyatlar targ'ibotchisi va intellektual tayanch nuqtasi sifatida alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Nuroniylar bilan yoshlar o'rtasidagi muloqot, jamiyatdagi ma'naviy meros uzviyligining muhim mexanizmi bo'lib, bu holatning mohiyati falsafiy jihatdan "ijtimoiy xotira orqali ijtimoiy kelajakni qurish" tamoyiliga asoslanadi.

Avvalo, axloqiy tafakkurning shakllanishi – bu shaxsiy erkinlik, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy ong birligidan iborat murakkab g'oyaviy-didaktik hodisadir. Shuning uchun ham u turfa ta'sirlar bilan shakllanadi, lekin eng samarali ta'sirlar aynan bevosita hayotiy tajriba va real amaliyot orqali yuzaga keladi. Bunda nuroniylar – ya'ni, "hayotiy donishmandlik" sohiblari – yoshlar ongida ijtimoiy qadriyatlarning afzalligi va barqarorligini isbotlab bera oladigan manba sifatida namoyon bo'ladi. X.Abdullaev ta'kidlaganidek, "Nuroniylarning axloqiy idealga sodiqligi yoshlar uchun harakat mezoniga aylanmog'i lozim. Aks holda, jamiyatning ma'naviy yadrosi yemiriladi"[5].

Taklif Mahallalarda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida nuroniylarning hayotiy tajribasiga asoslangan reflektiv muloqot usullarini keng joriy etish tavsiya etiladi. Bunda pand-nasihatdan ko'ra, hayotiy voqealar orqali ma'naviy xulosa chiqarishga yo'naltirilgan yondashuv, yoshlar axloqiy tafakkurining shakllanishiga xizmat qiladi

Xulosa Natijaviy jihatdan aytganda, yoshlar axloqiy tafakkurini yuksaltirish jarayoni – bu ijtimoiy – madaniy merosning dinamik ravishda avloddan – avlodga o'tishini ta'minlaydigan ijtimoiy – falsafiy mexanizmdir. Bu mexanizmda nuroniylarning tajribasi o'ziga xos axloqiy

mediator, ya'ni jamiyat axloqiy barqarorligini kafolatlovchi madaniy ko'prik sifatida e'tirof etilishi lozim. Ular orqali yosh avlod faqat tarixiy saboqlarni emas, balki axloqiy kelajakni ham o'z ongida loyihalab boradi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Yo'ldoshev G'. Axloq va ma'naviyat muammolari. – Toshkent: Fan, 2015. – 160 b. (113-bet).
2. Ro'zmetov Sh. R. Yoshlar tarbiyasida ma'naviy qadriyatlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022. – 132 b. (38-bet).
3. To'xtayeva M. Yoshlar va tarixiy ongning sotsiologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 114.
4. G'aniyev A. Ijtimoiy ong va tarixiy tajriba. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2021. – B. 67.
5. Qodirova F. Zamonaviy tafakkur va g'oyaviy meros. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – B. 104.
6. Rahimov B. G'oya va ijtimoiy birdamlik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019. – B. 78.
7. Salimov A. Raqamli jamiyat va milliy ong. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 117.
8. Karimova I., Madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy uyg'unlik, – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2021. – B. 91.
9. Salomov A. Ijtimoiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – 120 b. (94-bet).
10. Mahmudov R. Yoshlar tarbiyasida tarixiy xotiraning o'rni. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 136 b. (112-bet).

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **THE SOCIO-PHILOSOPHICAL MODEL OF THE MORAL IMAGE OF LEADERSHIP PERSONNEL**

**Oripov Shuxratjon Orip o'g'li**

Independent Researcher

Institute of Social and Spiritual Studies

under the Republican Center for Spirituality and Enlightenment

E-mail: [shuxrat.orif@gmail.com](mailto:shuxrat.orif@gmail.com)

**Abstract.** This article examines the socio-philosophical model of the moral image of leadership personnel in the context of contemporary society. Leadership is interpreted not merely as a set of managerial and organizational competencies, but as a social phenomenon grounded in moral responsibility, ethical norms, and public trust. Particular attention is paid to the impact of digital transformation and technologically mediated governance on the moral image of leaders. The study argues that the moral image of leadership personnel is not simply a collection of individual moral traits, but a complex model formed through the interaction of social consciousness, institutional structures, and technological factors.

**Keywords:** leadership personnel, moral image, social philosophy, public trust, moral responsibility, digital governance, technological environment.

## **RAHBAR KADRLAR MA'NAVIY QIYOFASINING IJTIMOY-FALSAFIY MODELI**

**Oripov Shuxratjon Orip o'g'li**

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada rahbar kadrlar ma'naviy qiyofasining ijtimoiy-falsafiy modeli zamonaviy jamiyat sharoitida tahlil qilinadi. Tadqiqotda rahbarlik faoliyati faqat boshqaruv va tashkiliy kompetensiyalar bilan emas, balki ma'naviy mas'uliyat, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy ishonch bilan uzviy bog'liq ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Raqamli transformatsiya va texnologik boshqaruv sharoitida rahbar ma'naviy qiyofasining shaffoflik, javobgarlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi roli asoslab beriladi. Maqolada rahbar ma'naviy qiyofasi individual fazilatlar majmui emas, balki ijtimoiy ong, institutsional muhit va texnologik omillar o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi murakkab model sifatida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** rahbar kadrlar, ma'naviy qiyofa, ijtimoiy falsafa, ijtimoiy ishonch, axloqiy mas'uliyat, raqamli boshqaruv, texnologik muhit.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N13>

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda boshqaruv tizimlarining murakkablashuvi, raqamli texnologiyalarning jadal rivoji hamda ijtimoiy munosabatlarning ko'p qirrali tus olishi rahbar kadrlar shaxsiga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda rahbarlik faqat tashkiliy-ma'muriy vakolatlar yoki boshqaruv texnologiyalarini egallash bilan cheklanmay, balki jamiyatda ma'naviy me'yorlarni shakllantirish, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash va axloqiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati bilan ham belgilanmoqda. Shu jihatdan

rahbar kadrlar ma'naviy qiyofasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurning muhim tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

Beruniyning yondashuvi asosan gnoseologik bo'lib, unda insonning huquqiy mas'uliyati to'liq ochib berilmaydi. Ayni jihatdan, u faqat epistemik ongni asos qilib olgan bo'lsa-da, bu holatni huquq falsafasida faqat bilish bilan cheklab bo'lmasligi, balki javobgarlik va majburiyat doirasida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Abu Ali ibn Sino insonning atrof-muhit bilan bo'lgan aloqalarini “sezgi, tasavvur va tafakkur orqali idrok qiluvchi hodisalar orqali ongda mujassamlashadi” deb ta'riflagan. Ibn Sinoning ushbu yondashuvi insonni faol biluvchi va ongli subyekt sifatida ko'rsatadi. Ayniqsa, uning ekologik ongni ongli harakatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy amaliyotlar bilan uyg'unlikda tushunishga qaratilgan pozitsiyasi huquq falsafasida sezilarli ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining “Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonunida “fuqarolarning sog'lom va xavfsiz muhitda yashash huquqi” kafolatlangan bo'lsa-da, u bilan bir qatorda “tabiatni asrash burchi” haqida aniq mexanizmlar yetarli emas. Demak, ekologik va huquqiy ong uyg'unligi samarador bo'lishi uchun, huquq faqat erkinlikni emas, balki majburiyatni ham ifoda etuvchi mexanizm sifatida qayta talqin qilinishi zarur [2].

Zamonaviy huquq falsafasi yondashuvida ekologik va huquqiy ongning uyg'unligi “Tabiat–Jamiyat–Inson” tizimi doirasida nafaqat ijtimoiy ong shakllarining o'zaro sintezini, balki mavjudlikning aksiologik mohiyatini ham o'zida mujassam etgan murakkab struktura sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizim, mohiyatan, inson tafakkurining tabiat bilan olib borgan tarixiy-madaniy, axloqiy va huquqiy muloqoti natijasidir. Bunday yondashuvda huquq falsafasi, ekologik ongni ijtimoiy huquqiy ong bilan uyg'un holda izohlash orqali, ongli faoliyatning normativ va aksiologik mezonlarini mustahkamlashga urinadi.

Ekologik ong insonning tabiatni obyektiv ekspluatatsiya manbai sifatida emas, balki huquqiy va axloqiy dialog subyektini sifatida anglashini taqozo etadi. Biroq ushbu dialektik birlikni tasvirlashda yetarlicha paradokslar mavjud. Huquqiy ong, ko'pincha, ijtimoiy normalar tizimiga asoslangan bo'lib, “normativ sanksiyalar” va “konstitutsiyaviy legitimlik” asosida amal qiladi. Ekologik ong esa ko'proq aksiologik-intuitiv asosga tayangan axloqiy ong shaklidir. Boshqacha aytganda, ekologik ong axloqiy irodaga tayanadi, huquqiy ong esa davlat apparatining institutsional kuchiga. Ular orasidagi uyg'unlik faqatgina huquqiy aksiologik yondashuv orqali, ya'ni huquqning faqat davlat tomonidan emas, balki axloqiy ong orqali ham asoslanishi bilan yuzaga keladi [6].

Ekologik madaniyatning rivojlanish jarayoni “barqaror rivojlanish” konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq. Bu konsepsiya inson faoliyatining ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini yagona tizimda uyg'unlashtirishni ko'zda tutadi

Ekologik madaniyatning huquqiy jihatdan shakllanishi, avvalo, ekologik qonunchilik tizimining rivoji, ekologik huquqlarni kafolatlovchi institutlarning mavjudligi va ularni amalda qo'llash bilan belgilanadi. Shuningdek, ekologik madaniyatning shakllanishi iqtisodiy, axborot-kommunikatsion va madaniy omillar bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi globallashuv sharoitida urbanizatsiya, sanoatlashuv va iste'mol jamiyati jarayonlari ekologik ongni shakllantirishda ikki tomonlama rol o'ynaydi: bir tomondan, ular atrof-muhitga salbiy ta'sirni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, ekologik masalalarni hal etish uchun yangi texnologik imkoniyatlarni yaratadi. Shuning uchun ekologik madaniyat – bu faqat nazariy tushuncha emas, balki ijtimoiy-huquqiy va axloqiy faoliyat tizimidir [3].

Ekologik madaniyat – bu inson va tabiat o'rtasidagi huquqiy, axloqiy va ma'naviy uyg'unlikning falsafiy shaklidir. Uning rivoji jamiyatdagi barqarorlikni, ekologik adolatni va

kelajak avlodlar farovonligini ta'minlaydi. Shu bois, ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonlari falsafa, huquq, iqtisod va axloq fanlari chorrahasida, barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida olib borilishi zarur.

**Xulosa.** Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Tabiat–Jamiyat–Inson" tizimidagi ekologik va huquqiy ongning uyg'unligi, jamiyatni barqaror rivojlantirish va insonni ongli ijtimoiy-huquqiy subyekt sifatida shakllantirishda fundamental falsafiy omildir. Bu uyg'unlik faqat normativ-huquqiy hujjatlar orqali emas, balki falsafiy-ma'naviy asoslar orqali chuqur integratsiyalashgan bo'lishi kerak.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Ibn Sino. Kitob un-najot. – T.: Shark, 1986. – 224 b.
3. Karimov A. Tabiat–Jamiyat–Inson: Falsafiy-huquqiy model. // Ilm va taraqqiyot. – 2021. – B. 136.
4. Karimov I.A. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 65 b.
5. Qo'yliyev T. Ekologik madaniyatning shakllanish va rivojlanish xususiyatlari. – T.: XT "Rizayev M.X.", 2007.
6. Shukurov R. Ekologik ong va antropotsentrizm. // Tafakkur. – 2020. – №3. – B. 43.

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES**

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

**LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS OF EUPHEMIZATION AND MITIGATION STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK DIPLOMATIC DISCOURSE**

**Musayev Akmalbek Ibragimdjanovich**

docent, PhD of Philological sciences

Andijan State Institute of Foreign Languages

E-mail: [akmalbekibragimovich@gmail.com](mailto:akmalbekibragimovich@gmail.com)

**Abstract.** This article provides a scholarly analysis of the linguopragmatic features of euphemization and mitigation strategies in English and Uzbek diplomatic discourse. In diplomatic communication, euphemization functions as a key communicative tool for ensuring political restraint, preventing escalation, preserving face, creating a positive interactional backdrop, and defusing conflict. The relevance of the study is determined by the fact that euphemization acquires distinct linguo-cultural meanings in global diplomatic exchanges and in national political rhetoric. In English diplomatic statements, mitigation formulas such as express concern, regret the incident, and could have been handled differently serve to convey official discontent indirectly, avoid harsh evaluations, and maintain hierarchical distance in interaction. In Uzbek diplomatic discourse, expressions like vaziyatdan afsus bildiramiz (“we regret the situation”), noziklik bilan e’tirof etildi (“it was acknowledged with sensitivity”), and muloqot uchun imkoniyatlar mavjud (“there are opportunities for dialogue”) soften criticism, uphold the principle of respect, and signal a disposition toward compromise. Alongside uncovering the pragmatic foundations of euphemization, the article also considers a typology of mitigation strategies within the norms of English and Uzbek diplomatic etiquette.

**Keywords:** diplomatic discourse, euphemization, mitigation, linguopragmatics, face-saving, mitigation strategies, politeness strategies, diplomatic etiquette.

**INGLIZ VA O‘ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA EVFEMIZATSIYA VA YUMSHATISH STRATEGIYALARINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI**

**Musayev Akmalbek Ibragimdjanovich**

dotsent, f.f.f.d (PhD)

Andijon davlat chet tillari instituti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek diplomatik diskursida evfemizatsiya va yumshatish strategiyalarining lingvopragmatik xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Diplomatik muloqotda evfemizatsiya siyosiy vazminlikni ta’minlash, keskinlikni oldini olish, yuzni saqlash, ijobiy muloqot fonini shakllantirish va konfliktni bartaraf etishda muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning dolzarbligi evfemizatsiyaning global diplomatik muloqotda va milliy siyosiy nutqda turlicha lingvokulturologik mazmun kasb etishi bilan belgilanadi. Ingliz diplomatik bayonotlarida express concern, regret the incident, could have been handled differently kabi yumshatish formulalari rasmiy norozilikni bilvosita yetkazish, keskin bahodan tiyilish va iyerarxik muloqot masofasini saqlashga xizmat qiladi. O‘zbek diplomatik diskursida esa vaziyatdan afsus bildiramiz, noziklik bilan e’tirof etildi, muloqot uchun imkoniyatlar mavjud kabi ifodalar tanqidni yumshatish, hurmat tamoyilini saqlash va murosaga moyillikni namoyish etadi. Maqola evfemizatsiyaning pragmatik asoslarini ochib berish bilan birga, ingliz va o‘zbek diplomatik etiketi doirasida yumshatish strategiyalarining tipologiyasini ham mushohada qiladi.

**Kalit soʻzlar:** diplomatik diskurs, evfemizatsiya, yumshatish, lingvopragmatika, yuzni saqlash, mitigatsiya, politeness strategiyalari, diplomatik etiket.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N16>

**Kirish.** Diplomatiik diskurs davlatlararo siyosiy muloqotning optimallashtirilgan til tizimi hisoblanib, unda mazmuni toʻgʻridan toʻgʻri emas, balki nazokatli, eʻtiborli, bilvosita usulda ifodalash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois diplomatik muloqotda evfemizatsiya va yumshatish strategiyalari nutqning kommunikativ samarasini oshirish, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomini hurmat qilish va konfliktsiz muloqotni taʻminlashga qaratilgan lingvopragmatik vosita sifatida shakllangan [1, 74]. Evfemizatsiya diplomatik nutqda tanqid va norozilikni maskalash, vaziyatni yumshoq taqdim etish, siyosiy pozitsiyani qattiq toʻqnashuvlarsiz yetkazish va diplomatik etiket doirasida ijobiy muloqot oqimini ushlab turish funksiyalarini bajaradi [2, 53].

Ingliz diplomatik maktabi evfemizatsiyani rasmiy **xushmuomalalik** strategiyasining majburiy komponenti sifatida tatbiq etadi. Bunda yumshatish vositalari illokutiv maqsadni yashirmaydi, biroq perlokutiv taʻsirni moʻtadillashtiradi; masalan, **We note with concern** shakli ochiq tanqid oʻrniga bilvosita ogohlantirish sifatida namoyon boʻladi. Oʻzbek diplomatik nutqida esa evfemizatsiya milliy xushmuomalalik, hurmat va yuzni saqlash madaniyati bilan uygʻunlashadi. Vaziyatdan afsus bildiramiz, nozik masala sifatida koʻrilmoqda kabi birliklar milliy diplomatik etiketning tilga singgan murosaviy ruhini aks ettiradi [3, 66]. Mazkur tadqiqot ingliz va oʻzbek diplomatik diskursida evfemizatsiya vositalarining tipologiyasi, kommunikativ vazifalari, lingvopragmatik oʻrni va milliy-madaniy omillar taʻsirini ilmiy asosda ochib berishga qaratiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ushbu tadqiqot ingliz va oʻzbek diplomatik diskursida evfemizatsiya va yumshatish strategiyalarining lingvopragmatik tabiatini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy, pragmalingvistik, diskursiv va lingvokulturologik metodlar uygʻun holda qoʻllandi. Maqsad evfemizatsiya vositalarining shakllanish omillarini, mazmun yukini, diplomatik muloqotdagi kommunikativ vazifalarini, yuzni saqlash mexanizmlarini va milliy madaniyat bilan bogʻliq semantik-pragmatik oʻziga xosliklarni ilmiy asosda aniqlashdan iborat boʻldi.

Tahlil materiali sifatida **BMT** Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashi bayonotlari, AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi rasmiy deklaratsiyalari, Oʻzbekiston Tashqi ishlar vazirligi axborotlari, Prezidentlar nutqlari, qoʻshma bayonotlar, notalar, matbuot anjumani ssenariylari hamda oliy darajadagi tashriflar yakunlari boʻyicha qabul qilingan hujjatlar tanlab olindi. Matn tanlash mezonlari sifatida rasmiylik darajasi, diplomatik janrga mansubligi, unda evfemizatsiya namunalari mavjudligi hamda muloqot vaziyatining konfliktli yoki nozik masalalarni oʻz ichiga olishi eʻtiborga olindi [1, 74].

Tavsifiy metod orqali evfemizatsiya strategiyalari va yumshatish formulalarining leksik-semantik tarkibi, struktur xususiyatlari va qoʻllanish meʻyorlari aniqlashtirildi. Qiyosiy metod yordamida ingliz va oʻzbek diplomatik diskursida evfemizatsiya vositalarining ekvivalentligi, semantik qamrovi, pragmatik kuchi hamda lingvokulturologik tafovutlari tahlil qilindi [2, 53]. Pragmalingvistik tahlil evfemizatsiya formulalarining illokutiv maqsadni bilvosita yetkazish, perlokutiv taʻsirni muvozanatlashtirish va kommunikativ mojarolarning oldini olishdagi rolini yoritdi [3, 66].

Diskursiv tahlil diplomatik matnlarning real kontekstida yumshatish strategiyalarining ishlatilish mexanizmini aniqlashga xizmat qildi. Xususan, muloqotning keskinlashuv xavfi mavjud bo'lgan nutqlarda, muzokara jarayonlarida, xalqaro munosabatlar bo'yicha baholovchi bayonotlar va jamoatchilikka qaratilgan diplomatik murojaatlarda qo'llangan evfemizatsiya modellari o'rganildi [4, 82]. Lingvokulturologik yondashuv esa evfemizatsiya jarayonida milliy qadriyatlar, siyosiy nutq madaniyati, muomala etiketi, yuzni saqlash tamoyili (face-saving culture) va milliy mentalitet omillarining rolini ochib berdi [5, 95].

Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek diplomatik diskursida evfemizatsiya va yumshatish strategiyalarining lingvopragmatik tabiatini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy, pragmalingvistik, diskursiv va lingvokulturologik metodlar uyg'un holda qo'llandi. Maqsad evfemizatsiya vositalarining shakllanish omillarini, mazmun yukini, diplomatik muloqotdagi kommunikativ vazifalarini, yuzni saqlash mexanizmlarini va milliy madaniyat bilan bog'liq semantik-pragmatik xususiyatlarni ilmiy asosda aniqlashdan iborat bo'ldi.

Tahlil materiali sifatida **BMT** Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashi bayonotlari, AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi rasmiy deklaratsiyalari, O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi axborotlari, Prezidentlar nutqlari, qo'shma bayonotlar, diplomatik notalar, matbuot anjumani ssenariylari va oliy darajadagi tashriflar yakuni bo'yicha qabul qilingan hujjatlar tanlab olindi. Matn tanlash mezonlari sifatida rasmiylik darajasi, diplomatik janrga mansubligi, evfemizatsiya namunalari mavjudligi hamda muloqot vaziyatining konfliktli yoki nozik masalalarni qamrab olishi e'tiborga olindi [1, 74]. Umumiy hisobda ingliz tilida 82 ta, o'zbek tilida 65 ta diplomatik matn tahlil qilindi, bu esa empirik bazaning yetarlilik darajasini ta'minladi.

Tavsifiy metod orqali evfemizatsiya strategiyalarining leksik-semantik xususiyatlari, til birliklarining yuzaki shakli va chuqur mazmuni aniqlashtirildi [2, 53]. Qiyosiy metod ingliz va o'zbek diplomatik diskursida evfemizatsiya vositalarining o'xshashlik va farqlarini, ekvivalentlik darajasini, semantik kuchlanish koeffitsiyentini aniqlash imkonini berdi. Masalan, ingliz tilidagi **We regret the incident** ifodasi neytral yumshatish kuchiga ega deb baholangan bo'lsa, o'zbek tilidagi *Vaziyatdan afsus bildiramiz* varianti yuqori darajadagi hissiy yumshatish effektiga ega ekani qayd etildi [3, 66].

Pragmalingvistik tahlil evfemizatsiya formulalarining illokutiv maqsadni yashirmagan holda, perlokutiv ta'sirni mo'tadillashtirish hamda kommunikativ mojaroni oldini olishdagi rolini ochdi [4, 82]. Bu jarayonda Braun va Levinsonning "face-saving" nazariyasi, Leechning "politeness maxims" prinsiplari, hamda Karasikning "institutsional diskurs" modeli ilmiy tayanch sifatida qo'llandi. Diskursiv tahlil esa muloqot kontekstida evfemizatsiyaning real ishlatilish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi. Xususan, keskin siyosiy bayonotlar, nozik masalalarga doir uchrashuvlar, xalqaro munosabatlardagi keskinlik xavfi mavjud bo'lgan bayonotlar tahlil qilindi.

Lingvokulturologik yondashuv evfemizatsiya jarayonida milliy qadriyatlar, siyosiy muomala etiketi, muloqotda izzat-nafosat tushunchalari, murosa madaniyati va milliy mentalitet omillarining ta'sirini aniqladi [5, 95]. Mazkur yondashuv ingliz diplomatik muhitida strategik neytrallik, vazminlik va institutsional masofani saqlash ustuvor bo'lsa, o'zbek modelida hurmat, yumshoqlik, samimiylik va konfliksiz muloqot madaniyati asosiy o'rin tutishini ko'rsatdi.

**Natijalar.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek diplomatik diskursida evfemizatsiya va yumshatish strategiyalari kommunikativ samaradorlikni ta'minlash, siyosiy munosabatlarda muvozanatni saqlash, ijtimoiy maqomga hurmat bildirish va konfliktning oldini olishda markaziy lingvopragmatik vosita sifatida shakllanganini ko'rsatdi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, ingliz diplomatik matnlarida evfemizatsiya institutsional protokolning majburiy tarkibiy qismi bo'lib, rasmiy norozilik, ogohlantirish yoki tanqidni bilvosita shaklda ifodalash orqali diplomatik vazminlikni saqlashga xizmat qiladi [1, 74]. Masalan, xalqaro xavfsizlik bo'yicha BMT bayonotida **We express deep concern regarding the recent developments** ifodasi to'g'ridan to'g'ri tanqidni bildiruvchi **We condemn** shakli o'rniga qo'llanib, diplomatik xushmuomalalikni saqlagan holda keskinlikni yumshatadi.

O'zbek diplomatik matnlarida evfemizatsiya milliy nutq madaniyati va hurmat tamoyillariga asoslangan holda shakllanadi. O'zbekiston *Tashqi ishlar vazirligi tomonidan berilgan bayonotlarda vaziyatdan afsus bildiramiz, nozik masalaga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashildi, muloqot uchun imkoniyatlar mavjud, barcha tomonlar murosaga intilishi zarur* kabi birliklar keng qo'llanadi [2, 53]. Ushbu shakllar tanqidning kuchini kamaytirish, ayni paytda diplomatik pozitsiyani yo'qotmagan holda bildirish, yuzni saqlash va murosa muhitini yaratish funksiyalarini bajaradi. Qolaversa, o'zbek modelida evfemizatsiya ko'proq hissiy yumshoqlik yuklamasini o'zida mujassam etadi, bu esa milliy muomala etiketi va muloqot madaniyatining diplomatik nutqqa ko'chgan ko'rinishidir [3, 66].

Natijalarga ko'ra, ingliz diplomatik diskursida evfemizatsiya strategiyalari ko'proq rasmiy politeness tamoyillariga, neytral ohang va diplomatik masofani saqlashga tayansa, o'zbek modelida yumshatish vositalari samimiyat, hurmat, iliqlik va ijtimoiy yaqinlik elementlari bilan uyg'unlashgan. Ingliz matnlarida *There is room for improvement, the issue remains sensitive, further clarification is required* kabi konstruktsiyalar mojaroni keskinlashtirmasdan tanqidni yetkazadi [4, 82]. O'zbek matnlarida esa xuddi shu vazifani masalaga aniqlik kiritish zarur, muammo sezgirlik bilan ko'rib chiqilmoqda, vaziyat bo'yicha qo'shimcha muzokaralar o'tkazilishi maqsadga muvofiq kabi shakllar bajaradi [5, 95].

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ikki til diplomatik diskursidagi evfemizatsiya vositalarining qo'llanish chastotasi, semantik kuchi va pragmatik vazifasi siyosiy muloqotning milliy modeli bilan uzviy bog'liqdir. Ingliz diplomatiyasi uchun evfemizatsiya strategiyasi diplomatik masofani saqlash va iyerarxik kommunikatsiyani boshqarish vositasi bo'lsa, o'zbek diplomatiyasida u asosan murosa, iliqlik va munosabatlarni uyg'unlashtirish funksiyasini bajaradi [6, 118].

**Muhokama.** Tahlil natijalari ingliz va o'zbek diplomatik diskursida evfemizatsiya va yumshatish strategiyalari o'xshash kommunikativ maqsadlarni ko'zlasa-da, ularning shakllanishi turli lingvokulturologik omillarga tayangan holda farqlanishini ko'rsatdi. Diplomatik muloqot mohiyatan nizosiz, vazmin va muvozanatli bo'lishi talab etiladi. Shu bois evfemizatsiya diplomatik nutqda bevosita baho berishdan tiyilish, tanqidni nazokat bilan ifodalash va siyosiy ixtiloflarning oldini olishga xizmat qiluvchi muhim strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi [1, 74]. Ingliz diplomatik etiketi an'anaviy ravishda institutsional rasmiylik va protokolga tayanib shakllangani uchun evfemizatsiya bu tizimda, avvalo, vazmin ohangni saqlash va adresantning illokutiv niyatini keskinliksiz yetkazishga xizmat qiladi [2, 53]. *We note with concern* yoki **We acknowledge the challenges** kabi formulalar rasmiy norozilikni

bevosita ayblovsiz yetkazishga imkon yaratadi. Bu kabi konstruksiyalar diplomatik masofani buzmaganda holda tanqidiy mazmunga ega fikrni yetkazish imkonini beradi.

O'zbek diplomatik diskursida evfemizatsiya ko'proq milliy muomala madaniyati va yuzni saqlash tamoyili bilan bog'liq holda shakllanadi [3, 66]. Muloqotda keskin baholashdan tiyilish, salbiy mazmundagi xabarni yumshatib yetkazish, murosa va hurmat muhitini asrash asosiy kommunikativ qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. *Vaziyatdan afsus bildiramiz, masala noziklik bilan ko'rib chiqildi, kelgusida ijobiy yechim topilishiga ishonch bildiriladi* kabi konstruksiyalar diplomatik muloqotni iliqlashtiradi, taraflar o'rtasida ijobiy psixologik fon yaratadi. Bu esa o'zbek diplomatik nutqining murosaviy va ko'proq munosabatga yo'naltirilgan xarakterini ochib beradi [4, 82].

Natijalar evfemizatsiya strategiyalarining illokutiv va perllokutiv ahamiyatini ham yoritdi. Diplomatiya bayonotda evfemizatsiya nafaqat mazmuni yumshatish, balki tinglovchida kerakli psixologik taassurotni shakllantirishga, ijobiy qabul jarayonini boshqarishga, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomini e'tirof etishga qaratilgan [5, 95]. Ingliz nutqida evfemizatsiya vositalari ko'proq neytral semantik maydonda qo'llansa, o'zbek modelida hissiy-ekspressiv yumshatish unsurlari ustunlik qiladi. Bu farq ikki madaniyatning kommunikativ mentaliteti bilan izohlanadi. Ingliz diplomatik muloqoti individualizm, institutsionallik va masofa tamoyillariga asoslangan bo'lsa, o'zbek diplomatik nutqi kollektivizm, hurmat, samimiyat va ijtimoiy yaqinlikka tayanadi [6, 118].

Shuningdek, diplomatik diskursda evfemizatsiya strategiyasi siyosiy vaziyatga ko'ra dinamik xarakter kasb etishi ham kuzatildi. Zo'riqish kuchaygan vaziyatlarda ingliz tarafida de-escalation va constructive engagement singari birliklar qo'llanib, vaziyatni yumshatish ruhiyati saqlangan holda maslahat ohangi kuchayadi. O'zbek matnlarida esa muzokaralar davom ettirilishi maqsadga muvofiq, tomonlar o'zaro hurmat ruhida fikr almashdilar kabi iboralar ishlatiladi. Bu evfemizatsiya nafaqat lingvistik texnika, balki diplomatik muloqotni boshqarish strategiyasi sifatida shakllanganini tasdiqlaydi [7, 131].

Davomiy tahlil shuni ko'rsatadiki, evfemizatsiya diplomatik diskursda faqat lingvistik yumshatish emas, balki strategik muloqot menejmenti sifatida ham namoyon bo'ladi. Xususan, ingliz diplomatiyasida **evfemizatsiya** ko'pincha rasmiy pozitsiyani saqlagan holda "og'irlik markazini ko'chirish" funksiyasini bajaradi. Bunda adresant keskin baho berish o'rniga e'tiborni kelajakdagi hamkorlik, muloqot imkoniyatlari yoki ijobiy istiqbollarga qaratadi. Masalan, **There is a need for further dialogue** shakli mavjud kelishmovchilikni yashirgan holda konstruktiv yechim sari undaydi [8, 144]. Bu strategiya tanqidni e'tirof etish bilan birga vaziyatni yumshoq ton bilan ijobiy tomonga burish imkonini beradi.

O'zbek diplomatik diskursida esa evfemizatsiya ko'pincha munosabatlarni muvozanatlashtirish va tomonlar o'rtasida ijobiy muhitni mustahkamlashga yo'naltirilgan. O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi muloqot matnlarida hamkorlik ruhini saqlagan holda davom ettirish, taraflar o'zaro hurmat asosida fikr almashdilar, muzokaralar konstruktiv ruhda kechdi kabi ifodalarning qo'llanishi muloqot jarayonida hissiy keskinlikni minimallashtirish vazifasini bajaradi [9, 203]. Bu shakllar evfemizatsiyaning "suhbat ohangini yumshatish" komponenti bilan birga, "qarama-qarshilikni hamkorlik maydoniga ko'chirish" strategiyasini ham ta'minlaydi.

Muhokama davomida evfemizatsiya vositalarining janrga xosligi ham aniqlangan. Rasmiy bayonotlarda evfemizatsiya diplomatik protokol talablariga mos ravishda neytral

ohangda berilsa, matbuotga mo'ljallangan murojaatlarda yumshatish vositalari kengroq qo'llanadi. Bu jarayon ommaviy auditoriya oldida davlat imijini saqlash, xalqaro obro'ni himoya qilish va kommunikativ risklarni kamaytirishga xizmat qiladi [10, 157]. Masalan, xalqaro siyosiy tanqidlar fonida ingliz rasmiy nutqlarida *We would welcome further clarification* iborasi salbiy fikrni yumshatgan holda ifodalaydi, o'zbek kommunikatsiyasida esa mavzuni izoh talab qiladigan jihatlari mavjud shakli tanqidga nisbatan yanada ehtiyotkor ohang beradi [11, 91].

Evfemizatsiya strategiyalarining yana bir muhim jihati ularning madaniyatlararo talqinda turlicha qabul qilinishidir. Ingliz diplomatik auditoriyasi uchun *regret the incident* yetarlicha muloyim yumshatish vositasi hisoblanadi, biroq o'zbek auditoriyasi uchun hissiy jihatdan kuchliroq chuqur afsus bildiramiz shakli tabiiyroq qabul qilinadi [12, 109]. Bu hodisa evfemizatsiyaning semantik kuchi milliy lingvomadaniy kontekstga bog'liqligini ko'rsatadi. Shunday ekan, evfemizatsiya strategiyasining samaradorligi uni qabul qiluvchi madaniyatning nutq odobi me'yorlari, politeness modeli va suhbat psixologiyasiga moslashgan darajasiga bog'liq bo'lib chiqadi.

**Xulosa.** Tadqiqot yakunlari shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek diplomatik diskursida evfemizatsiya va yumshatish strategiyalari funksional jihatdan mushtarak bo'lsa-da, ularning shakllanishi, qo'llanish mexanizmlari va perlokutiv samara yaratish uslubida sezilarli lingvokulturologik farqlar mavjud. Diplomatik muloqot mohiyatan ziddiyatni kuchaytirishga emas, balki konstruktiv munosabatni davom ettirishga, dialogni ochiq qoldirishga va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgani uchun evfemizatsiya strategiyasi xalqaro kommunikatsiyaning ajralmas ilmiy-kognitiv kategoriyasiga aylangan [1, 74]. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, ingliz diplomatik nutqida evfemizatsiya institutsional protokol bilan uzviy bog'langan bo'lib, keskin pozitsiyani yumshatish, adresantning obro'si va maqomini saqlash, siyosiy muvozanatni qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni bajaradi [2, 53]. Bunda semantik neytrallik, ehtiyotkor muloqot, iyerarxik masofani saqlash hamda to'g'ridan to'g'ri ayblovdan tiyilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O'zbek diplomatik diskursida esa evfemizatsiya strategiyasi milliy nutq odobi, muomala madaniyati va hurmat tamoyili bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi [3, 66]. Vaziyatdan afsus bildiramiz, masala noziklik bilan ko'rib chiqildi, tomonlar o'zaro hurmat ruhida fikr almashdilar kabi konstruksiyalar nafaqat yumshatish, balki iliqlik, samimiyat, munosabatlarni uyg'unlashtirish va ijobiy dialog muhitini yaratish vazifalarini bajaradi [4, 82]. Mazkur holat milliy diplomatik nutqning insoniylik, izzat-ikrom va murosaga moyillik kabi qadriyatlarga tayanishini namoyon qiladi.

Demak, ingliz diplomatik modeli evfemizatsiyani normativlik va kommunikativ nazorat vositasi sifatida qo'llaydi, o'zbek modeli esa uni milliy etik qadriyatlar, hurmat, samimiyat va ijtimoiy yaqinlikni ta'minlovchi diplomatik strategiya sifatida shakllantiradi [5, 95]. Evfemizatsiyaning har ikki modelda umumiy vazifasi konfliktni bartaraf etish, muloqotni konstruktiv ruhda davom ettirish, siyosiy dialogni ochiq saqlashdir. Biroq farq shundaki, ingliz nutqida evfemizatsiya asosan semantik neytrallik orqali diplomatik masofani saqlasa, o'zbek nutqida u hissiy yumshoqlik, muomala madaniyati va milliy xushmuomalalik orqali ijtimoiy yaqinlikni kuchaytiradi [6, 118]. Evfemizatsiya diplomatik muloqotda faqat lingvistik yumshatish emas, balki kommunikativ strategiya, madaniy identitet indikator va siyosiy nutqni boshqarish vositasi sifatida namoyon bo'ladi [7, 131]. Ushbu natija kelgusida diplomatik

tarjima, xalqaro uchrashuvlarda nutq strategiyalari, davlat brendingi va siyosiy kommunikatsiya bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot diplomatik pragmatika, lingvokulturologiya va siyosiy tilshunoslik kesishmasida yangi ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos yaratadi [8, 144].

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Safarov Sh. Til va madaniyat munosabati. – Toshkent: Fan, 2018. – 240 b.
2. Nurmonov A. Nutq madaniyati va kommunikativ pragmatika. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 198 b.
3. Karimov B. Diplomatik nutq etiketi va siyosiy lingvistika asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 264 b.
4. To'xliyeva M. O'zbek diplomatik diskursida nutq etiketi vositalari: monografiya. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021. – 176 b.
5. Телия В. Н. Культурно-национальная специфика речевой коммуникации. – М.: Наука, 1996. – 312 с.
6. Комиссарова Л. С. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Просвещение, 2001. – 253 с.
7. Абдуллаева Н. O'zbek va ingliz tillarida diplomatik nutqning lingvopragmatik xususiyatlari. – Toshkent: TDPU, 2022. – 189 b.
8. Brown P., Levinson S. Politeness and Interaction Theory. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 324 p.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **MANIFESTATION OF LINGUOCULTUROLOGICAL COMPETENCE COMPONENTS IN THE TRANSLATIONS OF THE NOVEL “O‘TKAN KUNLAR”**

**Bazarov Zokir Mehrikulovich**

Uzbekistan State World Languages University,  
Dean of the English Faculty No. 2  
E-mail: [zokirbozorov88@gmail.com](mailto:zokirbozorov88@gmail.com)

**Abstract.** This article analyzes the components of linguacultural competence in the English translations of Abdulla Qodiri’s novel “O‘tkan kunlar” (“Bygone Days”). The study examines the representation of concepts, cultural codes, realia, and national mentality through a comparative approach. Translation strategies applied by translators are identified, and the preservation of cultural meaning is evaluated. The findings highlight the crucial role of linguacultural competence in literary translation.

**Keywords:** linguacultural, literary translation, competence, cultural code, realia, concept, national mentality.

### **A.QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI TARJIMALARIDA LINGVOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYA KOMPONENTLARINING IFODALANISHI**

**Bazarov Zokir Mehrikulovich**

O‘zDJTU, Ingliz tili 2-fakulteti dekani

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tiliga qilingan tarjimalarida lingvokulturologik kompetensiyaning asosiy komponentlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida konseptlar, madaniy kodlar, realiyalar va milliy mentalitet unsurlarining tarjimada ifodalanish xususiyatlari qiyosiy yondashuv asosida o‘rganiladi. Tarjimonlar tomonidan qo‘llangan strategiyalar aniqlanib, madaniy mazmunning saqlanish darajasi baholanadi. Natijalar badiiy tarjimada lingvokulturologik kompetensiyaning muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** lingvokulturologiya, badiiy tarjima, kompetensiya, madaniy kod, realiya, konsept, milliy mentalitet.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N17>

**Kirish va Nazariy qismi.** Badiiy tarjimada lingvokulturologik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi realiyalarni to‘g‘ri uzata olish qobiliyatidir. [12] Realialar muayyan xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga xos bo‘lgan tushunchalarni ifodalab, boshqa tillarda to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmasligi bilan ajralib turadi. [15] Ular milliy koloritni shakllantiruvchi asosiy birliklar sifatida badiiy matnning estetik qiymatini oshiradi. [12] “O‘tkan kunlar” romanida uchraydigan paranji, mahalla, charlar, nisholda, sovchilik kabi birliklar o‘zbek madaniyatiga xos realiyalar hisoblanadi. [1]

Tarjima jarayonida realiyalar bilan ishlash tarjimonlardan nafaqat lingvistik bilim, balki chuqur madaniy anglashni talab qiladi. [13] Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ba’zi tarjimonlar realiyalarni transliteratsiya orqali saqlab qolgan bo‘lsa, boshqalari ularni ingliz tilidagi umumiy tushunchalar bilan almashtirgan yoki izohli tarjimadan foydalangan. [15]

Masalan, “paranji” so‘zining ayrim tarjimalarda asl shaklida berilishi milliy koloritni saqlagan bo‘lsa, boshqa tarjimalarda u umumiy “veil” tushunchasi bilan ifodalangan holatlar uchraydi. [2] Bunday farqlar tarjimonlarning lingvokulturologik kompetensiya darajasini yaqqol ko‘rsatib beradi. [11]

Shuningdek, madaniy kodlarning tarjimada uzatilishi ham muhim masala hisoblanadi. [5] Verbal kodlar ko‘pincha ingliz tilidagi funksional ekvivalentlar orqali berilgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda ularning madaniy yuklamasi susaygan. [7] Masalan, “xudoy saqlasin” iborasining “God protect you” yoki “Heaven forbid” shakllarida berilishi umumiy diniy ma‘noni yetkazsa-da, islomiy kontekstni to‘liq aks ettira olmaydi. [13] Bu holat madaniy kodlarning tarjimada qisman neytrallashuviga olib kelganini ko‘rsatadi. [5]

Milliy mentalitetning tarjimada ifodalanishi ham alohida e‘tiborni talab etadi. [6] O‘zbek xalqiga xos mehmondo‘stlik, jamoaviylik va oilaparvarlik kabi qadriyatlar roman syujetida markaziy o‘rin egallaydi. [1] Tarjimalarda mehmon kutish marosimlari ko‘pincha umumiy ijtimoiy harakat sifatida tasvirlangan bo‘lib, ularning ramziy ahamiyati ba‘zan to‘liq ochilmagan. [12] Masalan, dasturxon yozish jarayoni ayrim tarjimalarda oddiy ovqat tortish holati sifatida talqin qilingan, holbuki o‘zbek madaniyatida bu mehmondo‘stlikning muhim belgisi hisoblanadi. [6]

Lingvokulturologik kompetensiyaning yetishmasligi ba‘zan tarjimada madaniy soddalashtirishga olib keladi. [11] Bu esa badiiy matnning milliy ruhini zaiflashtiradi. [7] Shu bilan birga, ayrim tarjimonlar tasviriy yoki izohli tarjima usullaridan foydalangan holda madaniy mazmunni nisbatan to‘liq yetkazishga muvaffaq bo‘lgan. [15] Xususan, “ichkari” va “tashqari” tushunchalarining “women’s quarters” va “male half” kabi izohli variantlar orqali berilishi ijtimoiy ajratish tizimini tushunarli shaklda aks ettirgan. [2]

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, lingvokulturologik kompetensiya faqat madaniy birliklarni bilish bilan cheklanmay, ularni kontekstga mos holda qayta yaratish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. [11] Tarjimon matnni so‘zma-so‘z o‘girishdan ko‘ra, undagi madaniy ma‘no qatlamlarini o‘quvchi uchun tushunarli va ta‘sirchan shaklda yetkazishga intilishi lozim. [13] Shu bois tarjimonlarni tayyorlash jarayonida lingvokulturologik yondashuvni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. [11] Ta‘lim jarayonida realiyalarni tahlil qilish, madaniy kodlarni aniqlash va qiyosiy tarjima mashqlarini qo‘llash talabalar kompetensiyasini rivojlantiradi. [12] Bu esa kelajak tarjimonlarining madaniyatlararo muloqotda samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. [13] Umuman olganda, “O‘tkan kunlar” romanining ingliz tiliga qilingan tarjimalari lingvokulturologik kompetensiyaning tarjima jarayonidagi hal qiluvchi rolini yaqqol namoyon etadi. [1] Konseptlar, madaniy kodlar, realiyalar va mentalitet unsurlarining turlicha talqin qilinishi tarjimonlarning madaniy bilimlari va strategiyalariga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. [11] Bu holat badiiy tarjimada lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. [11]

Lingvokulturologik kompetensiyaning tarkibiy modeli zamonaviy tarjimashunoslikda ko‘p komponentli tizim sifatida talqin qilinadi. [5] Tadqiqotchilar ushbu kompetensiyani bilim (kognitiv), amaliy ko‘nikma (operatsion) va shaxsiy-motivatsion komponentlardan tashkil topgan deb hisoblaydilar. [11] Kognitiv komponent tarjimonning tilga oid bilimlari bilan birga madaniyat, tarix, urf-odatlar va milliy qadriyatlar haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. [6] Operatsion komponent esa ushbu bilimlarni tarjima jarayonida samarali qo‘llay olish

qobiliyatini bildiradi. [11] Motivatsion komponent tarjimonning madaniyatlararo muloqotga ochiqligi, boshqa xalqlar madaniyatiga hurmati va kasbiy mas'uliyat hissi bilan belgilanadi. [13]

“O'tkan kunlar” romanining tarjimalari ushbu komponentlarning amalda qanday namoyon bo'lishini yaqqol ko'rsatadi. [1] Ayrim tarjimonlar madaniy birliklarni saqlashga intilib, transliteratsiya yoki izohli tarjima usullaridan foydalangan bo'lsa, boshqalari o'quvchiga qulaylik yaratish maqsadida umumlashtirish strategiyasini qo'llagan. [15] Masalan, “mahalla” tushunchasining ayrim tarjimalarda asl shaklida qoldirilishi milliy koloritni saqlagan bo'lsa, “neighbourhood” shaklida berilishi madaniy o'ziga xoslikni qisman yo'qotgan. [2]

Madaniy yo'qotishlar masalasi badiiy tarjimaning eng murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. [12] Tadqiqotchilar madaniy yo'qotishlarni semantik, pragmatik va estetik yo'qotishlarga ajratadilar. [11] Semantik yo'qotish realiya yoki konseptning asosiy ma'nosining buzilishi bilan bog'liq bo'lsa, pragmatik yo'qotish matnning kommunikativ ta'sir kuchining pasayishi bilan tavsiflanadi. [13] Estetik yo'qotish esa badiiy ifodaning obrazlilik va milliy ruhining susayishi bilan namoyon bo'ladi. [7] “O'tkan kunlar” tarjimalarida ayniqsa estetik yo'qotishlar tez-tez uchrab, bu holat madaniy kodlarning soddalashtirilishi bilan izohlanadi. [12]

Lingvokulturologik kompetensiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi tarjimada stereotiplash va neytrallashtirishga olib kelishi mumkin. [11] Masalan, diniy ifodalar umumiy g'arbiy diniy tushunchalar bilan almashtirilganda ularning islomiy konteksti yo'qoladi. [13] Bu esa matnning milliy o'ziga xosligini kamaytiradi. [6] Aksincha, izohli tarjima yoki madaniy moslashtirish usullaridan foydalanish milliy mazmunni ko'proq saqlash imkonini beradi. [15]

Tarjima nazariyasida lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirish uchun autentik matnlar asosida ishlash muhim metodik vosita sifatida qaraladi. [11] Talabalar real badiiy asarlar tarjimasini orqali madaniy birliklarni aniqlash, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish hamda mos tarjima strategiyalarini tanlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. [12] Bu jarayon ularning professional tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. [11]

“O'tkan kunlar” romanining tarjima materiallari lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirish uchun samarali o'quv resursi bo'la oladi. [1] Asarda uchraydigan konseptlar, realiyalar va madaniy kodlar tarjimonlik ta'limida amaliy misol sifatida qo'llanilishi mumkin. [12] Masalan, talabalar bir xil realiyaning turli tarjimalarini solishtirib, qaysi variant madaniy mazmunni yaxshiroq saqlaganini tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. [11] Natijada lingvokulturologik yondashuv tarjimoni faqat til birliklarini almashtirish jarayoni emas, balki madaniyatlararo muloqot sifatida tushunishga imkon beradi. [13] Bunday yondashuv tarjimonni madaniy vositachi sifatida shakllantirib, u orqali xalqlar o'rtasida madaniy anglashuv kuchayadi. [13]

**Usullar.** Shunday qilib, olib borilgan tahlil Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanining ingliz tiliga qilingan tarjimalarida lingvokulturologik kompetensiyaning asosiy komponentlari turli darajada namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Tarjimalarda konseptlar, realiyalar, madaniy kodlar hamda milliy mentalitet unsurlarining uzatilishi tarjimonlarning lingvistik bilimlari bilan bir qatorda madaniy tayyorgarligi va tanlagan tarjima strategiyalariga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Ayrim hollarda madaniy birliklar transliteratsiya va izohli tarjima orqali milliy koloritni saqlagan bo'lsa, boshqa holatlarda umumlashtirish yoki soddalashtirish natijasida madaniy mazmunning qisman yo'qolishi kuzatildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lingvokulturologik kompetensiya faqat til tizimini bilish bilan cheklanmay, balki tarjimonning madaniyatlararo tafakkuri, milliy qadriyatlarni anglash qobiliyati va ularni kontekstga mos ravishda qayta yaratish mahoratini ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, badiiy tarjimada konseptual qatlamlar, ramziy birliklar va mentalitetga xos elementlar tarjimaning estetik va kommunikativ samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

“O'tkan kunlar” tarjimalari misolida shuni ko'rish mumkinki, madaniy realiyalar va kodlarni to'g'ri yetkazishga qaratilgan strategiyalar o'quvchiga original asarning milliy ruhini his etish imkonini beradi. Aksincha, madaniy birliklarning neytrallashuvi yoki tushirib qoldirilishi asarning badiiy qiymatini pasaytiradi hamda muallif g'oyasining to'liq idrok etilishiga to'sqinlik qiladi.

**Muhokama.** Bu holat tarjimada lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish zaruratini yanada dolzarb qilib qo'yadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari tarjimonlarni tayyorlash jarayonida lingvokulturologik yondashuvni kuchaytirish muhimligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida autentik badiiy matnlar asosida olib boriladigan tahlillar, realiyalar va madaniy kodlarni qiyosiy o'rganish mashqlari bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa tarjimaning nafaqat lingvistik aniqligini, balki madaniy mosligini ham ta'minlaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjima jarayonida lingvokulturologik kompetensiya tarjimon faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u madaniyatlararo muloqotning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. “O'tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimalari misolida o'tkazilgan tahlil ushbu kompetensiyani rivojlantirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim vazifa ekanini tasdiqlaydi hamda kelgusida lingvokulturologik yondashuv asosida olib boriladigan tarjima tadqiqotlari uchun mustahkam nazariy zamin yaratadi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018.
2. Tuxtasinov I.M.I. (tarj.). Bygone Days. – Toshkent, 2017.
3. Ermakova K. (tarj.). Days Gone By. – London, 2018.
4. Rees M. (tarj.). Bygone Days. – New York, 2019.
5. Teliya V.N. Lingvokulturologiya: til va madaniyat o'zaro aloqasi. – Moskva: Nauka, 2016.
6. Vorobyov V.V. Lingvokulturologiya asoslari. – Moskva: URSS, 2015.
7. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2017.
8. Potebnya A.A. Tafakkur va til. – Moskva: Akademiya, 2014.
9. Sapir E. Til va madaniyat. – New York: Harcourt Brace, 2013.
10. Whorf B.L. Til, tafakkur va voqelik. – Cambridge: MIT Press, 2012.
11. Mishatina N.L. Lingvokulturologik kompetensiya nazariyasi. – Sankt-Peterburg, 2018.
12. Ro'ziboyeva N. Badiiy tarjimada madaniy omillar va realiyalar. – Toshkent, 2022.
13. Yusupov A. Tarjimada madaniyatlararo kommunikatsiya masalalari. – Toshkent, 2021.
14. Jo'rayev D.M. Til o'rganishda madaniy to'siqlar muammosi. – Toshkent, 2020.
15. Papikyan A. Realialarni tarjima qilish nazariyasi va strategiyalari. – Yerevan, 2017.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **STYLISTIC FUNCTIONS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE COMPOSITION OF THE APPENDIX DEVICE**

**Kuchiyev Malik Abdumannonovich**

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,  
Associate Professor of the Department of Second Foreign Languages, Samdech Technomics University

**Abstract.** The article examines the problem of using phraseological units in the structure of connecting constructions, and also analyzes the study of the functions performed by phraseological units in the structure of connecting elements using examples from German fiction.

**Keywords:** application construction, phraseological units, function, stylistic function, periphrasis, repetition, means of artistic representation, complex syntactic integrity, additional meaning.

## **ILOVA QURILMA TARKIBIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING STILISTIK FUNKSIYALARI**

**Kuchiyev Malik Abdumannonovich**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
SamDCHTI ikkinchi chet tillar  
kafedrasida dotsenti  
E-mail: [kuchievmalik@gmail.com](mailto:kuchievmalik@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada ilovali qurilma tarkibida frazeologizmlarning qo'llanilish muammosiga to'xtalib, frazeologizmlarning ilovali elementlar tarkibida bajarib keladigan funksiyalari tadqiqi nemis tili badiiy adabiyotidan olingan misollar vositasida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ilova konstruksiya, frazeologik birliklar, funksiya, stilistik funksiya, perifraz, takror, badiiy tasvir vositalari, murakkab sintaktik butunlik, qo'shimcha ma'no.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N18>

Jahon tilshunosligida lingvistik tadqiqotlarda ilova konstruksiyalarning mazmun-mohiyati, ilovali elementlarning stilistik strukturalarini aniqlash masalalari ko'plab tadqiqot ishlarining obyekt bo'lib kelmoqda. Ilova hodisasi ma'lum darajada o'zining tarixiga ega bo'lgan grammatik hodisa hisoblanib, hanuz tilshunoslik fani doirasida muhim, biroq nisbatan kam o'rganilgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Ilovali qurilma hodisasini o'rganar ekanmiz, bu hodisa to'g'risida mavjud bo'lgan fikr va mulohazalarimiz ham borgan sari kengayib, chuqurlashib boradi. Chunki, bu hodisa ko'p qirrali, ko'p tomonli lingvistik hodisadir. Uning ko'p qirrali hodisa ekanligi ilovali elementlarning ilova qurilma tarkibida bajarib kelayotgan funksiyalari bilan belgilanadi. Ilovali elementlar matni to'ldiribgina qolmasdan, balki ularni yangi-yangi tomondan boyitadi, kengaytiradi, chunki bu yerda ilova qurilma uzluksiz, murakkab va uslubiy qurilma ekanligi o'z ifodasini topadi va uning

tarkibida frazeologizmlar va badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi imkoniyatini beradi [3, 9 – 19-b.].

Ilovali elementlar tufayli yuzaga kelgan sintaktik birliklardan- bu ilova konstruksiya bo'lib, u ham o'z navbatida ilova aloqalariga asoslangan murakkab sintaktik butunlikning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham biz bu ikkala terminologik tushunchani parallel ravishda qo'llashimiz mumkin. Biroq, ilova konstruksiyaning sintaktik tabiatini, xususiyatini o'rgana borgan sari biz yana u bilan bevosita bog'liq bo'lgan yana bir sintaktik hodisaga duch kelamiz, u ham bo'lsa gapni aktual bo'laklarga ajratish hodisasidir [1, 75]. Bu o'rinda ilova konstruksiya bilan gapning aktual bo'laklarga ajratish hodisasi orasida ma'lum darajada aloqalar shakllanishini qayd etish lozim.

Ilovali elementlarning tabiatga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri bu uning tarkibida frazeologizmlarning qo'llanilishidir. Shu o'rinda frazeologiya to'g'risida umumiy ma'lumotlarni berishni lozim topdik.

Ma'lumki, frazeologiyaning nazariy masalalari V.Vinogradov, A.N.Tixonov, Yu.Yu.Avaliani, A.M.Bushuy, L.I.Royzenzon, A.Kunin, I.I.Chernыsheva, Ye.D.Polivanov ishlarida tadqiq qilingan. Ular rus va chet tillar frazeologiyasini o'rgangan va shu asosda frazeologiyani mustaqil lingvistik soha sifatida ajratish haqida fikr bildirgan. Ye.D.Polivanovning ta'kidlashicha, yangi shakllanadigan frazeologiya sohasi leksikologiyaga nisbatan xuddi sintaksis morfologiyaga nisbatan egallagan o'rinda bo'lishi lozim. "...Sintaksisga teng keluvchi yangi sohaning shakllanishiga ehtiyoj sezilmoqda,- deb yozgan edi Ye.D.Polivanov,- lekin sintaksis so'z birikmalarining umumiy tiplarini, xususiyatlarini o'rgansa, yangi shakllanadigan soha leksemalarning o'zaro munosabati asosida yuzaga keladigan birikmalarning konkret, individual (leksik) ma'no xususiyatlari bilan shug'ullanadi". Yangi shakllanadigan sohani Ye.D.Polivanov frazeologiya yoki idiomatika deb nomlagan edi [5, 61].

Nemis tilida frazeologizmlar va badiiy tasvir vositalari iloval elementlar sifatida matnlar doirasida xilma-xil stilistik funksiyalarni bajarib keladi: umumiylikni konkretlashtirish vositasi; biron-bir komponentning tushirib qoldirilishi; perifraz; takror vositasi; antiteza; o'xshatish, so'z tartibi, sinonimiya va boshqalar [7, 56].

Umumiylikni konkretlashtirish vositasi — bu iloval elementlarga xos bo'lgan stilistik funksiyalardan biridir.

*Sie zogen in die Stadt um, mit Kind und Kegel [Kühn 1975:113].*

Ushbu misolda iloval elementlar ma'lum bo'laklarning mazmunini konkretlashtirib, shaxslarni aniqlab kelmoqda. Bu yerda iloval elementlarning stilistik funksiyasi kishilarning qarindoshligini aniqlashdan iborat.

Iloval elementlarning perifraz funksiyasida kelganda ma'lum bo'lakka xos bo'lgan odatda perifrazni konkretlashtiradi yoki aksincha, o'zi perifraz vositasida kelishi mumkin.

*Sie erwartete ihren Bruder. Das\_Auge\_unseres\_Gesetzes. Polizei [Remarque 1967:244].*

Bu yerda iloval elementning stilistik funksiyasi perifraz vositasi orqali ifodalanib kelgan. Bu bilan iloval elementning stilistik funksiyasining ta'siri nihoyatda oshmoqda.

Iloval elementlarning antiteza funksiyasida kelganda tasvirlanayotgan hodisani kitobxonning chuqur anglashi, idrok qilishi uchun xizmat qiladi. Natijada ular tasviriy vositalarning turli xil stilistik usullarida kela oladi.

*Mutter Hardekopf hatte ihrer Tochter nach Kräften den Rücken gesteuert. Sie ermuntert zu immer neuen Widerstand [Bredel 1979:492].*

Mazkur misolda ilovali elementlarning ma'no xususiyatlari ma'lum bo'laklarning ma'no xususiyatlari qarama-qarshi qo'yiladi. Bu yerda ilovali elementlarning ma'no xususiyatlari ma'lum bo'laklarning ma'no xususiyatlariga emas, aksincha ilovali elementlarning birining ma'nosiga qarama-qarshi qo'yiladi [6, 16]. Demak, ilovali elementlarning ma'lum bo'lakka yoki gapning biron-bir komponentiga nisbatan bajarib kelayotgan bunday stilistik funksiyalari boshqa tasviriy vositalarda ham takrorlanishi mumkin.

Ilovali elementlar takror vositasida ma'lum bo'laklarga yoki butun gapning mazmuniga nisbatan turli xil shakllarida ifodalanib kelishi mumkin. Takroriy usullar yordamida yuzaga keluvchi har qanday ilovali element o'z tabiatiga ko'ra tasviriy vositalar hisoblanadi va matn doirasida xilma-xil stilistik funksiyalar bajarib keladi. Takror so'z, so'z birikmasi shaklida ifodalanib kelgan ilovali elementlarning matn doirasida bajarib keluvchi stilistik funksiyalarini izohlab berishdan oldin, shu soha bo'yicha ayrim tilshunos olimlarning fikr va mulohazalarini bu yerda keltirishni o'rinli deb bilamiz.

Masalan E.M. Gjanyans va G.M. Astapovalar hozirgi zamon ingliz va rus tillarida takroriy prinsiplar yordamida yuzaga kelgan ilovali unsurlarning strukturaviy va ma'noviy xususiyatlarini o'rganib, takroriy so'z va so'z birikmalariga xos bo'lgan xususiyatlar to'g'risida shunday xulosaga kelishgan: "Takroriy prinsiplar asosida yuzaga kelgan ilovali unsurlar parsellyatsiya hodisasining ajralmas qismi bo'lib, ular kitobxoniga ekspressiv va emotsional ta'sir ko'rsatish maqsadida hosil bo'ladi" [4, 31-32]. Mualliflarning takroriy prinsiplari yordamida yuzaga kelgan ilovali unsurlar to'g'risidagi ushbu fikrlarini alohida ta'kidlash maqsadida, ya'ni bir xulosani bu yerda namoyish etamiz: «Leksik takror, umuman olganda, har qanday takror bu nimanidir alohida ta'kidlash, nimagadir alohida diqqat-e'tiborni qaratish maqsadida sodir bo'luvchi ajratish jarayonining ekspressiv usulidir» [2, 126]. Demak, mualliflarning ta'kidlashicha har qanday takror, u so'z yoki so'z birikmalari shaklida ifodalanib keladimi, yoki ilovali konstruksiyalar shaklida ifodalanib keladimi, undan qat'iy nazar tasvirlanayotgan hodisani kitobxonning chuqur anglashi va idrok qilishi uchun xizmat qiladi va uning fikr-hayoliga estetik ta'sir ko'rsatadi. Ilovali elementlar ma'lum bo'lakka nisbatan oddiygina takrorlanib qolmasdan, o'zining unga nisbatan vazifasini ham o'zgartiradi.

*Armond, du sollst bei mir stehlen. Hier unter meinen Augen [Th.Mann 1960: 67].*

Ushbu misolda namoyish etilgan ilovali elementlar takroriy prinsip asosida namoyon bo'lmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, har qanday takror aniq bir vazifa bajarib keladi, odatda, takrorlanuvchi qism oddiygina takrorlanibgina qolmasdan, balki o'zining vazifasini ham o'zgartiradi. Natijada takrorlanuvchi qismning, ya'ni ilovali elementning ta'sirchanligi oshadi. Kitobxonning diqqat e'tibori ana shu takrorlanib keluvchi qismga qaratiladi. Takrorlanib keluvchi ilovali element oddiygina takrorlanib qolmasdan, balki u leksik-grammatik vositalar yordamida kengaytiriladi, natijada u tomonidan ma'lum bo'lakka nisbatan bildirilayotgan qo'shimcha ma'noning ham hajmi kengayadi. Ilovali elementlarning yuzaga kelishi boshqa ilovali elementlardan keskin farq qiladi, chunki bu yerda harakatning obyektga o'tishi natijasida takrorlanuvchi ilovali element hosil bo'ladi. Harakatning obyektga o'tishi bilan yuzaga kelgan ilovali elementlarning strukturaviy tuzilishi leksik-grammatik vositalar yordamida kengaytiriladi. Buning natijasida kitobxon tasvirlanayotgan voqea va hodisalar to'g'risida to'laroq ma'lumotga ega bo'ladi.

Demak, ilovali elementlarning tasviriy vositalar funksiyasida kelishida, ularning ma'lum bo'lakka nisbatan bildirayotgan qo'shimcha ma'nolari bilan birgalikda gap tarkibida bajarib kelayotgan sintaktik funksiyalarining o'zaro almashuvi ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan.

Ba'zi hollarda takrorlanish tamoyili asosida hosil bo'lgan ilovali elementlarning ma'no xususiyati ko'chma ma'noga teng bo'lishi mumkin.

*Doch, er wolle eine kleine Episode aus dem Jahre 1915 erzählen. Seine Begegnung mit dem groben Sun-Yat-sen [Bredel 1979:288].*

*Er war enttäuscht. Er hatte ein zu stimmendes Wort von den alten erhofft. Eine kleine Anerkennung für seine Haltung [Bredel 1979:254].*

Keltirilgan misollarda ilovali element ma'lum bo'lakni tashkil qiluvchi ayrim komponentlarning takrorlanishi bilan hosil bo'lgan bo'lsa-da, biroq ularning mazmun munosabatlari bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Bunda ilovali elementlar tarkibida takrorlanib keluvchi obrazli so'z va iboralar o'z tabiati bilan semantik, stilistik funksiyalardan tashqari, sintaktik funksiyalarni ham bajarib keladi, ular ma'lum bo'lak bilan ilovali elementlar o'rtasida qo'shimcha aloqa vositasini ifodalaydi.

Ilovali elementlar tarkibidan biron-bir elementning tushirilishi. Odatda u yoki bu gap yoki matn tarkibida qandaydir elementlarning tushirilib qoldirilishi kuzatiladi. Tushirilib qoldirilgan elementlar biron-bir gap bo'lagining mazmuniga hech ta'sir ko'rsatmaydi, aksincha, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning kitobxonga nisbatan ta'sir kuchi oshadi, chunki kitobxonning diqqat e'tibori ana shu tushirilib qoldirilgan element bilan band bo'ladi.

*Dann sprach er langsam, Wort für Wort: Der General fürchtete um sein Zentrum. Mit gutem Grund [Bredel 1979:208].*

*Du, zum Beispiel hast Kind und Frau. Ja, ich kenne die Blocks auf Knappendorf zu. Mit den blauen Balkons [Thürk 1965:128].*

Demak, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu misollarda namoyish etilgan ilovali elementlar tarkibidan — “mit”- ko'makchisi tushirilgan, biroq uning tushirilib qoldirilishi ilovali elementlarning ma'no xususiyatiga hych ta'sir ko'rsatmaydi. Aksincha, ma'lum bo'laklar bilan ilovali elementlar o'rtasidagi mazmuniy munosabatlar yanada mustahkamlanadi, bunga sabab shuki -“mit”- ko'makchisi ilovali elementlar tarkibida kelmagan bo'lsa ham, ularni boshqarib keladi, ya'ni ma'lum bo'laklarga nisbatan tobelik munosabatlarini kuchaytiradi. Ma'lum bo'laklarsiz ularning ilovali elementlar funksiyalarida kelishini tasavvur qilib bo'lmaydi [8, 123]. Natijada ma'lum bo'laklar bilan ilovali elementlar o'rtasida ikki tomonlama bog'liqlik vujudga keladi: ma'lum bo'lak tarkibidagi -“mit”- ko'makchisi yordamida ajratilgan bo'lak boshqarilsa, ilovali elementning mazmuni yordamida ma'lum bo'lakning mazmuniga aniqlik kiritiladi, ya'ni u konkretlashtiriladi, to'ldiriladi, izohlanadi va aniqlanadi.

Demak, har qanday holatda ham o'zlariga xos xususiyatlarni saqlab qoladi. Ilovali elementlar tarkibida mavjud bo'lgan bunday sintaktik kamchiliklar, ya'ni -“mit”- ko'makchisining kelmasligi bu uslub vositasining mahsulidir. Uning ta'sirida til elementlari tejaladi, natijada tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning ta'sir kuchi oshadi, chunki bunday tejash gapning mazmuniga hech ta'sir qilmaydi.

*Sie waren mit Gustav, ihrem Mann, und ihren Brüdern im Krieg gewesen und vorher in derselben Fabrik [Seghers 1963:59].*

Namoyish etilgan ilovali elementlar tarkibidagi sintaktik kamchiliklar -mit, -bei, -zu kabi ko‘makchilarning tushirilib qoldirilishi bilan bog‘liq. Bunday sintaktik kamchiliklar ular tomonidan ma‘lum bo‘laklarning mazmuniga bildirilayotgan qo‘shimcha ma‘no mazmuniga ta‘sir ko‘rsatmaydi, aksincha, qo‘shimcha izohlarning ta‘siri kuchayadi, chunki ilovali elementlarni tashkil etuvchi har bir bo‘lak alohida mustaqil kommunikativ yadro sifatida shakllanib, kitobxonning diqqat-e‘tiborini o‘ziga jalb qiladi. Ilovali elementlarga xos bo‘lgan bunday xususiyatlarning boshqa xuddi shunday ilovali elementlar tarkibida takrorlanishi yangi-yangi tasviriy vositalarning stilistik usullari sifatida gavdalanib kelishiga sabab bo‘ladi.

Obrazli so‘z va so‘z birikmalari shakllarida ifodalanib keluvchi ilovali elementlar yordamida asar qahramonlarining tashqi qiyofasi, ichki dunyosi, yurish-turishlari tasvirlanishlari mumkin.

*Das war nun bekannt geworden, und daher liebte der König das perfekt schöne Mädchen nicht. Auch ihn nicht [Bredel 1979:366].*

Ilovali elementlar har doimgidek ma‘lum bo‘laklarning mazmunini konkretlashtirish, to‘ldirish, aniqlash bilan birga sodir bo‘layotgan voqea va hodisalar to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Ana shunday obrazli so‘z va ifodalar shaklida ifodalanib keluvchi ilovali elementlarning ma‘no xususiyatlari doimo ijobiy xarakterga ega bo‘lavermaydi, aksincha, salbiy xislatlarni ifodalab kelish uchun ham xizmat qilishi mumkin.

*Machet schloß die Schafule auf, fand darin Schriftrollen und Papiere, er stellte sich unter eine Fackeln und las Briefe, Notizen, tagebuchartige Aufzeichnungen [Elger 1977:293].*

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, misolda namoyish etilgan ilovali elementlarning ma‘no xususiyatlari yordamida salbiy xarakterga ega bo‘lgan xususiyatlar tasvirlanadi. Bu yerda tahlil ostiga olingan misollar ilovali elementlar tomonidan bajarib kelinayotgan stilistik funksiyalarning nihoyatda xilma-xiligini alohida ta‘kidlamoqda.

Ilovali elementlar o‘xshatish vositasida ma‘lum bo‘laklarning ma‘no xususiyatlarini ilovali elementlarning ma‘no xususiyatlariga qiyos qilish jarayonida yuzaga keladi.

*Die feindlichen Sturmtruppen treiben unsere Infanteristen hügelab vor sich her, wie beim Sandkastenspiel [Hofe 1976:381].*

Ba‘zi hollarda ilovali elementlar tomonidan ma‘lum bo‘laklarga nisbatan boshqarib kelinayotgan stilistik funksiyalarning doirasi kengayishi mumkin. Natijada ularning tarkibida tasviriy vositalarning bir nechta ishtirok etadi.

Demak, yuqorida olib borilgan tahlil natijasida shuni ko‘rish mumkinki, ilovali elementlar tarkibida ifodalanib kelgan frazeologik birliklar ma‘lum bo‘laklariga nisbatan bajarib kelayotgan stilistik funksiyalari nihoyatda boy va rang-barang ekanligini namoyish etadi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Адмони В. Г. Синтаксис современного немецкого языка. – Ленинград, 1973. – С. 366
2. Ахмедова Б. М. К вопросу изучения порядка слов в современном немецком языке. Вестник, Каз ГУ. №37. – Алматы, 2000. – С. 56-57.
3. Бушуй А. М. Типология семантических корреляций в немецком и английском языках. «Олий мактабларда хорижий тилларни ўргатишнинг лингвистик ва услубий муаммолари» мавзусидаги республика илмий амалий конференция материаллари. Самарқанд: Сам ДАҚИ, 2002. – Б.5-9.
4. Гжаниянц Э.М., Астапова Г.М. Сравнительно-сопоставительный анализ повтора в парцеллированных структурах английского и русского языков // Семантико-

- стилистические исследования текста и предложения. – Ленинград: Издательство Ленинградского государственного педагогического института, 1980. – С. 31-38
5. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. – Ленинград: Ленинградского восточного института имени А.С. Енукидзе, 1928. – 220 с.
  6. Турсунов Б. Т. Мураккаб синтактик конструкцияларни ўрганишга доир. Халқаро илмий конференция материаллари тезислари (2002 йил 14-15 март, Самарканд). – Самарканд, 2002. –Б.76-77.
  7. Jung W. Grammatik der deutschen Sprache. – Leipzig: VEB Bibliographisches Institut Leipzig, 1967. – 518 S.
  8. Moskalskaja O.I. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. –Moskau: Nauka, 1983. – 316 S.
  9. Bredel Willi. Die Söhne. – Berlin und Weimar: Aufbau Verlag, 1979. – 558 S.
  10. Elger Paul. Jungfrau Johanna. Erster Teil. Greifenverlag zu Rudolstadt, 1977. – 371 S.
  11. Hofe Günter. Roter Schnee. Verlag der Nation Berlin, 1976. –512 S.
  12. Kühn August. Zeit zum Aufstehen. Frankfurt a. M.: Fischer Verlag, 1975. –439 S.
  13. Mann Thomas. Der Zauberberg. – Frankfurt a. M.: Fischer Verlag, 1960. – 900 S.
  14. Remarque Erich Maria. Im Westen nichts Neues. – Berlin: Ullstein Bücher 56, 1967. – 336 S.
  15. Seghers Anna. Die Entscheidung. Aufbau- Verlag Berlin, 1963. –597 S.
  16. Thürk Harry. Der Tod und der Regen, Verlag das neue Berlin, 1968. – 335 S.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **THE TEMPORAL IMAGE IN SPANISH AND UZBEK PAREMIOLOGY**

**Abdullaeva Parvina Tolibjonovna**

SamSIFL, Department of "Spanish and Italian Philology", teacher

E-mail: [ptolibjonovna@gmail.com](mailto:ptolibjonovna@gmail.com)

**Abstract.** This article examines the representation of the category of time in Spanish and Uzbek phraseology from the perspectives of cognitive linguistics and cultural linguistics. The aim of the study is to identify universal and culture-specific features of temporal conceptualization in idiomatic expressions and proverbs of the two languages. The theoretical framework is based on conceptual metaphor theory and contemporary research in comparative phraseology. The analysis demonstrates that in both languages time is conceptualized through spatial, processual, and quantitative metaphors; however, their pragmatic orientation and cultural interpretation differ. Spanish phraseology predominantly reflects a linear-progressive model of time and its economic valuation, whereas Uzbek paremiology reveals a cyclical, morally evaluative, and collectively oriented understanding of temporality.

**Keywords:** category of time, phraseology, paremiology, conceptual metaphor, cultural linguistics, Spanish language, Uzbek language, comparative linguistics.

## **ТЕМПОРАЛЬНЫЙ ОБРАЗ В ИСПАНСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПАРЕМИОЛОГИИ**

**Абдуллаева Парвина Толибжонова,**

СамГИИЯ, кафедра «испанской и итальянской филологии», преподаватель

**Аннотация.** В статье исследуется репрезентация категории времени в испанской и узбекской фразеологии с позиций когнитивной лингвистики и лингвокультурологии. Целью работы является выявление универсальных и национально-специфических особенностей концептуализации времени в устойчивых выражениях и пословицах двух языков. Теоретической базой послужили положения теории концептуальной метафоры и современные разработки в области сопоставительной фразеологии. Установлено, что в обоих языках время осмысливается через пространственные, процессуальные и количественные метафоры, однако их прагматическая направленность и культурная интерпретация различаются. Испанская фразеология демонстрирует преимущественно линейно-прогрессивную модель времени и его экономическую оценку, тогда как узбекская отражает циклическое, нравственно-оценочное и коллективно ориентированное понимание темпоральности.

**Ключевые слова:** категория времени, фразеология, паремиология, концептуальная метафора, лингвокультурология, испанский язык, узбекский язык, сопоставительное языкознание.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N19>

Категория времени относится к фундаментальным универсалиям человеческого мышления. Несмотря на универсальность временного опыта, способы его языковой репрезентации демонстрируют значительную вариативность, обусловленную культурными и историческими факторами. В современной когнитивной лингвистике время рассматривается как концепт, формируемый посредством метафорических переносов из более конкретных сфер опыта — пространства, движения, владения, материального объекта [Лакофф, Джонсон 2004: 45].

Согласно теории концептуальной метафоры, абстрактные категории структурируются через системные соответствия между доменом-источником и доменом-целью [Ковечеш 2010: 23]. В случае темпоральности доменом-источником чаще всего выступает пространство или движение. Пространственная модель времени проявляется в выражениях, локализирующих события по отношению к субъекту: прошлое «позади», будущее «впереди». Подобная модель фиксируется во многих языках и считается когнитивно мотивированной телесным опытом ориентации человека в пространстве [Вежбицкая 1996: 112].

В испанской фразеологии линейная пространственная модель времени реализуется в выражениях типа *dejar atrás el pasado* («оставить прошлое позади»), *mirar hacia el futuro* («смотреть в будущее»), *por delante* («впереди»). Данные единицы демонстрируют метафору ВРЕМЯ — ПУТЬ, в рамках которой субъект мыслится движущимся по временной траектории. Как отмечает З. Ковечеш, подобные метафоры формируют представление о времени как о направлении, имеющем начало и перспективу развития [Ковечеш 2010: 67].

Наряду с пространственной моделью в испанской языковой картине мира активно функционирует экономическая интерпретация времени. Пословица *El tiempo es oro* («Время — золото») вербализует метафору ВРЕМЯ — ЦЕННЫЙ РЕСУРС. Устойчивые выражения *perder el tiempo*, *ganar tiempo*, *aprovechar el tiempo* подтверждают закреплённость представления о времени как об объекте владения и управления. Подобная концептуализация связана с рационализацией социального пространства и индустриальным развитием, где временной фактор приобретает экономическую значимость [Добровольский, Пирайнен 2005: 154].

В узбекской фразеологии также наблюдается метафора ВРЕМЯ — ДВИЖЕНИЕ: *vaqt o'tadi* («время проходит»), *vaqt keladi* («время приходит»). Однако семантический акцент смещён в сторону объективности и неизбежности течения времени. Узбекские пословицы *Vaqt hamma narsani joyiga qo'yadi* («Время всё расставит по местам»), *Sabrlining ishi oson* («Дело терпеливого станет лёгким») отражают представление о времени как о восстановителе гармонии и справедливости. В отличие от испанской модели активного управления временем, здесь подчёркивается адаптация человека к его естественному ходу.

Циклическое восприятие времени в узбекской культуре связано с аграрным укладом и сезонной организацией жизни. Повторяемость природных циклов формировала модель времени как повторяющегося процесса, а не исключительно линейного движения вперёд. Это соотносится с положениями лингвокультурологии о зависимости концептуальных структур от этнокультурного опыта [Телия 1996: 87].

Кроме того, исламская традиция с её сакрализованными временными интервалами (пятикратная молитва, религиозные месяцы) способствовала формированию особого темпорального сознания, где время воспринимается не только как физическая, но и как духовная категория. Таким образом, в узбекской паремиологии время приобретает нравственно-оценочную функцию, связываясь с терпением, судьбой и моральным порядком.

Сопоставительный анализ позволяет выделить универсальные и специфические черты. Универсальными являются метафоры ВРЕМЯ — ПРОСТРАНСТВО и ВРЕМЯ —

ДВИЖЕНИЕ, обусловленные телесным опытом человека [Лакофф, Джонсон 2004: 78]. Специфическими — культурно детерминированные интерпретации временной ценности. Испанская модель подчёркивает индивидуальную ответственность и рациональное использование времени, тогда как узбекская — гармоничное соотношение личной жизни с естественными и социальными ритмами.

Фразеологический материал подтверждает, что устойчивые выражения функционируют как хранители коллективной памяти и мировоззрения. Они не только описывают временные отношения, но и формируют нормативные установки поведения в отношении времени. В этом аспекте темпоральная фразеология является отражением национальной картины мира и инструментом её трансляции [Телия 1996: 132].

Таким образом, исследование темпоральных моделей в испанской и узбекской фразеологии показывает, что категория времени выступает как сложный когнитивно-культурный конструкт. Универсальные механизмы метафоризации сочетаются с национально-специфическими способами интерпретации временного опыта. Сопоставительный подход позволяет выявить глубинные различия в ценностных ориентирах и ментальных моделях, лежащих в основе языкового сознания двух народов.

#### **Литература/References/Adabiyotlar:**

1. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. — М.: Прогресс, 2004.
2. Ковечеш З. Metaphor: A Practical Introduction. — Oxford: Oxford University Press, 2010.
3. Добровольский Д.О., Пиирайнен Э. Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives. — Amsterdam: Elsevier, 2005.
4. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — М.: Языки русской культуры, 1996.
5. Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. — М.: Русские словари, 1996.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **THE ARTISTIC FUNCTION OF FIXED CHARACTERS IN ISAJAN SULTAN'S NOVEL "BILGA KHAGAN"**

**Ismoilova Fotima**

named after Sharaf Rashidov  
Samarkand State University  
basic doctoral student  
E-mail: [fotimaismoilova813@gmail.com](mailto:fotimaismoilova813@gmail.com)

**Abstract.** This article analyzes one of the historical novels of Isajon Sultan, one of the leading representatives of modern Uzbek literature, the novel "Bilga Khagan." The novel genre is distinguished by its diversity of characters. In novels, main and episodic images are of great importance. Also important are historical images and fictional images that serve to create their image more vividly. Therefore, the article also analyzes the skillfully illuminated fictional images in the novel, based on the author's achievement of a combination of historical fact and artistic fiction.

**Keywords:** novel, historical novel, image, artistic skill, Turkic people, honor, patriotism.

## **ISAJON SULTONNING "BILGA XOQON" ROMANIDA TO'QIMA OBRAZLARINING BADIY VAZIFASI**

**Ismoilova Fotima**

Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yetakchi vakillaridan biri Isajon Sultonning tarixiy romanlaridan biri "Bilga xoqon" romani tahlilga tortilgan. Roman janri o'zining obrazlar xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi janr hisoblanadi. Romanlarda bosh va epizodik obrazlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tarixiy obrazlar va ular qiyofasini yanada yorqinroq yaratish uchun xizmat qiluvchi to'qima obrazlar ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun maqolada romanda mahorat bilan yoritilgan to'qima obrazlar ham tahlil qilinib, muallif tarixiy fakt va badiiy to'qima uyg'unligiga erishgani asoslangan.

**Kalit so'zlar:** roman, tarixiy roman, obraz, badiiy mahorat, turk qavmi, or-nomus, vatanparvarlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N20>

**Kirish.** So'nggi yillarda tadqiqotchilar diqqat markazida turgan mavzulardan biri bu turkiy toshbitiklarimiz hisoblanadi. Ma'lumki, sharq sivilizatsiyasi tarixi, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy takomilida o'tmishda yashab ijod etgan shoirlar va adabiyotchilarning xizmatlari katta. Turkiy, xususan, o'zbek yozma adabiyotining yuzaga kelishi va rivojida ikkinchi turk xoqonligi davrida yashab ijod etgan adib va tarixnavislar To'nyuquq va Yo'llug' tiginning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu ijodkorlarni ikkilanmasdan turkiy yozma adabiyotning, turkiy tarixnavislikning asoschilari desak yanglishmaymiz.

Tarixiy romanning o'ziga xos janriy-poetik tomonlari bo'lib, unda "Tarixiy roman qahramoni sifatida bahodir, irodali, faol insonlarni tanlash" [1;38], "Tasvirlanayotgan voqea-

hodisalar va shaxslarning teran badiiy talqini asosida tarix haqiqatining badiiy haqiqatga o'sib chiqishi" [2], "Tarixiy romanda moziyning tugallangan, qaytarilmaydigan va tarix tomonidan muhrlangan davri tasvirlanadi" [3; 215-217]. Mana shu tamoyillarni o'zida to'liq mujassamlantira olgan asargina tarixiy roman bo'lishi mumkin.

**Adabiyotlar sharhi.** Eng avvalo, "Bilga xoqon" romani tahliliga yondashishdan ilgari asl "ildizi", ya'ni toshbitiklar haqidagi tadqiqotlarga diqqat qaratish maqsadga muvofiq. Bu madaniy yodgorliklar ilk bor Enasoy daryosi bo'ylarida mavjudligi aniqlanib, rus xizmatchisi Remezov, keyinchalik shved olimi Iogann Stralenberg va olim Missershmidlal tomonidan ilm ahliga ma'lum qilindi. Enasoy obidasining "siri"ni o'rganishga XVIII asming boshlaridayoq kirishilgan bo'lsa-da, dastlabki urinishlar natija bermadi. XIX asming birinchi choragida Grigoriy Spasskiyning "Sibirskiy vesnik" ("Sibir axboroti") jurnalida mazkur yodgorlik haqida maqolasining e'lon qilinishi va bu maqolaning lotin tiliga tajjima bo'lganligi dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etadi.

Enasoy yodgorliklarini o'rganishda rus sayyohi va yozuvchisi N.M.Yadrinsevning Mo'g'ulistonning Kosho-Saydam vodiysidagi O'rxun daryosi havzalaridan shunga o'xshash madaniy yodgorliklarini aniqlashi muhim ahamiyat kasb etdi. Ulardagi matnlar noma'lum yozuvda bo'lishi bilan bir qatorda ayrimlari xitoy yozuvida va xitoy tilida bitilgan edi. Shunday qilib, fin-ugor ilmiy jamiyati hamda akademik V.V.Radlov boshchiligidagi rus olimlarining O'rxun daryosi bo'ylarida o'tkazgan ilmiy ekspeditsiyalari shu madaniy yodgorliklarini o'rganishga bag'ishlandi. Daniyalik olim Vilgelm Tomsenning "bu madaniy yodgorliklar turkiy xalqlarga taalluqli bo'lishi kerak" – degan taxmini to'g'ri bo'lib chiqdi. U dastlab "tangri", "turk" so'zlarini, keyinchalik 1893-yilning 25-noyabrida barcha harflarini aniqlab, yodgorlikdagi matnlarni to'la o'qishga muvaffaq bo'ladi. Akademik V.V.Radlov esa V.Tomsen va o'zining tajribalariga tayanib yodgorlik matnini birinchi bo'lib rus tiliga tarjima qiladi. Mazkur bitiklarini V.Tomsen va V.Radlovlardan keyin S.E.Malov, S.G.Klyashtomiy, I.V.Stebleva, H.O'rxun, T.Tekin, Najib Osim, G.Aydarov, o'zbek olimlaridan A.Rustamov, A.Qayumov, G'.Abdurahmonov, N.Rahmonovlar o'rganishgan. A.P.Qayumovning "Qadimiyat obidalari", G'.Abdurahmonov, A.Rustamovlarning "Qadimgi turkiy til" nomli kitoblari tarkibida ushbu yodgorliklardan namunalar o'zbek tiliga o'girilib, nashr etilgan.

O'zbek olimi, filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqovning "Kul Tigin va Bilga xoqon bitigllari: matnlarning o'qilishi va talqinlari" nomli tadqiqotida Kul Tegin va Bilga xoqon haqida g'oyat mukammal ma'lumotlar jamlagan, matn tabdilidan tortib obrazlar olamigacha mahorat bilan tasvirlangan. Shuningdek, matn tabdilida muallif o'zining tabdili bilan birga boshqa olimlar tavsifini ham qiyosiy tarzda tasvirlagan.

"Bilga xoqon" romani ustida ham tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ulardan biri Ibragimova D tadqiqotlarida romandagi Bilga xoqon obrazining zamonaviy talqiniga e'tibor qaratilgan. Isajon Sulton tarixiy shaxsni tashqi — qahramonlik sifatleri bilan bir qatorda uning ichki olamini, tanlovlari, mas'uliyatlari bilan tasvirlaydi. Adib talqinidagi Bilga xoqon siyosiy arbob sifatida tasvirlanadi.

O'zbek tarixiy-badiiy nasrida qadimgi turkiylar hayoti qalamga olingan asarlar juda kamchilikni tashkil etadi. Xususan, turkiy olamda mashhur xoqon Bilga xoqonning badiiy siymosi nasrimizda so'nggi besh-olti yildan berigina gavdalana boshladi. "Ilk tajriba o'laroq dunyoga kelgan Rahimjon Otauli qalamiga mansub "Bilga xoqon dostoni" adashmasam, nasrimizda qadim ajdodimiz obrazini yaratish yo'lidagi ilk tajriba o'laroq dunyoga kelgan

bo'lsa, Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romani bu boradagi dadil qadam deya ko'rsatishga loyiqdir", — degan edi filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmonov. [4: 9].

"Bilga xoqon" romani Isajon Sultonning tarixiy romanlaridan biri bo'lib, bu asarda qadimgi toshbitiklar asrida tarixda yashab o'tgan turkiy xoqonlar hayoti, turkiylar davridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, turli qavmlar o'rtasidagi jang va murosaviy kelishuvlar mahorat bilan tasvirlangan. Muallif ushbu asarni yozishdan oldin bu davr va tarixiy shaxslar haqida ko'plab faktlar to'plaganligi romanning tarixiy mezonlarini to'liq ochib berishga xizmat qiladi. Turkiy xoqon Bilga xoqon shaxsi asar markaziga olib chiqilib, barcha voqea va detallar shu obraz atrofida bog'lanadi.

Roman obrazlari tahliliga o'tishdan ilgari badiiy obraz tushunchasiga to'xtalib o'tish joiz. Badiiy obraz – borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k) san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin shaklda ifodalangan aksidir. Badiiy obraz bosh va epizodik, shuningdek, tarixiy va to'qima obrazlarga bo'linadi. [5:61].

**Muhokama va natijalar.** To'qima obrazlarning badiiy vazifasi quyidagilardan iborat: yozuvchi hayotiy haqiqatni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki obrazlar orqali yanada chuqur va ta'sirli ifodalaydi; to'qima obrazlar asarning asosiy g'oyasini kuchaytiradi; bitta xayoliy qahramon orqali ko'plab real insonlarga xos xususiyatlar jamlanadi, shu yo'l bilan muallif jamiyatdagi muammolarni umumiy tarzda ko'rsatadi; to'qima obrazlar voqealarni qiziqarli, dramatik va esda qolarli qiladi, o'quvchining his-tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatadi; badiiy adabiyot ijod mahsuli bo'lgani sababli yozuvchi o'z tasavvurini erkin namoyon qiladi; to'qima obrazlar shu ijodiy erkinlikning ifodasidir; ba'zi to'qima obrazlar ramz sifatida xizmat qilib, ma'lum g'oya yoki tushunchani ifodalaydi (masalan, yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm).

Yozuvchi Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romanida to'qima obrazlar va ularning badiiy vazifasi asar mohiyatini ochishda, bosh obrazning, ya'ni Bilga xoqonning tasvirini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi, romanning asosiy g'oyasini kuchaytirishda muhim hisoblanadi. Romandagi to'qima (ya'ni adabiy ixtiro qilingan) obrazlar ko'pincha tarixiy voqelik muhitida yaratilgan bo'lsa ham, ularning ayrimlari muallifning badiiy talqini mahsuli sifatida o'qiladi. Asarda to'qima obrazlar tahliliga o'tishdan avval, eng avvalo, tarixiy shaxslar timsolini ham eslash lozim. Sababi to'qima obrazlar yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarixiy obrazlar timsolini yaratishda asosiy vositachi hisoblanadi. Bu tarixiy obrazlardan eng muhimlari sifatida Bilga xoqon, uning inisi Kultegin va dono maslahatchisi To'nyuquqni eslash kifoya.

1. Bilga Xoqon – romanning markaziy qahramoni; u tarixiy shaxs bo'lishi bilan birga, muallif tomonidan ideal rahbar, dono va adolatli hukmdor sifatida badiiy tasvirlangan. Romanda turk budunini birlashtirib, dushmanga qarshi oyoqlantiruvchi bosh sifatida namoyon bo'ladi. Onasi El Bilga xotun, otasi Eltarish xoqon. Romanda quyidagicha tasvirlanadi: "O' mizi keng, ko'ksi qabariq, oq yuzi uzunchoq ekan. Yonog' i tekis, ko'zi qora, qoshi o'rtacha qalin ekan. Ikki qansharining chizig' i cho'zilib jag' igacha tushgan, peshanasi keng, o'zi uzun bo' yli, kuchli kishi ekan." [4: 23].

2. To'nyuquq – Bilga Xoqon davridagi donishmand maslahatchi va sarkarda, u ham tarixiy shaxs bo'lib, romanda muhim rol o'ynaydi. Asarda Bilga xoqon yonida, xalqni birlashtiruvchi, dono kuch. "Ko'zi boyo'g' lining ko'ziday bilgich yo'riqchi". [4: 23].

3. Kul Tigin – Bilga Xoqonning inisi; jasoratli sarkarda sifatida badiiy talqinda beriladi. "Chaqmoqday tez, qarchig' ayday o'zgir inisi". [4:23]. (Keyingi tadqiqotlarimizda tarixiy obrazlar tahliliga alohida to'xtalinadi).

Romanning badiiy to' qima obrazlarini tahlil qilamiz:

1. Ishbara Yamtar – turk qahramoni; roman voqealarida vatanparvarlik va mardlik fazilatlarini aks ettiradi. Asar boshidan oxiriga qadar mard, jasur, qo' rymas, xalqni birlashtirishga oshiquvchi, Bilga xoqon maslahati, yo' l-yo' rig' i bilan xalqini "uyg' otgan" obraz. U Alp Qora Bo' g' uning o' g' li sifatida tasvirlangan. Otasining laqabidan ma'lumki, alpning farzandi ham alp bo' ladi. Ishbaraning suyagi otasiga tortadi, O' n ikkisida unga tenglashib, birga yurardi, deb tasvirlanadi. Otasi unga jang ilmini o' rgatadi, bu ilm keyinchalik Bilga xoqon bilan birga janglarda qo' l keladi.

2. Bulut – Ishbaraning yetakchi do'sti yoki safdoshi sifatida tasvirlangan obraz; u ham vatan uchun kurashadi. Darhaqiqat, muallif roman boshidan uni safdosh va yaqin do' st sifatida gavdalantirib, usiz Ishbara obrazi to' la yetilmasdi.

Isajon Sulton imkon qadar qadimgi turk davridagi manzarani, qahramonlarning turkona tabiatini, hech narsadan tap tortmas botirligini saqlashga harakat qilgan. Roman boshlanishidagi Ishbara yamtar va Bulut obrazlari turk bo'duniga xos bo'lgan ayni ana shu qirralarni o'zida ifoda etgani bilan ham diqqatga sazovor. Zotan, samimiylik va haqqoniylik qanday bo'lishidan qat'i nazar, hamma zamonlarda ham o'rinli va mavridida qilingan. Isajon Sulton quyidagi voqeani hikoya qilar ekan, Ishbara va Bulut obrazlari orqali vatanni qutqarib qolish yo'lida turk xoqonligining vatanparvarlari or-nomus uchun hatto o'limga ham tik borishga o'zlarida zarurat sezgan degan gapni aytmoqchi bo'ladi: "– Shumi yigitlik? – dedi Ishbara. – Hoy siz! Eltarish xoqonning o'g'li Bilga xoqon so'zi qulog'ingizga kelmadimi?

– Keldi oz-moz!

– Unda xotin-bolangizni qo'yib, Bilga xoqon so'ziga kirsangiz bo'lmaydimi? Boraylik, ne desa uni qilaylik. Qishda tirishib o'lib yotmaylik.

– Qayg'udamiz, – dedi qorachadan kelgan, qoshi ustida tig' izi bor To'fon degan yigit. – Tegra uluslarga so'z yo'llaylik. Bilganing qoshiga elchi yuboraylik. Tinglaylik-chi, ne der ekan? Buyog'i puturdan ketgan ulus erlari o't atrofida tizilishib, biri olib, biri qo'yib "Ha, shunday bo'lsin. O'lsak o'laylik, biroq yer bilan bir bo'lmaylik", deyishardi". [4: 15].

Roman qahramonlari Ishbara bilan Bulut to O'tukanga borgunlariga qadar kechgan voqealarda Bilga xoqon obrazi ko'rinmaydi, faqat Bilga xoqonning o'gitlari, elga qilgan ezgu ishlari, ana shu ezgu o'gitlarini qalblariga jo qilgan vatanparvar Ishbara yamtar, Bulut obrazlari markazda hukm suradi.

3. Kunsuluv – ayol obrazi bo'lib, jasorat va mardlik timsoli sifatida ishlatilgan badiiy qahramonlardan biridir. Kunsuluv Ishbaraning sevgan qizi sifatida tasvirlanib, ulus ichida jasurligi bilan namuna bo' la oladigan obraz sifatida gavdalangan.

4. Meyli Chur – salbiy yoki qarama-qarshi xarakter sifatida tilga olinadi, ya'ni asarda quyidagicha tasvirlanadi: "Qisqa bo' yli, qalin qoshlari tutash, ko' zi ichiga chuqur botgan to' ngroq kishi" [4: 59]. U yoshligidan xoqon bo' lishni orzu qilgan bo' lib, xalqi og' ir ahvolda qolganda, "...uning qonida yana xoqonlik istagi bo' y ko' rsatdi, biroq tabg' ach xalqi turkiylar tutumini yaxshi biladi, tomirida xoqon qoni oqmagan kishini el boshiga keltirishga qo' rqadi. Balki, ishi yurishib, ular qo' llab-quvvatlashsa, kelajak kunlarda o' yi kuchsiz, o' zi o' ysiz birini xoqon saylab, Meyli Churni bilga etib tayinlasa bo' lar?" [4: 60]. Bu fikrlardan ko' rinib turibdiki, tabg' ach xalqi turkiy xalqlardan tarqalgan bo' lsa-da, turkiy xalqlarga dushman ko' zi bilan qarardi. Meyli Chur ham xayolan tabg' ach xalqi bilan til biriktirib, o' z xalqiga qarshi kurashmoqchi. Meyli Chur Bilga xoqon obrazini ochishda yordam beruvchi vazifaga ega. Bilga

bo'lishni orzu qilib turganda, Bilga xoqonning xalqni birlashtirishga aytgan so'zlari uni "uyg'otadi", "ochlikda sulayib o'lgandan ko'ra urushda o'lgan yaxshi" deya urushga o'tlanadi.

Romanda tabg'ach xalqi bilan turk xalqi tamomila bir-birining ziddi sifatida tasvirlanadi, ayniqsa, tabg'ach va turk ayollari tasviridagi ziddiyat romandagi Meyli Chur obrazida yorqin tasvirlanadi. O'sha sahifalarni o'qigan kitobxon turk qavmi orasida qorin tashvishida yurgan narsaparast vatanfurushlar hamon borligi haqiqat ekanini ro'yi rost ko'rsatadi. Darvoqe, o'ziga o'zi ishonmagan odam o'z xalqiga, hukmdoriga sadoqatini ko'rsata olmaydi, albatta, xiyonat qilish uchun payt poylab turadi. Meyli Chur obrazida ayni shunday toifadagi odamlarni ko'ramiz. Bunday kimsalar yolg'onning quroli bo'lib xizmat qilib kelganlar va bugun ham o'sha vazifalarini bajaryaptilar, ularning qoni azaldan aynigan. Meyli Churning tabiatidagi qo'rqqoqlik, vatanga xiyonat qilishga har doim tayyorligi qoni ayniganligidan yana bir dalolatdir. Millatning qoni aynisa o'zligini unutadi, xiyonatkorlikka moyilligi kuchayadi. O'zlikni doimo yodida tutgan xalq esa hatto ochdan o'lar ahvolga tushsa ham vataniga xiyonat qilmaydi, xayoliga keltirmaydi hatto. Vatanfurushlar deymizmi, millatfurushlar deymizmi – xullas, har qanday "furushlar" – keyingi zamonlarda ham ma'lum toifa insonlarda pinhon bo'lgan yovuzlikning in'ikosidir. Meyli Chur va Ishbara, Bulut bir-biriga zid obrazlar sifatida romanda doim kitobxonni hushyorlikka chorlab turadi.

Muallif imkon qadar qadimgi turk davridagi manzarani, qahramonlarning turkona tabiatini, hech narsadan tap tortmas botirligini saqlashga harakat qilgan. Roman boshlanishidagi Ishbara yamtar va Bulut obrazlari turk bo'duniga xos bo'lgan ayni ana shu qirralarni o'zida ifoda etgani bilan diqqatga sazovor. Zotan, samimiylik va haqqoniylik qanday bo'lishidan qat'i nazar, hamma zamonlarda ham o'rinli va mavridida qilingan. Isajon Sulton quyidagi voqeani hikoya qilar ekan, Ishbara va Bulut obrazlari orqali vatanni qutqarib qolish yo'lida turk xoqonligining vatanparvarlari or-nomus uchun hatto o'linga ham tik borishga o'zlarida zarurat sezgan degan gapni aytmoqchi bo'ladi: "– Shumi yigitlik? – dedi Ishbara. – Hoy siz! Eltarish xoqonning o'g'li Bilga xoqon so'zi qulog'ingizga kelmadimi?"

– Keldi oz-moz!

– Unda xotin-bolangizni qo'yib, Bilga xoqon so'ziga kirsangiz bo'lmaydimi? Boraylik, ne desa uni qilaylik. Qishda tirishib o'lib yotmaylik.

– Qayg'udamiz, – dedi qorachadan kelgan, qoshi ustida tig'izi bor To'fon degan yigit. – Tegra uluslarga so'z yo'llaylik. Bilganing qoshiga elchi yuboraylik. Tinglaylik-chi, ne der ekan? Buyog'i puturdan ketgan ulus erlari o't atrofida tizilishib, biri olib, biri qo'yib "Ha, shunday bo'lsin. O'lsak o'laylik, biroq yer bilan bir bo'lmaylik", deyishardi". [4: 15].

Roman qahramonlari Ishbara bilan Bulut to O'tukanga borgunlariga qadar kechgan voqealarda Bilga xoqon obrazi ko'rinmaydi, faqat Bilga xoqonning o'gitlari, elga qilgan ezgu ishlari, ana shu ezgu o'gitlarini qalblariga jo qilgan vatanparvar Ishbara yamtar, Bulut obrazlari gavdalanadi. Voqealarning bu tarzda qurilishiga hayotiy maishiy detallar xalaqit berishining oldini olish edi.

**Xulosa.** "Bilga xoqon" romani – turkiy xalqlarning o'n uch asrdan narigi davrdagi qayg'ulari ifodasi. Ma'lumki, muayyan shaxs taqdiri, uning o'zini anglab yetishi: ongining uyg'onishi, xarakterining tashkil topishi va shakllanishi roman markazida turadi, shaxslar taqdiri vositasida ijtimoiy hayotning u yohud bu jihatini ifodalaydi. Qissa va hikoyadan farqli o'laroq, romanda qalamga olingan voqea-hodisalarda ko'p personojlar qatnashadi, ularning hayoti va kurashlar bir-biri bilan bog'lanadi, to'qnashadi. Yozuvchi Isajon Sulton ham tarixiy janrlarga

qo'l urib, g'oyat mukammal, o'qishli, tarixiy ajdodlar haqida faxr tuyg'usini jo'sh urdiradigan asarlar muallifiga aylandi, shubhasiz. Asar mohiyatini ochishda tarixiy obrazlar bilan birga to'qima obrazlarni ham mahorat bilan asar ruhiga singdirib yubora olgan, sodda qilib aytsak, biri ikkinchisini to'ldirgan. Bilga xoqon, Ishbara yamtar qadimgi turk davriga bag'ishlangan badiiy asarlarda yangi obraz deb baholanishga loyiq qahramonlardir. Adib romanlaridagi mazmun, obrazlar harakati barchaning qalbiga chuqur kirib boradi va mulohazaga undaydi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Sulton I. Bilga xoqon. – Toshkent: Factor books, 2022. – 240 b.
2. Quronov. D. Adabiyot nazariyasi asoslari /darslik/. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 310 b.
3. Sodiqov Q. “Kul Tigin va Bilga xoqon bitiglarini: matnlarning o'qilishi va talqinlari”. Oltin bitiglar 1, 2020. 3—21 b.
4. Vohidov.R, Eshonqulov.H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006. – 527 b.
5. Петров С. Русский исторический роман XIX века. – М.: Современник, 1980.
6. Каттабеков А. Художественное воплощение личности и исторической эпохи в современной прозе: Дис. д-ра филол. наук. – Т., 1985. – С. 383
7. Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Т.: Фан, 1969. – 310 Б.
8. <https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/toshni-tiriltirgan-bitiklar/>

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **PREFACES ON LANGUAGE FEATURES AND SPELLING RULES**

**Eshkulov Sunnat**

Doctoral student of the Department of "Uzbek Linguistics" at GulSU

**Abstract.** This article pays special attention to the problems of Uzbek linguistics, in particular, the linguistic features and spelling problems of prefixes. The purpose of the study is to study the specific features of prefixes (foreign scripts) based on the analysis of the features of the Peshlav language and spelling problems. The following scientific analysis methods were used in the study: linguistic description, system, statistical, contextual analysis methods. The method of linguistic analysis was used in the analysis of scientific literature on the topic of the study. Statistical analysis was widely used in studying the occurrence and reflection features of prefixes in foreign scripts of the Uzbek language. The results of the study made it possible to develop the following scientific and practical conclusions and recommendations: analysis of prefixes texts helps to regulate problems related to spelling and write correctly. In particular, in Uzbek linguistics, such issues as the relationship between prefixes and foreign scripts, the specific features of prefixes are of relevance; The presence and reflection of prefixes in the external inscriptions of the Uzbek language was manifested in the following ways: the Uzbek language occupies an important place in the daily life of the people, the development of the Uzbek language, the appearance and mass character of prefixes in external inscriptions. External inscriptions and prefixes in the Syrdarya region served as illustrative material for the article.

**Keywords:** word, language, language, text, prefix, spelling, writing, external inscription, official language, language features.

---

## **PESHLAVHALARNING TIL XUSUSIYATLARI VA IMLO MUAMMOLARI XUSUSIDA**

**Eshkulov Sunnat**

GulDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, peshlavhalarning til xususiyatlari va imlo muammolari masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotning maqsadi peshlavhalar tilining xususiyatlari va imlo muammolari tahlil qilish asosida peshlavhalar (tashqi yozuvlar)ning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat. Tadqiqotda quyidagi ilmiy tahlil metodlaridan foydalanilgan: lingvistik tavsiflash, sistem, statistik, kontekstual tahlil usullari. Tadqiqot mavzusiga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda lingvistik tahlil usulidan foydalanilgan. Statistik tahlil o'zbek tili tashqi yozuvlarida peshlavhalarining o'rin olishi, aks etish xususiyatlarini o'rganishda keng foydalanilgan. Tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy va amaliy xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi: peshlavhalar matnlarini tahlil qilish, imlo bilan bog'liq muammolarni tartibga solishga va to'g'ri yozishga yordam beradi. Xususan, o'zbek tilshunosligida peshlavha va tashqi yozuvlar o'rtasidagi aloqadorlik masalalari, peshlavhalarning o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'z dolzarbligiga ega; o'zbek tili tashqi yozuvlarida peshlavhalarning o'rin egallashi, aks etishi quyidagi usullarda namoyon bo'ldi: o'zbek tili xalqning kundalik hayotida muhim o'rin egallashi, o'zbek tilining taraqqiy etishi bilan peshlavhalarning tashqi yozuvlarda aks etishi va ommaviy tus olishi. Sirdaryo viloyatidagi tashqi yozuv va peshlavhalar maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z, til, lison, matn, peshlavha, imlo, yozuv, tashqi yozuv, rasmiy til, til xususiyatlari.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N21>

"Davlat tili haqida"gi qonun va uning tashqi yozuvlarga ta'siri masalasi. 1989-yil 21-oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Ushbu qonunning 1-moddasida "O'zbekiston

Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir", deb belgilab qo'yildi. Millatlararo munosabatlarni yanada yaxshilash, xalqlarning milliy o'zligini anglashi milliy tillarni har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. Ushbu Qonun o'zbek tilining O'zbekiston Respublikasining butun hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi hududida fuqarolarga tashqi yozuvlar va peshlavhalarni o'zbek tilida yozish huquqi berildi. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etilishi, davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlashi, shu jumladan, uni hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarini joriy etish hisobiga rivojlantirishi belgilab qo'yildi, yangi ilmiy asoslangan atamalar esa jamoatchilik muhokamasidan keyin Oliy Majlis palatalari tegishli qo'mitalarining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etilishi qonunlashtirildi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlashtirilgan til shakli bo'lib, uning leksik, fonetik va grammatik tizimi tilshunoslar tomonidan belgilangan. Davlat va jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar dastlab uning ko'zgusi bo'lgan tilda o'z aksini topadi. Jumladan, ko'cha yozuvlarida, peshlavhalarda bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Mustaqillikdan so'ng Davlat tiliga bo'lgan e'tibor o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng peshlavhalarni yozish va rasmiylashtirish ishlarida ham o'zgarishlar yuz berdi, jamiyatdagi har qanday o'zgarishlarning dastlab tilda aks etishidek haqiqat anglab yetildi. Shunga muvofiq ko'cha yozuvlari bilan parallel, peshlavhalar ham yangilandi. Bu o'zbek tili peshlavhalarini yozish va tegishli o'rinlarga joylashtirilishi uchun ham keng imkoniyat yaratib berdi. Mafkuraviy tazyiqlar tufayli yozilgan peshlavhalar o'rnida o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yasalgan (yaratilgan) peshlavhalar paydo bo'ldi.

Ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga o'tishda va undan keyin jamiyat hayotida katta o'zgarishlar yuz beradi. Bunday o'zgarishlar tilda ham aks etadi, chunki til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi. Shunisi ham borki, jamiyat qanchalik taraqqiy etmasin, tildagi narsa-hodisalar nomi ma'lum muddatgacha o'zgarishsiz saqlanadi. Tushunchalar yo'qolishi yoki boshqa nomda atalishi bilan oldingi so'zlar ham yo'qola boshlaydi. Shuning uchun ham tilda birdaniga uzilishlar ro'y bermaydi.

O'zbek xalqi til mustaqilligiga milliy mustaqillikdan oldinroq erishgan bo'lsa-da, o'zbek tili leksik tizimidagi tom ma'nodagi o'zgarishlar, yangi leksik me'yorlarning shakllanish davri so'nggi yigirma yillikka to'g'ri keladi va bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida o'zbek tili peshlavhalarini yozishda yuzaga kelgan noxush holatlarni, chalkashliklarni, bu yo'lda olib borilayotgan boshboshdoqliklarni bartaraf etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamashunoslik qo'mitasi tuzildi. Bu qo'mita ko'cha yozuvlarini, peshlavhalarning ushbu davrdagi taraqqiyotini tartibga solishda muhim o'rin tutdi.

Sobiq sho'rolar davrining "...so'nggi yillarigacha, boshqa fanlar qatori, ona tilining o'qitilishiga ham yetarli e'tibor berilmadi" [2, 3]. O'zbek tili peshlavhalaridagi muammolar ham yetarli bo'lib, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ko'cha yozuvlarini tartibga solish, takomillashtirish, ularga ilm-fan yutuqlarini tatbiq etish kun tartibidagi asosiy masala etib belgilandi.

"Davlat tili haqida"gi qonunning 20- va 22-moddalarida lavhalar, e'lonlar, ma'muriy-hududiy birliklar, geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettirilishi qoidalashtirildi. Bu esa o'z navbatida o'zbek tilshunosligi zimmasiga ommaviy kommunikatsiya matnlarini ilmiy

tahlil qilish, bu yo'nalishda zaruriy tadqiqot ishlarini olib borish, o'zbek tilidagi axborot beruvchi ko'cha tilida keng qo'llanadigan hamda kommunikativ birlik sifatida baholanadigan peshlavha (viveska)larning lingvistik tabiatini bugungi kun talablaridan kelib chiqib o'rganish va ilmiy xulosalarga kelish kabi dolzarb vazifalarni yuklaydi. Ushbu masalada dastlabki amalga oshirilgan ishlardan biri N.Chiniqulovning "Peshlavhalarning lisoniy xususiyatlari" nomli dissertatsiyasi bo'ladi [3, 26].

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da peshlavha va unga yaqin (vazifadosh) bo'lgan lug'aviy birliklarga e'tibor qaratamiz. Dastlab *lavha* haqida fikr yuritamiz.

*Lavha* [arabcha لوحة – taxta; ustiga biror narsa yozilgan taxtacha; *peshlavha*]. 1 Silliqlangan tosh yoki metall taxta. *Oppoq marmar lavha ustiga qo'yilgan siyohdon juda yarashig'liq edi*. Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli. 2 Xotira yoki qisqacha tarixiy ma'lumot yozib, biror joyga o'rnatib qo'yilgan tosh yoki metall taxta va unga yozilgan matn, xat. *Qahramon xotirasiga o'rnatilgan lavha. – Qutidor lavha qarshisida edi. Lavhani o'qib chiqqandan keyin u ham piq-piq yig'lab yubordi*. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. 3 Voqea, hodisa va sh.k. haqidagi kichik asar yoki parcha. *Paxtakorlar hayoti haqida lavhalar. – ayolimning oltin qayig'i Suzar ekan bag'ringda mag'rur, Jilva bilan keksa tarixning Lavhalari bir-bir ko'rinur*. Uyg'un. *U otasining suhbatini sevar, grajdanlar urushiga doir lavhalarni sevib tinglar edi*. Shuhrat, Shinelli yillar. 4 *poligrafiya*. Kitobning boshiga, bob va fasllarining avvaliga sahifaning eni bo'ylab solingan naqsh. 5 Ko'rinish, manzara. *"Tezguzar"da bo'ldim. O'tmish asrlarning xarobazor, vahima, cho'l lavhalaridan iz ham qolmagan*. Tuyg'un, Yillar va kishilar. *Navoiy... hayot lavhalari va tabiat manzaralarini tasvirlashda ham mohir san'atkordir*. "Vatan adabiyoti" [6, 21].

O'zbek tilining izohli lug'atidan olingan ushbu iqtibosda ham *lavha* (*peshlavha*) ko'cha yozuvi ekanligi haqida fikr bildirilmagan.

*Pesh I* [forscha پیش – oldi, old tomon; oldinda, yaqinida; avvali] 1 Ba'zi narsalarning oldinga qaragan tomoni, labi, cheti, qirg'og'i. *Ayvonning peshi. – Ayajon, ayyomingiz muborak! – deb sovg'a-salomni ayvonning peshiga qo'ydi-da, onasiga kiftini tutdi*. K.Yashin, Hamza. *U qopidan ketmonini olib, peshini egovlay boshladi*. "Sharq yulduzi". 2 Kiyimning old etagi, bari. *Kamzulingning peshini bossam, gard bo'lar, Oshiqlik deganing qiyin dard bo'lar*. "Qo'shiqlar". *Arg'unshoh tiz cho'kib, podshohning etaklarini yuziga surtmoqchi bo'lgandi, Shohrux uning qo'lidan peshini tortib oldi*. B.Ahmedov, Ulug'bek. *Yenglari shimarilgan Komiljon, etagining peshini qayirib olgan Davronov eng oldinda borardi*. I.Rahim, Ixlos. *Bazzoz kulrang yengil chakmonining o'ng peshini qayirib qo'llarini ortida qovushtirgan tashqi hovlida kezindi*. N.Jaloliddin, Tegirmon.

*Pesh II* [forscha پیش – oldinda; yonida, yaqinida] *ravish*. (birin-ketin sodir bo'ladigan ish-harakatni bildiruvchi ikki fe'l oldida takrorlanganda) Fursat o'tmasdan, darrov, darhol, peshma-pesh. *Pesh terilgan paxtani pesh topshirib turmoq. — [Iqbol satang] Hovli sahnini ko'zdan kechirdi. Hamma yoq chinnidek. Shuncha daraxt-u, tagida bitta barg ko'rinmaydi. "Pesh tushganini pesh olib turadimi deymen, – o'ylay ketdi u, – qachon qarasang, [Mehrinisoning] hovlisi yog' tomsa yalagudek"*. R.Fayziy, Hazrati inson. *Egningizdan pesh tushgan kiyimni pesh yuvib turgan bo'lsak...* S.Ahmad, Yulduz.

*Old 1* Narsalarning kuzatuvchiga qaragan qismi; pesh, yuz. *Binoning oldiga shiorlar osilgan. Ko'ylakning oldi uzunroq bo'libdi. – Ot old oyoqlarini irg'itib sapchidi-da, shamoldek uchib ketdi*. S.Ahmad, Ufq. 2 Narsalarning ilgari tomonidagi yoki qismidagi joy, o'rin. *Uyning oldini supurib, joy qilmoq. – Mastonga aravaning oldidan joy berishdi*. A.Qahhor, Maston. 3 (3-sh. birl.

shaklda) Biror ish harakat, voqea-hodisa va sh.k.dan oldin bo'ladigan, ro'y beradigan, o'tkaziladigan. *Bayramoldi musobaqasi. Saylovoldi kompaniyasi.* 4 3-sh. egalik va j.k., o'.-p.k., ch.k. affikslari bilan ko'makchi vazifasida qo'llanadi (*q.* oldiga, oldida, oldidan). *Old qo'shimcha ayn.* prefiks. Oldini olmoq Xavf-xatarning yuz berishidan ilgari chorasini ko'rmoq; yomon oqibatning yuz berishiga yo'l qo'yimaslik. *Urushning oldini olmoq. – Xotiring jam bo'lsin, do'stim, baloning oldini oldim.* Oybek, Navoiy. *Til oldi tovushlari tlsh.* Tilning old qismida hosil bo'ladigan tovushlar. *Oldda ayn. oldinda.* [6, 464].

*Pesh* fors-tojikcha so'z bo'lib, o'zbek tilidagi *old* so'ziga sinonim bo'lib keladi. Fors-tojikcha bo'lgan *pesh* so'zi o'zbek tilida juda kam holatlarda yolg'iz qo'llandi. U o'zbek tiliga so'z yasovchi bo'lib o'zlashgan.

*Pesh-* o'zlashgan qatlamga oid so'z yasovchi prefiks bo'lib, uning yordamida otlar yasaladi [1, 120]. Bunda yasovchi asoslar vazifasida har xil ma'nodagi otlar keladi. *Pesh-* yasovchi vosita vazifasini bajaradi. U tojik-fors tilidan o'zlashgan so'z yasovchi prefiksdir. *Pesh-* prefiksi ("old, oldi, old tomon; oldinda, yaqinida; avvali" ma'nosidagi tojikcha-forscha "pesh" so'zining affikslashgan muqobili): *peshlavha, peshtaxta, peshayvon, peshtoq, peshqadam, peshoyna, adolatpesha, hunarpesha, saxovatpesha* va b. Shu prefiks bilan yasalgan so'zlarga murojaat qilamiz: *Saxovatpesha* [arabcha. [ *بيشه سخاوت* ayn. *saxovatli* 1. – *Maskop podshohi rostdan ham saxovatpesha erkan! – dedi Xo'ja Kalon boshini g'oz ko'tarib.* M.Osim, Elchilar. *O'ylaymizki, bunday saxovatpesha kishilar hamisha topiladi.* Gazetadan. *Saxovatpeshalik* Saxovatpesha bo'lishlik, saxovatpesha ekanlik; saxiylik, hotamtoylik. *Lekin Xudoyorning saxovatpeshaligi va ma'muriyatparvarligi mehnatkashning xazinaga oltin suratida yig'ilgan kuchidan emas, bevosita bilak kuchidan, ko'z yoshidan edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon [7, 571].

*Peshlavha* [forscha va arabcha. *لوحة بيته* – old tomonga osiladigan lavh(a)] Korxonada, idora, muassasa, o'quv yurti kabilar haqida qisqa, ixcham, aniq ma'lumot yozilgan va shularning kiraverishida ko'rinarli joyga o'rnatiladigan maxsus taxtacha. *Hozirda shahrimizda juda ko'plab peshlavhalar yangi qabul qilingan lotin alifbosida yozilmoqda.* Gazetadan. *Loyihaning ushbu bandida muayyan binolarga o'rnatilgan peshlavhalarining ham, garchi reklama hisoblanmasada, ma'lum bir talablar asosida yozilishi belgilab qo'yilsa...* Gazetadan. *O'sha yillari idoralar va turli tashkilotlarda peshlavhalar o'zgarayotgan edi.* S.Ahmad, Yo'qotganlarim va topganlarim [6, 711]. Biz tadqiq etayotgan *peshlavha* so'ziga lug'atda shunday qisqa va ixcham ta'rif bilan cheklangan.

*Sarlavha* [f. + a. *سرلوحه* – kitobda lavha bezak; titul varag'i; epigraf] 1 Kitob, asar, maqola va sh.k.ning yoki ularning ayrim qismlarining nomini ifodalovchi so'z yoki jumla. *Sarlavha qo'yimoq. – Ahmedov sahifadagi materiallarni ko'zdan kechirgach, umumiy sarlavhani tovush chiqarib o'qidi.* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. *Ahmad ocherkning sarlavhasiga va avtoriga qaradi.* F.Musajonov, Himmat. 2 esk. ayn. *peshlavha.* *Qishloqqa kirar yo'lda Mana katta darvoza. Darvozaga yozilgan "Kolxoz" degan sarlavha.* Z.Diyor [7, 546]. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da *sarlavha* so'zi *peshlavha* so'ziga nisbatan aynan (ayn.) pometasi bilan berilgan. Demak, *sarlavha* so'zi *peshlavha* so'ziga nisbatan sinonim maqomida ko'rsatilmoqda. Lekin ular keltirilgan matnlarda ma'no nozikligi bilan farqlanadi. Xulosa qilib aytganda *peshlavha* lug'aviy birligi o'rnida *sarlavha* so'zini qo'llab bo'lmaydi.

*Viveska* [ruscha. "вывесить" so'zidan – osib, yopishtirib qo'yilgan narsa] esk. *q. peshlavha.* *Shamol... kitoblarni varaqlar, osilib qolgan viveskalarini tebratardi.* Oybek, Quyosh

qoraymas. “Chaynaya №5” degan viveskaga ko‘zim tushib, “ko‘k choy ichib, bir huzur qilay”, dedim. “Mushtum”. Biz ham “Darxon” gazetiga bir viveska buyurdik. Cho‘lpon, Musulmonlashdirish [8, 703].

Bu lug‘at maqolasida *viveska* neologizm, *pehlavha* esa eskicha (esk.) pometasi bilan berilgan. Eskicha ya‘ni arxaizm sifatida berilgan. Bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Sababi *pehlavha* lug‘aviy birligi iste‘moldan qolmagan, hozirgi kunda faol qo‘llanmoqda.

Shu o‘rinda *pehlavha* so‘ziga yaqin ma‘no kasb etuvchi *adres* so‘ziga ham to‘xtalib o‘tsak. *Adres* [fransuzch *adresse* – yubormoq] 1 *ayn.* manzil. *Institut adresi.* *Uy adresi.* – *Menga adresingizni bering, kolxozga o‘zim xat yozaman, uyingizdan xabar olishadi.* I.Rahim, Chin muhabbat. 2 Pochta orqali yuboriladigan narsalar ustidagi ularning boradigan joyi va oluvchining nomi ko‘rsatilgan yozuv. *Uning [Zamiraning] nomiga g‘alati bir konvert chiqdi: na adresi bor, na markasi va na pochta muhri.* P.Qodirov, Uch ildiz. 3 (*egalik va j.k.da*) Nomiga, sha‘niga tegishlilikni bildiradi. *Mening adresimga aytilgan barcha gaplarni xalq sha‘niga aytilgan gaplar deb hisoblayman.* Oybek, Xalqqa xizmat – baxt. *Qodirovga berilgan bu aybnoma qoloq, hayotdan uzoqda bo‘lgan rahbarlar adresiga aytilgan aybnoma ham edi.* Gazetadan. 4 Biror tantana munosabati bilan muassasa, tashkilot yoki ayrim shaxs nomiga yuborilgan, odatda, papka va sh.k. narsa ichiga solingan tabriknoma; yodnoma. *Adres stoli (yoki byurosi)* Biror yerda yashovchilarni ro‘yxatga olib boruvchi va ularning turar joylari to‘g‘risida ma‘lumotnomalar beruvchi muassasa, idora. *Adreslar daftari* Kishilar va idoralarning adreslari yozilgan daftar, jurnal [4, 48]. *Pehlavha* bu ko‘cha yozuvi bo‘lib, o‘zida odatda tashqi yozuvlar ma‘nosi mujassamlashgan, *adresda* (manzil) xat va boshqa narsa (kimsa) boradigan makon, joy haqida gap bormoqda. *Adres* kimgadir beriladi yoki yuboriladi. *Pehlavha* esa bir joyda muqim joylashgan bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, *pehlavha* korxon, idora, muassasa, o‘quv yurti kabilar haqida qisqa, ixcham, aniq ma‘lumot yozilgan va shularning kiraverishida ko‘rinarli joyga o‘rnatiladigan maxsus taxtacha. *Pehlavha* lug‘aviy birligi o‘rnida *sarlavha*, *viveska*, *lavha*, *adres* kabi birliklarni qo‘llab bo‘lmaydi. Bu lug‘abiy birliklarning birortasi ham *pehlavha* so‘zi aks ettirgan ma‘noni bera olmaydi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Morfemika, so‘z yasalishi, morfonologiya). Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti bakalavri talabalari uchun darslik. – Toshkent: «TURON-IQBOL», 2022. – 120 b.
2. Мирзақулов Т. Грамматика ўқитишнинг лингвистик асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б. 3.
3. Чиниқулов Н. Пешлавҳаларнинг лисоний хусусиятлари: филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati VI jildli. I jild. – Toshkent, 2023. – 964 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati VI jildli. II jild. – Toshkent, 2023. – 1036 b.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati VI jildli. III jild. – Toshkent, 2023. – 844 b.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati VI jildli. IV jild. – Toshkent, 2023. – 824 b.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati VI jildli. V jild. – Toshkent, 2023. – 720 b.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati VI jildli. VI jild. – Toshkent, 2023. – 864 b.

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW**

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

**SOME LEGAL ISSUES IN DETERMINING LEVELS OF PUBLIC PARTICIPATION**

**Yuldoshev Azizjon Ergash ugli**

Doctor of law, associated professor  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article examines classifications of levels of public participation in practical and guidebooks, academic works, and other sources. It is found that different classifications and names of levels of public participation lead to confusion and incomplete provision of political rights. This study clarified the differences in these sources and proposed a new classification of levels of public participation.

**Keywords:** public participation, ladder of participation, political rights, level, classification, stage, process.

**OMMAVIY ISHTIROK DARAJALARINI ANIQLASHNING AYRIM HUQUQIY MASALALARI**

**Yo'ldoshev Azizjon Ergash o'g'li**

yuridik fanlar doktori, dotsent,  
TDYuU "Konstitutsiyaviy huquq" kafedrası professori v.b.,  
E-mail: [azizjonyuldoshev237@gmail.com](mailto:azizjonyuldoshev237@gmail.com)  
<http://www.orcid.org/0000-0002-5821-2714>

**Annotatsiya.** Maqolada ommaviy ishtirok darajalarining tasniflari amaliy va rahbariy qo'llanmalarda, ilmiy ishlar va boshqa manbalarda o'rganildi. Ommaviy ishtirok darajalarining turlicha tasniflanishi va nomlanishi chalkashliklarga olib kelishi hamda siyosiy huquqlarning to'liq ta'minlanmasligiga olib kelishi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida ushbu manbalardagi farqlarga oydinlik kiritildi va ommaviy ishtirok darajalariga yangi tasnif berildi.

**Kalit so'zlar:** ommaviy ishtirok, ishtirok narvoni, siyosiy huquqlar, daraja, tasnif, bosqich, jarayon.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N22>

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoda ommaviy (jamiyat va davlat ishlarida) [1, 26] ishtirokni ta'minlash masalalari siyosatchilar, tadqiqotchilar va fuqarolar e'tibori markazida turibdi. Siyosiy rejimidan qat'iy nazar barcha davlatlar qonunchiligida ommaviy ishtirokning turli shakllari siyosiy va boshqa subyektiv huquqlar sifatida belgilanmoqda. Ushbu huquqlarni ta'minlash jumladan ommaviy ishtirok darajasini oshirib borishga bevosita bog'liqdir.

Ommaviy ishtirok etish darajalarini tasniflash va to'g'ri aks etish ommaviy (jamiyat va davlat) ishlarni hal qilishga fuqarolar ta'sirini kuchaytirish choralari aniqlash imkonini beradi. Shu tufayli ushbu masalalar xorijda keng o'rganilgan bo'lib, ommaviy ishtirok darajalariga ko'plab va turli tasnif hamda ta'riflar berilgan. Mavjud tasnif va ta'riflarga aniqlik kiritish dolzarb masalaga aylangan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ommaviy ishtirok darajalariga ilk bor AQShlik tadqiqotchi Sh.Arnshteyn tomonidan ilmiy asoslangan tasnif berildi [2, 13]. Ushbu tasnif “ishtirok narvoni” (ladder of participation) konsepsiyasi deb nomlandi. Mazkur konsepsiyada ommaviy ishtirok darajalari ommaviy ishlarga fuqarolar ta’siri bo’yicha tasnif qilindi. Konsepsiya ommaviy ishtirokni ta’minlash istiqbollari belgilab berdi. Ushbu konsepsiyani takomillashtirish maqsadida tadqiqotchilar D.Konor [4, 252], P.Videman va S.Femerslar [6, 357], M.Shlossberg va E.Shufford [7, 18] va boshqalar [9, 217; 10, 340] o’z “ishtirok narvoni”ni taklif etdilar. Tadqiqotchi R.Xart tomonidan “bolalar ishtiroki narvoni” [8, 41] ham ishlab chiqildi.

Tadqiqotchilar tomonidan turli “ishtirok narvonlari”, ya’ni ommaviy ishtirok darajalarini tasniflashda yagona yondashuvning yo’qligi uslubiy muammolarni keltirib chiqardi. Xalqaro standartlarda ommaviy ishtirok: xabardor qilish, maslahatlashish, muloqot va sheriklik [17] yoki xabardor qilish, maslahatlashish va jalb qilish [18], davlat organlari uchun amaliy qo’llanmalarda esa – xabardor qilish, maslahatlashish, jalb qilish, hamkorlik va vakolat berish [13; 14; 15] darajalariga tavsiflangan. Ommaviy ishtirok darajalari xalqaro standartlarda to’liq ko’rsatilmagan bo’lsa, amaliy qo’llanmalarda zarur bo’lmagan ortiqchasi ham ko’rsatilgan.

Ommaviy ishtirok jarayonini kuzatish, mavhumlashtirish, tahlil va umumlashtirish usullari qo’llanildi. Olingan natijalar mavzu doirasida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) hamda boshqalar tomonidan yozilgan qo’llanmalar va ilmiy ishlar bilan taqqoslandi. Hozirgacha ommaviy ishtirok darajalarini tasniflashda uni xolisona aks etishga ta’sir qilmaydigan psixologik va boshqa omillar mavjudligi, ommaviy ishtirok darajalarining turlicha nomlanishi va tasniflanishi chalkashliklarga olib kelayotganligi aniqlandi. Mavjud farqlarga oydinlik kiritish va ularni unifikatsiya qilish ommaviy ishtirokni yanada samaraliroq ta’minlashga xizmat qilishi to’g’risidagi taxmin ilgari surildi.

**Muhokama.** Sh.Arnshteyn “ishtirok narvoni”da ommaviy ishtirok sakkizta darajaga tasniflangan [3, 217]. U eng quyi (1) manipulyatsiya va (2) psixoterapiya darajalarini – **(I) ishtirok etmaslik**, (3) xabardor qilish, (4) maslahatlashish va (5) tinchlantirish darajalarini – **(II) ramziy** hamda (6) sheriklik, (7) o’tkazilgan vakolatlar va (8) jamoatchilik nazorati darajalarini **(III) fuqarolik boshqaruvi** deb nomladi.

Bugungi kunga qadar Sh.Arnshteyn “ishtirok narvoni”ni takomillashtirish yuzasidan qator fikrlar bildirilgan. Uning o’zi ham ilgari surgan “ishtirok narvoni”da fuqarolar boshqaruvi darajalari aniq ajratilmagani, buning uchun ko’proq zinapoyalar talab etilishi, irqchilik, paternalizm, daromadlari yuqori bo’lmagan jamoalarning uyushmagani va boshqa holatlar inobatga olinmagani, uning shahar atrofi va qishloq jamoalariga mo’ljallanmagani tan olgan [4, 249]. Ushbu va boshqa kamchiliklar mavjudligi sababli tadqiqotchilar “ishtirok narvoni”ni takomillashtirishga harakat qilishmoqda [5, 10].

D.Konor “yangi ishtirok narvoni”ni keng jamoatchilik ishtirok etadigan: (1) ta’lim, (2) qaytma aloqa va (3) maslahatlashuv hamda yetakchilar ishtirok etadigan (4) birgalikda rejalashtirish, (5) mediatsiya, (6) sudlashuv va (7) hal qilish (oldini olish) kabi yettita darajaga ajratadi [4, 252]. U kelishmovchilarni bartaraf qilishning AQSh huquqiy madaniyatiga xos modelini taklif qiladi. Ushbu “ishtirok narvoni”ning darajalari fuqarolarning boshqaruvga ta’sirini aks ettirmasligi va ko’proq qaror qabul qilish bosqichlari ekanligi ko’zga tashlanadi.

Tadqiqotchilar P.Videman va S.Femerslar D.Konnor tomonidan yo'l qo'yilgan kamchilikni bartaraf qilishga harakat qilib, o'zlarining "ishtirok narvoni"ni ilgari surdilar. Ushbu "narvon"da: (1) yakuniy qaror qabul qilishda, (2) xavflarni baholashda va yechimlarni tavsiya qilishda hamda (3) manfaatlarni aniqlash va kun tartibini belgilashda jamoatchilik ishtiroki, (4) e'tiroz bildirish huquqi, (5) jamoatchilikni xabardor qilish va (6) bilish huquqi darajalari belgilandi [6, 357]. Bu "narvon"da ham ommaviy ishtirok ta'sir darajasi emas, balki bosqichlari aks ettirilganini ko'rish mumkin.

M.Shlossberg va E.Shufford yuqorida keltirilgan va A.Dorsining "ishtirok narvonlari"ni o'rgandilar va ularni ommaviy ishtirokning turli jihatlarini aks etadi, degan xulosaga keldilar. Ularning fikriga qo'shilgan holda, doimiy ishtirok, kelishuvga intilish, g'oyalarni berish va maslahat olish, munosabat yuzasidan maslahatlashuv, muammolarni aniqlash, axborot yig'ish va istiqbollar, ta'lim berish va xabardor qilish – sakkizta bosqichdan iborat Dorsi "ishtirok narvoni" rejalashtirishga, Sh.Arnshteynniki hokimiyatga, D.Konnorniki muammolarni hal qilishga, P.Videman va S.Femerslarniki boshqaruvga yo'naltirilgan deyish mumkin [7, 18].

Tadqiqotchi R.Xart tomonidan ishlab chiqilgan "bolalar ishtiroki narvoni"da ommaviy ishlarga bolalar ta'sirining darajasi ancha xolis belgilangan deyish mumkin. Mazkur "narvon": manipulyatsiya; dekoratsiya; ramziylik; tayinlangan, lekin xabardor qilingan; maslahatlashilgan va xabardor qilingan kabi – ishtirok etmaslik darajalari hamda kattalar tashabbusi va bolalar bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar, bolalar tashabbus ko'rsatgan va rahbarlik qilgan, bolalar tashabbusi va kattalar bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar kabi ishtirok etish darajalariga tasniflangan [8, 41].

Sh.Arnshteyn "ishtirok narvoni"dan R.Xart ishtirok va ishtirok etmaslik darajalarini qoldirgan bo'lsa, ayrim tadqiqotchilar uning ishtirok etmaslik va ramziylik darajalari orasiga "iste'molchilik" deb nomlangan – "tanlov" [9, 217] darajasini, ba'zilar esa, "birgalikda ishlab chiqish" – eng yuqori darajasini kiritishgan [10, 340]. Ushbu va boshqa g'oyalarni tadqiq qilganlarning ko'pchiligi Sh.Arnshteyn "ishtirok narvoni"da fuqarolarning hokimiyatga egaligi va ommaviy ishlarga ta'siri darajasi aniqroq aks etgan, degan xulosaga kelishgan [11; 12].

Shu bilan birga, ommaviy ishtirok bo'yicha davlat organlari uchun bir nechta amaliy qo'llanmalarda Sh.Arnshteyn "ishtirok narvoni" o'zgartirilgan. Masalan, bir nechta qo'llanmalarda ommaviy ishtirokning: xabardor qilish, maslahatlashish, jalb qilish, hamkorlik va vakolat berish darajalari belgilangan [13; 14; 15]. Bu yerda Sh.Arnshteyn "ishtirok narvoni"ning: "manipulyatsiya" va "psixoterapiya" kabi ishtirok etmaslik hamda ramziy "tinchlantirish" darajalari olib tashlanganiga qo'shilish mumkin. Chunki ular ishtirok shakllarini nomiga joriy etishni anglatadi va bu holat barcha ishtirok darajalarida uchrashi mumkin.

Jamoatchilik nazorati darajasini ham olib tashlanganiga qo'shilish mumkin, chunki uning tushunchasiga turli xil ta'riflar mavjud [16, 22]. "Vakolat berish" darajasi esa jamoatchilik nazorati mohiyatini aks etadi, ya'ni fuqarolarga bevosita referendum yoki boshqa shaklarda qaror qabul qilish huquqlarini ta'minlashni va berishni anglatadi. Amaliy qo'llanmalardagi ushbu darajalar ommaviy ishlarga fuqarolar ta'sirini to'g'ri aks ettirish va kuchaytirish imkonini beradi.

Shuningdek, amaliy qo'llanmalarda "sheriklik" darajasini "hamkorlik" deyilishiga ham, darajalar guruhlariga "ishtirok etmaslik", "ramziy ishtirok" va boshqacha nom berilmaganiga qo'shilish mumkin. Har bir ishtirok darajasining nomi uning mazmunini xolis aks etadi.

Biroq, amaliy qo'llanmalarda "jalb qilish" darajasining qo'shilishi bahslidir. Chunki ommaviy ishtirokning maslahatlashish va hamkorlik darajalarida fuqarolar ham jalb qilinishi, ham o'z tashabbuslari bilan ishtirok etishlari mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ayrim xalqaro standartlarda ommaviy ishtirokni: xabardor qilish, maslahatlashish, muloqot va sheriklik [17] yoki xabardor qilish, maslahatlashish va jalb qilish [18] darajalariga tasniflashga qo'shib bo'lmaydi. Bunda doimiy maslahatlashishni yo'lga qo'yish muloqotga aylanishini aytish mumkin. Demak, ommaviy ishtirokni: xabardor qilish, maslahatlashish, hamkorlik va vakolat berish darajalariga tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Natijalar.** Ommaviy ishtirok darajalarining taklif etilayotgan tasnifi ushbu jarayonni samarali tashkil qilish imkonini beradi. Ushbu darajalar ommaviy ishtirok etish bosqichi emas, balki har bosqichda ommaviy ishlarga fuqarolar ta'sirini kuchaytirish mezoniga aylanadi. Masalan, IHTT tomonidan 2022-yilda nashr qilingan Fuqarolar ishtiroki jarayonlari uchun rahbariy tamoyillarda [18] ommaviy ishtirok: xabardor qilish, maslahatlashish va jalb qilish darajalariga tasniflangan. Ahamiyatlisi, har bir ishtirok bosqichida fuqarolar ta'sirini ushbu darajalarga ko'tarish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Rahbariy tamoyillarda ommaviy ishtirok: yechish kerak bo'lgan muammoni va ishtirok etish vaqtini aniqlash; kutilayotgan maqsad va natijalarni belgilash; ishtirokchilarni jalb qilish va buning uchun tegishli fuqarolar guruhini aniqlash; ishtirok etish usulini tanlash; raqamli vositalarni to'g'ri tanlash; jarayon haqida muloqot qilish; ishtirok etish jarayoni; fuqarolar fikridan foydalanish va fikr-mulohazalarni bildirish; ishtirok jarayonini baholash va ishtirok madaniyatini tarbiyalash kabi o'nta bosqichga [18] ajratilgan.

Qaror qabul qilish jarayonida fuqarolik ishtiroki bo'yicha yaxshi amaliyot kodeksida ommaviy ishtirokning bosqichlari qaror qabul qilish jarayoniga moslashtirilgan. Ushbu Kodeksda ommaviy ishtirok: kirish/undaydigan g'oyalar, kun tartibini belgilash; qaror loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish; siyosatni amalga oshirish, monitoring va siyosatni qayta shakllantirish bosqichlarida amalga oshirish tavsiya qilinadi [17].

Ommaviy ishtirok darajalarining taklif etilayotgan tasnifi yuqorida keltirilgan Rahbariy tamoyillar va Kodeksda ko'rsatilgan har bir ommaviy ishtirok bosqichida fuqarolar ta'sirini ko'tarishga xizmat qiladi. Birinchisiga hamkorlik va vakolat berish darajalari qo'shiladi. Masalan, bunda fuqarolar ishtirokining dastlabki bosqichi bo'lgan qaror loyihasini ishlab chiqish va qabul qilishda ommaviy organlar va fuqarolar turli shakllarda hamkorlik qilishi yoki fuqarolarning o'z imkoniyatlari aks etadi. Bu bilan amalda fuqarolarning siyosiy huquqlarini to'liq ta'minlashga erishiladi.

**Xulosa.** Amalga oshirilgan tadqiqot jarayonida ommaviy ishtirok darajalarining quyidagi yangi tasnifi ilgari surildi: xabardor qilish, maslahatlashish, hamkorlik va vakolat berish. Taklif etilgan tasnif ommaviy ishtirokning har bir bosqichida fuqarolarning siyosiy huquqlarini, jumladan hamkorlikda, referendum orqali yoki mustaqil qaror qabul qilishga bo'lgan boshqa huquqlarini ta'minlash va kengaytirib borishga uslubiy asos vazifasini o'taydi.

Ommaviy ishtirok darajalarini xolisona belgilash – bu nafaqat demokratik jarayonning talabi, balki davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlovchi strategik vositadir. Ishtirok darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, qabul qilingan qaror shunchalik puxta bo'ladi va uning ijrosi uchun fuqarolar mas'uliyati oshadi. Ommaviy ishtirok darajasi qanchalik aniq belgilansa, u

shunchalik samarali amlga oshiriladi, yashirin kelishuvlar va manfaatlar to‘qnashuvi uchun imkoniyat kamayadi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Yo‘ldoshev A.E. Fuqarolarni jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini ta‘minlashning dolzarb masalalari // “Huquqiy tadqiqotlar” elektron jurnali ([www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)). – T., 2020. – №11. – B. 22-32.
2. Lauria M., Slotterback C. S. (ed.). Learning from Arnstein's Ladder: From Citizen Participation to Public Engagement. – Routledge, 2021. – P. 13.
3. Sherry R. Arnstein. A Ladder Of Citizen Participation // Journal of the American Institute of Planners, 35:4, 1969. – P. 217. DOI: [10.1080/01944366908977225](https://doi.org/10.1080/01944366908977225).
4. Connor D. M. A new ladder of citizen participation //National civic review. – 1988. – T. 77. – №. 3. – S. 249.
5. DeCaro D. A., Stokes M. K. Public participation and institutional fit: a social-psychological perspective //Ecology and Society. – 2013. – T. 18. – №. 4. – R. 10.
6. Wiedemann P. M., Femers S. Public participation in waste management decision making: Analysis and management of conflicts //Journal of hazardous materials. – 1993. – T. 33. – №. 3. – S. 357. // [https://doi.org/10.1016/0304-3894\(93\)85085-S](https://doi.org/10.1016/0304-3894(93)85085-S)
7. Schlossberg M., Shuford E. Delineating" public" and" participation" in PPGIS // URISA Journal, Vol. 16, No. 2, 2005. – R. 18.
8. Hart R. A. Children's participation: The theory and practice of involving young citizens in community development and environmental care. – Routledge, 2013. – R. 41.
9. Cardullo, P., Kitchin, R. Being a ‘citizen’ in the smart city: up and down the scaffold of smart citizen participation in Dublin, Ireland // GeoJournal 84, Vol 1, 2019. – R. 217. <https://doi.org/10.1007/s10708-018-9845-8>
10. Rosen J., Painter G. From citizen control to co-production: Moving beyond a linear conception of citizen participation //Journal of the American planning association. – 2019. – T. 85. – №. 3. – R. 340.
11. John Gaber. Building “A Ladder of Citizen Participation” // Journal of the American Planning Association, 85:3, 2019. – R. 188-201, DOI: [10.1080/01944363.2019.1612267](https://doi.org/10.1080/01944363.2019.1612267);
12. Mukherjee, F. Public Participatory GIS // Geography Compass, 9(7), 2015. – R. 384-394. doi:10.1111/gec3.12223.
13. Public Participation Guide // <https://www.epa.gov/international-cooperation/public-participation-guide>;
14. Good Practice Guidelines for Engaging with People with Disability // <https://www.disabilitygateway.gov.au/document/9881>;
15. Inclusive Public Engagement Guide // <https://www.sandiego.gov/engagement/implementing-public-engagement>.
16. Yo‘ldoshev A.E. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish istiqbollari: monografiya. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2022. – 161 bet.
17. Code of good practice for civil participation in the decision-making process. Conference materials of International Non-Governmental Organisations (INGOs) of the Council of Europe. 2019. – P. 9 // <https://rm.coe.int/code-of-good-practice-civil-participation-revised-301019-en/168098b0e2>.
18. OECD Guidelines for Citizen Participation Processes, OECD Public Governance Reviews, OECD Publishing, Paris, 2022. – P. 14. // <https://doi.org/10.1787/f765caf6-en>.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **CONSTITUTIONAL AND LEGAL ESSENCE OF COOPERATION BETWEEN COUNCILS OF PEOPLE'S DEPUTIES AND CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS**

**Saginidikov Maxset Djubaktanovich**

Nukus branch of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture  
Head of the Registrar's Department

**Abstract.** This scientific article examines the main areas of activity of the Councils of People's Deputies and issues of activity based on mutual cooperation of civil society institutions from a constitutional and legal perspective. Based on the results of our research, information was provided on the role of the legal status of the Councils of People's Deputies as a local body, the essence of civil society institutions in state governance and the constitutional principles regulating their mutual relations. The main aspect of the research that caused the discussion is that it provides basic information on the development of legal forms of cooperation with civil society institutions, the improvement of practical mechanisms of constitutional and legal cooperation and their status in democratic governance. Based on the results and analysis, scientific conclusions are drawn on the basis of the fact that effective cooperation of representative bodies and civil society institutions is a constitutionally important factor, and on the basis of this, scientific conclusions are drawn on the improvement of this area.

**Keywords:** Councils of People's Deputies, elections of deputies, civil society, civil institutions, constitutional and legal norms, local government, public council, social dialogue, openness policy, democratic governance system.

## **XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O'ZARO HAMKORLIGINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MOHIYATI**

**Sagindikov Maxset Djubatkanovich**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Nukus filiali: Registrator bo'limi boshlig'i

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada xalq deputatlari kengashlarining asosiy faoliyati va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligiga asoslangan tadbirlar masalasi konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan muhokamalar qilinadi. Tadqiqotimiz natijalariga asoslangan holda, xalq deputatlari kengashlarining mahalliy organlar sifatidagi huquqiy maqomining o'rni, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi mohiyati va ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy tamoyillar haqida asoslanib o'tilgan ma'lumotlar keltiriladi. Tadqiqotning muhokamalarga sabab bo'lgan jihati shundaki, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikning huquqiy shakllarni ishlab chiqish, konstitutsiyaviy-huquqiy hamkorlikdagi amaliy mexanizmlarini takomillashtirish va ularning demokratik boshqaruvdagi holati haqidagi asosiy ma'lumotlar keltirilgan. Natijalar va tahlillarga asoslangan holda vakillik organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi samarali hamkorlikni tashkil qilish orqali konstitutsiyaviy muhim omil ekanligi asoslab beriladi hamda ushbu sohani takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar keltirib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Xalq deputatlari kengashlari, deputatlar saylovi, fuqarolik jamiyati, fuqarolik institutlari, konstitutsiyaviy- huquqiy normalar, mahalliy davlat hokimiyati, jamoatchilik kengashi, ijtimoiy aloqa, ochiqlik siyosati, demokratik boshqaruv sistemasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N23>

**Introduction.** Today, the main provisions of the new state administration system aimed at increasing the efficiency of state administration, ensuring a policy of openness and transparency in society, and strengthening the political and legal activity of citizens are among the priority areas of development of every democratic legal state. In particular, improving the mechanisms of mutual cooperation between local bodies, such as the Councils of People's Deputies, and civil society institutions is of great importance in strengthening the foundations of democratic governance. It would not be wrong to say that through this cooperation, constitutional principles, legal norms, and comprehensive improvement of stable relations between the state and society are ensured. New scientific research is being conducted on improving civil society institutions, mainly through the media, public associations, political parties, trade unions, neighborhoods and other self-government bodies, as important subjects representing the interests of society, and on exercising public control over the activities of state authorities and management bodies. The Councils of People's Deputies are representative bodies elected by the population and have the authority to make decisions on regional development, local budgets, and socio-economic issues[1]. The cooperation of these two institutions is an integral part of the democratic governance model. The Constitution of the Republic of Uzbekistan pays special attention to the development of civil society and ensuring public participation in the activities of state power and administration. The principle of people's power established in the Constitution is implemented directly or indirectly, including through representative bodies. The Councils of People's Deputies are a practical expression of this principle at the territorial level, and their activities must serve the interests of society and be carried out on the basis of open dialogue with civil society institutions. Constitutional norms define such principles as the separation of state power, the rule of law, the inviolability of human rights and freedoms, and determine the legal boundaries of relations between representative bodies and civil society institutions. These boundaries, on the one hand, guarantee the independence of state bodies, and on the other, the right of society to participate in state governance. In this regard, the cooperation of the Councils of People's Deputies with civil society institutions is regulated by constitutional and legal mechanisms. The right of citizens to participate in state governance is one of the fundamental political rights enshrined in the Constitution. This right is directly implemented through referendums, elections, national discussions, as well as the activities of representative bodies. The Councils of People's Deputies, as bodies representing the interests of citizens, are obliged to work in cooperation with civil society institutions. This cooperation is manifested in lawmaking, the development of local regulatory legal acts, the implementation of social programs, and the organization of public control[2]. The reforms implemented in the Republic of Uzbekistan in recent years are aimed at strengthening the role of local representative bodies and expanding their cooperation with civil society institutions. In this process, concepts such as “openness policy”, “public control”, “fundamentals of social cooperation” are actively entering legal circulation. These concepts serve to institutionally strengthen the participation of civil society institutions in the activities of councils of people's deputies. Cooperation with civil society institutions increases the legitimacy of councils of people's deputies and ensures the social validity of the decisions being made. If public organizations, non-governmental non-profit organizations, and neighborhood institutions that directly feel the needs and problems of society are involved in the activities of representative bodies, the effectiveness of the activities of local government bodies will

significantly increase. This will lead to the practical implementation of constitutional principles. From a constitutional and legal point of view, consultations, public discussions, discussions, joint projects, monitoring and examination processes are recognized as the main forms of cooperation between the Councils of People's Deputies and civil society institutions. These forms correspond to the principles of openness and transparency of democratic governance, strengthen mutual trust between the state and society. Cooperation of the Councils of People's Deputies with civil society institutions is also of great importance in improving legal culture. Citizens, through direct or indirect participation in the activities of state bodies, gain a deeper understanding of their rights and obligations, and feel their responsibility in the life of society. This process serves to strengthen constitutional values in the consciousness of society[3]. The Councils of People's Deputies occupy a special place in ensuring the balance between the state and society. On the one hand, they are a component of the state power system, and on the other hand, they are an institution that directly represents the interests of the population. Civil society institutions, as independent subjects of society, balance the activities of representative bodies, being relatively separate from the state. This interdependence ensures the stable functioning of the constitutional and legal system. The constitutional and legal status of the Councils of People's Deputies determines their place in the system of state power. The Constitution of the Republic of Uzbekistan recognizes the Councils of People's Deputies as representative bodies of local state power, and their activities are aimed at expressing and protecting territorial interests. Through these bodies, the people express their political will at the territorial level, which is a practical expression of the principle of constitutional people's power. The legal status of the Councils of People's Deputies is strengthened by the regulatory and legal framework regulating their independence, powers, organizational structure, and relations with civil society institutions. From a constitutional point of view, the Councils of People's Deputies should act not only as a body confirming or controlling the executive functions of state bodies, but also as a platform for coordinating the interests of society[4].

**Literature review and methodology.** This aspect obliges them to closely cooperate with civil society institutions. The fact that the initiatives, social demands, and public opinion expressed by civil society institutions are taken into account in the decisions of the Councils of People's Deputies is an important sign of democratic governance. The legal nature of civil society institutions is characterized by their relative independence from the state, but their ability to cooperate with state bodies in the interests of society. The Constitution guarantees the freedom of activity of civil society institutions, their operation within the framework of the law. These institutions represent the needs of various social strata, interest groups, and citizens in society. Consequently, the cooperation of civil society institutions with the Councils of People's Deputies is manifested as a special type of constitutional legal relationship. The constitutional foundations of this cooperation are determined, first of all, by general principles aimed at ensuring human rights and freedoms. Civil society institutions balance the activities of the Councils of People's Deputies by protecting human rights, ensuring social justice, and protecting the interests of the population. Thus, the likelihood of unilateral decisions by state bodies is reduced, and decisions are adapted to social needs. One of the important constitutional forms of cooperation between the Councils of People's Deputies and civil society institutions is public discussion. Through public discussions, issues of local importance are considered with the participation of the general public. In this process, civil society institutions

express their expert opinions, proposals and recommendations. The Councils of People's Deputies, in turn, take these proposals into account when making regulatory and legal decisions. Such a mechanism ensures the practical operation of the principles of openness and accountability[5]. Public discussion is also important from a constitutional and legal point of view. Through public discussions, the Councils of People's Deputies provide information about their activities to the population and civil society institutions, and in turn accept criticism and suggestions from the population. This mechanism strengthens the responsibility and accountability of state bodies. The active participation of civil society institutions increases the effectiveness of this process. The principle of social partnership occupies a special place as the constitutional and legal basis for cooperation between the Councils of People's Deputies and civil society institutions. Social partnership is aimed at harmonizing the interests of the state and society, and the parties participate in this process as equal partners. The Councils of People's Deputies achieve more effective results in solving social problems in society by cooperating with civil society institutions in implementing social projects. The institution of public control is also one of the important areas of this cooperation. Public control, formed on a constitutional basis, allows civil society institutions to monitor, evaluate and analyze the activities of state authorities, including the Councils of People's Deputies. The development of public control mechanisms increases transparency in the activities of the Councils of People's Deputies, reduces the risk of corruption, and strengthens the population's trust in public administration. The cooperation of the Councils of People's Deputies with civil society institutions is also clearly manifested in the process of developing regulatory legal acts. The use of the institution of public expertise in the preparation of draft local regulatory legal acts serves to improve legal culture. The conclusions provided by civil society institutions increase the social significance of documents and facilitate the process of their implementation[6]. The expansion of the powers of the Councils of People's Deputies in the process of constitutional reforms is raising their cooperation with civil society institutions to a new level. The participation of civil society institutions in issues such as the formation and control of local budgets and the approval of regional development programs increases the effectiveness of regional policy. This creates the basis for the full implementation of constitutional principles at the territorial level. Also, the cooperation of councils of people's deputies and civil society institutions is a practical expression of the principle of political pluralism. Civil society institutions, representing the interests of various social groups, bring alternative ideas and approaches to the activities of councils of people's deputies. This process improves the mechanisms of democratic decision-making and prevents unilateral political decisions. Another important aspect of this cooperation is related to increasing the political and legal activity of citizens. They convey their initiatives to councils of people's deputies through civil society institutions, participate in discussing important issues. This process forms the responsibility of citizens to participate in state governance and serves to raise constitutional awareness. An analysis of the practical mechanisms of cooperation between councils of people's deputies and civil society institutions allows us to reveal the real content of the relationship between these institutions. Practical mechanisms are one of the main factors determining the level of implementation of constitutional and legal norms. Through these mechanisms, civil society institutions directly or indirectly participate in the activities of representative bodies, and councils of people's deputies make decisions taking into account the

interests of society. Involving representatives of civil society institutions in the activities of permanent and temporary deputy commissions is one of the important directions of practical mechanisms. Such an approach makes it possible to take into account the interests of various social groups in the process of preparing decisions. The participation of representatives of civil society institutions in the activities of the commissions contributes to a comprehensive and in-depth analysis of issues. This increases the social validity of the decisions being made. The institute of public expertise also appears as one of the important mechanisms for cooperation between councils of people's deputies and civil society institutions. Public expertise allows for the assessment of regulatory legal acts, regional development programs, and draft decisions of social significance[7]. The conclusions provided by civil society institutions are an important source of information for the Councils of People's Deputies, which ensure the priority of social interests in their decisions. The participation of civil society institutions in the local budget process is also one of the effective forms of practical cooperation. Involving the public in the processes of budget formation, discussion and control of its implementation increases the transparency of the use of financial resources. If the Councils of People's Deputies conduct open dialogues with civil society institutions in this regard, the needs of the region's population will be more fully reflected in budget policy.

**Discussion and results.** Information exchange mechanisms are also an important component of mutual cooperation. Regularly informing civil society institutions about their activities, decisions and plans adopted by the Councils of People's Deputies is an indispensable requirement of democratic governance. Civil society institutions, in turn, provide representative bodies with information about problems in society, citizens' appeals, and social mood. Such a two-way exchange of information increases the flexibility of management processes. Another important area of cooperation between the Councils of People's Deputies and civil society institutions is related to the joint implementation of social projects. Joint projects on social protection, ecology, education, healthcare, youth and women's issues are aimed at solving urgent problems of the population. In such projects, civil society institutions take the initiative, and the Councils of People's Deputies support them legally and organizationally. At the same time, certain legal and organizational problems arise in the process of this cooperation. In particular, it is observed that the initiatives of civil society institutions are not always sufficiently reflected in the decisions of the Councils of People's Deputies, and in some cases cooperation remains formal. This situation may hinder the full implementation of constitutional principles. Therefore, it is necessary to further improve cooperation mechanisms. Another aspect of legal problems is related to the level of legal literacy of civil society institutions. If public organizations and non-governmental structures are not sufficiently aware of their constitutional rights and opportunities, they cannot effectively cooperate with the Councils of People's Deputies. This leads to the formalization of public participation. Therefore, improving the legal culture of representatives of civil society institutions is an important task. There may also be organizational problems related to cooperation in the activities of the Councils of People's Deputies. In some cases, the experience of deputies in working with civil society institutions is not sufficiently developed. This reduces the effectiveness of dialogue. In the context of constitutional and legal reforms, improving the qualifications of deputies and equipping them with skills in working with the public is of urgent importance. To eliminate these problems, it is necessary to further clarify legal mechanisms

and establish clear procedures for cooperation with civil society institutions. The forms of public participation, their rights and obligations should be further strengthened in the regulatory legal acts regulating the activities of the Councils of People's Deputies. This will serve to increase the practical effectiveness of constitutional norms. In the context of constitutional reforms, the cooperation between the Councils of People's Deputies and civil society institutions is being enriched with new content. Legal changes aimed at expanding openness, accountability and public participation in public administration serve to institutionally strengthen this cooperation. The democratic values enshrined in the Constitution are now not only declarative in nature, but are also implemented through practical mechanisms. The concept of an open state has determined a new stage in the cooperation of the Councils of People's Deputies with civil society institutions in the activities of the Councils of People's Deputies. The principle of an open state implies that the activities of state bodies are understandable, transparent and subject to control for society[8]. This principle requires broad involvement of the public in the decision-making process of the Councils of People's Deputies. Civil society institutions play an important role in this process as active subjects of open state mechanisms. The principle of transparency is one of the main factors strengthening trust between the state and society from a constitutional and legal point of view. The fact that the Councils of People's Deputies provide open information about their activities, publish draft decisions being adopted, and take into account public opinion ensures effective cooperation with civil society institutions. In an environment of transparency, civil society institutions act not only as observers, but also as active participants. Strengthening legal guarantees of public participation within the framework of constitutional reforms also directly affects the activities of the Councils of People's Deputies. The right of citizens to participate in managing state and public affairs is expanding, and the forms of exercising this right are being further defined. Civil society institutions interact with the Councils of People's Deputies as an organizational tool of this right. According to the theory of democratic governance, relations between representative bodies and civil society institutions should be built on the basis of complementarity, not contradiction. While the Councils of People's Deputies, as a representative branch of state power, have the authority to make decisions, civil society institutions enrich the social content of these decisions, adapting them to the needs of the public. This complementarity ensures constitutional balance. The democratic significance of cooperation between the Councils of People's Deputies and civil society institutions is primarily associated with increasing citizens' trust in state administration. When citizens feel that their interests are taken into account in the activities of representative bodies, they will have a positive attitude towards state institutions. Civil society institutions play a mediating role in strengthening this trust. This cooperation is also an important factor in ensuring political stability. Social conflicts are prevented by openly discussing problems in society, coordinating various interests, and reaching agreements. When the Councils of People's Deputies work in collaboration with civil society institutions, decisions are made based on social consensus[9]. This ensures the stability of democratic governance. Cooperation with civil society institutions also has a positive impact on the normative and creative activities of the Councils of People's Deputies. Social expertise of regulatory legal acts increases their quality and allows for early identification of problems that may arise in the process of law enforcement. This situation serves to ensure the practical implementation of the constitutional principle of the rule of law. One of the important results

of cooperation between the Councils of People's Deputies and civil society institutions is related to the effectiveness of regional development policies. Public structures that are directly aware of the needs of the population of the region provide representative bodies with accurate information about real problems. As a result, regional programs are being formed based on the real needs of the population. This ensures the implementation of the principle of a social state enshrined in the constitution at the regional level. The cooperation of the Councils of People's Deputies and civil society institutions is manifested as a practical mechanism of a legal state. In this process, constitutional principles are embedded in real social relations.

**Conclusion.** In conclusion, it can be said that the cooperation between the Councils of People's Deputies and civil society institutions is an important component of the process of building a democratic legal state. The results of the study show that only when this cooperation is organized on the basis of constitutional principles, stable and effective relations between the state and society are formed. When the activities of the Councils of People's Deputies as local representative bodies are carried out in cooperation with civil society institutions, the social validity and legitimacy of the decisions taken increase. The analysis conducted in the article confirms that civil society institutions have a significant impact on the activities of the Councils of People's Deputies through mechanisms of public participation, public control and social partnership. The active participation of these institutions serves to ensure openness and transparency in the activities of representative bodies, improve legal culture, and increase the political and legal activity of citizens. This leads to the practical implementation of the principle of people's power enshrined in the Constitution at the territorial level.

#### Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Abdurashidova, Musharrafoy. "Mahalliy hokimiyat organlari." Молодые ученые 2.13 (2024): 63-67.
2. Prezidentning, O'zbekiston Respublikasi. "2022—2026-YILLARGA MO 'LJALLANGAN YANGI O 'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO 'G 'RISIDA." Farmoni 28 (2022): 90-92.
3. Prezidentning, O'zbekiston Respublikasi. "2017-2021 yillarda O 'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo 'nalishi bo 'yicha Harakatlar strategiyasini." Faol tadbirkorlik, innovatsion g 'oyalar va texnologiyalarni qo 'llabquvvatlash yili" da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to 'g 'risida" 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son Farmoni (2018).
4. Sirojiddin, Boytorayev, Imomov Murotjon Gulamovich, and Ro'zmetov Sulaymon Ilxomboy og'li. "O'ZBEKISTON DEMOKRATIK FUQAROLIKNI JAMIYATINI OSHIRISH." SYNAPSES: Insights across the disciplines 1.5 (2024): 268-272.
5. Mirzaaxmedov, Kamoliddin. "XALQ HOKIMIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISH-JAMIYAT BARQAROR TARAQQIYOTINI TA'MINLASHNING STRATEGIK ASOSI." SAMBHRAM XABARNOMASI 1.1 (2024): 359-366.
6. Mamirjonovich, Urazov Abrorbek. "FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI INSON MANFAATLARI HOMOYASINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY VOSITASI." International Educators Conference. 2025.
7. O'G'LI, ODILOV NORDIRBEK ODIL. "MEHNAT HUQUQI VA FUQAROLIK JAMIYATI: FALSAFIY TAHLIL." Tadqiqotlar 64.2 (2025): 217-219.
8. Nuriddinovich, Nurullayev Ulug'bek. "DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI ISHTIROKINING DOLZARBLIGI VA SAMARADORLIGI." Лучшие интеллектуальные исследования 51.1 (2025): 87-92.

9. Ilhom o'g'li, Muxammadiyev Jamshid. "INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA MILLIY INSTITUTLARNING KONSTITUTSIYAVIY O'RNINI VA AHAMIYATI." Modern education and development 37.3 (2025): 352-357.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **ISSUES OF IMPROVING LEGAL AND INSTITUTIONAL MECHANISMS FOR PREVENTING CRIMES ARISING FROM FAMILY CONFLICTS**

**Rajabov Umrbek Ravshanbekovich**

Lieutenant Colonel, Head of Physical and Combat Training,  
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** The article analyzes the criminological mechanisms of preventive inspectors in combating crimes related to family and domestic relations. It examines their legal powers, methods of work, and practical effectiveness, offering recommendations to improve preventive practices.

**Keywords:** crime prevention, preventive inspector, family-related crimes, law enforcement agencies, individual prevention, social control, risk families, criminological mechanisms, community cooperation.

## **OILA-TURMUSH MUNOSABATLARI DOIRASIDAGI JINOYATLARNI BARTARAF ETISHDA PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI FAOLIYATINING KRIMINOLOGIK MEXANIZMLARI**

**Rajabov Umrbek Ravshanbekovich**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti  
Jismoniy va jangovar tayyorgarlikni tashkil etish boshqarmasi boshlig'i podpolkovnik

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oilaviy-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishda profilaktika inspektorlarining o'рни va ahamiyati kriminologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida profilaktika inspektorlarining vakolatlari, faoliyat shakllari va amaliy mexanizmlarining samaradorligi o'rganiladi. Shuningdek, huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, xavf guruhidagi oilalar bilan individual ishlash, profilaktik hisob yuritish hamda jamoatchilik bilan hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqola yakunida mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** huquqbuzarliklar profilaktikasi, profilaktika inspektori, oilaviy jinoyatlar, ichki ishlar organlari, individual profilaktika, ijtimoiy nazorat, xavf guruhidagi oilalar, huquqni muhofaza qilish faoliyati, kriminologik mexanizmlar, jamoatchilik bilan hamkorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N24>

**Kirish.** Jamiyatda huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash, ayniqsa oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Oilaviy muhitda yuzaga keladigan nizolar o'z vaqtida aniqlanib, tegishli profilaktik choralar ko'rilmagan taqdirda, ular jinoiy xatti-harakatlarga aylanib ketishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mazkur sohada profilaktika inspektorlarining roli va ahamiyati alohida o'rin tutadi.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, oila-turmush munosabatlari bilan bog'liq jinoyatlar ko'p hollarda oldindan ma'lum bo'lgan ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida sodir etiladi. Bu esa profilaktika inspektorlariga jinoyat sodir etilgunga qadar aralashish, nizoni bartaraf etish

va xavfni kamaytirish imkoniyatini beradi. Biroq amaliyotda mazkur imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotgani, profilaktika mexanizmlarining samaradorligi yetarli darajada emasligi kuzatilmoqda.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektorlari faoliyatini faqat ma'muriy-huquqiy choralar bilan cheklab qo'yish bugungi kunda kutilgan natijani bermayapti. Oilaviy jinoyatlarni bartaraf etishda ijtimoiy, psixologik va kriminologik yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda ish yuritish zarur. Shu bois profilaktika inspektorlari faoliyatining kriminologik mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. [1]

Maqolaning maqsadi — oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlarni oldini olish va bartaraf etishda profilaktika inspektorlari faoliyatining mazmuni, shakllari va kriminologik mexanizmlarini tahlil qilish hamda ushbu faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- tahliliy-huquqiy usul — profilaktika inspektorlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganishda;
- kriminologik tahlil usuli — oila-turmush jinoyatlarining sabab va sharoitlarini aniqlashda;
- statistik usul — ichki ishlar organlari hisobotlari va rasmiy ma'lumotlarni tahlil qilishda;
- sotsiologik usul — profilaktika inspektorlari va aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar natijalarini umumlashtirishda;
- qiyosiy-tahliliy usul — milliy va xorijiy profilaktika amaliyotini taqqoslashda.

Tadqiqot manbalari sifatida amaldagi qonunchilik, idoralararo hisobotlar, sud-tergov amaliyoti materiallari hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.

Oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlarning kriminologik xususiyatlari

Oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlar o'zining ijtimoiy xavflilik darajasi, sodir etilish sharoiti va subyektlar tarkibi bilan boshqa jinoyat turlaridan farq qiladi. Ushbu toifadagi jinoyatlar, odatda, maishiy muhitda, yaqin qarindoshlar yoki birgalikda yashovchi shaxslar o'rtasida sodir etiladi.

Kriminologik tahlil shuni ko'rsatadiki, mazkur jinoyatlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- jinoyatlar oldindan rejalashtirilmagan holda, emotsiya ta'sirida sodir etiladi;
- jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasida uzoq muddatli shaxsiy munosabat mavjud bo'ladi;
- jinoyat sodir etilishidan oldin ko'p hollarda nizo, tahdid yoki maishiy janjal kuzatilgan bo'ladi.

Bu holatlar profilaktika inspektorlariga jinoyatni barvaqt aniqlash va uning oldini olish imkoniyatini beradi. Shu bois profilaktika inspektorlari faoliyatini samarali tashkil etish oilaviy jinoyatchilikka qarshi kurashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Profilaktika inspektorlari faoliyatining mazmuni va yo'nalishlari (boshlanish)

Profilaktika inspektorlari oila-turmush munosabatlari doirasidagi jinoyatlarni oldini olishda quyidagi asosiy yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:

- xavf guruhidagi oilalarni aniqlash va ro'yxatga olish;
- profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan individual ishlash;

- oilaviy nizolar bo'yicha tushuntirish va ogohlantirish ishlarini olib borish;
- mahalla, ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishlardagi ishlar har doim ham tizimli va ilmiy asosda olib borilmayapti. Bu esa profilaktika samaradorligini pasaytiradi.

Shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni atroflicha tahlil qilish shaxsning g'ayriijtimoiy salbiy shakllanishining oldini olishga xizmat qiladi. V. N. Kudryavsev aytganidek, g'ayriijtimoiy salbiy xulq-atvor shaxsning xulq-atvori va qonun talablari o'rtasida muttasil ravishda keskinlashib boruvchi va ochiq-oydin nizoga aylanuvchi har xil qarama-qarshiliklar asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Ba'zida bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga nisbatan jismoniy kuch ishlatishi shaxsning xulq-atvori bilan bog'liq bo'ladi. Hayot tajribasi shuni ko'rsatadi-ki, ko'p huquqbuzarliklarning, shu jumladan jinoyatlarning sodir etilishiga shaxsdagi salbiy xulq-atvor turtki beradi. Bu holatlar ko'pincha tergov va sud jarayonlarida aniqlanadi. [2]

Agar oilada g'ayriijtimoiy, nosog'lom muhit mavjud bo'lsa, u yerda salbiy xulq-atvorning shakllanish ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Oiladagi ma'naviy-pedagogik zaiflikning yana bir ko'rinishi undagi nosog'lom ma'naviy-ruhiy muhit, g'ayritabiiy munosabatlar, nizolar, janjallar, kelishmovchiliklar, qo'pollikning mavjudligi, birlikning, bir-biriga g'amxo'rlikning yo'qligi shaxsda g'ayriijtimoiy salbiy xususiyatlarning shakllanishini ta'minlovchi omil sanaladi.

Shaxsda g'ayriijtimoiy xulqning shakllanishiga oiladagi muhit o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu shundan dalolat beradiki, nosog'lom oilada yashovchi shaxslar deyarli boshqalarga qaraganda o'zini tutishi va xulq-atvori bilan ajralib turadi. Bu, o'z navbatida, oilada jinoiy zo'ravonlik sodir etilishini ta'minlovchi kriminogen vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

**2). Oilada nizo tufayli zo'ravonlikning sodir etilishi.** Oilada sodir etiladigan zo'ravonliklarning ko'p qismi oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar zamirida, ya'ni eng yaqin kishilar orasida sodir etiladi. Shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar tahliliga ko'ra, oila-turmush doirasidagi qasddan odam o'ldirish va unga suiqasd qilish jinoyatining 71,4 foizi, qasddan badan o'rtacha yoki og'ir shikast yetkazishning 63,0 foizi, yotoqxona va xonadonlarda sodir etiladigan bezorilikning 59,0 foizi er-xotin, aka-ukalar tomonidan ular o'rtasidagi nizolar oqibatida sodir etilganligi qayd etilgan.

Oila a'zolari o'rtasida zo'ravonlikning sodir etilishida birinchi o'rinda jabrlanuvchini kamsitish, haqorat qilish, g'ayriaxloqiy xatti-harakatlar sabab bo'lib, nizo ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jinoiy qilmish sodir etish orqali hal etilishiga olib keladi.

Bu qilmishlarning sodir etilishida shaxs ruhiy holatining buzilishi asosiy rol o'ynaydi. Shaxsning muayyan xatti-harakatlarining jinoyatga aylanishini taqozo etuvchi xulq-atvor uning ruhiy holati bilan bog'liq. Ushbu nizolar ba'zi hollarda to'satdan vujudga kelgan ruhiy buzilishning oqibatida sodir etilishini, ya'ni qiziqqonlik, agressivlik, tajovuzkorlik, o'zini nazorat qila olmaslik kabi hayotiy vaziyatlarda vujudga kelishini ham inobatga olish lozim. Bunday jinoiy fe'l-atvor shaxsning ruhiyatida jinoyat sodir etishni taqozo etuvchi shart-sharoitni yaratadi.

Biz ko'rib chiqayotgan qilmishlar tarkibida o'ch olish, qasos, oila a'zolarining bir-birini yoqtirmasligi, adovat, alam, kelishmovchilik va psixologik ziddiyatlar zo'ravonliklar sodir etilishini talab etuvchi muhim omil hisoblanadi. Ularning ta'siri natijasida aybdor shaxsning manfaatlariga zid bo'lgan harakatlar sodir etganligi uchun hisob-kitob qilish, ushbu qilmishiga yarasha munosib javob qaytarish, kuchi, jahli yoki nimaga qodir ekanligini ko'rsatish, xafa

qilgan kishiga shikast yetkazish yo'li bilan boshidan kechirgan azob-uqubat va kechinmalar o'rnini to'ldirishga intilish kabi ruhan o'zini tayyorlash bilan bog'liq holatlar va vaziyatlar vujudga keladi. [3]

Ayrim adabiyotlarda hozirgi vaqtda shaxsga qarshi jinoyatlar tobora shafqatsizlik bilan sodir etilayotgani ta'kidlanadi. Ushbu qilmishlar oilada oila a'zolari o'rtasida ko'pincha arzimagan turli bahonalar oqibatida sodir etilayotganligini ko'rish mumkin. Vaholanki, jabrlanganlar aybdorlarning eng sevimli, eng yaqin kishilari bo'lishgan. Masalan, Fuqaro A. o'zi bilan birga yashovchi turmush o'rtog'i fuqaro K.ni "Sen nima sababdan mendan so'ramasdan ota-onangni uyiga borasan" deb, unga tazyiq o'tkazish maqsadida janjal qilib, qasddan jismoniy kuch ishlatish yo'li bilan yuzi va tanasining turli joylariga qo'l va oyoqlari bilan zarba berib, og'ir tan jarohati yetkazgan.

Umuman olganda, oila a'zolari o'rtasida vujudga kelgan nizolarni jinoiy zo'ravonlik sodir etish orqali o'ziga yaqin bo'lgan kishilariga jabr yetkazishning viktimlik darajasining ko'p qismi ayollar hissasiga to'g'ri keladi, ya'ni 62,7 foizni tashkil etdi. Bu qilmishlarning sodir etilishini oilada er-xotin o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning salbiy ekanligi, ularning bir-biriga g'amxo'r emasligi, munosabat jarayonida qo'pollikning mavjudligi, ayniqsa tarbiyaning zaifligi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oilaviy munosabatlarda ayolning o'z hukmronligi yoki o'z ta'sirini o'rnatishga intilishi ko'p hollarda salbiy oqibatlarga olib keladi. Ayniqsa, oila a'zolari o'rtasida turli asossiz bahonalar bilan janjal bo'lib turishi zo'ravonlik sodir etilishiga olib kelgan. [4]

Ayollarning yuqori darajadagi viktimligi ularning zaifa ekanligida emas, balki tarixiy va jamiyatda saqlanib qolgan jinlar munosabatlarining tengsizligidadir. Erkaklarning madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarda yetakchilik holati ayollarni iqtisodiy va ruhiy qaramlikka tushirib, ularni erkak kishining shaxsiy mulkiga aylantiradi. Erkaklarning hukmronlik munosabatlari asosiga qurilgan jamiyat ayollarga zo'ravonlik qilishni oddiy holat deb hisoblaydi. Ba'zida zo'ravonlikning sodir etilishida erkaklar o'zlariga nihoyatda baland baho berishi, ya'ni ayollar mavqeyini pastga urib, ularni kamsitishi kabi omillar ham mavjud.

Shuni alohida qayd etish joizki, ota yoki onaning o'z farzandiga past nazar bilan qarashi, ya'ni ularga e'tiborsizlik bilan munosabatda bo'lishi ham zo'ravonlikning bir ko'rinishidir. Chunki bunday ota-onalar kayfiyatini bolalarga ko'rsatish va ulardan o'ch olishga harakat qilishadi. Masalan, ba'zan erkakning ayolga do'q-po'pisa yoki haqorat qilishi bilan munosabatda bo'lishi natijasida ayollar ko'pincha buning javobini voyaga yetmagan farzandga qaytarishga intilishadi. Bu holat ayrim oilalarga xos bo'lib, bu omil oilada jinoiy zo'ravonlikning sodir etilishiga ma'lum darajada o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

**3). Oila a'zolari tomonidan rashk yoki xiyonatning amalga oshirilishi.** oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarlikni to'satdan kuchli ruhiy zo'riqish oqibatida sodir etilishini ta'minlovchi omil sifatida rashk yoki xiyonatni ko'rsatib o'tish mumkin. Buni ortiqcha izohlashga hojat yo'qligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Keyingi paytlarda oilada zo'ravonlik bilan sodir etilayotgan og'ir jinoyatlarning aksariyati rashk bilan bog'liq ekanligi ham bu masalaga jiddiy qarashni taqozo etadi. Jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti tahliliga ko'ra, oxirgi yillarda oila-turmush doirasida qasddan odam o'ldirish va unga suiqasd qilish holatlarining 10,5 foizi rashk tufayli sodir etilgan.

Shuningdek, ushbu zo‘ravonliklarni sodir etganligi uchun sud organlari tomonidan ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning jinoyat ishi yig‘majildlari o‘rganilganda ularning 17,4 foizi rashk oqibatida jinoyat sodir etganligi aniqlandi.

**4). Oilada oila a‘zolariga nisbatan o‘z hukmini o‘rnatishga intilish.** Oila a‘zolariga o‘ziga qaram shaxs sifatida qarash, ularga nisbatan qo‘pol munosabatda bo‘lish, turmushdagi barcha masalalar bo‘yicha oilaning boshqa a‘zolari fikrini eshitmaslik yoki umuman qabul qilmaslik, o‘zi yakka qaror qabul qilish, o‘z ta‘siri va zulmini o‘tkazishga harakat qilish bilan ifodalanadi. Aytish joizki, oilada sodir etiladigan barcha huquqbuzarliklar ushbu omillar bilan chambarchas bog‘liq holda sodir etiladi. Ya‘ni, ushbu omillarning biri ikkinchisini taqozo etishi har qanday ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki og‘ir jinoyatlarning sodir etilishiga olib keladi.

Sodir etilgan zo‘ravonliklar haqidagi jinoyat ishlarini o‘rganish natijalari asosida olingan ma‘lumotlarga qaraganda, oilada oila a‘zolari o‘rtasidagi nizo yoki kelishmovchiliklarni jinoiy yo‘l bilan hal etish oqibatida jinoyat sodir etganlarning 56,4 foizi pichoq, 25,0 foizi qattiq predmet, 14,9 foizi jismoniy kuch ishlatish, 0,9 foizi zaharli moddalar, 2,8 foizi esa arqon yoki shunga o‘xshash boshqa vositalarni qo‘llash orqali jabrlanuvchining hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi xatti-harakatlarni sodir etgan. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, asosan pichoq bilan jismoniy kuch ishlatish orqali zo‘ravonlik sodir etilgan.

Xullas, oilada sodir etiladigan zo‘ravonlikning ijtimoiy munosabatlardagi o‘rnini bir so‘z bilan ta‘riflab bo‘lmaydi. Chunki bu zo‘ravonliklar asosan sababsiz yoki arzimagan sabablarga ko‘ra o‘zini ko‘rsatish, boshqalar oldida obro‘ orttirishga intilish yoki o‘zining nimaga qodir ekanligini ko‘rsatish maqsadlarida ham sezilarli darajada sodir etiladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Xoliqulov U.Sh. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi bo‘yicha voyaga etmaganlarga jazo tayinlash muammolari: yurid. fan. nomz. diss-ya. –T., 2006. –B. 50.
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati psixologiyasi: Darslik / I. Ismailov, O‘.X. Muxamedov, M. Z. Ziëdullaev, Yo. Farfiev va boshq.; mas‘ul muharrir Sh. T. Ikramov. – T., 2015. – B. 236.
3. Huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish: O‘quv qo‘llanma / I. Ismailov, D. M. Mirazov, J. S. Muxtorov va boshq.; prof. O‘. H. Muxamedovning umumiy tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – B. 7.
4. Husainova U. Aliment undirish masalasi: oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomili va xorijiy tajriba // Huquq va burch. 2010 yil 11-son, [www.huquqburch.uz](http://www.huquqburch.uz)
5. Shestakov D.A. Semeynaya kriminologiya: Kriminofamilistika. – SPb.: Yuridicheskiy centr press, 2003. – S. 175.; Alauxanov E.X. Kriminologiya: Uchebnik. – SPb.: Yuridicheskiy centr press, 2013. – S. 236.
6. Shomurodov G‘., Rasulova Z. Oila ënçiklop-yasi. –T., 2016. –B. 251.
7. Əsanova Z. Oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishning huquqiy asoslari: O‘zbekistonda oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishning konçeptual masalalari // Respublika ilmiy-amaliy konferençiya materiallari to‘plami. – T.: TDYuU, 2016. –B. 8.
8. Yulchiev A., Aslanov M. Odamlar savdosi (traffigi)ga qarshi kurashning huquqiy jihatlarini. – T.: TDYuU, 2006. – B. 33.
9. Yuridik ënçiklopediya. – T., 2001. – B. 171.
10. Yuridicheskaya jizn v Kitae. Otv. red. L.M.Gudoshnikov, per. s. kit. N.X.Axmetshin, I.V.Vasilev, K.A.Egorov. – M.: Yuridicheskaya literatura, 1990. – S. 164-165.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **ISSUES OF HARMONIOUS DEVELOPMENT OF CONSTITUTIONAL JUSTICE WITH SCIENCE AND EDUCATION**

**Bekov Ixtiyor Rustamovich**

Head of the Department of Constitutional Law,  
Tashkent State University of Law,  
Doctor of Law (DSc), Professor  
E-mail: [i.bekov@tsul.uz](mailto:i.bekov@tsul.uz)  
<http://www.orcid.org/0000-0001-5367-7523>

**Abstract.** This article analyzes the theoretical and practical aspects of the harmonious development of the constitutional justice system in alignment with modern scientific approaches. Constitutional review is considered as a fundamental pillar of the mechanism of a democratic state governed by the rule of law, and its effectiveness is substantiated as being closely interconnected with science, education, and the broader intellectual environment. Within the framework of the conference materials, proposals are put forward to establish a constitutionalism school, introduce a specialized Master's program in constitutional law, organize dedicated training modules at the Academy of Justice, promote constitutional thinking among youth, and create a research center under the Constitutional Court.

**Keywords:** constitutional justice, constitutional review, constitutionalism, national constitutional school, constitutional law education, digital constitutionalism.

## **KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOVNI ILM VA TA'LIM BILAN UYG'UN RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**Bekov Ixtiyor Rustamovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Konstitutsiyaviy huquq sho'basini mudiri,  
yuridik fanlari doktori (DSc), professor

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada konstitutsiyaviy odil sudlov tizimini zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg'un rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Konstitutsiyaviy nazorat demokratik huquqiy davlat mexanizmining asosiy ustuni sifatida ko'rib chiqilib, uning samaradorligi ilm-fan, ta'lim va intellektual muhit bilan chambarchas bog'liq ekanligi asoslanadi. Konferensiya materiallari doirasida konstitutsionalizm maktabini shakllantirish, konstitutsiyaviy huquq bo'yicha ixtisoslashgan magistratura yo'nalishini joriy etish, odil sudlov akademiyasida maxsus o'quv modullarini tashkil etish, yoshlar o'rtasida konstitutsiyaviy tafakkurni rivojlantirish hamda Konstitutsiyaviy sud huzurida ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish kabi takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** konstitutsiyaviy odil sudlov, konstitutsiyaviy nazorat, konstitutsionalizm, milliy konstitutsiyaviy maktab, konstitutsiyaviy huquq ta'limi, raqamli konstitutsionalizm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N25>

**Kirish.** Konstitutsiyaviy sudlov — bu konstitutsiya ruhining amaliy ifodasi sifatida konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega hujjat sifatidagi real kuchini ta'minlash, qonun ustuvorligi va davlat hokimiyatining chegaralarini huquqiy mezonlar asosida aniqlash hamda ularning buzilmasligini kafolatlashga qaratilgan maxsus davlat mexanizmidir.[1]

Konstitutsiyaviy nazorat mexanizmi demokratik boshqaruvning mazmun jihatdan kafolati bo‘lib, konstitutsiyaviy qadriyatlarning hayotdagi amaliy samaradorligini ta‘minlaydi.[2]

**Muhokama va natijalar.** Darhaqiqat, konstitutsiyaviy odil sudlovning samaradorligi ilm-fan yutuqlari va jamiyatdagi intellektual muhit bilan uyg‘un rivojlanishiga ham bevosita bog‘liqligi sir emas. Zotan, konstitutsiyaviy sudlov jamiyatda huquqiy tafakkurni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi muhim institut sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Birinchiidan, Yangi O‘zbekistonda konstitutsiyaviy huquq sohasini tizimli rivojlantirish va milliy konstitutsionalizm maktabini barpo etishning ilmiy-nazariy poydevorini yaratish – bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Shu maqsadda konstitutsiyaviy odil sudlov sohasida uzluksiz ta‘lim va ilmiy-tadqiqot klasterini shakllantirish vaqti keldi deb hisoblaymiz.

Bunday klaster konstitutsiyaviy huquqni o‘rganishning barcha bosqichlarini — akademik litsey, oliy ta‘lim, magistratura va aspirantura yo‘nalishlarini qamrab olgan holda, yagona ilmiy-ta‘limiy muhitni yaratishga xizmat qiladi. Uning asosiy vazifasi — konstitutsiyaviy qadriyatlarni chuqur anglaydigan, Konstitutsiya ruhiga tayangan holda qaror qabul qiladigan va ilmiy-nazariy bilimni amaliyot bilan uyg‘unlashtira oladigan mutaxassislarini tayyorlashdir.

Ikkinchiidan, zamonaviy demokratik davlat boshqaruvining barcha darajasida qaror qabul qilish jarayoni Konstitutsiya ruhi va qadriyatlarini chuqur anglashga asoslangan huquqiy madaniyat sifatida shakllantirish uchun zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy tafakkurga ega kadrlarni tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Shu bois, huquqshunoslarni tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlarida “Konstitutsiyaviy huquq va konstitutsiyaviy odil sudlov” ixtisosligi bo‘yicha maxsus magistratura yo‘nalishini tashkil etish bugungi huquqiy davlat qurilishi jarayonidagi strategik zaruratdir. Bu tashabbus faqat Konstitutsiyaviy sud uchun emas, balki konstitutsiyaviy qonuniylikni ta‘minlovchi barcha subyektlar – parlament, umumiy yurisdiksiya sudlari, prokuratura, ijro hokimiyati, Markaziy saylov komissiyasi va boshqa institutlar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Bu esa o‘z o‘rnida, Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishini ta‘minlaydigan, uning ruhini anglaydigan va amalda tatbiq eta oladigan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashga zamin yaratadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlar oliy ta‘lim tizimida konstitutsiyaviy huquqni faqat nazariy fan sifatida emas, balki amaliy va tahliliy yo‘nalish sifatida rivojlantirmoqda. Masalan, Columbia Law School (AQSH) [3], York universiteti Osgoode Hall Law School (Kanada)[4], Valensiya universiteti (Ispaniya)[5] va RUDN universiteti (Rossiya) kabi nufuzli ta‘lim muassasalarida “Constitutional Justice”, “Comparative Constitutional Law” hamda “Judicial Review Studies” kabi dasturlar faoliyat yuritmoqda.

Uchinchiidan, sudyalarning faoliyatida konstitutsiyaviy huquq normalarini amaliyotda izchil qo‘llash, inson huquq va erkinliklarini konstitutsiyaviy darajada ta‘minlash hamda har bir sud qarorining mazmuni orqali Konstitutsiya ustuvorligini amalda namoyon etish alohida ahamiyatga ega.

Bu borada sudyalarning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini chuqurlashtirish maqsadida Odil sudlov akademiyasida “Konstitutsiyaviy odil sudlov” bo‘yicha ixtisoslashgan o‘quv modulini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur modul inson huquqlarini konstitutsiyaviy darajada himoya qila oladigan hamda sud qarorlarida Konstitutsiya

mazmunini to'liq aks ettira oladigan yuqori malakali sudyalarning korpusini shakllantirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, Shu bilan birga, huquqshunoslik fakultetlarida "Konstitutsiyaviy odil sudlov klubi"ni tashkil etish dolzarb ahamiyatga ega. Misol sifatida, shunga o'xshagan "Bo'lajak prokurorlar klubi", "Bo'lajak notariuslar klubi", "Adliya klubi" samarali faoliyat yuritib yosh kadrlarni yuqoridagi sohalar bo'yicha mutaxassis sifatida shakllanishiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Mazkur tajriba yosh avlodda konstitutsiyaviy tafakkur va huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan birga, sudyalarning, huquqshunoslar hamda davlat xizmatchilari uchun ilmiy-innovatsion platforma vazifasini bajaradi.

Shu jarayonning mantiqiy davomi sifatida, Konstitutsiyaviy sud huzurida Ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etish taklif etiladi. Ushbu amaliyot Janubiy Koreya, Turkiya kabi mamlakatlar amaliyotida o'zini oqlab kelmoqda. Mazkur aql markazi klasterning ilmiy o'zagi sifatida faoliyat ko'rsatib, konstitutsiyaviy huquqning zamonaviy tendensiyalarini o'rganish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish va konstitutsiyaviy nazorat amaliyotini ilmiy asosda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, Konstitutsiyaviy sud tizimini shakllantirishda huquq fanidan professorlar ilmiy-amaliy tajribasi orqali sud faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlaydi. Ular ishtirok etgan holda qabul qilinadigan qarorlar huquqiy tahlilga, ilmiy asosga va konstitutsiyaviy qiymatlarga tayanadi. Qator mamlakatlarda — xususan Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Koreya va Yaponiyada — huquq fanidan professorlar konstitutsiyaviy sud sudyasi etib saylanish huquqiga ega bo'lgan eng nufuzli huquqshunoslar qatorida alohida o'rin tutadi. Masalan, Portugaliya Konstitutsiyasining 222-moddasiga ko'ra, Konstitutsiyaviy sud 13 nafar sudyadan iborat bo'lib, ularning olti nafari turli sudlardan, qolganlari esa yuristlardan, afzal holda huquq fanidan professorlardan tanlanadi.[6] Shu kabi talablar Italiya Konstitutsiyasining 135-moddasida[7], Ispaniya Konstitutsiyasining 159-moddasida[8] hamda Koreya Respublikasi[9] Konstitutsiyaviy sud to'g'risidagi qonunning 11-moddasida ham belgilangan. Mamlakatimizda ham ushbu amaliyotning ijobiy tomonlarini qonunlarimizga kiritish va tajribani joriy qilishni taklif etamiz.

Oltinchidan, fuqarolarning huquqiy ongi va konstitutsiyaviy madaniyati yuksaltirishda, konstitutsiyaviy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishda konstitutsiyaviy sud faoliyatining ochiqligi va unda jamoatchilikning faol ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaviy sudni xalqqa, ayniqsa yoshlarga yaqinlashtirishda, sud majlislarini belgilangan tartibda jamoatchilik uchun ochiq o'tkazish, sud jarayonlarini jonli efigra uzatish amaliyotini doimiy yo'lga qo'yish, "Ochiq eshiklar kunlari"ni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu orqali yosh avlodda fuqarolik mas'uliyatini anglash tuyg'usi shakllanadi. Shu bilan bir qatorda, Konstitutsiyaviy sudning rasmiy veb-saytida virtual tashrif (onlayn ekskursiya) tizimini yo'lga qo'yish zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan muhim innovatsion yo'nalish hisoblanadi. Bunday virtual platforma orqali sudning tarixi, binosi, muhim qarorlari va faoliyati haqidagi ma'lumotlar turli tillarda joylashtirilishi lozim.

Konstitutsiyaviy sud ishlarida jamoatchilik va fuqarolik jamiyati ishtirokini kengaytirish sud qarorlarining asosli va xolis bo'lishiga xizmat qiladi. Buning uchun xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan amicus curiae [10] — ya'ni sudga ekspert xulosasi taqdim etish institutini joriy

etish maqsadga muvofiq bo'lib, u orqali "uchinchi sektor" va mustaqil ekspertlar sud muhokamalarida ilmiy-amaliy hissa qo'shadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, konstitutsiyaviy sud faoliyatida jamoatchilik bilan ochiq muloqot va institutsional hamkorlikni yo'lga qo'yish samarali natija beradi. Masalan, Xorvatiyada 2019-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan "Konstitutsiyaviy kunlar" (Ustavni dani) konferensiyasi sudyalari, olimlar va fuqarolik jamiyati instituti vakillari uchun konstitutsiyaviy masalalar bo'yicha fikr almashish muloqot platformasi vazifasini bajarmoqda. Shuningdek, Italiya Konstitutsiyaviy sudi amaliyotidagi "konstitutsiyaviy bo'shliq" (vacatio) haqidagi qarorlar orqali parlamentga huquqiy tartibga solish zarur bo'lgan masalalarni ko'rsatish tajribasi sud va qonun chiqaruvchi hokimiyat o'rtasidagi konstitutsiyaviy muloqot madaniyati hamda davlat hokimiyati tizimidagi muvozanatni ta'minlashning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yettinchidan, interaktiv xizmatlar platformasini joriy etish – fuqarolarning zaruriy ma'lumotga ega bo'lishi va murojaatlarni qulay hamda oshkora tarzda yuborishini ta'minlaydigan muhim innovatsion yo'nalish bo'lib, konstitutsiyaviy sud faoliyatini raqamli transformatsiya jarayonlariga uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bunday platforma orqali sud qarorlari, konstitutsiyaviy shikoyatlar va amaliy tavsiyalar bilan real vaqt rejimida tanishish imkoni yaratiladi. Shu bilan birga, mazkur innovatsion xizmat sud faoliyatining ochiqligini ta'minlaydi, fuqarolarning huquqiy faolligini oshiradi va raqamli muhitda konstitutsiyaviy adolatni ta'minlashning samarali, ishonchli hamda zamonaviy mexanizmini shakllantiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, konstitutsiyaviy sudlov tizimini takomillashtirish — Konstitutsiya ruhini hayotga tatbiq etuvchi, chuqur ilmiy asosga ega bo'lgan kompleks va tizimli jarayondir. Konstitutsiyaviy sudning samarali faoliyati demokratik davlat barqarorligini, inson huquq va erkinliklarining kafolatli himoyasini ta'minlaydi. Sud mustaqilligini mustahkamlash, faoliyat oshkoraligini ta'minlash, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va ilm-fan bilan uyg'unlikda rivojlanish — bu jarayonning asosiy shartlaridir.

#### Adabiyotlar / Литература / References:

1. Ip E. C. The evolution of constitutional adjudication in the Chinese special administrative regions: theory and evidence // *The American Journal of Comparative Law*. – 2013. – T. 61. – №. 4. – S. 799-830.
2. Elliott, Mark. *The constitutional foundations of judicial review*. Bloomsbury Publishing, 2001.
3. Comparative Constitutional Law <https://www.law.columbia.edu/academics/courses/34732>
4. Courses and Seminars. <https://www.osgoode.yorku.ca/programs/juris-doctor/jd-academic-program/courses-and-seminars/>
5. Master's Degree in Constitutional Law (Facultat de Dret) <https://www.uv.es/master-constitutional-law/en/master-s-degree-constitutional-law.html>
6. Constituição da República Portuguesa (1976). Artigo 222. — Disponível em: <https://www.parlamento.pt>
7. Costituzione della Repubblica Italiana: 22 dicembre 1947 (con modifiche). — Roma: Senato della Repubblica. — Art. 135. — URL: <https://www.senato.it>
8. Constitución Española (1978). Artículo 159. — Disponible en: Congreso de los Diputados. URL: <https://www.congreso.es>
9. Constitutional Court Act of the Republic of Korea (1988). Article 11. — Available at: Constitutional Court of Korea. URL: <https://english.court.go.kr>

10. Ompusunggu, Benni Mangiring. "The Role of Amicus Curiae in Influencing The Confidence of Judges in The Supreme Court and Constitutional Court. "As-Syar'i: Jurnal Bimbingan & Konseling Keluarga 6.2 (2024): 1805-1813.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **INTERNATIONAL INITIATIVES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEIR SIGNIFICANCE FOR GLOBAL DIALOGUE**

**Khaydarova Khilola Anvarovna,**

Lecturer at the Department of International Law and Human Rights  
Tashkent state university of law

E-mail: [khaydarovakhilola7@gmail.com](mailto:khaydarovakhilola7@gmail.com)

**Abstract.** The article analyzes the international initiatives of the Republic of Uzbekistan in the context of their significance for the development of global dialogue and multilateral cooperation. It examines the main directions of Uzbekistan's foreign policy activity, including participation in the activities of the United Nations, initiatives in the field of regional security and good-neighborly relations, as well as the country's contribution to promoting the sustainable development agenda. Particular attention is paid to the dialogical and inclusive orientation of Uzbekistan's international initiatives, which are based on the principles of peaceful settlement of disputes, respect for state sovereignty, and strengthening trust among participants in international relations.

**Keywords:** international initiatives, global dialogue, multilateral cooperation, United Nations, regional security, sustainable development, foreign policy.

---

## **МЕЖДУНАРОДНЫЕ ИНИЦИАТИВЫ РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ГЛОБАЛЬНОГО ДИАЛОГА**

**Хайдарова Хилола Анваровна,**

Преподаватель кафедры Международного права и прав человека  
Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** В статье анализируются международные инициативы Республики Узбекистан в контексте их значения для развития глобального диалога и многостороннего сотрудничества. Рассматриваются основные направления внешнеполитической активности Узбекистана, включая участие в деятельности Организация Объединённых Наций, инициативы в сфере региональной безопасности и добрососедства, а также вклад страны в продвижение повестки устойчивого развития. Особое внимание уделяется диалоговой и инклюзивной направленности международных инициатив Узбекистана, основанных на принципах мирного урегулирования споров, уважения суверенитета государств и укрепления доверия между участниками международных отношений.

**Ключевые слова:** международные инициативы, глобальный диалог, многостороннее сотрудничество, Организация Объединённых Наций, региональная безопасность, устойчивое развитие, внешняя политика.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N26>

В условиях нарастающей взаимозависимости государств и усложнения системы международных отношений особую значимость приобретают инициативы отдельных стран, направленные на укрепление многостороннего сотрудничества, развитие диалога и формирование устойчивых механизмов глобального взаимодействия. Современный этап мировой политики характеризуется одновременным

существованием процессов глобализации и фрагментации, ростом геополитической напряжённости, трансформацией международных институтов и поиском новых форм коллективного реагирования на глобальные вызовы. В этой связи возрастает роль государств, предлагающих конструктивные инициативы, ориентированные на диалог, доверие и взаимное уважение.

Республика Узбекистан в последние годы демонстрирует активную и последовательную внешнеполитическую стратегию, направленную на укрепление своего международного авторитета и расширение участия в решении региональных и глобальных проблем. Инициативы Узбекистана, выдвигаемые на площадках Организации Объединённых Наций, региональных и межрегиональных организаций, а также в рамках многосторонних форумов, отражают стремление страны внести вклад в формирование справедливого и устойчивого мирового порядка. Эти инициативы охватывают широкий спектр направлений, включая обеспечение региональной безопасности, развитие добрососедства, продвижение принципов устойчивого развития, защиту прав человека, а также укрепление межкультурного и межкультурного диалога.

Актуальность исследования международных инициатив Узбекистана обусловлена не только ростом их количества и масштабности, но и их содержательной направленностью на поиск компромиссных решений в условиях глобальной нестабильности. В отличие от конфронтационных подходов, данные инициативы базируются на принципах мирного сосуществования, уважения суверенитета государств и приоритета дипломатических методов урегулирования международных споров. Это позволяет рассматривать внешнеполитическую активность Узбекистана как важный элемент современного глобального диалога.

Важнейшим направлением внешнеполитической активности Республики Узбекистан является участие в деятельности Организация Объединённых Наций, которая выступает универсальным механизмом многостороннего взаимодействия государств и центральным институтом поддержания международного мира и безопасности. В соответствии с положениями Устава ООН, организация призвана обеспечивать развитие дружественных отношений между нациями, содействовать международному сотрудничеству в решении экономических, социальных, культурных и гуманитарных проблем, а также выступать центром согласования действий государств [1]. Узбекистан, являясь членом ООН с 1992 года, последовательно рассматривает данную площадку как ключевой инструмент продвижения собственных инициатив и укрепления международного диалога.

В последние годы Узбекистан активизировал использование механизмов ООН для выдвижения предложений, направленных на формирование устойчивой архитектуры региональной и глобальной безопасности. Существенное значение в этом контексте имели программные выступления Президента Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёева на сессиях Генеральной Ассамблеи ООН, в которых подчёркивалась необходимость укрепления доверия, развития сотрудничества в Центральной Азии и усиления роли превентивной дипломатии как инструмента предупреждения конфликтов [3]. Подобные инициативы коррелируют с концептуальными положениями

внешнеполитической стратегии Узбекистана, закреплёнными в национальных программных документах [2].

Особое внимание в инициативах Узбекистана уделяется вопросам устойчивого развития и реализации глобальной Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 года [7]. Продвижение данной повестки осуществляется через акцент на взаимосвязи социально-экономического развития, экологической устойчивости и обеспечения прав человека. Узбекистан последовательно подчёркивает значимость комплексного подхода к достижению Целей устойчивого развития, рассматривая их как универсальную основу для консолидации усилий международного сообщества. В этом контексте позиция страны соответствует современным теоретическим подходам к интерпретации взаимозависимости государств в условиях глобализации [6].

На площадке Генеральная Ассамблея ООН узбекской стороной систематически поднимаются вопросы укрепления регионального сотрудничества в Центральной Азии, обеспечения стабильности в Афганистане, противодействия транснациональным угрозам, включая терроризм и экстремизм. Эти инициативы отражают понимание региональной безопасности как неотъемлемой части глобальной стабильности и соответствуют концепциям коллективной ответственности государств за поддержание международного мира [9].

Отличительной чертой инициатив Узбекистана в рамках ООН является их инклюзивный и диалоговый характер. В отличие от конфронтационных моделей международного поведения, узбекская дипломатия акцентирует внимание на необходимости поиска компромиссных решений и формирования атмосферы доверия. Такой подход соотносится с концепцией «мягкой силы», предполагающей достижение внешнеполитических целей через сотрудничество, убеждение и нормативное влияние [5].

В совокупности данные факторы позволяют рассматривать активность Узбекистана в системе ООН как значимый вклад в развитие современного многостороннего взаимодействия. Последовательное продвижение инициатив, направленных на укрепление доверия, устойчивого развития и региональной стабильности, способствует укреплению авторитета ООН как центрального элемента глобального управления и одновременно усиливает международные позиции Узбекистана как ответственного и конструктивного участника международных отношений.

Региональная безопасность также выступает одним из системообразующих приоритетов внешней политики Республики Узбекистан, что обусловлено её геостратегическим положением в Центральной Азии, отсутствием выхода к мировому океану и объективной зависимостью устойчивого развития от стабильности сопредельных государств. Центральноазиатский регион традиционно характеризуется сложной конфигурацией трансграничных вызовов, включая угрозы терроризма, религиозного экстремизма, незаконного оборота наркотиков, а также проблемы водно-энергетического и экологического характера [9]. В этих условиях Узбекистан выстраивает политику, ориентированную на формирование устойчивой системы регионального взаимодействия, основанной на принципах суверенного равенства государств, невмешательства во внутренние дела и добрососедства.

Концептуальные основы данного подхода закреплены в национальных стратегических документах, определяющих приоритетность Центральной Азии во внешней политике страны [2]. В последние годы Узбекистан инициировал качественное обновление формата регионального диалога, сделав акцент на регулярности консультаций глав государств региона и институционализации механизмов взаимодействия. Подобная практика способствует снижению уровня недоверия, накопленного в предыдущие периоды, и формированию устойчивых каналов политической коммуникации.

Значительное место в региональных инициативах Узбекистана занимает развитие добрососедских отношений и укрепление политического диалога между государствами Центральной Азии — Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан и Туркменистан. Практическое наполнение данного курса выразилось в активизации двусторонних и многосторонних контактов, урегулировании пограничных вопросов, расширении торгово-экономического сотрудничества и развитии транспортно-коммуникационной взаимосвязанности. Тем самым формируется модель «региональной взаимозависимости», соответствующая современным теоретическим представлениям о трансформации международных отношений в условиях глобализации [6].

Узбекистан последовательно выступает за институционализацию регионального сотрудничества и расширение механизмов координации в сфере безопасности. В центре внимания находятся совместные меры по противодействию транснациональным угрозам, включая терроризм, экстремизм и незаконный оборот наркотических средств. Подобный подход отражает понимание безопасности как комплексного и неделимого явления, требующего коллективных усилий государств региона [9]. Акцент на превентивных мерах и диалоговых форматах соответствует также положениям Устава ООН о коллективной ответственности государств за поддержание международного мира и безопасности [1].

Особую роль в региональной повестке занимают инициативы, связанные с обеспечением стабильности в Афганистане. Узбекистан рассматривает ситуацию в Афганистане не как изолированную проблему, а как фактор, непосредственно влияющий на безопасность всей Центральной Азии и, шире, на международную стабильность. В программных выступлениях руководства страны подчёркивается необходимость интеграции Афганистана в региональные экономические процессы, развития транспортных коридоров, энергетической инфраструктуры и гуманитарного сотрудничества [3]. Данный подход предполагает переход от преимущественно военно-политической логики урегулирования к модели социально-экономической стабилизации.

Продвижение инфраструктурных проектов и идей экономической взаимосвязанности отражает стремление Узбекистана сформировать устойчивую основу для долгосрочной стабилизации Афганистана посредством вовлечения его в региональные торговые и энергетические цепочки. Подобная стратегия соответствует современным концепциям «безопасности через развитие», предполагающим, что устойчивый экономический рост и социальная интеграция снижают вероятность радикализации и конфликтов [5]. Тем самым узбекские инициативы выходят за рамки

узкорегинальных интересов и встраиваются в более широкую архитектуру международной безопасности.

Таким образом, региональные инициативы Узбекистана характеризуются системностью, институциональной направленностью и ориентацией на долгосрочную стабилизацию региона. Их реализация способствует укреплению доверия между государствами Центральной Азии, формированию устойчивых механизмов политического диалога и расширению экономической взаимосвязанности. В более широком контексте данные инициативы могут рассматриваться как пример формирования модели регионального сотрудничества, основанной на принципах равноправия, взаимной ответственности и коллективного реагирования на общие вызовы.

В условиях усиления глобальных вызовов социально-экономического и экологического характера особую значимость приобретают международные инициативы, ориентированные на реализацию принципов устойчивого развития как универсальной модели долгосрочного прогресса. Современная система международных отношений всё в большей степени характеризуется взаимозависимостью государств и транснациональной природой ключевых угроз, включая изменение климата, деградацию окружающей среды, рост социального неравенства и дефицит природных ресурсов. В этих условиях устойчивое развитие становится не только социально-экономической стратегией, но и важным инструментом укрепления глобального диалога и сотрудничества [7].

Республика Узбекистан последовательно интегрирует повестку устойчивого развития в свою международную деятельность, рассматривая её как основу для формирования справедливой и инклюзивной модели международного взаимодействия. Поддержка и реализация Целей устойчивого развития, закреплённых в резолюции Генеральной Ассамблеи ООН «Преобразование нашего мира: Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года» [7], выступают одним из приоритетов внешнеполитической стратегии страны [2]. При этом Узбекистан исходит из понимания того, что достижение устойчивого развития невозможно без укрепления международной координации и расширения партнёрских механизмов.

Международные инициативы Узбекистана в данной сфере охватывают широкий спектр направлений, включая рациональное использование природных ресурсов, адаптацию к изменению климата, обеспечение продовольственной и водной безопасности. Особое внимание уделяется вопросам экологической устойчивости, что обусловлено спецификой региона и наличием трансграничных экологических проблем. Продвижение инициатив в области водной дипломатии и рационального управления водными ресурсами отражает стремление страны сформировать коллективные подходы к решению проблем, которые по своей природе носят транснациональный характер и требуют согласованных действий государств региона [9].

В международных выступлениях руководства Узбекистана подчёркивается необходимость объединения усилий мирового сообщества для минимизации последствий изменения климата и деградации окружающей среды, а также развития «зелёной» экономики как основы устойчивого роста [3]. Данный подход соответствует современным научным концепциям взаимосвязи устойчивого развития и глобального

управления, в рамках которых экологическая безопасность рассматривается как составная часть международной стабильности [6].

Особое значение в международных инициативах Узбекистана придаётся взаимосвязи устойчивого развития и прав человека. Подчёркивается, что экономический рост и модернизация должны сопровождаться обеспечением социальных гарантий, сокращением неравенства и расширением доступа населения к образованию, здравоохранению и социальным услугам. Такая позиция соотносится с универсальными принципами ООН о неразрывной связи развития, прав человека и безопасности [1].

Акцент на социальном измерении устойчивого развития отражает стремление Узбекистана придать глобальному диалогу гуманитарную направленность. В международных инициативах подчёркивается необходимость защиты уязвимых групп населения, расширения возможностей молодёжи и женщин, а также развития человеческого капитала как ключевого ресурса долгосрочного прогресса. Подобный подход согласуется с концепцией «мягкой силы», предполагающей укрепление международного авторитета государства через продвижение нормативных ценностей и гуманитарных инициатив [5].

В целом инициативы Узбекистана в сфере устойчивого развития свидетельствуют о стремлении страны к активному участию в формировании глобальной повестки, основанной на принципах ответственности, солидарности и партнёрства. Их реализация способствует укреплению многосторонних механизмов сотрудничества и формированию более сбалансированной модели глобального управления, в которой устойчивое развитие рассматривается как интегральная основа международной стабильности.

### **Заключение**

Проведённый анализ международных инициатив Республики Узбекистан позволяет сделать вывод о формировании качественно нового этапа внешнеполитической активности страны, ориентированного на укрепление глобального диалога и развитие многостороннего сотрудничества. Систематизация инициатив по направлениям участия в деятельности Организация Объединённых Наций, обеспечения региональной безопасности и продвижения повестки устойчивого развития свидетельствует о комплексном и стратегически выверенном характере внешнеполитического курса государства.

Во-первых, активная позиция Узбекистана на площадке ООН отражает стремление страны использовать универсальные механизмы международного взаимодействия для продвижения принципов превентивной дипломатии, доверия и инклюзивности. Инициативы, выдвигаемые в рамках Генеральной Ассамблеи ООН, направлены на укрепление многосторонних форм сотрудничества и формирование согласованных подходов к решению глобальных проблем. Тем самым Узбекистан вносит вклад в поддержание авторитета ООН как центрального института глобального управления.

Во-вторых, региональное измерение внешней политики демонстрирует приоритетность Центральной Азии как пространства стратегической ответственности Узбекистана. Последовательное развитие добрососедских отношений,

институционализация регионального диалога и продвижение инициатив по стабилизации ситуации в Афганистан подтверждают стремление страны к формированию устойчивой архитектуры безопасности, основанной на принципах суверенного равенства и коллективной ответственности. Данный подход способствует трансформации Центральной Азии в зону сотрудничества и взаимной интеграции.

В-третьих, инициативы в сфере устойчивого развития отражают понимание Узбекистаном взаимосвязи между социально-экономическим прогрессом, экологической устойчивостью и правами человека. Продвижение принципов Повестки-2030 и акцент на гуманитарном измерении глобального взаимодействия усиливают нормативную составляющую международной деятельности страны и способствуют формированию более справедливой модели мирового порядка.

Следует подчеркнуть, что международные инициативы Узбекистана характеризуются системностью, диалоговой направленностью и ориентацией на долгосрочную стабильность. Они выходят за рамки узконациональных интересов и соотносятся с общими задачами укрепления международного мира и безопасности.

#### **Литература/References/Adabiyotlar:**

1. Устав Организации Объединённых Наций : принят 26 июня 1945 г. // Действующее международное право. – М. : Международные отношения, 2019. – Т. 1. – С. 7–33.
2. Концепция внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан. – Ташкент, 2023.
3. Мирзиёев Ш. М. Выступление на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН // Официальные материалы. – Нью-Йорк, 2017.
4. Мирзиёев Ш. М. Центральная Азия: общая история и общее будущее, сотрудничество ради устойчивого развития и взаимного процветания // Материалы международной конференции. – Самарканд, 2017.
5. Nye J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York : PublicAffairs, 2004. – 191 p.
6. Keohane R. O., Nye J. S. Power and Interdependence: World Politics in Transition. – 4th ed. – New York : Longman, 2012. – 315 p.
7. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development: Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015. – New York, 2015.
8. Acharya A. The End of American World Order. – Cambridge : Polity Press, 2018. – 158 p.
9. Allison R. Regionalism, Regional Structures and Security Management in Central Asia // International Affairs. – 2004. – Vol. 80, No. 3. – P. 463–483.
10. Trenin D. Central Asia: A Strategic Framework for Peace and Stability // Carnegie Endowment for International Peace. – Washington, 2020.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **TRAINING COMPETITIVE, PROFESSIONAL, AND MODERN PERSONNEL IN INTERNAL AFFAIRS BODIES: GOALS AND TASKS**

**Akhmedov Islam Bakhtiyor ugli**

Deputy Head of the Department of Special and Professional Subjects of the Institute for Advanced Training of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Associate Professor

**Abstract.** The article provides a comprehensive overview of the reforms being carried out in the area of training of personnel of internal affairs bodies and its expectations of results, its significance and necessity in the activities of internal affairs bodies, the system of training, retraining and advanced training of employees of internal affairs bodies, the process of continuous training and career growth, the transformation of internal affairs bodies into a sought-after professional structure, modern requirements provided to employees of internal affairs bodies.

**Keywords:** reforms in the field of training of personnel of internal affairs bodies, their content, regulatory legal acts and their implementation, training, retraining and advanced training of employees, module on working with appeals.

## **ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA RAQOBATBARDOSH PROFESSIONAL VA ZAMONAVIY KADRLARNI TAYYORLASH: MAQSAD VA VAZIFALAR**

**Ahmedov Islom Baxtiyor o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV

Malaka oshirish instituti maxsus-kasbiy fanlar kafedrasini boshlig'i o'rinbosari, dotsent

**Annotatsiya.** Maqolada ichki ishlar organlari kadrlarini tayyorlash sohasida o'tkazilgan islohotlar va kutilayotgan natijalar, ularning ichki ishlar organlari faoliyatidagi ahamiyati va zarurati, ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi, uzluksiz o'quv-karyera jarayoni, Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ichki ishlar organlari xodimlariga qo'yilgan zamonaviy talablar keng yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ichki ishlar organlari kadrlarini tayyorlash sohasida o'tkazilgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning joriy etilishi, xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, fuqarolar bilan ishlash moduli.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N27>

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo'q desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, xalqaro terrorism, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda. Ana shunday o'ta murakkab va qaltis sharoitda qanday yo'l tutish, tinch va osoyishtalikni saqlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin degan savol barchamizni jiddiy o'ylantirishi zarur [1; 3-b.].

Mazkur vazifalarni sifatli va o'z vaqtida ijro etish, eng avvalo, uni joylarda amalga oshiruvchi mutaxassis-kadrlarning faoliyatiga borib taqalmoqda. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun, faoliyatning yo'nalishi aniq belgilanishi va ular asosida puxta rejalar ishlab chiqilishi mumkin. Ammo, belgilangan vazifalarni to'g'ri tushunadigan, yuksak mas'uliyat hissi va professional darajada ushbu qarorlarni amalga oshirishga, hayotga joriy etishga qodir malakali kadrlar bo'lmasa, ezgu maqsadlarga erishish mushkul.

Holbuki, jahonda politsiya tizimlarida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xizmat faoliyatini professionalizm, halollik, xolislik va adolatlilik prinsiplari asosida tashkil etish orqali kadrlar barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham mazkur masalalarga dunyo davlatlarida, xususan Amerika Qo'shma Shtatlarida 35,5 mlrd. dollar, Buyuk Britaniyada 24,9 mlrd. funt sterlingi, Kanadada 18,5 mlrd. Kanada dollari, Janubiy Koreyada 946,6 mlrd. Von miqdorida pul mablag'i ajratilib, ularning faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shuni inobatga olgan holda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida sud-huquq tizimida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan ichki ishlar organlari tizimida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladigan 13 ta qonun, Prezidentimizning 9 ta Farmoni, 40 ta qaror va 3 ta farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 115 ta qarori hamda 160 dan ziyod idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o'z ma'ruzalaridan birida ichki ishlar organlari jamiyat hayotida naqadar muhim o'rin tutishi haqida alohida to'xtalib, "Xalqimiz Yaratgandan avvalo tinchlik-xotirjamlikni so'raydi. Shundan so'ng, o'z uyim, boshpanam bo'lsa, oilam, bola-chaqam bilan sog'-salomat yashasam, deydi. Biz xalqimizning ana shunday orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ichki ishlar tizimini isloh qilishga katta e'tibor qaratyapmiz. Hech shubhasiz, sizlarning mashaqqatli va sharaflı mehnatingizni munosib rag'batlantirish kelgusida ham davlatimiz va jamiyatimizning e'tibor markazida bo'ladi" degan edi.

Shundan kelib chiqib aytish joizki, hozirgi zamonda, jismonan sog'lom, baquvvat, o'z kasbini puxta o'zlashtirgan, yuksak ma'naviyatli, qonun ustuvorligi asosida yashaydigan, ona yurtiga farzandlik mehri va sadoqat bilan xizmat qiladigan ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy tayyorlash, jumladan malakasini oshirish davr talabidir. Zero, ayni paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta'minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvarda "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son Qarori qabul qilindi. Qaror bilan:

1. "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi" tasdiqlanib, quyidagi asosiy maqsadlarga yo'naltirildi:

ichki ishlar organlari xodimlarini “Inson qadri uchun” tamoyili asosida davlatning yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o‘z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligiga erishish;

ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas’uliyat bilan yondashish, jamiyatda umume’tirof etilgan odob-axloq normalariga so‘zsiz amal qilish tuyg‘usini shakllantirish;

ichki ishlar organlarida sodir etilishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya xatti-harakatlar, suiiste‘molchilik va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish, huquq-tartibot tizimi obro‘sigga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirmaslik.

2. Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash departamenti tashkil etilib, uning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

ma’naviy-ma’rifiy ishlarni “ta’lim muassasasidan – xizmatning oxiriga qadar” tamoyili asosida tizimli va uzluksiz tashkil etish orqali ularning samaradorligi hamda ta’sirchanligini oshirish;

ichki ishlar organlarida istiqbolli yosh rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishning yangi tizimini joriy etish, ularning faoliyatini tizimli monitoring qilish va doimiy ravishda o‘qitib borish mexanizmlarini yaratish;

3. Quyidagi tartib o‘rnatildi, unga muvofiq:

ichki ishlar organlariga xizmatga birinchi marta qabul qilingan xodimlar Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutida uch oylik boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik kurslarini muvaffaqiyatli tamomlaganidan so‘ng tegishli lavozimga tayinlanadi;

2023-yil 1-sentyabrdan boshlab huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo‘l-patrul va patrul-post xizmati bo‘linmalari xodimlarini “Fuqarolar bilan ishlash moduli” bo‘yicha uzluksiz o‘qitish amaliyotini yo‘lga qo‘yish orqali ularning sohada samarali xizmat olib borishdagi shaxsiy mas’uliyati oshiriladi.

Bunda, Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutida davomiyligi 144 soatdan kam bo‘lmagan dastur asosida xodimlar har uch yilda bir marta o‘qitilib, maxsus sinovdan o‘tkaziladi hamda sinovlarni muvaffaqiyatli topshirgan xodimlarga kelgusida ushbu sohada xizmat qilish huquqini ta’minlaydigan sertifikat beriladi.

4. Ichki ishlar organlarida kadrlar salohiyati darajasini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Shuningdek, mazkur qaror ijrosini ta’minlash, xususan xodimlarning fuqarolar bilan muloqot jarayonida kasbiy mahorati, intellektual salohiyati, muomala madaniyatini oshirish hamda psixoemotsional ruhiy barqarorligini saqlash bo‘yicha zarur amaliy ko‘nikmalarini oshirish maqsadida Ichki ishlar vazirining 2023-yil 28-fevralda “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo‘l-patrul va patrul-post xizmati bo‘linmalari xodimlarini “Fuqarolar bilan ishlash moduli” bo‘yicha uzluksiz o‘qitish tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi 98-son buyrug‘i tasdiqlanib ijroga qaratildi.

Buyruq bilan modul bo‘yicha uzluksiz o‘qitish jarayoni professional kadrlarga qo‘yiladigan talablar asosida quyidagilarga yo‘naltirildi:

xodimlarning fuqarolar bilan muloqot jarayonida kasbiy mahorati, intellektual salohiyati, muomala madaniyatini oshirish hamda psixoemotsional ruhiy barqarorligini saqlash bo‘yicha zarur amaliy ko‘nikmalarini oshirish;

zamonaviy ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida situatsion mashg'ulotlar orqali xodimlarda nostandart va murakkab sharoitlarda tezkor qaror qabul qilish hamda vaziyatni real baholashga doir kasbiy kompetentlikni shakllantirish;

xodimlarning murakkab vaziyatlarda jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va o'qotar qurolni qo'llash jarayonida zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini amalda yuqori darajada qo'llay olish mahoratini rivojlantirish;

ta'lim jarayonida nazariya bilan amaliyotni integratsiya qilish orqali sodir etilishi mumkin bo'lgan nojo'ya xatti-harakatlar, suiiste'molchilik, korrupsiya va tizim obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi nizoli vaziyatlarning barvaqt oldini olish.

Ushbu jarayonda ichki ishlar organlari xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirib borish, ularni qabul qilinayotgan qonun hujjatlaridan xabardorlik darajasini oshirish, ular tomonidan yangi normativ-huquqiy hujjatlarni amalda qo'llash bugungi kundagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi [2; 6-b.].

Xulosa qilib aytganda, bizningcha, ichki ishlar organlari tizimida o'tkazilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – kelgusida ichki ishlar organlarida kadrlar salohiyatini oshirish istiqbollari belgilash, ushbu sohaga professional, barqaror, hozirgi zamon talablariga to'liq javob beradigan, har qanday sharoitda o'zini boshqara oladigan, yuklatilgan vazifalarni sifatli va o'z vaqtida bajarishga qodir, muammoli vaziyatlarga huquqiy baho bera oladigan va ushbu vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan malakali va yetuk kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini o'z vaqtida oshirib borishdan iboratdir.

#### **Adabiyotlar/Литературы/References:**

1. Ichki ishlar organlarining jamot tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash faoliyati: Darslik/ I.Ismailov, M.Z.Ziyodullayev, F.N.Shukurov va boshq., general-leytenant B.A.Matlyubovning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – B – 3.
2. Ichki ishlar organlari faoliyatiga oid rahbariy g'oyalar va normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, 2019. – B. 6.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **ISSUES OF ENSURING TRANSPARENCY AT THE STAGE OF ACCESSION TO THE WORLD TRADE ORGANIZATION**

**Fayzulloev Shokhijakhon Jobirovich,**  
Tashkent State University of Law,  
Senior Lecturer,  
Department of English Law and European Union Law  
<http://www.orcid.org/0000-0003-4055-7658>

**Abstract.** The article examines the provisions relating to the core obligations on ensuring transparency as enshrined in the World Trade Organization agreements on trade in goods and trade in services. It analyses the importance of transparency as a factor in the development of global trade, as well as the main mechanisms for ensuring transparency in the regulation of international trade at the national and multilateral levels, and the key obligations of WTO Members in this field. Particular attention is paid to the specific features of the Republic of Uzbekistan's transparency-related commitments in the context of negotiations on accession to the WTO. At the stage of the Republic of Uzbekistan's accession to the World Trade Organization, issues related to the implementation of the Organization's norms on ensuring transparency and notification procedures into national legislation are analyzed.

**Keywords:** transparency, trade in goods, trade in services, World Trade Organization, notification procedures, TRIPS, GATS, TBT, SPS.

## **JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIK BOSQICHIDA SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH MASALALARI**

**Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Ingliz huquqi va Yevropa Ittifoqi huquqi sho'basini  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada Jahon Savdo Tashkilotining tovarlar va xizmatlar savdosi bo'yicha bitimlaridagi shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan asosiy majburiyatlarga oid normalari ko'rib chiqiladi. Jahon savdosini rivojlantirish uchun shaffoflik omilining ahamiyati hamda xalqaro savdoni milliy va ko'p tomonlama darajada tartibga solishda shaffoflikni ta'minlashning asosiy mexanizmlari, shuningdek, Jahon Savdo Tashkiloti a'zolarining ushbu sohadagi asosiy majburiyatlari tahlil qilinadi. Bunda O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik bo'yicha muzokaralarda shaffoflikka oid majburiyatlarining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik bosqichida O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga tashkilotning shaffoflikni ta'minlash hamda xabardor etish tartib taomillariga oid normalarini implementatsiya qilish masalalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** shaffoflik, tovarlar savdosi, xizmatlar savdosi, Jahon Savdo Tashkiloti, xabardor etish tartib-taomillari, TRIPS, GATS, TBT, SPS.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N28>

**Kirish.** Bugungi kunda Jahon savdo tashkiloti davlatlararo savdo qoidalarini tartibga soluvchi yagona global muassasa hisoblanadi. Ushbu tashkilot xalqaro savdo munosabatlari uchun umumiy, shaffof va barqaror huquqiy maydon yaratishni, ishlab chiqaruvchilar,

eksportchilar va importchilar uchun teng imkoniyatlar ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. JSTga a'zolik davlatlardan savdo siyosatini kelishilgan qoidalar asosida yuritishni talab etadi, bu esa jahon bozorida halol raqobatni mustahkamlaydi. Hozirgi kunda Jahon savdo tashkilotiga dunyoning 164 dan ortiq mamlakati a'zo bo'lib, ular jahon savdosi va yalpi ichki mahsulotining deyarli 98 foizini tashkil etadi. Ushbu fakt o'z-o'zidan JSTning jahon iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish, avvalo, iqtisodiy manfaatlar bilan uzviy bog'liq. Savdo to'siqlarining kamayishi tovarlarning erkin ayirboshlanishiga, yangi texnologiyalarning joriy etilishiga va ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga yordam beradi. Bu esa aholining turmush darajasini yaxshilaydi, sifatli va arzon mahsulotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Eksport hajmining ortishi milliy mahsulotlar tannarxining pasayishiga, ishlab chiqarish ko'lamining kengayishiga va davlat byudjetiga tushumlarning ko'payishiga olib keladi. Savdoning erkinlashuvi aholi daromadlarining o'sishiga va eng muhimi, bandlikning yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. JST bosh direktori Ngozi Okonjo-Iweala O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lish jarayoni faol bosqichda ekanligini ta'kidlab, mamlakatning JSTga a'zoliqi 2026-yil mart oyida rasman e'lon qilinishi mumkinligini ma'lum qildi. U jahon iqtisodiyoti o'rtacha 3 foizga o'sib borayotgan bir paytda, O'zbekiston iqtisodiyoti 6 foizga o'sayotganini alohida ta'kidlab, buni ijobiy va barqaror rivojlanishning ko'rsatkichi sifatida baholadi[1].

2025-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish doirasida 34 mamlakatdan 33 tasi bilan ikki tomonlama muzokaralarni muvaffaqiyatli yakunladi. Hozircha faqat Tayvan (xalqaro tashkilotlarda "Xitoy Taypeyi" nomi ostida ishtirok etadigan) bilan yakuniy kelishuv qolmoqda. Muzokaralar jarayonida Xitoy, Rossiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi, Kanada, Shveysariya va Avstraliya kabi yirik savdo hamkorlari bilan erishilgan kelishuvlar O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning xalqaro miqyosda tan olinayotganini ko'rsatmoqda. 21-dekabr kuni Sankt-Peterburgda O'zbekiston va Rossiya JST doirasidagi ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash to'g'risidagi bayonnomani imzoladilar [2].

**Asosiy qism.** Shaffoflik ancha vaqtdan buyon ko'p tomonlama xalqaro savdo tizimining faoliyat yuritishiga asos bo'lib kelayotgan tamoyillardan biri bo'lib kelmoqda, zero ushbu tamoyil davlatlarning "proteksionizm" siyosatini yuritishlariga to'sqinlik qiladigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Biroq, JST kelishuvlarida ushbu tamoyilning aniq va yakdil ta'rifi mavjud emas. "Shaffoflik" so'zining xalqaro savdodagi ma'nosining kelib chiqishiga e'tibor beradigan bo'lsak, ingliz tilidagi "transparency"[3] so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilidagi muqobillari bo'lib "shaffoflik", "ochiqlik" kabi so'zlar hisoblanadi. Fikrimizcha, ushbu so'zning xalqaro savdodagi ma'nosini omma uchun ochiqlik, tizimdagi a'zolar uchun barcha shartlar va qoidalarning shaffofligi sifatida talqin qilsak bo'ladi. Umumiy ma'noda, JSTda shaffoflik tushunchasi tashqi savdo tizimini tartibga solishning "ochiqligini" ta'minlashni anglatadi. Keng qamrovli ma'noda esa, bu tartibga solish choralari haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi, ularning aniq va bir ma'noli ekanligini bildiradi. Bu nafaqat qoidalarning o'ziga, balki ularni qo'llash tartiblariga ham taalluqlidir.

Oshkoralik va ochiqlik tamoyili xalqaro huquq tizimini shakllantirishning asosi hisoblangan desa ham bo'ladi. Ochiqlik qarorlarning bir xilda qabul qilinishini ta'minlashini anglagan holda, xalqaro savdo bilan bog'liq masalalar bo'yicha shaffoflikka oid BMTning bir qator hujjatlari qabul qilingan, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo

huquqi bo'yicha komissiyasining "Xalqaro shartnomalar asosidagi investorlar va davlatlar o'rtasidagi arbitraj muhokamalari jarayonida shaffoflik to'g'risidagi qoidalari"[4] hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasining "Arbitraj reglamenti"[5] shular jumlasidandir.

BMT normalari xalqaro shartnomalar uchun huquqiy ustun hisoblanadi va shu bilan birga, JSTning xalqaro savdoni tartibga solishning turli jihatlariga oid asosiy bitimlari normalari ham bundan mustasno emas. Shaffoflik tamoyili dastlab 1947-yilgi "GATT" Bitimining X moddasida keltirilgan bo'lib, u savdoga oid qoidalarni e'lon qilish va qo'llashga taalluqlidir. JST tizimi shakllanishining dastlabki bosqichlaridayoq, a'zo davlatlar savdoga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish va xabarnomalar bilan bog'liq qoidalarning minimal to'plamini "GATT-1947" matniga kiritganlar. O'sha paytdayoq, xalqaro savdo subyektlari o'z faoliyatini amalga oshiradigan notanish yurisdiksiyadagi qonunchilikka kafolatlangan kirish imkoniyatisiz, shuningdek, bunday begona yurisdiksiya qonunchiligi va uning o'zgarishlarini yetarli darajada shaffofligi va ochiqligi ta'minlanmasa, butun ko'p tomonlama savdo tizimining barqarorligini ta'minlab bo'lmasligi ayon edi. Amalda xalqaro savdoni tartibga solish esa aynan milliy qonunchilik vositasida amalga oshiriladi.

JST "Glossariyida" shaffoflik "savdo siyosati va amaliyotining, shuningdek ularni shakllantirish jarayonining qay darajada ochiq va bashorat qilinuvchanligi" deb ta'riflanadi[6].

Robert Wolfning fikricha, "Shaffoflik bo'lmasa, savdo kelishuvlari va qoidalari shunchaki qog'ozda yozilgan quruq so'zlar bo'lib qoladi". U shaffoflik ikki yo'nalishda ishlashini qayd etadi, birinchidan, ma'lumotlarni oshkor etish iqtisodiy subyektlarga qoidalar amalda qanday tatbiq etilayotganini ko'rish imkonini bersa, ikkinchidan, qaror qabul qilish jarayonining shaffofligi adolatni va o'zaro (hamkorlik) nazoratni ta'minlaydi[7].

Marianna B. Kartunen JSTning barcha a'zolari tomonidan savdoni tartibga solishning shaffofligi ochiq, adolatli va bashorat qilinishi mumkin bo'lgan savdo munosabatlarining zaruriy sharti ekanligini asoslab beradi. Shuningdek, "Sanitariya va fitosanitariya choralari to'g'risidagi bitim"(SPS) hamda "Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi bitim"(TBT) shaffoflik va hamkorlik majburiyatlari keng qamrovli asosiy mexanizmlarni taqdim etadi[8].

"GATT-1994"ning X-moddasi qoidalarini implementatsiya qilish misollaridan biri sifatida "Bojxona qiymatini baholash to'g'risidagi bitim" nomi bilan tanilgan ("GATT-1994"ning VII-moddasini qo'llash haqidagi) bitimning 12-moddasini keltirish mumkin. Masalan, ushbu moddaga asosan, "ushbu Bitimni qo'llashni ta'minlovchi qonunlar, me'yoriy hujjatlar, sud qarorlari va umumiy qo'llaniladigan ma'muriy hujjatlarni manfaatdor import qiluvchi mamlakat e'lon qilishi lozim"[9]. Bundan tashqari, JSTning "Himoya choralari to'g'risida"gi bitimiga asosan, "ushbu Bitim bilan kuchga kiritilgan qonunlar, me'yoriy hujjatlar, sud qarorlari va umumiy qo'llaniladigan ma'muriy qoidalarni import qiluvchi mamlakat e'lon qilishi shart" degan qoidalar mavjud[10].

Xizmatlar savdosi sohasida Jahon Savdo Tashkilotining "Xizmatlar savdosi bo'yicha Bitimi"(GATS) "GATT"ning X moddasiga o'xshash qoidalarni o'z ichiga oladi. Bunda GATTning X moddasida qoidalarga o'xshash ayrim jihatlar bitta moddada emas, balki bir nechta moddalarda nazarda tutilgan. Xizmatlar savdosi sohasidagi shaffoflik masalalariga oid asosiy qoidalar "GATS" bitimining III moddasida belgilangan bo'lib, JSTning har bir a'zosi, darhol va kamida kuchga kirish paytida, "GATS"ning faoliyatiga aloqador va ta'sir ko'rsatadigan barcha umumiy qo'llaniladigan choralarni e'lon qilishi shart. Biroq, bu talab "favqulodda" vaziyatlarga

nisbatan qo'llanilmaydi. Shuningdek ("GATT"dan farqli o'laroq), "GATS" "chora" tushunchasining ta'rifini o'z ichiga oladi, bu esa majburiyatning amal qilish doirasini yanada aniqroq belgilaydi. "Chora" tushunchasi "a'zoning qonun, qaror, qoida, tartib, ma'muriy harakat yoki boshqa har qanday shakldagi chorasi"ni anglatadi[11].

"GATT" X moddasining 1-bandiga o'xshash tarzda, JST a'zolari xizmatlar savdosiga ta'sir etuvchi yoki aloqador bo'lgan o'z xalqaro shartnomalarini e'lon qilish majburiyatini ham oladilar. E'lon qilish — passiv axborot berish usuli hisoblanadi. Biroq, JST doirasida qo'llanilayotgan choralar haqida aktiv xabar berish mexanizmlaridan ham foydalaniladi. "GATT"da ko'zda tutilgan savdoni tartibga solish choralari to'g'risida JST a'zolarini faol xabardor qilish holatlari GATT XVI va XXIV moddalarining talablari hisoblanadi. Masalan, bularga tegishli ravishda eksportni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ko'paytirishga qaratilgan subsidiya dasturlari haqida xabardor qilish hamda a'zo tomonlardan biri bojxona ittifoqi, erkin savdo zonasi to'g'risidagi bitim yoki kelajakda shunday kelishuvlarni shakllantirishga olib keladigan bitim tuzmoqchi bo'lsa, boshqa tomonlarni xabardor qilishdir.

"GATS" doirasida, JSTning har bir a'zosi darhol va yiliga kamida bir marta JST "Xizmatlar savdosi kengashi"ga[12], o'zi maxsus majburiyatlar olgan sohalarda xizmatlar savdosiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan yangi qonunlar, qoidalar yoki ma'muriy tartiblarning qabul qilinishi yoxud mavjudlarining o'zgartirilishi to'g'risida xabar berishi shart. Bu xabardor etish majburiyati yangi qonunlar qabul qilinganda ham, mavjud qonunlar o'zgartirilganda ham bajarilishi lozim.

Shaffoflikni oshirishga qaratilgan yana bir yangi element — bu tashkilot a'zolarining umumiy qo'llaniladigan choralar va JST boshqa a'zolarining xalqaro bitimlari bo'yicha so'rovlariga javob berish mexanizmidir. Bunday mexanizm tabiiy hisoblanib — davlatlar bir-birlarining so'rovlariga javob berishlari kerak. Biroq, bu aniq qoidaning xalqaro majburiyat darajasiga ko'tarilishi tashkilotga a'zo mamlakatlarga ko'proq kafolatlar beradi, chunki endi bu qoidaning har qanday buzilishi "Nizolarni Hal Qilish Organi"da ko'tarilishi mumkin.

JST a'zolari o'z hududlarida kamida bitta aloqa olib borish organini tashkil etishlari shart. Bunday aloqa organining vazifasi JST boshqa a'zolarining so'roviga ko'ra, a'zolarining xabarnomalarini taqdim etish majburiyatlari doirasidagi har qanday masala bo'yicha aniq ma'lumot berishdan iborat. Bu "GATS" III-moddasining 3-bandida belgilangan. Bunda "GATS" mazkur aloqa punktlarining faoliyatiga nisbatan hech qanday maxsus talab o'rnatmaydi, ular davlat yoki xususiy bo'lishi, faqat internet tarmog'ida ishlashi yoki JST a'zosi hududida maxsus ofisga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, so'rovlarga javob berish muddatlari ham belgilanmagan. Bu "GATS" III-moddasining 4-bandidagi birinchi jumladan farq qiladi, chunki unda javoblarni "zudlik bilan" taqdim etish talab qilinadi[13].

JSTning boshqa bitimlari ham shaffoflikka oid o'ziga xos talablarni o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilari, masalan, hujjatlarni e'lon qilish qoidalari qo'llanadigan masalalar doirasini kengaytiradi. Xususan, "Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi Bitim" ("TBT Agreement")[14] va "Sanitariya va fitosanitariya choralari to'g'risidagi Bitim" (SPS Agreement)[15] me'yoriy hujjatlar loyihalarini e'lon qilishni va maxsus aloqa organini tashkil etishni talab etadi. Ayrim bitimlar maxsus choralar haqida xabar berishga oid maxsus qoidalarni nazarda tutadi (masalan, "Subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi Bitim").

Demak, "TBT" va "SPS" bo'yicha bitimlarni alohida ta'kidlash lozim, chunki ular shaffoflikning eng yuqori darajasini ta'minlaydi. Bunday bitimlar nafaqat qabul qilingan va

amaldagi tartibga solish choralari haqida xabar berishni, balki bunday choralarni va tegishli me'yoriy-huquqiy loyihalarni ishlab chiqish bosqichida ham shaffoflikni talab etadi. Ular, birinchidan, mahsulotga qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olgan yangi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish rejalarini e'lon qilishni, ikkinchidan esa, bunday hujjatlar loyihalari va ularga tushuntirishlar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashni ko'zda tutadi. Bundan tashqari, shaffoflikning bilvosita elementi sifatida mahsulotga qo'yiladigan majburiy talablarni ishlab chiqishda xalqaro standartlardan (yoki xalqaro tashkilotlarning tegishli hujjatlaridan, masalan, FAOdan)[16] foydalanish talabi mavjud. Garchi bu bevosita axborot taqdim etish bilan bog'liq bo'lmasa-da, uyg'unlashtirish omili yangi qonunchilikni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida bashorat qilish imkoniyatini oshiradi.

Shunday qilib, xalqaro hujjatlar qoidalarini milliy qonunchilikka joriy etish va o'z qonunchiligida shaffoflik tamoyillarini belgilash orqali mamlakat o'zining tartibga solish tizimini ochiq, tushunarli va bashorat qilish mumkin bo'lgan holatga keltiradi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston qonunchiligi va tartibga solish amaliyotini JST qoidalariga moslashtirish jarayonida ushbu sohada shaffoflikni ta'minlash bo'yicha yuqorida tavsiflangan eng yuqori talablar birinchi marta mahalliy qonunchilik va tartibga solish amaliyotiga joriy etildi. Jumladan, JSTning "SPS" bitimi normalarini implementatsiya qilish yuzasidan O'zbekiston Respublikasida "Sanitariya va fitosanitariya choralari bo'yicha Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlarni xabardor qilish tartib-taomillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi[17]. Ushbu VMQga asosan O'zbekiston Respublikasida sanitariya va fitosanitariya choralari bo'yicha Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlarni xabardor qilish va ularning asoslangan so'rovlariga javob berish tartib-taomillarini joriy etildi. Bundan tashqari, "Jahon savdo tashkilotiga Qishloq xo'jaligi bitimi doirasida bildirishnoma taqdim etish tartibini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilinib, ushbu qarorga asosan "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga Qishloq xo'jaligi bitimi doirasida bildirishnoma taqdim etish tartibi to'g'risida" Nizom qabul qilindi[18]. Ushbu nizomda Jahon savdo tashkilotiga bozorga kirish, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va eksport raqobatbardoshligini ta'minlash choralari to'g'risida bildirishnomalarni taqdim etish tartibi, Jahon savdo tashkiloti bilan qishloq xo'jaligi sohasidagi choralar yuzasidan qo'shimcha axborot almashish tartibi, Qishloq xo'jaligi bitimiga oid choralar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va e'lon qilish tartibiga oid qoidalar o'z aksini topdi. Shuningdek, "Jahon savdo tashkilotining Importni litsenziyalash qo'mitasiga xabarnoma yuborish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi VMQ qabul qilinib bunga asosan "Jahon savdo tashkilotining Importni litsenziyalash qo'mitasiga xabarnoma yuborish tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi[19].

Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston tashkilotga a'zolik bosqichida JSTning shaffoflikka oid bir qator normalarini milliy qonunchilikka joriy etishi lozim bu esa respublikasining xalqaro hamjamiyatga ochiqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan, JSTning yangi a'zosi sifatida "Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi(TBT)" Bitimi sohasida ham shaffoflikni ta'minlashi shart. Masalan, buning uchun milliy so'rovlar markazini tashkil etish lozim, ushbu markaz texnik reglamentlar, standartlar va muvofiqlikni baholash tartib-qoidalari haqida ma'lumot berishi, shuningdek JSTning boshqa a'zolari va manfaatdor shaxslarning so'rovlariga javob berishi lozim. Me'yoriy hujjatlarning e'lon qilinish manbalarini ko'rsatish va hujjatlardan

adolatli hamda kamsitilmaydigan asosda foydalanish imkoniyatini ta'minlashi lozim. JSTga xabarnoma yuborish uchun yagona markaziy organ tayinlash, funksiyalar taqsimlangan taqdirda har bir organning vakolatlari rasman ma'lum qilinishi shart. Savdoga ta'sir etuvchi reglamentlar loyihalari, muvofiqlikni baholash tartib-qoidalari va xalqaro bitimlar haqidagi xabarnomalar ingliz, fransuz yoki ispan tillarida taqdim etilishi lozim.

Bundan tashqari, "TRIPS" Bitimining 63.2-moddasiga muvofiq, O'zbekiston intellektual mulkni tartibga solish sohasida shaffoflikni ta'minlashi shart[20]. Buning uchun "TRIPS Kengashi"ni davlatning intellektual mulk sohasidagi milliy qonunlari va me'yoriy hujjatlari to'g'risida xabardor qilishi lozim. Shuningdek, JSTning boshqa a'zolari intellektual mulk sohasidagi qonunlar, tartib-qoidalar va ma'muriy amaliyot haqida aniq va tushunarli ma'lumot olishlari mumkin bo'lgan so'rovlar punkti vazifasini bajaruvchi organni belgilashi lozim.

"Subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi bitim"(SCM)ga muvofiq, O'zbekiston "Subsidiyalar va kompensatsiya choralari qo'mitasi"ga berilgan subsidiyalar haqida xabar berishi shart[21]. Bu ma'lumotlarga subsidiya oluvchilar, subsidiyalar miqdori va ularning savdoga bo'lgan ehtimoliy ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi. Jahon savdo tashkiloti a'zolari ichki subsidiyalarning savdoga ta'sirini baholay olishlari uchun barcha ma'lumotlar aniq, o'z vaqtida va hammaga ochiq bo'lishi lozim.

O'zbekiston, JSTning yangi a'zosi sifatida, himoya choralari qo'llashda shaffoflikni ta'minlashi shart. Bu jarayonda JSTning "Himoya choralari bo'yicha qo'mitasi"ga bunday choralarni joriy etish yoki bekor qilish to'g'risida xabar berishi, shuningdek, mahsulotlar, mamlakatlar, amal qilish muddati va qo'llash sabablarini ko'rsatishi lozim[22]. Bundan tashqari, ushbu chora-tadbirlar ichki va xorijiy savdo ishtirokchilari uchun ochiq bo'lishi maqsadida e'lon qilinishi kerak. JSTning boshqa a'zolari so'rov yuborgan taqdirda, O'zbekiston zarur ma'lumotlarni taqdim etishi va maslahatlashuvlar o'tkazishi shart.

**Xulosa.** O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni mamlakat savdo siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirishda shaffoflik tamoyilining alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. JST bitimlarida nazarda tutilgan shaffoflikka oid majburiyatlarni milliy qonunchilikka joriy etish nafaqat tashkilot talablarini bajarish, balki respublikaning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ochiqligi va ishonchliligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xususan, Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi bitim doirasida milliy so'rovlar markazining tashkil etilishi, texnik reglamentlar va standartlar bo'yicha axborot almashinuvi mexanizmlarining yo'lga qo'yilishi hamda xabarnoma berish bo'yicha markaziy organning aniq belgilanishi O'zbekistonning savdo tartib-taomillarini oshkora va bashorat qilinadigan qilish imkonini beradi. Shuningdek, TRIPS Bitimi doirasida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik va ma'muriy amaliyot haqida JST a'zolarini xabardor qilish hamda maxsus so'rovlar punktini belgilash huquqiy aniqlik va investitsiyaviy muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, himoya choralari qo'llashda shaffoflikni ta'minlash, ularni joriy etish yoki bekor qilish to'g'risida JSTning tegishli qo'mitalariga xabar berish hamda manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazish O'zbekistonning JST doirasidagi majburiyatlariga sodiqligini namoyon etadi. Umuman olganda, shaffoflikka oid talablarning izchil amalga oshirilishi O'zbekistonning JSTga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, milliy manfaatlarini himoya qilish va barqaror tashqi savdo siyosatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. World Trade Organization. (2025, November 5). *Uzbekistan makes “steady progress” towards finalizing accession negotiations.* [https://www.wto.org/english/news\\_e/news25\\_e/acc\\_05nov25\\_193\\_e.htm](https://www.wto.org/english/news_e/news25_e/acc_05nov25_193_e.htm)
2. Министерство экономического развития Российской Федерации. (2025, 21 декабря). *РФ и Узбекистан завершили двусторонние переговоры по доступу на рынки в рамках присоединения Узбекистана к ВТО.* [https://economy.gov.ru/material/news/rf\\_i\\_uzbekistan\\_zavershili\\_dvustoronnie\\_peregovory\\_po\\_dostupu\\_na\\_rynki\\_v\\_ramkah\\_prisoedineniya\\_uzbekistana\\_k\\_vto.html](https://economy.gov.ru/material/news/rf_i_uzbekistan_zavershili_dvustoronnie_peregovory_po_dostupu_na_rynki_v_ramkah_prisoedineniya_uzbekistana_k_vto.html)
3. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/transparency>
4. United Nations Commission on International Trade Law. (2014). *UNCITRAL Rules on Transparency in Treaty-based Investor-State Arbitration.* United Nations. <https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/rules-on-transparency-e.pdf>
5. United Nations Commission on International Trade Law. (2021). *UNCITRAL Arbitration Rules (2021), UNCITRAL Expedited Arbitration Rules, and Rules on Transparency in Treaty-based Investor-State Arbitration.* United Nations. [https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/21-07996\\_expedited-arbitration-e-book.pdf](https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/21-07996_expedited-arbitration-e-book.pdf)
6. [https://www.wto.org/english/thewto\\_e/minist\\_e/min99\\_e/english/about\\_e/23glos\\_e.htm](https://www.wto.org/english/thewto_e/minist_e/min99_e/english/about_e/23glos_e.htm)
7. Wolfe, R. (2013, March). *Letting the sun shine in at the WTO: How transparency brings the trading system to life* (WTO Staff Working Paper No. ERSD-2013-03). World Trade Organization. [https://www.wto.org/english/res\\_e/reser\\_e/ersd201303\\_e.pdf](https://www.wto.org/english/res_e/reser_e/ersd201303_e.pdf)
8. Karttunen, M. B. (2020). *Transparency in the WTO SPS and TBT agreements: The real jewel in the crown.* Cambridge University Press. <https://www.cambridge.org/core/books/transparency-in-the-wto-sps-and-tbt-agreements/621983CE26C8D0C604C844EEDBF699FC>
9. World Trade Organization. (2019). *The Agreement on Customs Valuation* (Accession Seminar, 12 February 2019). World Trade Organization. [https://www.wto.org/english/thewto\\_e/acc\\_e/customs\\_valuation\\_agreement\\_accessions\\_seminar\\_12\\_february\\_2019.pdf](https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/customs_valuation_agreement_accessions_seminar_12_february_2019.pdf)
10. World Trade Organization. (2024). *Agreement on Safeguards.* World Trade Organization. [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/sg\\_e.htm](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/sg_e.htm)
11. World Trade Organization. (1995). *General Agreement on Trade in Services* (Annex 1B of the Marrakesh Agreement Establishing the World Trade Organization). World Trade Organization. [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/26-gats.pdf](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/26-gats.pdf)
12. World Trade Organization. (n.d.). *Services: Council and bodies.* World Trade Organization. [https://www.wto.org/english/tratop\\_e/serv\\_e/s\\_coun\\_e.htm](https://www.wto.org/english/tratop_e/serv_e/s_coun_e.htm)
13. European Commission. (n.d.). *General Agreement on Trade in Services (GATS).* Access2Markets. <https://trade.ec.europa.eu/access-to-markets/en/content/general-agreement-trade-services-gats> (trade.ec.europa.eu)
14. World Trade Organization. (1994). *Agreement on Technical Barriers to Trade (TBT).* World Trade Organization. [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/17-tbt.pdf](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/17-tbt.pdf)
15. World Trade Organization. (1994). *Agreement on the Application of Sanitary and Phytosanitary Measures (SPS Agreement).* World Trade Organization. [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/15-sps.pdf](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/15-sps.pdf)
16. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (n.d.). *Standards and policies.* FAO. <https://www.fao.org/in-action/standards-and-policies/en/>
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.12.2024 yildagi 816-son.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.04.2025 yildagi 246-son.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.07.2025 yildagi 463-son.
20. World Trade Organization. (1994). *Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS Agreement)*. World Trade Organization. [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/27-trips.pdf](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips.pdf)
21. World Trade Organization. (1994). *Agreement on Subsidies and Countervailing Measures (SCM Agreement)*. World Trade Organization. [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/24-scm.pdf](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/24-scm.pdf)
22. World Trade Organization. (1994). *Agreement on Safeguards*. World Trade Organization. [https://www.wto.org/english/docs\\_e/legal\\_e/25-safeg.pdf](https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/25-safeg.pdf)

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **SOME ISSUES OF COPYRIGHT PROTECTION ON THE INSTAGRAM SOCIAL NETWORK**

**Turgunboeva Mamura**

A Research Assistant at Westminster International University in Tashkent

E-mail: [mturgunboyeva@wiut.uz](mailto:mturgunboyeva@wiut.uz)

**Abstract.** The article aims to identify the major issues related to copyright protection on the social networking site Instagram. The article will also examine the issues faced by content creators and copyright owners in protecting their work in the face of the dynamic nature of sharing content on the social networking site. Furthermore, the article will analyze the copyright policies already implemented on the site and the legal issues users face with regards to copyright protection on Instagram.

**Keywords:** Instagram, copyright protection, intellectual property, social media, content sharing, copyright infringement, digital rights management.

---

## **INSTAGRAM IJTIMOYIY TARMOG'IDA MUALLIFLIK HUQUQINI HIMOYA QILISHNING AYRIM MASALALARI**

**Turg'unboeva Mamura**

Toshkentdagi Vestminster Xalqaro Universiteti ilmiy xodimi

**Annotatsiya.** Maqola Instagram ijtimoiy tarmog'ida mualliflik huquqini himoya qilish bilan bog'liq asosiy muammolarni aniqlashga qaratilgan. Maqolada, shuningdek, kontent yaratuvchilari va mualliflik huquqi egalari ijtimoiy tarmoq saytida kontent almashishning dinamik tabiati sharoitida o'z ishlarini himoya qilishda yuzaga keladigan muammolarni ko'rib chiqadi. Bundan tashqari, maqola tarmoqda e'lon qilinganda mualliflik huquqi siyosati va foydalanuvchilarning Instagramda mualliflik huquqini himoya qilish bilan bog'liq huquqiy muammolarini tahlil qiladi.

**Kalit so'zlar:** Instagram, mualliflik huquqini himoya qilish, intellektual mulk, ijtimoiy media, kontent almashish, mualliflik huquqining buzilishi, raqamli huquqlarni boshqarish.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N29>

**Introduction.** Instagram is one of the largest social media networks in the world, with millions of users sharing photos, videos, and other creative media on a daily basis. However, the large volume of media being shared every day also raises important issues of copyright protection. The fact that users may be sharing creative media without proper authorization also makes the issue of copyright infringement quite common [1]. Although Instagram has been successful in developing its own set of copyright policies, the issue of protecting copyrights still remains quite challenging. This article presents the main issues related to copyright protection on Instagram.

**Main part.** Copyright is a legal institution that expresses the property and non-property rights of a person over his creative work. Through this right, the author has the right to use, distribute, copy, perform and use his work with permission by other persons. According to the

Law of the Republic of Uzbekistan “On Copyright and Related Rights”,<sup>1</sup> copyright applies to literary, scientific, artistic works, including books, articles, music, paintings, films, software, etc. This right arises automatically as soon as the work is created and does not require its registration. However, registration helps to prove the author's rights in court. Internationally, copyright is protected by the Berne Convention 2 (1886). This convention stipulates that members of the convention must provide the same protection to works created in another country as to works created in their own country [2]. The World Trade Organization's TRIPS Agreement<sup>3</sup> (Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights) is also one of the main legal sources of copyright at the international level. Instagram, being one of the top social media platforms, has revolutionized the manner in which people create, share, and enjoy visual content. However, the strong focus of the platform on user-generated content and the ability to share content rapidly have created complex issues of copyright protection [3]. Considering the fact that the platform has millions of users across the globe, millions of images, videos, and multimedia content are shared on the platform on a daily basis, which makes the enforcement of intellectual property rights not only important but also challenging. This article will address the primary issues related to the copyright protection of the content shared on the Instagram platform. The primary issue related to the copyright protection of the content shared on the Instagram platform is the fact that the content can easily be copied or shared without permission. For instance, the platform has the feature of “Reels,” “Stories,” and the ability to share or re-share the content of other users, which can easily result in the violation of the intellectual property rights of the creators of the content. For example, the users can easily share or re-share professional images, artwork, or videos without the permission of the creators.

Although Instagram has been working to resolve copyright issues, current tools are inadequate for effective protection. Instagram uses automated tools such as the Rights Manager, which is intended to assist rights holders in managing their content. However, these tools are not effective in detecting infringement, particularly for smaller content creators who cannot afford to constantly check for infringements [4]. Moreover, false positives and the manual process of removing content cause delays and frustration, as well as the potential for rightful content to be removed, which is a reflection of the limitations of current enforcement. Another challenge is the complexity of copyright ownership and fair use on the Instagram content environment. There are many users who create content that combines copyrighted works, such as remixes, memes, or derivative videos, in which the lines are not clear. Instagram's terms of service state that users must have the necessary rights to upload content. However, it is difficult to enforce this guideline. Furthermore, differences in copyright laws across countries lead to different interpretations of what constitutes infringement or fair use, making it even more difficult for Instagram to enforce its policies globally [5].

The culture of content on the platform also encourages the disregard for intellectual property rights. This is because users on the platform focus more on engagement than the legality of the content they create and share. This also stems from the fact that many users on the platform do not know the implications of copyright when it comes to the content they share. This disregard for copyright is therefore unintentional but widespread on the platform. Instagram's efforts towards educating users on copyright rights are limited. Monetization and commercial use create a more complex situation. This is because many influencers and users

on Instagram often use copyrighted materials such as music and logos for the purpose of promoting their products. Although the platform allows users to license popular music tracks for their Reels and stories, the coverage is limited. Unauthorized commercial use exposes users to economic and legal risks [6].

Legal recourse for copyright holders often proves cumbersome. The Digital Millennium Copyright Act (DMCA) takedown process is a commonly used tool for reporting and removing infringing content, but it requires knowing each specific infringement and submitting claims manually. Given the volume of content on Instagram, this reactive approach cannot prevent all violations. Furthermore, repeat infringers sometimes exploit loopholes by creating new accounts or uploading altered versions of blocked content.

Lastly, privacy concerns and user rights must be balanced alongside copyright enforcement on Instagram. Overly aggressive content policing risks infringing on legitimate expression, limiting creativity, and provoking backlash from the user community. Instagram must carefully calibrate its policies to avoid censorship while protecting intellectual property, a challenge compounded by the platform's scale and diverse user base [7]. Copyright protection on Instagram faces multifaceted challenges stemming from rapid content sharing, technological limitations, complex legal landscapes, and user behavior. Although Instagram has taken significant steps to improve copyright enforcement, the issues of unauthorized reposting, ambiguous ownership, limited detection accuracy, and inconsistent legal remedies persist. To better safeguard creators' rights, Instagram needs to enhance automated detection, expand educational outreach, streamline enforcement processes, and foster cooperation between platform operators, rights holders, and users worldwide. Only through a balanced and evolving approach can copyright protection on Instagram keep pace with the dynamic nature of social media content creation and sharing [8].

In addition to technological and legal challenges, the influence of cultural and regional differences on the perception of copyright is a significant factor. Different countries have their own approaches to copyright, which complicates Instagram's global operations. For example, some regions are more lenient toward so-called "fair use" of content, while others have stricter standards. This creates uneven enforcement and leads to conflicts between users and copyright holders. Lack of transparency in moderation processes also remains a key factor. Users often complain about the lack of transparency in the algorithms and decisions related to content removal or account blocking. The lack of clear feedback and explanations leads to mistrust. As a result, many creators do not understand why their content was removed, which reduces the effectiveness of copyright protection and undermines the platform's reputation.

The development of artificial intelligence and machine learning technologies also plays a significant role [9]. Their implementation can significantly improve the accuracy and speed of detecting copyright infringement. However, modern algorithms are still imperfect and sometimes make mistakes, either unlawfully removing legal material or missing obvious violations. Achieving a balance requires continuous technological improvement and the involvement of human expertise in complex cases.

The popularity of the Internet and the widespread use of online platforms have made it easier to copy and distribute creative works. Many users are downloading, distributing, and sharing copyrighted materials without permission. This is especially true for creative products such as videos, music, e-books, and software. One of the most common forms of unauthorized

copying is piracy. Digital technologies are not effective in preventing piracy, as materials are copied and distributed so quickly and easily. Plagiarism, i.e., presenting someone else's creative work under your own name, has taken on new forms in the digital age. The vast libraries and resources available on the Internet make it easy to steal works. Plagiarism is widespread on blogs, websites, and social networks. In this case, authors are faced with the illegal use and distribution of their works by others. Artificial intelligence (AI) and automated content generation technologies are also posing new threats to copyright. AI-generated works, such as musical compositions, images, and videos, raise many copyright questions. It is difficult to determine whose work it is, because the work is created by a computer, not a human. This situation requires new approaches to copyright protection, in particular. Digital actors and movement in virtual worlds (metaverse) are also complicating copyright issues. Works of art and other intellectual property can be sold in digital format through NFT4 (Non-Fungible Token) technology, but many legal issues arise in determining the true owner of these digital works. In addition, the legal protection of content created in virtual environments such as the metaverse is also becoming an urgent issue. This area has not yet formed its legal framework, which in turn creates new threats. The development of digital technologies and the emergence of new threats to copyright, in turn, have necessitated the creation and implementation of modern mechanisms for protecting these rights. This section analyzes the main protection mechanisms used to protect copyright in the digital age. Digital rights management (DRM) systems are widely used to protect copyrighted content. DRM technologies impose restrictions on the distribution, copying and viewing of a work. For example, e-books, digital music albums or films are allowed to be used only under certain conditions through DRM systems. Through such systems, authors and publishers have the opportunity to protect their rights. However, the disadvantage of DRM systems is that they limit the free use of users and sometimes lead to the deterioration of the content produced [10]. Electronic digital signatures and blockchain technology are creating new opportunities for protecting copyright. An electronic digital signature verifies the original copy of a work and its date of creation, which helps prove authorship in legal disputes. Blockchain technology allows for a transparent record of digital copies and the history of works. This technology stores accurate information about the time of creation of each work, its author, and the rights to distribute it, which is an effective tool for preventing plagiarism and piracy. Automatic monitoring systems are being developed to protect copyright on social networks and digital platforms. For example, platforms such as YouTube and Instagram use algorithms and artificial intelligence to monitor content and detect illegal use. These systems allow for rapid scanning of content and blocking illegal distribution of copyrighted material. Such monitoring systems can be an effective tool for protecting copyright in the digital environment, but these systems can sometimes make incorrect determinations. Legal mechanisms and international cooperation also play a significant role in protecting copyright. Uzbekistan and other countries are parties to international agreements, including the Berne Convention and the TRIPS Agreement, which help each other protect intellectual property. Copyright can also be effectively protected by improving national legislation, cooperating with digital platforms, and conducting legal work at the international level.

Equally significant is the lack of tools for small and medium-sized businesses. Large companies often have intellectual property protection departments and can effectively use

available mechanisms, while individual authors and small brands often lack the ability to monitor violations and combat them promptly. This creates inequality in rights protection and reduces the incentive to create high-quality original content.

**Conclusion.** Copyright protection on Instagram is still an important issue, considering the fact that the social media platform is designed in such a manner that users can interact with each other in an important manner. Although the social media platform has been successful in developing its own set of policies related to copyright protection, the issue still remains quite challenging. However, improving education, developing better systems of automation, and improving cooperation between Instagram, creative artists, and authorities are important issues that can help in developing an effective system of copyright protection.

#### References/Adabiyotlar/Literatura:

1. Boshier, H., & Yeşiloğlu, S. (2019). An analysis of the fundamental tensions between copyright and social media: the legal implications of sharing images on Instagram. *International Review of Law, Computers & Technology*, 33(2), 164-186.
2. Sharipova, N. (2025). Mualliflik huquqi: raqamli texnologiyalr asrida yangi tahdid va himoya mexanizmlari. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 25-29.
3. Boshier, H. (2020). Key issues around copyright and social media: ownership, infringement and liability. *Journal of Intellectual Property Law & Practice*, 15(2), 123-133.
4. Wichtowski, R. (2016). Increasing copyright protection for social media users by expanding social media platforms' rights. *Duke L. & Tech. Rev.*, 15, 253.
5. Prauliņa, S. (2021). Copyright issues on social media.
6. Pihlaja, S. (2017). More than fifty shades of grey: Copyright on social network sites. *Applied Linguistics Review*, 8(2-3), 213-228.
7. Pihlaja, S. (2017). More than fifty shades of grey: Copyright on social network sites. *Applied Linguistics Review*, 8(2-3), 213-228.
8. Maćkowiak, J. (2024). Specific Instagram Works. *Przeegląd Prawniczy Uniwersytetu im. Adam Mickiewicza*, 16, 255-276.
9. Yuldashov, A., & Shanmuka, S. N. (2022). Raqamli muhitda mualliflik huquqi muhofazasi. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(6), 168-181.
10. Tao, E. J. (2017). A Picture's Worth: The Future of Copyright Protection of User-Generated Images on Social Media. *Indiana Journal of Global Legal Studies*, 24(2), 617-636.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **SPECIFIC FEATURES OF PROOF IN THE APPLICATION OF SECURITY MEASURES IN CRIMINAL PROCEEDINGS**

**Mamatalieva Shakhnoza Khushmamat kizi,**

Lecturer of the Department of Criminal Procedural Law  
Tashkent State University of Law  
PhD (Doctor of Philosophy in Law),

**Abstract.** This study provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of the institution of proof in criminal proceedings. It examines the content, structure, and stages of the process of proof, as well as the procedural and legal nature of activities related to the collection, securing, verification, and evaluation of evidence. Particular attention is paid to the specific features of proof at the pre-trial and trial stages and to the role of pre-investigation inquiry and preliminary investigation within the overall system of proof. The study substantiates the importance of ensuring the safety of participants in criminal proceedings as a key guarantee for the inviolability of sources of evidence, the freedom of testimony, and the reliability of evidentiary information. The findings aim to demonstrate the role of proof in ensuring lawful, well-grounded, and fair judicial decisions.

**Keywords:** proof, evidence, criminal procedure, pre-trial proceedings, preliminary investigation, inquiry, safety of participants in criminal proceedings, sources of evidence, procedural guarantees.

## **JINOYAT PROTSESSIDA XAVFSIZLIK CHORALARI QO'LLASH JARAYONIDA ISBOT QILISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

**Mamataliyeva Shahnoza Xushmamat qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi,  
y.f.f.d

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot jinoyat protsessida isbot qilish institutining nazariy va amaliy jihatlari kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda isbot qilish jarayonining mazmuni, tuzilishi va bosqichlari, shuningdek, dalillarni to'plash, mustahkamlash, tekshirish va baholash faoliyatining protsessual-huquqiy tabiatiga ilmiy yondashuv asosida baho beriladi. Ishda sudga qadar ish yuritish va sud bosqichlarida isbot qilishning o'ziga xos xususiyatlari, tergovga qadar tekshiruv hamda dastlabki tergovning isbot qilish tizimidagi o'rni yoritiladi. Shu bilan birga, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash masalasi isbot qilishning muhim kafolati sifatida asoslanib, dalil manbalarining daxlsizligi, ko'rsatmalarning erkinligi va dalillarning ishonchligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari isbot qilish jarayonining adolatli sudlovni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** isbot qilish, dalillar, jinoyat protsessi, sudga qadar ish yuritish, dastlabki tergov, surishtiruv, protsess ishtirokchilarining xavfsizligi, dalil manbalari, protsessual kafolatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N30>

Isbot qilish jarayoni, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash, ularni tekshirish hamda baholashdan iborat bo'lgan murakkab va ko'p bosqichli protsessual faoliyatdir. Ushbu faoliyat jinoyat-protsessual qonunchilik bilan qat'iy tartibga

solinadi hamda uning asosiy maqsadi ish bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilinishi uchun zarur bo'lgan haqiqatni aniqlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 86-moddasiga muvofiq, isbot qilishni bevosita surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud amalga oshiradi. Mazkur subyektlar jinoyat protsessida isbot qilish majburiyati yuklatilgan shaxslar sifatida e'tirof etiladi va ular o'z vakolatlari doirasida dalillarni yig'ish, mustahkamlash, tekshirish hamda baholash bo'yicha protsessual harakatlarni bajaradilar. Ularning har biri o'zining protsessual maqomidan kelib chiqib, jinoyat ishining holatlarini har tomonlama, to'liq va xolisona aniqlashga xizmat qiluvchi choralarni ko'rishi shart.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda bevosita "isbot qilishni amalga oshiruvchi shaxs" sifatida alohida ko'rsatib o'tilmagan bo'lsa-da, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining ham isbot qilish jarayonidagi ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Chunki aynan ushbu mansabdor shaxs jinoyat to'g'risidagi ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqish jarayonida ularning asoslanganligini baholaydi hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 333-moddasida belgilangan tartibda jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uni qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu esa, o'z navbatida, dastlabki bosqichdayoq muayyan faktik ma'lumotlarga huquqiy baho berilishini, ularning jinoyat-protsessual ahamiyatga egaligi yoki egaligiga ega emasligi aniqlanishini anglatadi.

Demak, isbot qilishni amalga oshiruvchi shaxslar dalillarni asosan tergov va sud harakatlarini o'tkazish orqali to'playdilar, ularni protsessual tartibda mustahkamlaydilar, so'ngra to'plangan dalillarni har tomonlama, to'liq va xolisona tekshiradilar hamda ularning har biriga alohida-alohida va jami bo'yicha baho beradilar. Aynan shu faoliyat natijasida ish bo'yicha qaysi holatlar isbotlangan, qaysilari esa isbotlanmaganligi aniqlanadi va yakuniy protsessual qaror qabul qilish uchun zarur huquqiy asos vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 320<sup>1</sup>-moddasida ishni sudga qadar yuritish bosqichi jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar qabul qilingan paytdan boshlanishi hamda tergovga qadar tekshiruvni va jinoyat ishini tergov qilishni o'z ichiga olishi belgilangan. Mazkur norma sudga qadar yuritish bosqichining jinoyat protsessidagi mustaqil va muhim ahamiyatga ega bo'lgan bosqich ekanligini, shuningdek, aynan shu bosqichda isbot qilish jarayonining poydevori qo'yilishini yaqqol ko'rsatadi.

Tergovga qadar tekshiruv jinoyat ishini sudga qadar yuritish shakllaridan biri ekanligi JPK 320<sup>1</sup>-moddasidan bizga ma'lum. Shuningdek, bu qanday bosqich ekanligiga JPK 320<sup>2</sup>-moddasida ta'rif berilgan, unga ko'ra tergovga qadar tekshiruv jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirish, ularni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat izlarini, narsalarni, hujjatlarni va elektron ma'lumotlarni mustahkamlash va saqlashga doir choralarni o'z ichiga oladi[1].

Tergovga qadar tekshiruv jinoyat ishini sudga qadar yuritishning mustaqil va muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 320<sup>1</sup>-moddasi mazmunidan bevosita kelib chiqadi. Mazkur norma sudga qadar ish yuritish bosqichi jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar qabul qilingan paytdan boshlanishini hamda u tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishini tergov qilish bosqichlarini o'z ichiga olishini belgilab beradi. Shunday qilib, qonun chiqaruvchi tergovga qadar tekshiruvni

jinoyat protsessining alohida, mustaqil va mantiqan zarur bo'lgan bosqichi sifatida e'tirof etadi. Bu bosqichning ajratilishi, avvalo, jinoyat protsessining asosiy vazifalari – jinoyatlarni tez va to'liq fosh etish, aybdor shaxslarni aniqlash va ularni qonunga muvofiq javobgarlikka tortish, aybsiz shaxslarni esa asossiz javobgarlikdan himoya qilish – bilan chambarchas bog'liqdir.

Tergovga qadar tekshiruvning protsessual ahamiyati shundan iboratki, aynan shu bosqichda jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish masalasi hal etiladi. Boshqacha aytganda, bu bosqich jinoyat-huquqiy munosabatlarning rasmiy ravishda vujudga kelishiga "kirish darvozasi" vazifasini bajaradi. Agar tergovga qadar tekshiruv natijasida jinoyat alomatlari mavjudligi aniqlansa, jinoyat ishi qo'zg'atiladi va ish yuritish keyingi – dastlabki tergov bosqichiga o'tadi. Aksincha, agar taqdim etilgan ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotlarda jinoyat alomatlari aniqlanmasa yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo'lsa, jinoyat ishini qo'zg'atish rad etiladi. Shu ma'noda, tergovga qadar tekshiruv bosqichi shaxsni asossiz ravishda jinoyat protsessiga tortishdan himoya qiluvchi muhim protsessual kafolat sifatida ham namoyon bo'ladi.

Tergovga qadar tekshiruvning huquqiy mazmuni va uning doirasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 320<sup>2</sup>-moddasida aniq belgilab berilgan. Ushbu normaga muvofiq, tergovga qadar tekshiruv jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirish, ularni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlar majmuasini, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat izlarini, narsalarni, hujjatlarni va elektron ma'lumotlarni mustahkamlash hamda saqlashga doir choralarni o'z ichiga oladi. Demak, qonunchilik tergovga qadar tekshiruvni faqatgina "ma'lumotni ko'rib chiqish" bilan cheklab qo'ymaydi, balki uni faol protsessual faoliyat shakli sifatida belgilaydi.

Tergovga qadar tekshiruv yakuniga ko'ra, jinoyat-protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda, vakolatli mansabdor shaxs tomonidan quyidagi protsessual qarorlardan biri qabul qilinadi.

Birinchi, jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qaror qabul qilinishi mumkin. Bu qaror tergovga qadar tekshiruv jarayonida to'plangan materiallar jinoyat alomatlari mavjudligini ko'rsatsa, ya'ni sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibi belgilari aniqlansa qabul qilinadi. Jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qaror jinoyat protsessining keyingi — dastlabki tergov bosqichiga o'tish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan shu paytdan boshlab shaxs jinoyat protsessining to'laqonli ishtirokchisiga aylanishi, protsessual majburiyatlar va huquqlarning yuzaga kelishi, shuningdek, isbot qilish faoliyatining to'liq hajmda amalga oshirilishi boshlanadi.

Ikkinchi, tergovga qadar tekshiruv natijalariga ko'ra jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish haqida qaror qabul qilinishi mumkin. Bunday qaror, odatda, taqdim etilgan ariza, xabar yoki boshqa ma'lumotlarda jinoyat alomatlari mavjud bo'lmaganda, yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo'lganda chiqariladi. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qaror shaxsni asossiz ravishda jinoyat protsessiga tortishdan himoya qiluvchi muhim protsessual kafolat hisoblanadi. Bu qaror orqali davlat organlari jinoyat alomatlari mavjud bo'lmagan holatlar bo'yicha ortiqcha va noqonuniy tergov harakatlarini olib borishdan tiyiladi, fuqarolarning huquq va erkinliklari esa asossiz cheklanishdan saqlanadi.

Uchinchi, tergovga qadar tekshiruv yakunida ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqida qaror qabul qilinishi mumkin. Bu holatda aniqlangan

materiallar mazkur ishni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan boshqa organ yoki mansabdor shaxsga yuboriladi. Bunday qaror, odatda, ishning hududiy, predmet yoki shaxsiy yurisdiksiya masalalari bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni, ariza yoki xabarni qabul qilgan organ ushbu masala uning vakolat doirasiga kirmasligini aniqlagan taqdirda, materiallarni tegishli organga yuborish orqali protsessual qonuniylik va vakolatlarning to'g'ri taqsimlanishini ta'minlaydi.

“O'zbekiston Respublikasining JPKga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida” gi 2017-yil 6-sentyabrda qabul qilingan “Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” qonuni asosida jinoyat protsessida tergovga qadar tekshiruv bosqichiga kiritilib, tushuntirishlar, tadqiqotlar uchun namunalar olish, hujjatlar va obyektlarni talab qilish, ularni JPKda belgilangan tartibda olib qo'yish, sud ekspertizasini tayinlash, uni ishlab chiqarishda ishtirok etish va ekspert xulosasini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga jiddiy o'zgarishlar kiritildi. Oqilona vaqt ichida, voqea joylari, hujjatlar, buyumlar, jasadlarni tekshirish, hujjatli tekshiruvlar, jasadlarni tadqiq qilishni talab qilish, ushbu harakatlarda ishtirok etish uchun mutaxassislarni jalb qilish, surishtiruv organiga tezkor-qidiruv ishlarini olib borish bo'yicha majburiy yozma ko'rsatma berish tartibi protsessual tartibga solindi.

Jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichlaridan bir bo'lgan jinoyat ishini tergov qilish bosqichiga va ushbu bosqichda protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashda isbot qilishning o'ziga xos jihatlari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. JPK 320<sup>3</sup> – moddasiga ko'ra, jinoyat ishini tergov qilish surishtiruv yoki dastlabki tergov shaklida amalga oshiriladi.

Dastlabki tergov ushbu Kodeksning 345-moddasi ikkinchi — sakkizinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyat ishlari bo'yicha, shuningdek ushbu moddaning to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollarda o'tkaziladi. Surishtiruv esa ushbu Kodeksning 381<sup>2</sup>-moddasi birinchi — uchinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyat ishlari bo'yicha o'tkaziladi.

Demak, qonunchilikning o'zi tergov shaklini jinoyat ishining kategoriyasi, murakkabligi va protsessual ehtiyojlari bilan bog'lab belgilaydi, bu esa isbot qilish jarayonining qamrovi va uslubiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

P.V.Ilinning fikricha, Rossiyada ishni sudga qadar ko'rish bosqichida jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlash kafolatlari hali ham dolzarbdir, chunki har yili faqatgina o'ta og'ir jinoyatlarni tergov qilish doirasida 10 millionga yaqin kishi jabrlanuvchi va guvoh sifatida jinoyat ishlarida ishtirok etadi, biroq guvohlar, jabrlanuvchilar va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish dasturlari esa bor-yo'g'i 10 ming kishini himoya qilishga mo'ljallagan[2]. Mazkur nisbatning o'ziyoq himoya mexanizmlarining real ehtiyojlarga mutlaqo mos kelmasligini, ularning amaldagi ko'lamini jinoyat protsessida ishtirok etayotgan shaxslar soniga nisbatan nihoyatda cheklanganligini yaqqol namoyon etadi. Agar ushbu ko'rsatkichlarni faqat o'ta og'ir jinoyatlar doirasi bilan cheklab qo'ymasdan, balki jinoyat protsessining barcha toifalari, shu jumladan uncha og'ir bo'lmagan va o'rtacha og'irlikdagi jinoyatlar bo'yicha ish yuritish jarayonlarida ishtirok etayotgan shaxslarni ham inobatga olgan holda tahlil qiladigan bo'lsak, himoya dasturlarining real imkoniyatlari yanada past ekani ayon bo'ladi. Chunki jinoyat protsessida faqat jabrlanuvchi va guvohlar emas, balki fuqaroviy da'vogarlar, fuqaroviy javobgarlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislar va boshqa ko'plab shaxslar ham ishtirok etadi hamda ularning har biri muayyan holatlarda tahdid, bosim yoki noqonuniy ta'sir obyekti bo'lishi mumkin.

Ayni paytda, dastlabki tergov va surishtiruv davrida jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi alohida dolzarb tus oladi. Sababi, isbot qilishning asosiy qismi – dalillarni to‘plash, ularni mustahkamlash, tekshirish hamda dastlabki baholash aynan shu bosqichda amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda olingan ko‘rsatmalar va boshqa daliliy axborotlar keyinchalik butun ish bo‘yicha ayblov konstruksiyasi, himoya pozitsiyasi, protsessual qarorlar hamda sud hukmining asosini tashkil etadi. Demak, ishtirokchilarga nisbatan tahdid mavjud bo‘lgan sharoitda shakllangan dalillar, ayniqsa shaxsiy dalillar (guvoh ko‘rsatuvi, jabrlanuvchi ko‘rsatuvi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi izohi va h.k.) – o‘zining tabiiy “erkinlik” belgilaridan mahrum bo‘lishi, ya’ni tashqi ta’sir ostida o‘zgarishi, buzilishi yoki umuman taqdim etilmasligi ehtimoli ortadi. Natijada, jinoyat ishining to‘liq, har tomonlama va xolisona tergov qilinishi, isbotlash predmetiga kiruvchi holatlarning haqqoniy aniqlanishi hamda adolatli qaror qabul qilinishi xavf ostida qoladi.

Shu bois, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash dastlabki tergov va surishtiruv bosqichida isbot qilishning “tashkiliy-protsessual kafolati” sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday kafolatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, isbot qilish jarayonida eng zarur bo‘lgan holatlar: ko‘rsatmalarning barqarorligi, dalillarning ishonchliligi, dalillar manbalarining daxlsizligi va protsessual mustaqillik – zaiflashadi. Xususan, tahdid ostidagi guvoh ko‘rsatma bermaslikni tanlashi, jabrlanuvchi jinoyatni to‘liq bayon qilmasligi, xolislar protsessual harakat qonuniy o‘tganini tasdiqlashdan tiyilishi, tarjimonlar tarjimaga ongli yoki ongsiz ta’sir kiritishi, ekspert yoki mutaxassislar xulosaning mazmunini “yumshatishi” yoki aksincha “og‘irlashtirishi” ehtimoli paydo bo‘ladi. Bu esa isbot qilishning asosiy maqsadi bo‘lgan haqiqatni aniqlashga (protsessual haqiqat) bevosita putur yetkazadi.

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qator protsessual mexanizmlar nazarda tutilgan bo‘lib, ular bevosita isbot qilish jarayoniga xizmat qiladi. Ularning ayrimlari protsessual harakatlarni o‘tkazish shaklini o‘zgartirish, ayrimlari esa dalillar manbalarining shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish orqali xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan.

Birinchiidan, JPKning 91<sup>2</sup>-moddasi tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish asoslarini belgilaydi. Mazkur norma doirasida, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash zarurati tug‘ilgan hollarda videokonferensaloqadan foydalanish mumkinligi mustahkamlangan. Bu mexanizmning protsessual ahamiyati shundaki, u guvoh, jabrlanuvchi yoki boshqa ishtirokchining shaxsan tergov organi binosiga kelishiga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi, shuningdek ularning real joylashuvi va harakatlanish yo‘nalishlari haqida uchinchi shaxslar tomonidan ma’lumot to‘planish ehtimolini pasaytiradi. Videokonferensaloqa rejimi texnik jihatdan himoyalangan kanal orqali tashkil etilishi, masalan, VPN kabi himoya vositalaridan foydalanish orqali aloqa xavfsizligi kuchaytirilishi amalda ishtirokchilarning joylashuvini, aloqa marshruti va identifikatsiya belgilarini noxolis shaxslar tomonidan aniqlab olinishi xavfini kamaytiradi. Natijada, ko‘rsatma beruvchi shaxs o‘zini nisbatan xavfsiz his qiladi va bu ko‘rsatmalarning erkin, to‘liq hamda ixtiyoriy berilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchiidan, JPK 127-moddasida shaxsni tanib olish uchun ko‘rsatishning iloji bo‘lmaganda yoxud xavfsizlikni ta’minlash maqsadida uning fotosuratidan foydalanish mumkinligi nazarda tutilgan. Ushbu norma bir tomondan tanib olish tergov harakatining umumiy maqsadini (shaxsni identifikatsiya qilish) saqlab qolgan holda, ikkinchi tomondan, real

hayotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Chunki ayrim holatlarda tanib olish uchun ko'rsatishda shaxsning bevosita yuzma-yuz ko'rsatilishi, ayniqsa tahdid manbai bo'lgan shaxslar yoki ularning aloqador doiralari mavjud bo'lganda, guvoh yoki jabrlanuvchining keyingi xavfsizligiga bevosita putur yetkazishi mumkin. Fotosurat orqali tanib olish esa ko'rsatma beruvchi shaxsning bevosita ko'rish maydoniga olib kelinadigan real shaxs bilan yuzma-yuz kontaktdan himoya qiladi, ya'ni "identifikatsiya" vazifasini minimal xavf sharoitida bajarish imkonini yaratadi. Shuningdek, bu usul ishtirokchilarning tashqi qiyofasi, joylashgan joyi yoki harakatlanish tartibi bo'yicha ularni tanib olish ehtimolini ham cheklaydi.

Uchinchidan, JPK 375-moddasida jinoyat ishi tamomlangandan keyin ish materiallari bilan tanishib chiqish huquqini ta'minlashga doir norma belgilangan. Mazkur norma doirasida, jabrlanuvchilar, guvohlar, xolislar va protsessning boshqa ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash maqsadida ayrim hujjatlarning, xususan tergov harakatlari bayonnomasining kirish qismlari tanishib chiqish uchun taqdim qilinmasligi mumkinligi ko'rsatiladi. Ushbu mexanizmning protsessual funksiyasi shundan iboratki, u ishtirokchilarning shaxsiga doir ma'lumotlarning oshkor bo'lishini cheklaydi. Ma'lumki, tergov harakati bayonnomasining kirish qismida odatda ishtirokchilarning familiyasi, ismi, sharifi, yashash manzili, tug'ilgan yili, ish joyi, hujjat rekvizitlari, aloqador ma'lumotlar kabi shaxsni identifikatsiya qiluvchi elementlar bo'ladi. Aynan ushbu ma'lumotlarning oshkor etilishi xavf manbai bo'lgan shaxslar uchun guvoh yoki jabrlanuvchini topish, kuzatish, bosim o'tkazish yoki o'ch olish kabi noqonuniy harakatlarni amalga oshirishni osonlashtiradi. Shu sababli, kirish qismni cheklash mexanizmi shaxsiy ma'lumotlarni "protsessual sir" sifatida muhofaza qilishga qaratilgan.

Mazkur tartibda ishtirokchilarga doir identifikatsion ma'lumotlar muhrlangan holda saqlanishi qayd etiladi. Bu, bir tomondan, ishtirokchilarning xavfsizligini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, protsessual hujjatlarning to'liqligi va tekshiruvchanligini (verifikatsiya) ham yo'qotmaydi, chunki ma'lumotlar butunlay yo'q qilinmaydi, balki muhrlangan tartibda saqlanadi va qonuniy zarurat bo'lganda tegishli tartibda ochilishi mumkin bo'ladi. Demak, bu mexanizm "ochiqlik" va "xavfsizlik" o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan protsessual instrument sifatida baholanishi mumkin.

To'rtinchidan, surishtiruv doirasida ham yuqoridagi kabi tartibda shaxslarning ma'lumotlari muhrlangan holda saqlanishi va sir tutilishi JPK 381<sup>13</sup>-moddasida belgilab qo'yilgan. Bu esa jinoyat ishini tergov qilishning surishtiruv shaklida ham ishtirokchilarning identifikatsion ma'lumotlari himoyasiz qolib ketmasligini, aksincha, protsessning turli shakllari bo'yicha yagona himoya yondashuvlari mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa surishtiruvning tezkorlik xususiyati inobatga olinsa, unda ishtirokchilarni himoya qilish choralari qo'llash masalasi ham yanada tezkor va aniq hal etilishi lozim bo'ladi, chunki tezkor tartibda ko'plab protsessual harakatlar qisqa muddatlarda bajariladi va bu vaqt oralig'ida ishtirokchilar tahdidlarga nisbatan yanada "ochiq" holatda qolishi mumkin.

JPK 380-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan qoida jinoyat protsessida shaxsiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan muhim protsessual kafolatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur norma mohiyatan shuni anglatadiki, jabrlanuvchi, guvoh, xolis hamda protsessning boshqa ishtirokchilari real va asosli tahdid sharoitida qolgan holatlarda, ularni sud bosqichiga olib chiqishning o'zi "xavf omili"ga aylanib qolmasligi kerak. Chunki amaliyotda ko'p uchraydigan holat shundan iboratki, jinoyat ishining sudga o'tishi bilan protsessual materiallar

doirasi kengayadi, ish bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladigan shaxslar soni ham ortadi, bundan tashqari sud muhokamasining o'ziga xos ochiqlik elementlari (ishtirokchilar harakati, chaqiriladigan shaxslar ro'yxati, sud majlisi vaqti va joyi, sud binosi atrofidagi kuzatuv imkoniyatlari) ayrim hollarda guvoh yoki jabrlanuvchi uchun qo'shimcha xatar tug'dirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, JPK 380-moddasi 3-qismi "sudga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslar ro'yxati" kabi tashkiliy hujjatning o'zini ham xavfsizlikka moslashtirish imkonini beradi: ya'ni ro'yxatda shaxslarning haqiqiy identifikatsion ma'lumotlari (familiya, ism, yashash manzili va sh.k.) o'rniga ularning taxalluslari ko'rsatilishi mumkin.

Taxallus instituti bu yerda shunchaki "ismni o'zgartirish" emas, balki dalil manbaining daxlsizligini va ko'rsatma erkinligini ta'minlashga xizmat qiladigan himoya mexanizmidir. Chunki guvoh yoki jabrlanuvchining real shaxsi oshkor bo'lib qolsa, unga nisbatan qo'rqitish, bosim o'tkazish, shantaj qilish, yaqin qarindoshlariga tahdid qilish, mulkiga zarar yetkazish, ish joyi yoki ijtimoiy obro'siga putur yetkazish kabi noqonuniy ta'sirlar kuchayishi ehtimoli ortadi. Bunday sharoitda esa isbot qilish jarayonining "ichki tayanchi" bo'lgan shaxsiy dalillar, xususan ko'rsatmalar, to'liq va xolis shakllanmasligi, ko'rsatmalar o'zgarishi yoki ko'rsatma berishdan butunlay bosh tortish holatlari yuzaga kelishi mumkin. Demak, JPK 380-moddasi 3-qismida ko'zda tutilgan taxallusdan foydalanish imkoniyati – adolatli sudlov manfaatlarini ham, shaxsning fundamental huquqi bo'lgan xavfsizlik manfaatini ham muvozanatlashtiruvchi protsessual vositadir.

Normaning ikkinchi muhim jihati shundaki, xavfsizligi ta'minlanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar haqidagi "haqiqiy" ma'lumotlar ish materiallarida umuman yo'qolib ketmaydi va protsessual nazoratdan tashqarida qolmaydi; aksincha, ular qat'iy tartibda muhrlangan holda sudga taqdim etiladi. Bu yerda "muhrlangan holda" degan ibora tasodifiy yoki texnik ta'rif emas, balki protsessual rejimni bildiradi: ya'ni ma'lumotlar alohida himoyalangan shaklda saqlanadi, ularga erkin kirish yo'li yopiladi, foydalanish subyektlari esa qat'iy doiraga kiritiladi. Amaliy mazmunda bu shuni anglatadiki, shaxsga doir ma'lumotlar ochiq aylanishdagi ish jildida odatdagidek ko'rinib turmaydi; balki u maxsus tartib asosida ajratilgan, muhrlangan, daxlsizligi ta'minlangan ko'rinishda sudga yetkaziladi. Bunday yondashuv bir tomondan ishtirokchini "ko'rinmas" qilish orqali himoya qilsa, ikkinchi tomondan protsessual qonuniylik talabini ham buzmaydi: ya'ni sud dalil manbai real shaxs ekanini, u haqiqatan mavjudligini, u muayyan protsessual harakatlarda qatnashganini va uning maqomi qonuniy ekanini tekshirishi mumkin bo'ladi.

Aynan shu nuqtada JPK 380-moddasi 3-qismi juda nozik muvozanatni ushlab turadi: bir tomonda – oshkoralik va taraflarning teng huquqliligi tamoyillaridan kelib chiqadigan manfaatlar, ikkinchi tomonda – hayot, sog'liq, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik kabi ustuvor qadriyatlar bilan bog'liq xavfsizlik manfaati turadi. Protsessning mutlaq ochiqligi ba'zi ishlar uchun adolatga xizmat qilishi mumkin bo'lsa-da, ayrim holatlarda aynan ochiqlikning o'zi adolatga to'siq bo'lib qolishi ehtimoli mavjud: masalan, guvohlar "fosh bo'lish"dan qo'rqib ko'rsatma bermasa, jabrlanuvchi tahdid tufayli pozitsiyasini o'zgartirsa, xolislar yoki mutaxassislar bosim ostida qolsa – ishning haqqoniy ko'rinishi sudga yetib kelmasligi mumkin. Demak, mazkur norma "ishning haqiqati"ni himoya qiladigan, ya'ni dalil manbaini saqlab qoladigan va uni sud muhokamasiga olib kirish imkonini yaratadigan kafolat sifatida ham ko'riladi.

Muhrlangan ma'lumotlar aynan qaysi hujjatlar bilan bog'lanishi ham normada bevosita ko'rsatilgan: ular ishtirokida o'tkazilgan tergov harakatlari bayonnomalarining kirish qismlari bilan birga muhrlanadi. Bu juda amaliy yechim, chunki tergov harakatlari bayonnomasining kirish qismi odatda shaxsni identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlarga eng boy bo'lim hisoblanadi: shaxsning F.I.Sh., tug'ilgan yili, yashash manzili, ish joyi, hujjat rekvizitlari va boshqa shaxsga doir tafsilotlar ko'pincha aynan shu qismda qayd etiladi. Agar xavfsizlik nuqtai nazaridan himoya zarur bo'lsa, aynan shu kirish qismni "ajratish" va muhrlash shaxsning topib olinishi, kuzatilishi, bosimga uchrashi kabi xavflarni keskin kamaytiradi. Shu bilan birga, bayonnomaning mazmuniy qismi – ya'ni tergov harakatining borishi, savol-javoblar, harakat natijalari, protsessual qaydlar – ish uchun daliliy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy qism sifatida saqlanadi va sud baholashi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yo'qolib ketmaydi. Boshqacha aytganda, shaxsni yashirish dalilni "yo'q qilish" degani emas; aksincha, dalilni himoyalangan shaklda sudga olib chiqishdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasi aynan shu turdagi qilmishlarga qarshi qaratilgan bo'lib, u isbot qilish jarayonining erkinligi va mustaqilligini, shuningdek dalil manbalarining daxlsizligini himoya qilishga xizmat qiladi. Mazkur moddaning mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, qonun chiqaruvchi isbot qilish jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning — guvoh, jabrlanuvchi, ekspert va tarjimonning — faqatgina protsessual maqomini emas, balki ularning erkin irodasini, vijdoniy pozitsiyasini va haqiqatni bayon etish huquqini ham alohida muhofaza qilish zarurligini e'tirof etgan.

Xususan, JK 238-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, surishtiruv olib borish, dastlabki tergov yoki ishni sudda ko'rish chog'ida guvohni yoki jabrlanuvchini yolg'on ko'rsatma berishga, ekspertni yolg'on xulosa berishga yoxud tarjimonni noto'g'ri tarjima qilishga og'dirib olish, shu jumladan pora berish yo'li bilan yoki ularga yoxud ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan ruhiy, psixologik, jismoniy ta'sir ko'rsatish orqali bunday harakatlarni sodir etishga majbur qilish jinoyat deb e'tirof etiladi. Qonunchilikda "boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatish" iborasining qo'llanishi ham mazkur qilmishlarning faqat ochiq zo'rvonlik yoki pora bilan cheklanmasdan, balki shantaj, obro'sizlantirish bilan qo'rqitish, xizmat mavqeyidan foydalanib bosim o'tkazish, yaqinlariga zarar yetkazish bilan tahdid qilish kabi yashirin va murakkab shakllarini ham qamrab olishini ko'rsatadi.

Bu norma, avvalo, isbot qilish jarayonining asosiy tayanchi bo'lgan dalillarning ishonchliligini saqlashga xizmat qiladi. Chunki guvoh, jabrlanuvchi, ekspert yoki tarjimonning ko'rsatmasi va xulosasi tahdid yoki majburlash ostida shakllangan bo'lsa, bunday dalilning haqqoniyligi jiddiy shubha ostida qoladi. Natijada, ish bo'yicha chiqariladigan qaror ham asossiz, adolatsiz yoki bir tomonlama bo'lishi mumkin. Shu sababli, JK 238-moddasi orqali davlat nafaqat alohida shaxslarning huquq va manfaatlarini, balki umuman olganda, odil sudlovning normal faoliyatini, sud va tergov faoliyatining mustaqilligini ham himoya qilmoqda, deb aytish mumkin.

Bundan tashqari, jinoyat qonunchiligida isbot qilishni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning – ya'ni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyaning – qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish uchun ham alohida javobgarlik belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 236-moddasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning ishni adolatli, xolis va qonuniy hal qilishga qaratilgan faoliyatiga qarshilik ko'rsatish yoki unga aralashish holatlarini jinoyat sifatida baholaydi. Bu norma bilan qonunchi

tergov va sud hokimiyatining mustaqilligini, ularning tashqi bosimdan holi faoliyat yuritishini hamda odil sudlovning erkin amalga oshirilishini kafolatlashga intilgan.

Mazkur ikki norma – JK 236 va 238-moddalari – o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular bir tomondan isbot qilish jarayonida dalil manbalari bo‘lgan shaxslarni himoya qilsa, ikkinchi tomondan isbot qilishni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillarining faoliyatini noqonuniy aralashuvlardan muhofaza qiladi. Shu tariqa, jinoyat qonunchiligi isbot qilish jarayonining barcha asosiy “bo‘g‘inlari”ni – ya‘ni dalil beruvchi shaxslar, dalilni to‘plovchi va baholovchi mansabdor shaxslar hamda sudlovni amalga oshiruvchi sud hokimiyatini – kompleks tarzda himoya qilishga qaratilgan tizimni shakllantiradi.

Isbot qilish jarayonining mantiqiy va huquqiy yakuni sud tomonidan qabul qilinadigan qaror bilan bog‘liq ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan sud bosqichida jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta‘minlash masalasi alohida va ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki sud muhokamasi jarayoni isbot qilish faoliyatining yakunlovchi bosqichi bo‘lib, aynan shu yerda to‘plangan, tekshirilgan va baholangan dalillarga huquqiy baho beriladi hamda shaxsning aybdorligi yoki aybsizligi masalasi hal etiladi. Demak, sud bosqichida protsess ishtirokchilariga nisbatan bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday bosim, tahdid yoki noqonuniy ta‘sir nafaqat alohida shaxslarning huquqlarini buzadi, balki butun odil sudlov tizimining adolatli ishlashiga putur yetkazishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 137-moddasida sud muhokamasining oshkoraligi konstitutsiyaviy prinsip sifatida mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, unda “Hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi”[3], deb belgilangan. Ushbu norma sud hokimiyatining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlashga, jamiyatda sudga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga hamda sud faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini berishga qaratilgan. Shu bilan birga, qonunchi mutlaq oshkoralik hamma hollarda ham adolatli va xavfsiz sudlovni ta‘minlay olmasligini inobatga olib, muayyan istisnolarni ham nazarda tutgan.

Mazkur konstitutsiyaviy qoida jinoyat-protsessual qonunchilikda ham o‘zining mantiqiy davomiga ega. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 397-moddasi birinchi qismi yettinchi bandiga muvofiq, sudya jinoyat ishini sudda ko‘rish uchun tayinlash to‘g‘risidagi ajrimida ishning ochiq yoki yopiq sud majlisida ko‘rilishini belgilashi shart. Bu esa sudyaga har bir aniq ishning xususiyatlarini, undagi ishtirokchilarning holatini, xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojni hamda oshkoralik prinsipining qanchalik darajada qo‘llanishi mumkinligini baholash imkonini beradi.

Sudya mazkur masalani hal etishda jinoyat protsessining asosiy prinsiplaridan biri bo‘lgan sud muhokamasining oshkoraligi prinsipiga tayanadi. Ushbu prinsip JPKning 19-moddasida batafsil yoritilgan bo‘lib, unga ko‘ra, barcha sudlarda jinoyat ishlari, qoida tariqasida, ochiq ko‘riladi. Biroq qonunchilikda bu qoidadan istisnolar ham nazarda tutilgan. Jumladan, davlat sirlarini qo‘riqlash manfaatlariga zid keladigan holatlarda, shuningdek jinsiy jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar ko‘rilayotganda sud muhokamasini yopiq tarzda o‘tkazishga yo‘l qo‘yiladi. Bu istisnolar, avvalo, davlat xavfsizligi, jamiyat axloqi va shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligini himoya qilishga qaratilgan.

Eng muhimi, JPK 19-moddasida sud muhokamasini yopiq o‘tkazishga yo‘l qo‘yiladigan asoslar qatorida jabrlanuvchining, guvohning yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, shuningdek ularning oila a‘zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta‘minlash zarurati

ham alohida ko'rsatib o'tilgan. Bu norma sud bosqichida jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash masalasi qanchalik muhim ekanligini yaqqol namoyon etadi. Chunki ayrim hollarda oshkoralik prinsipi bilan shaxslarning hayoti, sog'lig'i va erkinligi o'rtasida muayyan kolliziya yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda qonunchilik ustuvorlikni insonning xavfsizligi va asosiy huquqlarini himoya qilishga beradi.

Shu tariqa, sud bosqichida jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash masalasi oshkoralik prinsipini mutlaq rad etish emas, balki uni adolatli sudlov, inson huquqlari va shaxsiy xavfsizlik talablariga muvofiq holda muvozanatlashtirish zaruratidan kelib chiqadi. Sudya aynan shu muvozanatni ta'minlash orqali, bir tomondan, sud hokimiyatining ochiqligi va shaffofligini saqlab qoladi, ikkinchi tomondan esa, isbot qilish jarayonida ishtirok etayotgan shaxslarning hayoti, sog'lig'i, erkinligi hamda qonuniy manfaatlarini real va samarali himoya qilish imkonini yaratadi. Natijada, sud muhokamasining shakli (ochiq yoki yopiq) masalasi bevosita isbot qilish jarayonining adolatli, xolis va xavfsiz tarzda yakunlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim protsessual kafolatlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

A.Sh.Umarxonovning fikricha, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining tegishli normalarida protsessga jalb qilingan shaxslarning himoyasini ta'minlash mexanizmi emas, balki faqat protsessual choralar (ishni yopiq sud majlisida ko'rib chiqish, telefon so'zlashuvlarini eshitib turish, ismi sharifi va familiyasi o'rniga taxallusdan foydalanish va h.k.) qayd etilganligi, odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslarning xavfsizligiga tajovuz qilish hollariga qarshi kurashni tartibga soluvchi normalar mukammal emasligi, ushbu normalarni qo'llash orqali guvoh, jabrlanuvchi, ekspertni hamda protsessning boshqa ishtirokchilarini amalda himoya qilib bo'lmasligi e'tirof etiladi[4]. Olimning fikricha, ushbu choralar, o'z-o'zicha, odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslarning — xususan, guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar hamda protsessning boshqa ishtirokchilarining xavfsizligini to'liq va kafolatli ta'minlash uchun yetarli emas. Chunki protsessual choralar ko'proq sud yoki tergov jarayonining tashkiliy jihatlarini tartibga solishga qaratilgan bo'lib, ular shaxsning real hayotdagi xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarni bartaraf etish, ularni jismoniy, ruhiy yoki mulkiy tajovuzlardan himoya qilish masalasini kompleks tarzda hal eta olmaydi.

Shuningdek, A.Sh. Umarxonov odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslarning xavfsizligiga tajovuz qilish holatlariga qarshi kurashni tartibga soluvchi normalar ham yetarli darajada mukammal emasligini alohida qayd etadi. Amaldagi huquqiy tartibga solish tizimi, asosan, protsessual shakllar doirasida cheklangan bo'lib, guvoh, jabrlanuvchi, ekspert yoki boshqa ishtirokchilarga nisbatan real tahdid yuzaga kelgan holatlarda ularni himoya qilishning aniq, tizimli va samarali mexanizmlarini to'liq qamrab olmaydi. Natijada, ushbu normalarni amaliyotda qo'llash orqali ham ko'pincha mazkur shaxslarni haqiqiy xavf-xatarlardan ishonchli tarzda himoya qilish imkoni mavjud emasligi kuzatiladi.

Boshqacha aytganda, qonunchilikda mavjud protsessual choralar ko'proq tashqi shakliy kafolatlar sifatida namoyon bo'lib, ular xavfsizlikni ta'minlashning institutsional va kompleks tizimini shakllantirish darajasiga yetmagan. Shu bois, A.Sh. Umarxonovning xulosasiga ko'ra, guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar hamda jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini amalda himoya qilish masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda va bu yo'nalishda jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish, xavfsizlikni ta'minlashning mustaqil va samarali mexanizmlarini yaratish zarurati mavjud.

Bundan tashqari, ayrim vaziyatlarda protsess ishtirokchisi tahdid mavjudligini anglagan bo'lsa-da, uni yetarli darajada jiddiy baholamasligi, yoxud bu holatni vaqtinchalik, o'tkinchi deb hisoblab, rasmiy ravishda himoya choralari qo'llashni talab qilmasligi ham mumkin. Holbuki, bunday yondashuv keyinchalik yanada og'ir oqibatlariga, xususan, shaxsga nisbatan bosim kuchayishiga, uning ko'rsatmalarini o'zgartirishga majbur bo'lishiga yoki umuman protsessda ishtirok etishdan bosh tortishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

Shu sababli, jinoyat protsessida ishtirok etayotgan shaxslarga nisbatan tahdidlar doimiy va dinamik xavf omili sifatida baholanishi lozim. Ular faqat muayyan bir bosqich bilan cheklanib qolmaydi, balki ish yuritishning istalgan pallalarida — tergovga qadar tekshiruvdan tortib, dastlabki tergov, sud muhokamasi va hatto hukm chiqarilgandan keyingi bosqichlargacha — yuzaga kelishi mumkin. Bu esa jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash choralari faqat bir martalik yoki epizodik tadbir sifatida emas, balki butun protsess davomida uzluksiz va tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan kompleks huquqiy mexanizm sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi.

Isbot qilishning sud bosqichida jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan tahdid, bosim yoki boshqa noqonuniy ta'sirlar mavjud bo'lgani aniqlansa va aynan shu omillar ta'sirida aslida aybi bo'lmagan shaxs ayblanib, jinoyatni haqiqatda sodir etgan shaxs esa javobgarlikdan chetda qolgan bo'lsa, bunday holatlar Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan maxsus protsessual mexanizmlar orqali bartaraf etilishi mumkin. Xususan, agar bunday holatlar sud muhokamasi davomida aniqlansa, ishni hal etish JPKning 415<sup>1</sup>-moddasida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu norma sudga ish bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlar noto'g'ri baholangan yoki dalillar buzib ko'rsatilgan taqdirda adolatni tiklash imkonini beruvchi protsessual kafolat sifatida xizmat qiladi.

Shu bois, jinoyat protsessida adolatni ta'minlashning muhim sharti sifatida, har qanday bosqichda tahdidlar haqida xabar berish, tegishli xavfsizlik choralari talab qilish va protsessual himoya mexanizmlaridan foydalanish zarur. Faqat shundagina isbot qilish jarayoni haqiqiy, xolis va adolatli kechishi, oxir-oqibat esa haqiqiy aybdor shaxs fosh etilishi va aybi bo'lmagan shaxslarning huquqlari to'liq tiklanishi mumkin bo'ladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://www.lex.uz/docs/-111460#-255306>
2. Ильин П. В. Общий порядок обеспечения прав потерпевшего в досудебном производстве: реалии и пути совершенствования // Российский следователь. – 2014. – № 12. – С. 5–10.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. Умархонов.А.Ш. Одил судловга кўмаклашувчи шахсларнинг хавфсизлигини таъминлашга қаратилган ҳуқуқий чораларни такомиллаштириш муаммолари: Юрид. фанлари номзоди ....дисс. автореферати. –Т.: ИИБ Академияси, 2004. –Б.3-9.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF THE SOCIAL SPHERE**

**Shokirova-Inomjonova Mashkhurakhon Gayratjon kizi**

Lecturer of the Department of Theory of State and Law  
Tashkent State University of Law

E-mail: [mashhurainomjonova2002@gmail.com](mailto:mashhurainomjonova2002@gmail.com)

**Abstract.** This article presents an analysis of the theoretical and legal foundations of the concept of the social sphere, including the role of the principle of social justice in the social sphere. In addition, a general conclusion was reached in defining the concept of the social sphere, summarizing the definitions put forward by scientists.

**Keywords:** social sphere, social state, principle of social justice, social function, society, social relations, social model of the state, social protection.

---

## **IJTIMOY SOHA TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI**

**Shokirova-Inomjonova Mashhuraxon G'ayratjon qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy soha tushunchasining nazariy va huquqiy asoslari tahlili bayon qilingan bo'lib, jumladan ijtimoiy sohada ijtimoiy adolat tamoyilining o'zini haqida so'z boradi. Bundan tashqari, ijtimoiy soha tushunchasiga olimlarning ilgari surgan ta'riflari umumlashtirilgan holda mazkur tushunchaga ta'rif berishda umumiy xulosaga kelingan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy soha, ijtimoiy davlat, ijtimoiy adolat prinsipi, ijtimoiy funktsiya, jamiyat, ijtimoiy munosabat, davlatning ijtimoiy modeli, ijtimoiy himoya.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N31>

**Kirish.** Ijtimoiy soha tushunchasini tahlil qilishdan avval "ijtimoiy" so'zining mohiyatini anglab olish maqsadga muvofiq. Ijtimoiy so'zining lug'aviy ma'nosi jamiyatga taalluqli, jamiyat bilan bog'liq ya'ni jamoat, odamlarning jamiyatdagi munosabatlari bilan bog'liq degan ma'nolarni anglatadi.[1] Ijtimoiy soha tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, ijtimoiy soha o'z ichiga ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, turizm, sport, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy xizmat ko'rsatish kabilarni mujassamlashtirgan davlat uchun muhim strategik maqsadlarga erishishda tayanch bo'ladigan sohalar yig'indisi hisoblanadi. Ijtimoiy soha deganda jamiyatning ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat kabi farovonlik uchun zarur bo'lgan insonlarning o'zaro munosabatlari, ya'ni iqtisodiy bo'lmagan faoliyatlariga qaratilgan sohasi tushuniladi. U iqtisodiy yoki siyosiy sohalardan o'zining jamoa ehtiyojlarini foydadan ustun qo'yishi bilan ajralib turadi.[2]

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy soha natijasida taqdim etilayotgan ne'matlar nafaqat ushbu ne'matlardan foydalanayotgan shaxslar va ularning jamoalari uchun, balki jamiyatning

manfaatlariga ham bevosita xizmat qiladi deyish mumkin. Misol sifatida sog' liqni saqlash sohasini oladigan bo'lsak, muayyan yuqumli kasalliklarni oldini olish va kasallikka chalingan shaxslarni davolash aholi orasida kasallanish darajasini kamaytiradi. Buning natijasida kasallikning tarqalishini kamaytirish va oldini olishga erishish mumkin. Madaniy sohaga to'xtaladigan bo'lsak, madaniy sohaga davlatning qo'llab quvvatlovi natijasida an'ana va qadriyatlarning ommalashishiga, jamiyat a'zolarining birlashuviga va davlatning xalqaro maydonda tanilishiga erishish mumkin.

Ijtimoiy sohaning har bir tarmog'i davlat va jamiyat a'zolari tomonidan doimiy ravishda baholanib boradi. Masalan, tibbiy yordam olish va ta'lim olish kabi sohalarda amalga oshirilayotgan vazifalar ijtimoiy adolat prinsipi doirasida baholab boriladi.

**Metodologiya.** Ijtimoiy soha tushunchasining nazariy-huquqiy tahlili yuridik fan metodologiyasi asosida amalga oshirildi. Buning uchun umum-huquqiy metod hisoblangan dialektik metoddan ham, tizimli tahlil va sintez kabi maxsus yuridik metodlardan ham foydalanildi. Ushbu yondashuv davlat ijtimoiy sohasini shakllanish tendensiyalari va mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini baholash imkonini berdi.

**Tahlil.** Turli usullarning kombinatsiyasi davlatning ijtimoiy funksiyalari, huquqiy me'yorlar va ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tushunishga imkon beradi, bu esa ijtimoiy jarayonlarni samarali boshqarish va fuqarolarning farovonligini ta'minlash uchun muhimdir.

Ijtimoiy soha masalasiga konstitutsiyaviy darajada belgilab qo'yilganligi, uning davlat va jamiyat hayotida sezilarli ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligini mustahkamlab qo'yish orqali davlat o'zining ijtimoiy funksiyasini huquqiy jihatdan belgilab olgan deyish mumkin.

Demak, ijtimoiy sohaga nazariy ta'rif beradigan bo'lsak, ijtimoiy soha – bu fuqarolarning munosib va farovon turmush tarziga ega bo'lishi, ularning ijtimoiy himoyasi, sog'lig'i, ta'lim va madaniy sohada yuzaga keladigan muhim ijtimoiy munosabatlar majmui hisoblanadi. Nazariy-huquqiy jihatdan u davlatning ichki funksiyasi hisoblangan ijtimoiy funksiyasini amalga oshirar ekan, bu orqali inson huquqlarini ta'minlash, aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, insonlarga munosib turmush tarzini yaratish, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash va madaniyatni rivojlantirish kabi funksiyalarni bajaradi.[3] Davlatning ijtimoiy funksiyasi qonunga asoslangan holda maksimal ijtimoiy adolatga erishish maqsadida davlat organlari, aholi, fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Davlat, shuningdek, barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish orqali xalq farovonligini ta'minlashga intiladi. Bunga sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat va boshqa sohalarda davlat siyosatini amalga oshirish orqali erishiladi.

Ijtimoiy soha tushunchasini nazariy-huquqiy tahlil qilish orqali quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

Birinchiidan, ijtimoiy sohaning nazariy huquqiy asoslari bevosita ijtimoiy davlat konsepsiyasiga borib taqaladi. Mazkur ta'limotga ko'ra davlatning asosiy vazifasi faqat tartibni saqlash emas, balki jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, barcha uchun munosib turmush sharoitini yaratishga ko'maklashish va ehtiyojmand aholi qatlamlarini zarur

darajada qo'llab-quvvatlashdir. Bu yo'nalishlarni amalga oshirishda ijtimoiy adolat prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. O.Kutafin ta'kidlaganidek, "Ijtimoiy davlatning bosh vazifasi huquq bilan mustahkamlangan ijtimoiy adolat, birdamlik va o'zaro mas'uliyat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy rivojlanishga erishishdir. Ijtimoiy davlat zaiflarga yordam berishga, har bir kishiga munosib turmush kechirishni ta'minlash uchun ijtimoiy adolat tamoyilidan kelib chiqqan holda iqtisodiy ne'matlarni taqsimlashga ta'sir ko'rsatishga da'vat etilgan" .[4]

Biroq, davlatning ijtimoiy modeli ijtimoiy ne'matlarni qayta taqsimlash fuqaroning o'z kelajagi va keyingi avlodlar kelajagi uchun mas'uliyatini hisobga olmasdan amalga oshiriladi. Shu sababli, bugungi kunda ijtimoiy adolatga erishish maqsadida davlat tomonidan taqdim etilishi mumkin bo'lgan kafolatlar darajasini hisobga olgan holda, o'zining kelajakdagi farovonligi haqida qayg'uradigan shaxs va jamiyatni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy adolat faqatgina aholining muhtoj qatlami foydasiga ne'matlarni qayta taqsimlash bilan cheklanib, ma'lum darajada ijtimoiy soha yoki inson ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari sohasi tartibga solingandagina mavjud bo'ladi, degan fikr keng tarqalgan. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1997-yildagi Polsha Konstitutsiyasida, Polsha – ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshiruvchi davlat hisoblanishi belgilab qo'yilgan. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 14-moddasida ham davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshirishi belgilab qo'yilgan.[5]

Ikkinchidan, ijtimoiy sohada ijtimoiy adolat prinsipining mavjud bo'lishi tatbiq etilayotgan choralarning maqsadga muvofiqligi va mazkur yuzaga kelgan oqibatlarining adolatli bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy adolat prinsipining mavjudligi ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohot va chora-tadbirlarning muvozanatda saqlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy sohani amalga oshirishda ijtimoiy adolat prinsipining ahamiyati quyidagilarda o'z aksini topadi deyish mumkin:

- jamiyatda tenglikning barqarorlashuvi;
- mavjud resurslarning adolatli taqsimlanishi;
- ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslarning manfaatlari birlamchi ahamiyatga ega ekanligi.

Su o'rinda amerikalik olim J.Roulzning fikrlari e'tiborga molik. U o'zining "Adolat nazariyasi" nomli asarida ijtimoiy adolat har bir insonga teng imkoniyatlar taqdim etish va ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamlarining holatini yaxshilashga xizmat qilishi kerakligi xususida so'z yuritgan. [6]

Ma'lumki, ijtimoiy soha fuqarolarning qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan ijtimoiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, mazkur turdagi munosabatlar ijtimoiy ta'minot huquqi, mehnat huquqi, konstitutsiyaviy huquq va boshqa huquq sohalari bilan tartibga solinadi.

**Xulosa.** Davlat aholining barcha qatlamlari uchun qulay ijtimoiy muhitni shakllantirishga ko'maklashishi, har bir inson rivojlanish va o'zini namoyon etish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishi muhimdir. Raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi odamlar hayotini o'zgartirdi, intellektual muammolarni hal qilishga qodir matematik model — neyron tarmoq o'rnini bosishi mumkin bo'lgan ba'zi kasblar yo'qolib ketish xavfi ostida. K.M. Karnauxovanning yozishicha, "Yaqin 10-15 yil ichida mehnatga layoqatli fuqarolarning

katta qismi moddiy ishlab chiqarish sohasidan chiqib ketishi kutilmoqda. Davlatlar oldida mutlaqo yangi ijtimoiy vazifalar turibdi, falsafiy nazariyalar bozorida esa ularning yechimini taklif etuvchi konsepsiyalar umuman mavjud emas” [7]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy soha huquq ustun bo‘lgan davlatda jamiyat farovonligini ta‘minlash va har xil guruhlar o‘rtasida ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish orqali barqaror ijtimoiy muhit yaratuvchi faoliyat majmuidir.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. <https://izoh.uz/word/ijtimoiy>
2. G.Q. Abduraxmanova, X.X. Abduramanov. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti // akademik Q.X.Abdaraxmanov tahriri ostida. - T.: «Fan va texnologiya», 2018, 11 bet.
3. Sh.A. Saydullayev Davlat va huquq nazariyasi: darslik. - Toshkent: TDYU, 2021. - 60 bet.
4. Кутафин О. Е. Избранные труды : в 7 т. Т. 7: Российский конституционализм : монография. М. : Проспект, 2021. С. 345
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
6. John Rawls, “Justice as Fairness: Political not Metaphysical” Philosophy and Public Affairs 14 (Summer 1985): pp 223–51.
7. Корнаухова К.М. Социальная функция Российской Федерации / К.М. Корнаухова // Международный журнал прикладных наук и технологий «Integral». 2019. № 3. С. 68.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **TYPES, FORMS AND CURRENT STATUS OF PROVIDING INFORMATION FOR THE ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS BODIES RELATED TO PUBLIC SECURITY**

**Turayeva Dildora Iskandarovna,**  
employee of the Navoi regional Department of Internal Affairs

**Abstract.** This article presents the information and analysis used by the Internal Affairs bodies of the Republic of Uzbekistan to ensure public safety and the safety of citizens, as well as practical problems related to this area. Also, the appeals registered through the electronic program "E-material" on the example of Navoi region are analyzed.

**Keywords:** public safety, information sharing, electronic software, crime prevention, data, analytics, digital technologies.

## **ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGIGA OID FAOLIYATINI AXBOROTLAR BILAN TA'MINLASHNING TURLARI, SHAKLLARI VA BUGUNGI KUNDAGI HOLATI**

**Turayeva Dildora Iskandarovna,**  
Navoiy viloyati IIB xodimi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta'minlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda qo'llanilayotgan axborotlar va ularning tahlili, ushbu soha bilan bog'liq amaliyotdagi muammolar ko'rsatilgan. Shuningdek, Navoiy viloyati misolida "Ye-material" elektron dasturi orqali qayd etilgan murojaatlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** jamoat xavfsizligini ta'minlash, axborot almashish, elektron dastur, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ma'lumotlar, tahlil, raqamli texnologiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N32>

**Kirish.** Jamoat xavfsizligini ta'minlash ichki ishlar organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib [1], u tezkor qaror qabul qilish, xavflarni barvaqt aniqlash va profilaktik choralarni manzilli tashkil etishni talab qiladi. Raqamli muhit kengayib borayotgan hozirgi sharoitda huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar turli kanallar orqali kelib tushmoqda: elektron murojaatlar, avtomatlashtirilgan qaydlar, video va audio dalillar, idoralararo bazalar. Bu holat axborot bilan ishlashni xizmat faoliyatining yordamchi qismi emas, balki boshqaruv qarorlarini shakllantiruvchi asosiy resursga aylantirmoqda.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda politsiya faoliyati samaradorligi ma'lumotlar bilan ishlash madaniyati va tahliliy imkoniyatlar bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi. Xususan, D. Bayley politsiya tizimining kelajagi axborotni yig'ish va undan oqilona foydalanish qobiliyati bilan belgilanishini qayd etadi [2]. P. Manning esa axborot texnologiyalari va tahliliy vositalar qaror qabul qilish jarayonini ratsionallashtirishini asoslaydi [3]. Ma'lumotlarga asoslangan

boshqaruv (data-driven policing) konsepsiyasida axborot xavfni prognoz qilish va profilaktik rejalashtirish instrumenti sifatida talqin qilinadi [4].

O'zbekiston Respublikasida ham jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, amaliyot tahlili axborot oqimlarining hajmi ortishi bilan birga ularni integratsiya qilish, sifatini ta'minlash va tahliliy qayta ishlash masalalari hali to'liq yechim topmaganini ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — ichki ishlar organlari faoliyatida axborot manbalari va axborot shakllarini ilmiy asosda tasniflash, ularni verifikatsiya darajasi va qayta ishlash bosqichlari bo'yicha tizimlashtirish hamda Navoiy viloyati misolida elektron murojaatlar oqimining amaliy holatini baholashdan iborat.

IIO faoliyatida axborot ta'minoti masalalari mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda turli yo'nalishlarda yoritilgan. Mahalliy olimlar jamoat xavfsizligi va axborot boshqaruvi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. M.Z. Ziyadullayev axborotning ishonchliligi va o'z vaqtida qayta ishlanishi xizmat samaradorligining hal qiluvchi omili ekanini ko'rsatadi [5]. Sh. Rahmonov raqamli axborot tizimlari orqali ma'lumotlarni tezkor yig'ish va tahlil qilish profilaktika imkoniyatlarini kengaytirishini qayd etadi [6].

Shu bilan birga, axborot manbalari va shakllarining o'zaro bog'liqligi hamda ularning hududiy amaliyotga ta'siri masalasi kompleks tarzda yetarlicha yoritilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ichki ishlar organlari faoliyatida axborot ta'minoti tizimini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot metodologiyasi ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini ta'minlash maqsadida shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

— **tahliliy usul**, ichki ishlar organlarida axborot manbalari va shakllarining mazmunini o'rganishda;

— **qiyosiy-huquqiy usul**, milliy qonunchilik va xorijiy yondashuvlarni solishtirishda;

— **statistik usul**, jinoyatchilikka oid ma'lumotlar, xabarlar va murojaatlar dinamikasini baholashda;

— **empirik usul**, Navoiy viloyati ichki ishlar organlari faoliyati misolida amaliy ma'lumotlarni tahlil qilishda (Ushbu ma'lumotlar "Ye-material" axborot tizimidan 2025-yil 1-dekabr holati bo'yicha shakllantirilgan eksport ma'lumotlari asosida tahlil qilindi).

### ***Ichki ishlar organlari faoliyatida axborot manbalari***

Ichki ishlar organlari faoliyati jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ushbu vazifalarni samarali bajarish turli xil axborot manbalariga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Axborot manbalari ichki ishlar organlarining strategik va operativ qarorlar qabul qilish jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalarda xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, axborot manbalari tizimli va ishonchli bo'lgan taqdirdagina politsiya faoliyati samaradorligi ta'minlanadi [7]. Shu bois ichki ishlar organlari faoliyati davomida kelib tushadigan axborot manbalarini ilmiy asosda tasniflash muhim ahamiyatga ega.

#### ***1. Rasmiy-huquqiy axborot manbalari.***

Ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asosini tashkil etuvchi axborot manbalariga Qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Ichki ishlar vazirligi

buyruq va yo'riqnomalari kiradi. Ushbu manbalar ichki ishlar organlarining vazifalari, vakolatlari va xizmat yo'nalishlarini belgilab beradi.

M.Z. Ziyadullayevning ta'kidlashicha, huquqiy axborot manbalari ichki ishlar organlari faoliyatida barqarorlik va qonuniylikni ta'minlovchi asosiy mezon hisoblanadi [8]. Bu turdagi axborotlar normativ xarakterga ega bo'lib, xizmat faoliyatini tashkil etishda majburiy ahamiyat kasb etadi.

### *2. Operativ-qidiruv axborot manbalari.*

Operativ-qidiruv axborotlari ichki ishlar organlari faoliyatida eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlar jinoyatlarni oldini olish, fosh etish va tezkor choralar ko'rish maqsadida yig'iladi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda operativ axborotning dinamik va yuqori darajada maxfiy xususiyatga ega ekanligi qayd etiladi [9]. Shuningdek, ushbu manbalarning ishonchligi ichki ishlar organlarining favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

### *3. Statistik va ma'muriy axborot manbalari.*

Statistik va ma'muriy axborotlar ichki ishlar organlari faoliyatini rejalashtirish, tahlil qilish va baholash uchun muhim hisoblanadi. Yillik, oylik va kunlik hisobotlar, jinoyatchilik dinamikasiga oid ma'lumotlar xizmat faoliyatidagi umumiy tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Clarke va Eck tadqiqotlariga ko'ra, statistik axborot asosida tahliliy qarorlar qabul qilish jinoyatchilik profilaktikasining samaradorligini oshiradi [10].

### *4. Jamoatchilikdan kelib tushadigan axborot manbalari.*

Jamoatchilikdan kelib tushadigan axborotlar ichki ishlar organlari bilan aholi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning muhim elementi hisoblanadi. 102 raqami orqali fuqarolar tomonidan yo'llangan murojaatlar, mahalla fuqarolar yig'inidan kelgan ma'lumotlar, ishonch telefonlari va elektron murojaatlar ushbu manbaga kiradi.

Ilmiy tadqiqotlarda jamoatchilik axborotlari voqeaga yaqinligi bilan ajralib turishi, biroq ularni tekshirish va verifikatsiya qilish zarurati mavjudligi ta'kidlanadi [11].

### *5. Texnik vositalar orqali olinadigan axborot manbalari.*

Zamonaviy raqamlashtirish davrida texnik vositalar orqali olinadigan axborotlar ichki ishlar organlari faoliyatida muhim o'rin tutadi. Videokuzatuv kameralari, fotofiksatsiya vositalari, avtomatik raqam tanish tizimlari va biometrik texnologiyalar jinoyatchilikka qarshi kurashda ishonchli manba hisoblanadi.

Manning ta'kidlashicha, texnik axborot inson omilini kamaytirish orqali ma'lumotlarning obyektivligini ta'minlaydi [12].

### *6. Idoralararo axborot almashinuvi manbalari.*

Ichki ishlar organlarining samarali faoliyati boshqa davlat organlari bilan axborot almashinuviga bog'liq. Prokuratura, sud, soliq, migratsiya va boshqa hamkor idoralar bilan elektron integratsiya qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

UNODC ma'lumotlariga ko'ra, idoralararo axborot almashinuvi jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi [13].

### ***Ichki ishlar organlarida axborot shakllari va ularning ilmiy tasnifi***

Ichki ishlar organlari faoliyati axborotlarga tayangan holda amalga oshiriladigan kompleks tizim hisoblanadi. Axborot manbalari bilan bir qatorda, ushbu axborotlarning qay tarzda kelib tushishi, qayd etilishi va qayta ishlanishi, ya'ni axborot shakllari ham xizmat

samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda axborot shakli uning kelib tushish usuli, qayd etilish mexanizmi va qayta ishlanish darajasiga ko'ra belgilanishi ta'kidlanadi [14].

Axborot shakllarini ilmiy asosda tasniflash ichki ishlar organlarida axborotlarni tizimlashtirish, uning ishonchliligi va tezkorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga egaligini aytib o'tishimiz joiz. Shu nuqtai nazardan, amalda qo'llanilayotgan axborot shakllarini quyidagicha guruhlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### 1. *Yozma shakldagi axborotlar.*

Yozma axborot ichki ishlar organlari faoliyatida eng an'anaviy va rasmiy shakl hisoblanadi. U fuqarolarning yozma ariza va shikoyatlari, yuridik shaxslar hamda yuqori turuvchi organlardan kelib tushgan taqdimnomalar, xizmat raportlari, tergov va surishtiruv hujjatlari, ma'muriy bayonnomalar va turli hisobotlarni o'z ichiga oladi.

Yozma axborotning asosiy ustunligi uning huquqiy kuchga egaligi, faktlarni rasman qayd etish va hujjat aylanishining shaffofligini ta'minlash imkoniyatidir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, yozma axborot huquqiy baholash jarayonida asosiy dalil sifatida xizmat qiladi [15]. Shu bilan birga, ushbu shakldagi ma'lumotlarni yig'ish va rasmiylashtirish vaqtining nisbatan ko'p talab etilishi bilan ham tavsiflanadi.

#### 2. *Og'zaki shakldagi axborotlar.*

Og'zaki axborot ichki ishlar organlariga tezkor tarzda yetib keladigan ma'lumotlardan hisoblanadi. 102 raqami orqali kelib tushgan qo'ng'iroqlar, fuqarolar tomonidan berilgan og'zaki xabarlar, mahalla fuqarolar yig'ini va jamoat tuzilmalari vakillarining bildirishlari ushbu shaklga kiradi.

P. Manning ta'kidlaganidek, og'zaki ma'lumotlar subyektiv bo'lishi mumkin va ularni ishonchli dalilga aylantirish uchun albatta yozma shaklda rasmiylashtirish talab etiladi [16]. Shu bois ichki ishlar organlari amaliyotida og'zaki axborot keyinchalik yozma shaklda qayd etiladi.

#### 3. *Elektron shakldagi axborotlar.*

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ichki ishlar organlarida axborot shakllarining yangi turini — elektron axborotni shakllantirdi. Elektron axborot fuqarolarning virtual qabulxonalar orqali yuborgan murojaatlari, avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalari, idoralararo elektron almashinuv tizimlari va "Ye-material" kabi platformalar orqali kelib tushadi.

Eijkman va Van Duijn ta'kidlashicha, elektron axborot yuqori tezkorlik va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyati bilan ajralib turadi [17]. Shuningdek, elektron axborot inson omilini kamaytirib, ma'lumotlarning aniqligini oshiradi.

#### 4. *Vizual shakldagi axborotlar.*

Vizual axborot ichki ishlar organlari faoliyatida obyektiv ma'lumot manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga videokuzatuv kameralari orqali olingan tasvirlar, fotosuratlar, dronlar yordamida qayd etilgan materiallar, jinoyat joyida olingan vizual ashyoviy dalillar kiradi.

Ilmiy tadqiqotlarda vizual axborotning ustunligi voqealarni aniq va xolis aks ettirishida ekanligi qayd etiladi [18]. Shuningdek, sud-tergov amaliyotida ham muhim dalil sifatida xizmat qiladi.

#### 5. *Audio shakldagi axborotlar.*

Audio shaklidagi axborotlar asosan 102 xizmatiga tushgan qo'ng'iroqlarning yozuvlari, guvoh va jabrlanuvchilarning diktofonga yozilgan bayonotlari, operativ kuzatuv vositalari orqali qayd etilgan ovoz ma'lumotlaridan iborat.

Ilmiy manbalarga ko'ra, audio axborot voqea rivojini tiklash va shaxslarni identifikatsiya qilishda qo'shimcha dalil sifatida xizmat qiladi [19]. Biroq, uni ishonchli dalilga aylantirish uchun ekspertiza talab etiladi.

#### *6. Texnik-asbobiy shakldagi axborotlar.*

Texnik vositalar orqali olinadigan axborotlar radarlar, foto- va videofiksatsiya qurilmalari, avtomatik raqam tanish tizimlari, biometrik identifikatsiya texnologiyalari yordamida shakllanadi. Ushbu axborot shakli yuqori aniqlik va obyektivlik bilan ajralib turadi.

Manning ta'kidlaganidek, texnik-asbobiy axborot jinoyatchilikka qarshi kurashda inson omilini minimallashtiradi [20].

#### *7. Analitik qayta ishlangan axborotlar.*

Axborot shakllarining eng yuqori bosqichi tahliliy qayta ishlangan axborotlar hisoblanadi. Ular statistik ma'lumotlar, jinoyatchilik xaritalari, idoralararo taqqoslama tahlillar asosida shakllantiriladi.

UNODC ma'lumotlariga ko'ra, analitik axborot xavfsizlik sohasida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishning asosiy vositasi hisoblanadi [21]. Shu sababli, Ichki ishlar organlarida faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida analitik salohiyatni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

### ***Amaliy tahlil: Navoiy viloyati Ichki ishlar organlari faoliyatida axborot ta'minoti holati***

Ichki ishlar organlarida axborot ta'minotining amaliy holatini baholash maqsadida Navoiy viloyati misolida axborot tizimlari orqali kelib tushayotgan murojaatlar tahlili o'tkazildi. Hududiy darajada axborot oqimlarining hajmi, ularni qayta ishlash samaradorligi va qabul qilinayotgan qarorlarga ta'siri jamoat xavfsizligini ta'minlash amaliyotini baholash imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, hududiy axborot tahlili huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirishda muhim empirik asos hisoblanadi [22]. Shu nuqtai nazardan, Navoiy viloyati ichki ishlar organlari faoliyatida axborot ta'minoti holatini o'rganish ilmiy ahamiyatga ega.

#### ***“Ye-material” axborot tizimi orqali kelib tushgan murojaatlar tahlili:***

Ma'lumki, fuqarolarning ariza va xabarlarini qabul qilish, ro'yxatga olish va ko'rib chiqishda “Ye-material” elektron axborot tizimi asosiy platforma hisoblanadi. Ushbu tizim orqali kelib tushayotgan murojaatlar jamoat xavfsizligini ta'minlashda aholining faol ishtirokini aks ettiradi.

“Ye-material” axborot tizimi eksporti ma'lumotlariga ko'ra (01.12.2025-yil holatida), yil boshidan Respublika bo'yicha jami **2 999 532 ta** murojaat qayd etilgan. Shundan **116 984 tasi Navoiy viloyati hissasiga to'g'ri kelib**, ushbu ko'rsatkich bilan Navoiy viloyati Respublika miqyosida 13-o'rinni, hamda murojaatlarni hal etish natijalarini kiritish ko'rsatkichi **114 747 tani** tashkil etib, ijro foizi **98,09 %** bo'lgani Navoiy viloyatini Respublika bo'yicha 6-o'rinni egallashga imkon bergan.

Ushbu raqamlar ichki ishlar organlarida axborotni qayta ishlash mexanizmi nisbatan samarali ishlayotganini ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, murojaatlarni yuqori

ijro ko'rsatkichi bilan hal etish jamoatchilik ishonchi va profilaktika samaradorligini oshiradi [23].

*Navoiy viloyatida 1 kun davomida kelib tushgan murojaatlar dinamikasi:*

01.12.2025-yil sanasida Navoiy viloyati bo'yicha "Ye-material" tizimida **319 ta murojaat** qayd etilgan. Ular hududlar kesimida quyidagicha taqsimlangan:

- Navoiy shahar IIB — 103 ta;
- Karmana tumani IIB — 56 ta;
- Xatirchi tumani IIB — 43 ta;
- Qiziltepa tumani IIB — 27 ta;
- Navbahor tumani IIB — 19 ta;
- Zarafshon shahar IIB — 17 ta;
- Konimex tumani IIB — 14 ta;
- Navoiy viloyati IIB — 10 ta;
- Nurota tumani IIB — 9 ta;
- Uchquduq tumani IIB — 9 ta;
- Navoiy KMK IIB — 7 ta;
- G'azg'on shahar IIB — 4 ta;
- Tomdi tumani IIB — 1 ta.

Mazkur taqsimotdan ko'rinib turibdiki, murojaatlar asosan aholi zich joylashgan hududlar hissasiga to'g'ri keladi.

*Amaliy ma'lumotlarning ilmiy tahlili.*

Navoiy viloyati misolidagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, axborot tizimlari orqali kelib tushayotgan murojaatlar ichki ishlar organlari faoliyatida qaror qabul qilish uchun muhim empirik asos vazifasini bajaradi. "Ye-material" tizimi orqali kelib tushgan ma'lumotlar:

- huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash;
- profilaktik tadbirlarni rejalashtirish;
- xizmat kuch va vositalarini manzilli taqsimlash;
- jamoatchilik bilan muloqotni kuchaytirish kabi vazifalarni samarali amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

***Ichki ishlar organlarida axborot tizimlari va mavjud kamchiliklarning ilmiy tahlili.***

Zamonaviy jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi raqamli axborot platformalari va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalariga tayangan holda faoliyat yuritmoqda. Ichki ishlar organlarida axborot tizimlarining joriy etilishi xizmat faoliyatining tezkorligi, shaffofligi va tahliliy imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Biroq ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, axborot tizimlarining mavjudligi o'ziga xos maqsad emas, balki ulardan samarali foydalanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [24].

***IIO faoliyatida qo'llanilayotgan asosiy axborot tizimlari.***

Navoiy viloyati ichki ishlar organlarida xizmat faoliyatini ta'minlash maqsadida turli yo'nalishlar bo'yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanilmoqda. Ushbu tizimlar sohalar kesimida quyidagicha guruhlanadi.

*Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasida*

- "Pasport-viza" avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- KAIS "Pasport-viza" (V.5.0.0.3);
- "E-mehmon" elektron dasturi;

- Xorijga chiqish pasportlarini rasmiylashtirish dasturlari;
- Prezident, Bosh vazir va IIV virtual qabulxonalari;
- “Output Messenger” elektron hujjat aylanish tizimi.

Ushbu tizimlar aholining migratsiya harakatlarini nazorat qilish, shaxslarni identifikatsiya qilish va davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladi.

*Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash sohasida.*

- Jinoiy-huquqiy statistika axborot tizimi;
- SOS va GPS STM;
- “Ye-jamoat xavfsizligi xizmati” hisobot bazasi;
- doc.iiv.uz — yagona himoyalangan elektron hujjat aylanish tizimi;
- “Ye-patrul”, “PPS KPI”;
- “GPS AVTO” transport monitoring tizimi;
- “Ye-IIV litsenziya”;
- “Ye-kinologiya”;
- “Ye-VSX”.

Mazkur tizimlar patrul-post xizmati faoliyatini nazorat qilish, xizmat intizomini ta'minlash va hududiy xavfsizlikni monitoring qilishda muhim o'rin tutadi.

*Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida:*

- “Ye-ijtimoiy profilaktika”;
- “Ye-hushyorxona”;
- “Ye-himoya”;
- “Ye-ijtimoiy vaziyat”;
- “Ye-muhokama”;
- “Ye-prof hisob”;
- “Ye-voyaga yetmagan”;
- “Ye-ma'muriy ish”;
- “Ye-material”;
- “Ye-mahalla”;
- “Ye-huquqtartibot”.

Ushbu axborot tizimlari profilaktika ishlarini rejalashtirish, ijtimoiy xavfli holatlarni aniqlash va fuqarolar murojaatlari bilan ishlashda empirik ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

*Boshqa sohalar:*

- Probatsiya sohasida: “E-probatsiya”;
- Tergov va surishtiruvda: elektron jinoiy-huquqiy statistika, elektron tergov bazalari;
- Kadrlar sohasida: “kb.iiv.uz”, “E-kadr.iiv.uz”, “E-guvohnoma”;
- Moliya sohasida: “E-moliya”.

***Axborot tizimlaridan foydalanishdagi asosiy kamchiliklar.***

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud axborot tizimlariga qaramasdan, ichki ishlar organlarida axborot ta'minoti sohasida qator tizimli kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

1. *Axborot tizimlarining yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi.*

Axborot tizimlari o'rtasida yagona platforma mavjud emasligi ma'lumotlarni takroriy kiritishga va vaqt yo'qotilishiga olib kelmoqda. Ilmiy adabiyotlarda integratsiyalashmagan axborot muhiti qaror qabul qilish samaradorligini pasaytirishi ta'kidlanadi [25].

*2. Axborot sifatining to'liq ta'minlanmaganligi.*

Ayrim hollarda ma'lumotlar eskirgan, to'liq emas yoki tekshirilmagan holda qolmoqda. Bu esa tahlil jarayonida noto'g'ri xulosalar chiqarilishi xavfini oshiradi.

*3. Analitik salohiyatning yetarli emasligi.*

Axborot yig'ishga e'tibor kuchli bo'lsa-da, uni chuqur tahlil qilish, prognozlash imkoniyatlari cheklangan. Clarke va Eck ta'kidlaganidek, tahlilsiz ma'lumot profilaktika uchun yetarli samara bermaydi [26].

*4. Raqamli infratuzilmaning hududiy nomutanosibli.*

Ayrim tumanlarda texnik vositalar va internet infratuzilmasi yetarli emas, bu axborot tizimlaridan foydalanish samaradorligini pasaytiradi.

*5. Axborot xavfsizligi yetarlicha ta'minlanmaganligi.*

Axborotga kirish huquqlarining aniq tartibga solinmaganligi maxfiy ma'lumotlar bilan ishlashda xavflarni keltirib chiqaradi [27].

***Ichki ishlar organlarida axborot ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar.***

Ichki ishlar organlari faoliyatida axborot ta'minoti tizimini takomillashtirish jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar va Navoiy viloyati misolidagi amaliy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud axborot tizimlarini yanada rivojlantirish va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, axborot ta'minoti tizimi faqat texnik infratuzilma bilan cheklanmasdan, tashkiliy, huquqiy va kadrlar omillarini ham qamrab olishi lozim [28]. Shu nuqtai nazardan, quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

*1. Axborot tizimlarini yagona integratsiyalashgan platformaga birlashtirish.*

Ichki ishlar organlarida mavjud alohida axborot tizimlarini yagona integratsiyalashgan platforma asosida birlashtirish maqsadga muvofiq. Bu orqali ma'lumotlarni takroriy kiritish bartaraf etiladi, inson omili ta'siri kamayadi va qaror qabul qilish jarayoni tezlashadi.

Ilmiy tadqiqotlarda integratsiyalashgan axborot muhiti jinoyatchilikka qarshi kurashda institutsional samaradorlikni oshirishini ko'rsatadi [29]. Ushbu yondashuv idoralararo axborot almashinuvini ham avtomatlashtirish imkonini beradi.

*2. Axborot sifatini ta'minlash bo'yicha yagona standartlarni joriy etish.*

Axborotning to'liqligi, dolzarbligi va ishonchliligini ta'minlash uchun uni qabul qilish, tekshirish va tasdiqlashning yagona standartlari ishlab chiqilishi zarur. Ayniqsa, jamoatchilikdan kelib tushayotgan ma'lumotlarni verifikatsiya qilish mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Clarke va Eck ta'kidlashicha, sifatli axborot tahlil samaradorligining asosiy mezonini hisoblanadi [30].

*3. Analitik bo'linmalar faoliyatini kuchaytirish va prognozlash texnologiyalarini joriy etish.*

Ichki ishlar organlari tizimida axborotni chuqur tahlil qilishga ixtisoslashgan analitik bo'linmalar faoliyatini rivojlantirish lozim. Jinoyatchilik xaritalari (crime mapping), statistik

modellash va risklarni baholash texnologiyalarini joriy etish profilaktika ishlarini ilmiy asosda rejalashtirish imkonini beradi.

P. Manning ta'kidlaganidek, tahliliy axborot politsiya faoliyatida strategik boshqaruvning asosiy elementi hisoblanadi [31].

*4. Raqamli infratuzilmani hududlar kesimida bir xil darajada rivojlantirish.*

Navoiy viloyati misolida aniqlangan hududiy farqlarni inobatga olgan holda, barcha tuman va shaharlarda axborot tizimlaridan foydalanish uchun bir xil texnik shart-sharoit yaratish zarur. Internet aloqa kanallari, server quvvatlari va dasturiy ta'minotni modernizatsiya qilish xizmat samaradorligini oshiradi.

*5. Axborot xavfsizligini ta'minlash va kirish huquqlarini aniq chegaralash.*

Axborot hajmining ortishi bilan birga uning muhofazasi masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Axborotga kirish huquqlarini rollarga asoslangan tartibda belgilash, ichki audit mexanizmlarini joriy etish va kiberxavfsizlik talablarini kuchaytirish zarur.

UNODC ma'lumotlariga ko'ra, axborot xavfsizligi ichki ishlar organlari faoliyatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi [32].

*6. Xodimlarning raqamli savodxonligi va analitik kompetensiyalarini oshirish.*

Ichki ishlar organlari xodimlarini axborot tizimlari, elektron hujjat aylanishi va tahliliy dasturlar bilan ishlash bo'yicha muntazam qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga jalb etish lozim. Bu axborotdan foydalanish samaradorligini oshiradi va inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi.

Bayley ta'kidlaganidek, zamonaviy politsiya faoliyatida kadrlar salohiyati texnologiyalardan kam ahamiyatga ega emas [33].

*7. Axborotdan foydalanish samaradorligini baholash tizimini joriy etish.*

Axborot asosida qabul qilingan qarorlarning natijadorligini baholash uchun KPI va monitoring ko'rsatkichlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu axborot ta'minoti tizimini doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradi.

**Xulosa.** O'tkazilgan ilmiy-tahliliy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlari faoliyatida axborot ta'minoti jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimining asosiy va hal qiluvchi tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy xavf-xatarlar, jinoyatchilik shakllarining murakkablashuvi va axborot oqimining keskin ortishi sharoitida axborotni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etmasdan turib, ichki ishlar organlari faoliyatining yuqori samaradorligiga erishish mumkin emas.

Tadqiqot davomida ichki ishlar organlarida, jumladan Navoiy viloyatida qo'llanilayotgan axborot manbalari va axborot shakllari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning xizmat faoliyatiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi. Xususan, rasmiy-huquqiy, operativ-qidiruv, statistik, jamoatchilikdan kelib tushadigan, texnik hamda idoralararo axborot manbalari ichki ishlar organlarining strategik va operativ qarorlar qabul qilish jarayonida o'zaro bog'liq holda foydalanilishi aniqlandi. Axborot shakllarining (yozma, og'zaki, elektron, vizual, audio, texnik va analitik) to'g'ri tashkil etilishi axborotning ishonchliligi va tezkorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiy viloyati misolida o'tkazilgan amaliy tahlil "Ye-material" axborot tizimi orqali kelib tushayotgan murojaatlar ichki ishlar organlari faoliyatida qaror qabul qilish uchun muhim empirik asos vazifasini bajarayotganini ko'rsatdi. Yuqori ijro ko'rsatkichlari axborot

tizimlarining amaliy samaradorligini tasdiqlashi bilan birga, mavjud axborot oqiqlarini chuqur tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ham ko'rsatadi.

Tadqiqot natijasida ichki ishlar organlarida axborot ta'minoti sohasida qator tizimli muammolar — axborot tizimlarining yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi, analitik salohiyatning cheklanganligi, raqamli infratuzilmaning hududlar kesimida nomutanosibligi va axborot xavfsizligiga oid kamchiliklar aniqlandi. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida axborot tizimlarini yagona platformaga birlashtirish, axborot sifati bo'yicha standartlarni joriy etish, analitik bo'linmalar faoliyatini kuchaytirish va xodimlarning raqamli hamda analitik kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlarida axborot ta'minoti tizimini takomillashtirish jamoat xavfsizligini ta'minlashda ilmiy asoslangan, ma'lumotlarga tayangan boshqaruv modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi. **Ichki ishlar organlari to'g'risidagi Qonun**. – Toshkent, 2016. – 34 b.
2. Ziyadullayev M.Z. **Jamoat xavfsizligi va ichki ishlar organlari faoliyati**. – Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2022. – 280 b.
3. Rahmonov Sh. **Jinoyatchilikka qarshi kurashda axborot texnologiyalarining roli** // Ilmiy-amaliy jurnal. – Toshkent, 2021. – №4. – B. 55–62.
4. Bayley D. **Police for the Future**. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – 210 p.
5. Manning P. **The Technology of Policing: Crime Mapping, Information Technology, and the Rationality of Crime Control**. – New York: NYU Press, 2008. – 320 p.
6. Eijkman Q., Van Duijn P. **Policing in the Information Age: Data-Driven Approaches to Public Safety** // Journal of Policing Studies. – 2020. – Vol. 33(2). – P. 145–162.
7. Clarke R., Eck J. **Crime Analysis for Problem-Solvers**. – Washington: U.S. Department of Justice, 2019. – 180 p.
8. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). **Global Crime Trends**. – Vienna, 2022.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **LEGAL AND ORGANIZATIONAL ISSUES IN THE INVESTIGATION OF CYBERCRIMES**

**Abdujapporov Shahboz Muzaffar o'g'li**

Senior Operative Officer, Lieutenant,  
Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** The article examines the legal and organizational issues related to the investigation of cybercrimes in the context of the digitalization of social relations. It is emphasized that the growth of information technology-related crimes is accompanied by increasing complexity of criminal methods, a transnational nature, and extensive use of digital communication channels. The study analyzes key challenges in law enforcement practice, including the detection of cybercrimes, the collection, preservation, and evaluation of electronic evidence, as well as ensuring interagency and international cooperation. The necessity of a comprehensive approach to cybercrime investigation is substantiated, encompassing the improvement of legal regulation, organizational mechanisms, and professional training of law enforcement personnel.

**Keywords:** cybercrimes, investigation, electronic evidence, digital traces, legal regulation, law enforcement agencies, cybersecurity.

---

## **ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАССЛЕДОВАНИЯ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ**

**Абдужаппоров Шахбоз Музаффар ўғли**

Старший оперативный сотрудник, лейтенант  
Министерства внутренних дел Республики Узбекистан

**Аннотация.** В статье рассматриваются правовые и организационные проблемы расследования киберпреступлений в условиях цифровизации общественных отношений. Отмечается, что рост преступлений в сфере информационных технологий сопровождается усложнением способов их совершения, трансграничным характером и активным использованием цифровых каналов коммуникации. Анализируются основные трудности правоприменительной практики, связанные с выявлением киберпреступлений, сбором, фиксацией и оценкой электронных доказательств, а также с обеспечением межведомственного и международного взаимодействия. Обосновывается необходимость комплексного подхода к расследованию киберпреступлений, включающего совершенствование правового регулирования, организационных механизмов и профессиональной подготовки сотрудников правоохранительных органов.

**Ключевые слова:** киберпреступления, расследование, электронные доказательства, цифровые следы, правовое регулирование, правоохранительные органы, кибербезопасность.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N33>

**Введение.** В условиях стремительного развития цифровых технологий и повсеместного внедрения информационно-телекоммуникационных систем киберпреступления становятся одной из наиболее динамично развивающихся форм противоправной деятельности [1]. Использование компьютерных сетей, мобильных устройств, облачных сервисов и цифровых платформ существенно расширяет

возможности преступных посягательств, одновременно усложняя процессы их выявления, расследования и доказывания. В результате перед системой уголовного судопроизводства встают новые задачи, требующие адаптации традиционных правовых и организационных механизмов к особенностям цифровой среды.

Киберпреступления отличаются высокой латентностью, дистанционным характером и трансграничной природой. Значительная часть таких деяний совершается без физического контакта с потерпевшим, а основная доказательственная информация существует в форме электронных данных. Эти данные обладают нематериальным характером, высокой изменчивостью и зависимостью от программно-технической среды, что существенно осложняет их фиксацию, сохранение и правовую оценку в рамках уголовного процесса [2].

Особую актуальность в этой связи приобретают правовые и организационные проблемы расследования киберпреступлений. Действующие нормы уголовного и уголовно-процессуального законодательства во многом ориентированы на традиционные формы доказательств и не всегда учитывают специфику цифровых следов. Отсутствие единых процессуальных стандартов работы с электронными доказательствами, недостаточная регламентация взаимодействия правоохранительных органов с операторами связи, финансовыми организациями и цифровыми сервисами, а также ограниченные технические и кадровые ресурсы негативно отражаются на эффективности расследования.

Практика показывает, что существенная часть ошибок при расследовании киберпреступлений допускается на первоначальных этапах — при выявлении преступления, осмотре цифровых устройств, изъятии и копировании электронных данных. Нарушение процессуальных требований на этих стадиях нередко приводит к утрате доказательственной информации либо признанию её недопустимой, что существенно снижает результативность уголовного преследования и затрудняет привлечение виновных лиц к ответственности [3].

Кроме того, расследование киберпреступлений требует высокой степени межведомственного и международного взаимодействия, что обусловлено глобальным характером цифровой среды и размещением значительной части информационных ресурсов за пределами национальной юрисдикции. Недостаточная согласованность действий между компетентными органами, а также отсутствие оперативных механизмов получения и легализации электронных данных из трансграничных источников создают дополнительные препятствия для эффективного расследования.

В связи с изложенным исследование правовых и организационных проблем расследования киберпреступлений представляет собой актуальную научную и практическую задачу. Комплексный анализ указанных проблем позволяет выработать предложения, направленные на совершенствование правового регулирования, повышение эффективности деятельности правоохранительных органов и адаптацию уголовно-процессуальных механизмов к условиям цифровизации общественных отношений [4].

Научная новизна исследования заключается в комплексном анализе правовых и организационных проблем расследования киберпреступлений с учётом специфики цифровых доказательств и трансграничного характера противоправных деяний, а

также в формулировании практико-ориентированных предложений по совершенствованию правоприменительной деятельности.

**Методология.** Методологическую основу исследования составляет комплекс общенаучных и специальных методов познания, обеспечивающих всесторонний и системный анализ правовых и организационных проблем расследования киберпреступлений. Выбор методологии обусловлен междисциплинарным характером исследуемой проблематики, находящейся на стыке уголовного права, уголовного процесса, криминалистики и информационных технологий.

В качестве базового методологического подхода использован системный анализ, позволивший рассмотреть расследование киберпреступлений не изолированно, а как элемент сложного механизма уголовного судопроизводства, включающего правовые нормы, организационную структуру правоохранительных органов, технические средства и человеческий фактор. Применение данного подхода обеспечило выявление взаимосвязей между особенностями цифровой среды и возникающими трудностями правоприменительной практики [5].

Формально-юридический метод применялся для анализа норм уголовного и уголовно-процессуального законодательства, регулирующих вопросы ответственности за киберпреступления, порядок доказывания, а также использование электронных доказательств и специальных знаний при расследовании. В рамках данного метода были выявлены пробелы и коллизии правового регулирования, оказывающие негативное влияние на эффективность расследования и судебного рассмотрения уголовных дел.

Криминалистический метод использовался для исследования практических аспектов выявления, фиксации и сохранения цифровых следов, а также для анализа типовых ошибок, допускаемых при работе с электронными носителями информации. Особое внимание уделялось первоначальным следственным действиям, имеющим ключевое значение для обеспечения допустимости и достоверности доказательственной информации.

Сравнительно-правовой метод позволил сопоставить национальные подходы к расследованию киберпреступлений с зарубежной и международной практикой, что дало возможность определить перспективные направления совершенствования правового регулирования и организационных механизмов противодействия киберпреступности [6].

В ходе исследования также применялись аналитический и логический методы, направленные на обобщение научных позиций, выявление причинно-следственных связей между правовыми и организационными факторами и формирование обоснованных выводов. Использование индукции и дедукции позволило перейти от анализа частных практических ситуаций к формированию общих теоретических положений и рекомендаций.

Эмпирическую основу исследования составили материалы правоприменительной практики, обобщённые данные следственной и судебной деятельности, аналитические отчёты правоохранительных органов, а также научные публикации отечественных и зарубежных авторов, посвящённые проблемам киберпреступности, расследования преступлений в сфере информационных технологий

и использования электронных доказательств. Применение эмпирических материалов обеспечило прикладную направленность исследования и его ориентированность на реальные условия правоохранительной деятельности.

**Результаты исследования.** Проведённое исследование показало, что расследование киберпреступлений характеризуется совокупностью устойчивых правовых и организационных проблем, существенно влияющих на эффективность уголовного преследования. Указанные проблемы носят системный характер и проявляются на всех этапах расследования — от выявления преступления до судебной оценки доказательств [7].

В ходе исследования установлено, что одной из ключевых правовых проблем является недостаточная определённость процессуального статуса электронных доказательств. Несмотря на их широкое использование в делах о киберпреступлениях, действующие нормы уголовно-процессуального законодательства во многих случаях не содержат чётких требований к порядку получения, фиксации, хранения и представления электронных данных. Это приводит к неоднозначности правоприменительной практики и различным подходам судов к оценке допустимости таких доказательств.

Выявлено, что при расследовании киберпреступлений нередко возникают сложности правовой квалификации деяний. Комбинированный характер противоправных действий, включающих элементы незаконного доступа к информации, мошенничества, использования вредоносных программ и иных преступлений, затрудняет применение единых методических подходов. В результате на практике наблюдается как чрезмерная фрагментация квалификации, так и её неоправданное упрощение, что негативно отражается на полноте расследования.

Отдельную правовую проблему представляет трансграничный характер киберпреступлений. Значительная часть цифровых следов и электронных данных хранится за пределами национальной юрисдикции либо находится под контролем иностранных цифровых сервисов. Отсутствие оперативных процессуальных механизмов получения и легализации таких данных существенно осложняет доказывание и снижает результативность расследования [8].

Результаты исследования свидетельствуют о том, что эффективность расследования киберпреступлений во многом определяется уровнем организационной подготовки правоохранительных органов. Установлено, что в практике расследования сохраняется недостаточная специализация следственных подразделений, что приводит к привлечению киберпреступлений к расследованию сотрудниками, не обладающими необходимыми техническими знаниями.

Выявлено, что одной из наиболее уязвимых стадий является первоначальный этап расследования. Ошибки при осмотре цифровых устройств, несоблюдение требований к копированию электронных данных, использование неподготовленных технических средств и отсутствие надлежащей фиксации процессуальных действий нередко приводят к утрате доказательственной информации либо к сомнениям в её достоверности.

Кроме того, отмечена ограниченность материально-технического обеспечения, включая недостаток специализированного программного обеспечения и

сертифицированных средств цифровой криминалистики. Это снижает возможности правоохранительных органов по оперативному выявлению, анализу и сохранению цифровых следов [9].

В ходе исследования установлено, что расследование киберпреступлений требует активного межведомственного и межсекторального взаимодействия. Однако на практике данное взаимодействие часто носит фрагментарный характер. Выявлены сложности в координации действий между следственными подразделениями, оперативными службами, операторами связи, финансовыми организациями и администраторами цифровых платформ.

Отсутствие единых алгоритмов реагирования на киберинциденты и несогласованность процедур обмена информацией приводят к задержкам в получении критически важных данных. В условиях высокой изменчивости цифровой среды такие задержки существенно снижают шансы на успешное расследование и установление виновных лиц.

Отдельно отмечена недостаточная эффективность международного сотрудничества при расследовании киберпреступлений. Процедуры оказания правовой помощи и получения электронных доказательств из иностранных источников зачастую отличаются длительностью и сложностью, что не соответствует динамике киберпреступной деятельности [10].

В целом результаты исследования подтверждают, что правовые и организационные проблемы расследования киберпреступлений взаимосвязаны и усиливают друг друга. Недостаточная правовая регламентация осложняет организацию расследования, тогда как организационные просчёты приводят к нарушению процессуальных требований и утрате доказательственной информации.

Установлено, что наибольшие риски для эффективности расследования возникают на ранних этапах работы с цифровыми доказательствами, а также при отсутствии координации между субъектами, участвующими в противодействии киберпреступности. Это подтверждает необходимость комплексного подхода к расследованию киберпреступлений, основанного на сочетании правовых, организационных и технических мер.

**Обсуждение.** Полученные в ходе исследования результаты позволяют более глубоко осмыслить специфику расследования киберпреступлений в условиях цифровизации общественных отношений. В отличие от традиционных форм преступной деятельности, киберпреступления формируются и реализуются в цифровой среде, что принципиально меняет характер доказательственной информации и требования к организации расследования. Это обстоятельство требует переоценки сложившихся подходов уголовного судопроизводства и адаптации правовых и организационных механизмов к новым условиям [11].

Анализ выявленных правовых проблем подтверждает, что действующее уголовно-процессуальное регулирование в значительной степени ориентировано на классические формы доказательств и не в полной мере учитывает особенности электронных данных. Несмотря на широкое использование цифровых следов в практике расследования, отсутствие детализированных процессуальных стандартов их получения и фиксации создаёт предпосылки для признания таких доказательств

недопустимыми. Это подчёркивает приоритет процессуальной формы в уголовном процессе и указывает на необходимость нормативного закрепления специальных правил обращения с электронными доказательствами.

Результаты исследования также свидетельствуют о том, что правовые трудности расследования киберпреступлений усугубляются их комбинированным характером. Современные киберпреступления нередко включают признаки нескольких составов преступлений, что размывает границы между незаконным доступом к информации, мошенничеством и иными формами противоправных деяний. Отсутствие единых методических рекомендаций по квалификации таких преступлений приводит к неоднородности правоприменительной практики и снижает предсказуемость судебных решений.

Существенное значение в обсуждаемом контексте имеют выявленные организационные проблемы. Недостаточная специализация следственных подразделений, ограниченность технических ресурсов и несвоевременное привлечение специалистов в области информационных технологий негативно отражаются на качестве расследования. Особенно уязвимым этапом остаётся начальная стадия расследования, на которой допускаются ошибки, способные полностью нивелировать доказательственную ценность электронных данных. Это подтверждает тезис о том, что эффективность расследования киберпреступлений в значительной степени определяется уровнем организационной готовности правоохранительных органов.

Отдельного внимания заслуживает проблема взаимодействия и координации. Киберпреступления, как правило, выходят за пределы одной юрисдикции и затрагивают интересы множества субъектов, включая частные компании и зарубежные цифровые сервисы. В этой связи недостаточная согласованность действий между правоохранительными органами, а также отсутствие оперативных механизмов международного сотрудничества существенно осложняют расследование. Полученные результаты подтверждают необходимость развития институциональных форм взаимодействия и внедрения унифицированных алгоритмов реагирования на киберинциденты [12].

В целом обсуждение результатов исследования позволяет сделать вывод о том, что проблемы расследования киберпреступлений носят системный и междисциплинарный характер. Их решение невозможно в рамках изолированных правовых либо организационных мер. Только комплексный подход, сочетающий совершенствование правового регулирования, развитие организационной инфраструктуры и повышение профессиональной подготовки сотрудников, способен обеспечить эффективное противодействие киберпреступности в условиях цифровизации.

**Заключение.** Проведённое исследование показало, что расследование киберпреступлений в условиях цифровизации общественных отношений сталкивается с комплексом правовых и организационных проблем, оказывающих существенное влияние на эффективность уголовного судопроизводства. Специфика цифровой среды, трансграничный характер преступлений и нематериальная природа электронных данных требуют адаптации традиционных механизмов расследования и доказывания к новым условиям.

Установлено, что действующее правовое регулирование не в полной мере учитывает особенности электронных доказательств и цифровых следов. Отсутствие единых процессуальных стандартов их получения, фиксации и хранения, а также неоднозначность правовой квалификации киберпреступлений создают предпосылки для признания доказательств недопустимыми и снижают результативность уголовного преследования [13]. Это подчёркивает необходимость совершенствования уголовного и уголовно-процессуального законодательства с учётом особенностей цифровой среды.

Результаты исследования также подтверждают, что организационные факторы играют ключевую роль в расследовании киберпреступлений. Недостаточная специализация следственных подразделений, ограниченность технических и кадровых ресурсов, а также ошибки, допускаемые на первоначальных этапах расследования, существенно затрудняют выявление и доказывание преступных деяний в сфере информационных технологий. Эффективность расследования во многом зависит от уровня профессиональной подготовки сотрудников и своевременного привлечения специалистов в области кибербезопасности и цифровой криминалистики.

Особое значение имеет проблема межведомственного и международного взаимодействия. Глобальный характер киберпреступлений и размещение значительной части цифровых данных за пределами национальной юрисдикции требуют развития механизмов оперативного обмена информацией и упрощения процедур получения и легализации электронных доказательств. Недостаточная координация действий между субъектами противодействия киберпреступности существенно снижает возможности эффективного расследования [14].

Таким образом, расследование киберпреступлений следует рассматривать как сложный и многоуровневый процесс, требующий системного подхода. Повышение эффективности противодействия киберпреступности возможно лишь при условии согласованного развития правового регулирования, организационных механизмов и профессиональных компетенций правоохранительных органов. Реализация данных направлений позволит укрепить доказательственную базу по делам о киберпреступлениях и повысить результативность уголовного судопроизводства в условиях цифровизации.

**Предложения.** На основе проведённого исследования представляется целесообразным сформулировать комплекс предложений, направленных на совершенствование правового регулирования и организационной практики расследования киберпреступлений.

### **1. Предложения в сфере правового регулирования**

В целях повышения правовой определённости и единообразия правоприменительной практики целесообразно:

- нормативно закрепить процессуальный статус электронных доказательств с учётом их нематериальной природы и технической специфики;
- установить единые требования к порядку получения, фиксации, хранения и представления электронных данных в уголовном процессе;
- разработать и внедрить специальные процессуальные стандарты обращения с цифровыми следами на первоначальных этапах расследования;

- уточнить подходы к квалификации киберпреступлений комбинированного характера, предусматривающих признаки нескольких составов преступлений;
- совершенствовать правовые механизмы получения и легализации электронных доказательств из трансграничных информационных ресурсов.

## **2. Предложения в сфере организационного обеспечения расследования**

Для повышения эффективности деятельности правоохранительных органов при расследовании киберпреступлений представляется необходимым:

- развивать специализированные подразделения по расследованию преступлений в сфере информационных технологий;
- обеспечить обязательное привлечение специалистов в области кибербезопасности и цифровой криминалистики на ранних стадиях расследования;
- внедрять унифицированные алгоритмы действий следственных и оперативных подразделений при выявлении и фиксации цифровых доказательств;
- совершенствовать материально-техническое обеспечение, включая использование сертифицированных программно-технических средств для анализа электронных данных;
- повышать уровень профессиональной подготовки сотрудников правоохранительных органов с учётом современных киберугроз и методов расследования.

## **3. Предложения в сфере межведомственного и международного взаимодействия**

С учётом трансграничного характера киберпреступлений целесообразно:

- усилить межведомственную координацию между следственными органами, оперативными службами, операторами связи, финансовыми организациями и цифровыми платформами;
- разработать регламентированные процедуры оперативного обмена информацией при расследовании киберпреступлений;
- расширить практику международного сотрудничества и участия в совместных расследованиях;
- внедрять ускоренные механизмы правовой помощи по делам о киберпреступлениях, ориентированные на сохранение и оперативное получение электронных доказательств.

## **4. Профилактические и методические предложения**

В целях предупреждения киберпреступлений и повышения качества расследования представляется целесообразным:

- разрабатывать и внедрять методические рекомендации по расследованию наиболее распространённых видов киберпреступлений;
- формировать единые базы знаний и типовых сценариев киберпреступной деятельности для использования в следственной практике;
- усиливать профилактическую работу, направленную на повышение цифровой грамотности населения и снижение виктимологической уязвимости пользователей;

- развивать научно-практическое взаимодействие между правоохранительными органами, научными учреждениями и экспертным сообществом.

#### Литература/References/Adabiyotlar:

1. Goodman M. *Future Crimes: Everything Is Connected, Everyone Is Vulnerable and What We Can Do About It*. — New York: Doubleday, 2015.
2. Europol. *Internet Organised Crime Threat Assessment (IOCTA)*. — The Hague: Europol, 2023.
3. Casey E. *Digital Evidence and Computer Crime: Forensic Science, Computers, and the Internet*. — 3rd ed. — London: Academic Press, 2011.
4. Войнов В. В. Электронные доказательства в уголовном процессе. — М.: Юрлитинформ, 2019.
5. NIST. *Guide to Integrating Forensic Techniques into Incident Response (SP 800-86)*. — Gaithersburg, 2006.
6. Palmer G. A Road Map for Digital Forensic Research // *Digital Investigation*. — 2001. — Vol. 1. — No. 1. — P. 27–30.
7. Журавлёв А. В. Цифровая криминалистика: теория и практика. — СПб.: Юридический центр Пресс, 2020.
8. Kshetri N. *Cybercrime and Cybersecurity in the Global South*. — London: Palgrave Macmillan, 2013.
9. Сафронов И. Н. Проблемы допустимости электронных доказательств в уголовном судопроизводстве // *Российский следователь*. — 2020. — № 6. — С. 23–28.
10. NIST. *Digital Evidence Preservation and Collection Guidelines*. — National Institute of Standards and Technology, 2018.
11. Interpol. *Financial Cybercrime and Electronic Evidence*. — Lyon: Interpol, 2021.
12. Levi M., Smith R. Fraud and Financial Crime in the Digital Age // *Journal of Financial Crime*. — 2021. — Vol. 28. — No. 2. — P. 456–470.
13. Anderson R. *Security Engineering: A Guide to Building Dependable Distributed Systems*. — 3rd ed. — Hoboken: Wiley, 2020.
14. Clarke R., Knake R. *Cyber War: The Next Threat to National Security and What to Do About It*. — New York: HarperCollins, 2019.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **IMPROVEMENT OF LEGISLATION ON THE EXEMPTION OF MINORS FROM CRIMINAL LIABILITY AND PUNISHMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**Turabaeva Ziyoda**

Lecturer of the Department of Criminal law,  
criminology and anti corruption  
Tashkent State University of Law  
E-mail: [saarlandesziyoda@mail.ru](mailto:saarlandesziyoda@mail.ru)

**Abstract.** The article is devoted to improving the norms of the legislation of the Republic of Uzbekistan on the exemption of minors from criminal liability and punishment, analyzes the legislation of developed foreign countries, and develops proposals for national legislation. In particular, the theoretical and practical significance of the juvenile probation institute, the role of the juvenile justice institute and the possibilities of its implementation, and the improvement of legislation on exemption from liability and punishment due to the expiration of the statute of limitations for prosecution and the execution of punishment.

Also, the theoretical and practical aspects of exemption from liability and punishment due to the expiration of the statute of limitations for prosecution and punishment, the juvenile justice institute, the possibilities of this institute based on international law were analyzed, and a comparative analysis of the criminal legislation of the Russian Federation (Article 94 of the Criminal Code), Kazakhstan (Article 88 of the Criminal Code), Kyrgyzstan (Article 111), Azerbaijan (Article 91 of the Criminal Code), Georgia (Article 99 of the Criminal Code), and Armenia (Article 99 of the Criminal Code) regarding exemption from liability and punishment due to the expiration of the statute of limitations for prosecution and punishment was conducted.

**Keywords:** juvenile justice, criminal prosecution and sentence execution, juvenile probation institute, exemption from liability and punishment.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VOYAGA YETMAGANLARNI JINOIY JAVOBGARLIK VA JAZODAN OZOD QILISHGA DOIR QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

**To'rabayeva Ziyoda Yakubovna**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoyat huquqi, kriminologiya va  
Korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası  
katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishga oid normalarini takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib, rivojlangan xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlil qilinib, milliy qonunchilikka takliflar ishlab chiqilgan. Xususan, yuvenal probatsiya institutining nazariy va amaliy ahamiyati, yuvenal yustitsiya institutining tutgan o'rni va joriy etish imkoniyatlari, javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan va jazodan ozod qilishga oid qonunchilini takomillashtirishga bag'ishlangan.

Shuningdek, javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, yuvenal yustitsiya institutining nazariy va amaliy jihatlari, mazkur institutning imkoniyatlari xalqaro qonunchilik asosida tahlil qilinib, javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan va jazodan ozod qilishga oid Rossiya Federatsiyasi (JK 94-m.), Qozog'iston (JK 88-m.), Qirg'iziston (111-m.), Ozarbayjon (JK 91-m.), Gruzuya (JK 99-m.), Armaniston (JK 99-m.) jinoyat qonunlari

qiyosiy tahlil qilinib, JK XVI bobiga voyaga yetmagan shaxsni javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan va jazodan ozod qilishga oid taklif berilgan.

**Kalit so'zlar:** yuvenal yustitsiya, jinoiy javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddati, yuvenal probatsiya instituti, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N34>

Zamonaviy yuridik adabiyotlardagi eng muhim masalalardan biri sodir etilgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammosidir. Muayyan vaziyatlarda mahkumni axloqan tuzatish va jinoyatlarni oldini olish maqsadlariga jazoni amalda o'tattirmasdan ham erishish mumkin. Hukmni ijrosini davom ettirish esa huquqbuzarni tezda jamiyatga qaytarish vazifasi bilan (ijtimoiylashtiruv vazifasi bilan) ziddiyatga kirishishi mumkin. Jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish institutining mavjudligi, ma'lum darajada, mahkumlarni axloqan tuzalishini rag'batlantiradi. Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish alohida e'tibor talab qiladigan ayrim xususiyatlarga ega. Javobgarlik va jazoga tortishning muddatini voyaga yetmaganlar uchun alohida institut sifatida ajratib chiqarish hozirgi kunda ayrim davlatlar qonunchiligida mavjud va ayrimlarida umumiy asoslarda qo'llanilishini kuzatish mumkin.

Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish sobiq Ittifoq davrida 1918-yilgi "Muddatidan oldin jazodan ozod etish" haqidagi qarorida ozodlikdan mahrum qilish jinoyatini o'tashdan muddatidan oldin ozod etish belgilangan.[1] Keyinchalik 1922, 1926-yillardagi SSSR va sobiq Ittifoq respublikalarining 1958-yildagi jinoyat qonunlari, 1960-yildagi RSFSR Jinoyat kodeksida ham ayblov hukmini ijro etish muddati o'tganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish shakli mavjud bo'lgan. [2] 1994-yilda O'zbekiston Jinoyat kodeksi qabul qilinib, uning XIII bobi "Jazodan ozod qilishning turlari" deb nomlandi va jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish alohida normada jazodan ozod qilishning mustaqil shakli sifatida belgilandi.

Muddat institutini kam o'rganilgan deb atash qiyin, unga *G. F. Shershenevich, I. Y. Engelman, Ye. V. Vaskovskiy, O. S. Ioffe, M. A. Gurvich, B. B. Cherepaxin, M. Ya. Kirillova* va boshqalar kabi sivilistika va protsessual fan klassiklarining asarlari bag'ishlangan. Shu bilan birga, yetarli miqdordagi tadqiqotlarga qaramay, qonun chiqaruvchi tomonidan muddat o'tganligi sababli sud muhokamasini tugatishning zamonaviy mexanizmi doirasida muddatlarning qaysi konsepsiyasi amalga oshirilganligi haqidagi asosiy masala hanuzgacha hal etilmagan.

Javobgarlikka tortish muddatlariga jinoyat sodir etilgan vaqtdan boshlab, dastlabki tergov muddati, jinoyat ishi prokurorda ayblov xulosasi tasdiqlanishi uchun bo'lgan vaqt, jinoyat ishi sudga ko'rib chiqilib hukm o'qilgan vaqt, hukmga nisbatan apellatsiya shikoyati keltirilib, shikoyat apellatsiya instansiyasida ko'rilgan vaqt va hukm apellatsiya sudlov hay'ati tomonidan ko'rib chiqilib qaror (ajrim) qabul qilingan vaqt oralig'i kiradi. Agar sud hukmiga nisbatan apellatsiya shikoyati keltirilmasa, javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kirgan kungacha hisoblanadi.

Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi deganda, jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab, qonunda belgilangan muddatlarning o'tib ketganligi tushuniladi. Ushbu muddatlar o'tib ketganidan keyin shaxs javobgarlikdan shartsiz ozod etilishi lozim. Javobgarlikka tortish muddatiga ham jinoyat aniqlangan va jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytigacha bo'lgan vaqt, ham uni qo'zg'atgandan boshlab hukmning qonuniy kuchga kirgan

paytigacha bo'lgan vaqt kiradi. JPK 84-moddasiga muvofiq, jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa, shaxsning jinoyat sodir etilishida aybliligi to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishi tugatilishi lozim. Jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarining o'tishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar aybdorlik haqidagi masalani hal qilmasdan jinoyat ishini tugatish uchun asos hisoblanadi. Bunda, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari sud muhokamasi davomida tugasa, sudlanuvchi sud zalida jazo tayinlamasdan ozod qilinadi va bu haqda qaror qabul qilinadi (JPK 474- moddasi). Boshqacha so'z bilan aytganda, tugallanish payti sud muhokamasiga emas, balki JK 64-moddasi 1-qismida belgilangan muddatlarga bog'liq bo'ladi. Jinoyatning og'irligidan qat'i nazar uni sodir etgan shaxslarni shuncha vaqt o'tganidan so'ng jinoiy javobgarlikka tortishning maqsadga muvofiq emasligi jazoning maqsadidan kelib chiqadi. Jinoyat sodir etilgandan keyin qanchalik ko'p vaqt o'tsa, jazo maqsadining samarasi shunchalik kam bo'ladi, chunki aybdor shaxs shu vaqt mobaynida o'zining xulq-atvori bilan o'zining o'zgarganini isbotlaydi, muayyan jinoyat-huquqiy choralarni qo'llash esa axloqan tuzatish maqsadini emas, balki ilgari sodir etgan jinoyati uchun o'ch olish bo'lib qolardi.

*V.N. Donodovning* ta'kidlashicha, muddat o'tib ketganligi sababli jinoiy javobgarlik va jazodan ozod instituti qadimgi Rim imperiyasi davridayoq qo'llanilgan. [3] Yuridik adabiyotlarda haqli ravishda ta'kidlanganidek, "tan olishga to'g'ri keladiki, agar jinoyat huquqida ko'p yillar oldin sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni yuritishni tugatishning qonuniy imkoniyati bo'lmaganida edi, huquqni muhofaza qilish organlari ko'p jihatdan, hatto o'zining huquqiy va ijtimoiy ahamiyatini butunlay yo'qotgan jinoyat ishlarini tergov qilish zaruriyatiga duch kelgan bo'lar edilar". [4]

*R.S.Altiyev* esa javobgarlikka tortish muddatining qo'llanmasligi jinoyat ishini yuritishga oid protsessual harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq muammolarni ham keltirib chiqaradi, deb hisoblaydi Muddatlarning o'tishi qilmishning ijtimoiy xavflilik ahamiyatini kamaytirib, jinoyat sodir etgan shaxsning ayblilik masalasini aniqlashda dalillar bazasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, guvohlar ko'rsatmalarini to'liq eslay olmasligi, ashyoviy dalillarning buzilishi yoki yo'q bo'lib ketish xavfi mavjudligi, ekspert tekshiruvchi uchun namunalarni olishda vujudga keladigan muammolarning mavjudligi va boshqalar. Vaqt jinoyat ishi yuzasidan to'liq va har tomonlama tergov harakatlarini olib borish, shuningdek, jinoyat sodir qilishda gumonlanayotgan yoki ayblanayotgan shaxs hamda sudlanuvchining aybini inkor qilib bo'lmas maqbul dalillar bilan isbotlashda jiddiy muammolar keltirib chiqaradi. Bu faqat kriminalistika yoki jinoyat-protsessual huquqi muammolari emas. Ularni hal qilishda sohalararo yechim topish lozim, deb ta'kidlaydi. [5]

*Sh.Berdiyevning* fikricha, jinoiy javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddatlarini belgilash inson huquqlari buzilishining oldini olishga, jinoiy javobgarlikdan doimiy qo'rquvda yashash imkoniyatini bartaraf etishga xizmat qiladi. [6] *B. Murodovning* nuqtai nazaridan esa jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish muddatlari o'tib ketganligi sababli javobgarlikdan ozod qilish unchalik to'g'ri institut emas. Zero, mazkur shaxs sodir etgan jinoyati uchun o'z aybini tan olmasdan, yetkazilgan zararni qoplamaydi va eng muhimi — qilmishiga pushaymon bo'lmaydi. [7] *F.M. Muhitdinovning* fikricha, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan bunday qarorning qabul qilinishi ish bo'yicha haqiqatning to'liq aniqlanmasligiga olib kelishi mumkin. Bu holatda jinoyat protsessi o'z maqsadiga erishdi, deb bo'lmaydi. [8] Jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketishi, umumiy huquqiy tizimda ko'plab holatlarda jinoyatchilarning jazodan qochishi imkoniyatini yaratadi. Bu holatda,

jinoyatlarning jiddiyligi, jamiyatga ta'siri, jabrlanuvchining holati va boshqa omillar hisobga olinishi kerak. Shu munosabat bilan jinoyat va jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat ishini tugatishning "shaxsni javobgarlikka tortish muddatlarining o'tishi" kabi asosi to'g'risida hanuzgacha yagona fikr shakllanmagan. Shunday qilib, javobgarlik va jazodan ozod qilish institutlari jinoyat huquqining insonparvarlik, adolatlilik va maqsadga muvofiqlik prinsiplarini amalda ro'yobga chiqaradi. Bu nafaqat huquqiy tizimning jazolovchi qismi, balki ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi. Mazkur institutlardan oqilona va qonuniy foydalanish jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, aholi farovonligini oshirish, jinoyatchilikni kamaytirish va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Jinoiy javobgarlik va jazoga tortish muddatining o'tishi institutining moddiy-huquqiy asoslari sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi uzoq vaqt o'tgandan keyin kamayishi, shuningdek o'zining qonunga itoatkor xulq-atvori bilan uzoq vaqt davomida tuzalganligini isbotlagan shaxsning ijtimoiy xavfliligi yo'qolishi hisoblanadi.

Javobgarlikka tortish muddatlarining o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish masalasi dastlabki tergov bosqichida, agar jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan shaxsning jinoyat sodir etilishida aybliligi to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarori asosida tugatiladi. Agar jinoyat ishi qo'zg'atilmagan bo'lsa, JPKning 333-moddasi tartibida jinoyat ishi qo'zg'atish rad etiladi. Javobgarlikka tortish muddati jinoyat ishi sudda ko'rilayotgan vaqtda o'tib ketgan bo'lsa, sud tomonidan ajrim bilan tugatiladi. Agar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat ishining tugatilishiga e'tiroz bildirsa yoki o'zini aybsiz deb hisoblasa, shaxs JKning 64-moddasi qoidalari asosida javobgarlikdan ozod qilinmaydi, bunday holda jinoyat ishi tugatilmaydi, jinoyat ishi umumiy tartibda ko'rib chiqilib, shaxsning aybdorlik masalasi hal qilinib, shaxs aybdor deb topilsa, unga nisbatan jazodan ozod qilish instituti qo'llanadi, agarda shaxs aybi isbotlanmasa, u reabilitatsiya qilinadi.

Jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning ushbu turining ahamiyati:

- 1) uni qo'llash huquqni qo'llovchi organlar uchun majburiydir;
- 2) ozod qilishning ushbu turini qo'llash har doim ham shaxsni va uning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash bilan bog'liq emas.

*M. Usmonaliyev* jazoni qonunda belgilangan muddatda ijro etilmay qolishining sabablari turli-tuman bolishi mumkinligini, masalan, mahkumning og'ir kasal bo'lib qolishi, tabiiy ofat, yer qimirlashi, sel bosishi, yong'in tufayli hujjatlarning nobud bo'lishi, hujjatlarni yo'qotib qo'yish, ayrim xizmatchilarning o'z xizmat vazifasiga loqaydlik bilan munosabatda bo'lishi va hokazolar bilan bog'lab tushuntiradi. [9] O'zbekiston Respublikasi JK 69-moddasida nazarda tutilgan jazoni ijro etish muddatlari asosiy va qo'shimcha jazolarga bog'liq bo'ladi. Ayrim mualliflar qonunda ko'rsatilgan muddatlarning o'tishi bilan ayblov hukmining asosiy va qo'shimcha jazoga oid qismi to'liq ijro etilmaydi, deb hisoblaydilar. [10] *Sh. Niyazov*ning fikriga ko'ra, yuqorida keltirilgan fikr asoslidir. *Sh. Niyazova* agar mahkum unga sud tomonidan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosidan jazoni ijro etish muddati tugamasdan ozod qilinsa, hukmning qo'shimcha jazo chorasiga oid qismini ijro etish javobgarlikka tortish muddati institutining asoslariga zid va maqsadga nomuvofiq bo'ladi, [11] deb hisoblaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar jinoyat qonuni bilan asoslantirilgan bo'lib, shaxs sud tomonidan tayinlangan jazoni ijro etish muddati tugamasdan jazodan ozod qilinsa, shaxs hukmning qo'shimcha jazo chorasiga oid qismidan ham ozod qilingan hisoblanadi.

Jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab ancha vaqt o'tganligi jazoning jazolash-tarbiyalash va ogohlantirish ahamiyatini sezilarli darajada susaytiradi, ba'zan esa uni qo'llash maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi. Shaxsning mazkur vaqt davomida yangi jinoyat sodir etmasligi uning xavflilik darajasi kamligidan dalolat beradi. Rossiya qonunchiligiga muddatlar birinchi marta 1775-yil 17-martdagi podsho manifesti bilan kiritilgan. Manifestning 44-moddasiga muvofiq, sodir etilgandan keyin o'n yil o'tgan va shuncha vaqtdan keyin oshkor etilmagan yoki ular bo'yicha ish yuritilmagan har qanday turdagi jinoyat ishlari tugatilgan. Jinoyat-huquqiy muddatning yuridik tabiati to'g'risida adabiyotlarda turli fikrlar bildirilgan. Bir qator mualliflar qonunda belgilangan javobgarlikka tortish muddati o'tganidan keyin jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslariga, xususan, sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfliligi yo'qolganligi, jazo qo'llashning maqsadsizligi va maqsadga muvofiq emasligi, ko'p yillar oldin sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlarni yuritishning qiyinligi, jazolashdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmasligini kiritadilar. [12]

Bizning fikrimizcha, anglo-sakson huquq tizimi, eng avvalo, Buyuk Britaniya huquqi alohida e'tiborga loyiq bo'lib, u XX asr davomida muddatni tartibga solish sohasida bir qancha islohotlarni boshdan kechirdi (Da'vo muddatini o'tkazish to'g'risidagi 1939 yilgi Qonun, Qonunchilikni isloh qilish to'g'risidagi 1954-yilgi Qonun, Da'vo muddatini o'tkazish to'g'risidagi Qonunlar).

1963, 1975 va 1980-yy.), shu munosabat bilan ushbu masalani ingliz qonunchiligi tomonidan tartibga solishning rivojlanishida ba'zi shakllangan tendensiyalar haqida gapirish mumkin. Bundan tashqari, 1998-yilda Inson huquqlari to'g'risidagi qonun qabul qilinishi bilan Angliya huquqida Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi normalari va ularning Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi tomonidan berilgan talqini, shu jumladan Konvensiyaning an'anaviy ravishda da'vo muddatini qo'llash masalalarini ham qamrab oluvchi 6-moddasi normalari alohida rol o'ynay boshladi. Bu borada Angliyada ishlab chiqilgan yondashuvlar mamlakatimiz tadqiqotchilari uchun yanada qimmatli ahamiyat kasb etadi. Anglo-sakson huquqiy tizimida qo'llanilgan va qo'llanilayotgan muddatlar modellarining huquqiy tabiati va ishlash xususiyatlarini o'rganish orqali, o'z navbatida, milliy doktrina va amaliyot oldida turgan vazifalarning yechimlarini topish uchun asos yaratadi. Shuningdek, biz Buyuk Britaniya va AQShda muddatni tartibga solishning barcha jihatlarini har tomonlama tahlil qilishga harakat qilmaymiz, balki faqat tegishli institutning maqsadini konseptual tushunish bo'yicha ma'lum xulosalar chiqarishga imkon beradigan xususiyatlar va yondashuvlarni ochib beramiz.

Angliyada axloq tuzatish choralari (corrections) va jamiyatga reintegratsiya (reintegration into society) kabi jinoyatchilikni nazorat qilish va rehabilitatsiya qilishning boshqa mexanizmlari qo'llaniladi, bu esa shaxsni shunchaki ozod qilish emas, balki takroriy jinoyatlarni kamaytirishga yordam beradi. Angliyada jazoni o'tash muddati tugaganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishning to'g'ridan-to'g'ri o'xshashi yo'q, chunki ingliz huquqida O'zbekiston qonunchiligidagi hukmni ijro etish muddatlari instituti mavjud emas. Buning o'rniga, jazo (jazo) boshqa qonunlar va tartib-qoidalar asosida bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Hukmni ijro etish muddatlarining yo'qligi Rossiya qonunchiligidan farqli o'laroq, Angliyada hukm ijro etilmagan deb hisoblanadigan va shaxs jazodan ozod qilinadigan qat'iy muddatlar mavjud emas. "Jazodan ozod qilish" tushunchasi: bu davlatning jazoni real qo'llashdan yoki uni to'liq o'tashdan voz kechishidir, ammo bu da'vo muddatlaridan boshqa asoslarga ko'ra sodir bo'lishi mumkin. Shartli ozod qilish (Parole) — bu eng keng tarqalgan protsedura bo'lib, mahkumga to'liq jazo muddati tugagunga qadar ozodlikka chiqish imkonini beradi. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish to'g'risidagi qaror xavfni baholash va shartlarga rioya qilish asosida qabul qilinadi. Jazoni o'zgartirish yoki bekor qilish asoslari: boshqa sabablarga ko'ra, masalan, mahkumning kasalligi tufayli jazodan ozod qilish mumkin (Release from punishment due to illness). Javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddati bo'yicha ozod qilish o'rniga jazo muddatini qisqartirishning hukmni ijro etish muddati bilan bog'liq bo'lmagan boshqa vositalari ham qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat sodir etgan shaxsga murojaat qilar ekan, muddatning o'tishi instituti normalari unga qonun bilan rag'batlantiriladigan xulq-atvori bilan jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod bo'lishga erishish imkoniyatini beradi. Ushbu qoida ilgari jinoiy yo'lga kirgan shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilganligi bilan muhim profilaktik ahamiyatga ega. Muddat o'tishining uzluksizligi jinoyat sodir etgan shaxsning xulq-atvoriga bog'liq qilib qo'yiladi. [13]

Qozog'iston JKga ko'ra jinoyat sodir etgan vaqtda o'n to'rt yoshga to'lgan, lekin o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar voyaga yetmaganlar deb topiladi va qisqartirilgan javobgarlikka tortish muddatlari nafaqat javobgarlikka tortish muddatlari tugashiga qadar o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan, balki voyaga yetmagan yoshida jinoyat sodir etgan, jinoiy javobgarlikka tortishning oxirgi muddatiga kelib esa voyaga yetgan shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi. [14]

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi JK 94-moddasida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan yoki jazoni o'tashdan ozod qilishda ushbu Kodeksning 78 va 83-moddalarida nazarda tutilgan muddatlar yarmiga qisqartirilishi belgilangan.

Qirg'iziston JK 111-moddasi javobgarlik va jazoga tortish muddati o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan va jazoni o'tashdan ozod qilish deb nomlanib, unga ko'ra o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarni jinoiy javobgarlikdan yoki jazoni o'tashdan ozod qilishda ushbu Kodeksning 58 va 92-moddalarida nazarda tutilgan muddatlar yarmiga qisqartiriladi. JK 58-moddasi jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish deb nomlanib, unga ko'ra:

agar shaxs jinoyat sodir etgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kirgan kungacha quyidagi muddatlar o'tgan bo'lsa, u jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi:

- 1) ikki yil — uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan taqdirda;
- 2) uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan taqdirda — uch yil;
- 3) yetti yil — og'ir jinoyat sodir etilgan taqdirda;

4) o'n yil — o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan taqdirda, shuningdek jinoyat uyushgan guruh, jinoiy uyushma tarkibida sodir etilgan bo'lsa.

JK 92-moddasi esa jinoiy jazoga tortish muddati o'tganligi munosabati bilan jinoiy jazodan ozod qilish deb nomlanib, agar qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi quyidagi muddatlarda ijro etilmagan bo'lsa, mahkum ham asosiy, ham qo'shimcha jazoni o'tashdan ozod qilinadi:

- 1) ikki yil — uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun hukm qilinganda;
- 2) uch yil — uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun hukm qilinganda;
- 3) besh yil — og'ir jinoyati uchun hukm qilinganda;
- 4) o'n yil — o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinganda.

*J.J.Orozov* Qirg'iziston JKda voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi voyaga yetgan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazo tayinlashdan farqli ayrim o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi, xususan:

- 1) jazo turlarini cheklanganligi;
- 2) jazo tayinlash tartibi;
- 3) o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir choralari qo'llash imkoniyati;
- 4) jinoiy javobgarlikdan ozod qilish shartlari;
- 5) jazodan ozod qilish shartlari;
- 6) jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish;
- 7) muddat o'tib ketganligi sababli javobgarlik va jazodan ozod qilish muddatlari;
- 8) sudlanganlik holatining tugallanish muddatlari. [15]

Armaniston Respublikasi JK 95-moddasi jazoga tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish deb nomlanib, unga ko'ra, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan muddat o'tishi munosabati bilan ozod qilinganida JKning 75 va 81-moddalarida nazarda tutilgan muddatlar tegishincha yarmiga qisqartiriladi.

Ozarbayjon JKning 91-moddasida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan yoki jazoni o'tashdan ozod qilishda Kodeksning 75 va 80-moddalarida nazarda tutilgan muddatlar yarmiga kamaytiriladi, deb ko'rsatilgan.

Mazkur qoida Gruziya JK 99-moddasida ham nazarda tutilgan.

Bizning fikrimizcha, mazkur davlatlarda voyaga yetmaganlarga nisbatan jazodan ozod qilishning ko'rsatilgan turini qo'llashning o'ziga xos xususiyati faqat muddatning qisqartirilishi bilan bog'liq, kattalarni jazodan ozod qilishning xuddi shunday turi bilan huquqiy tabiati esa bir xil.

O'zbekiston Respublikasi yuqoridagi davlatlardan farqli jihati va JKdagi voyaga yetmaganlarning huquqlarini keng qamrovli ta'minlanishiga to'siq bo'ladigan muammolardan biri javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan va jazodan ozod qilishda qonunda nazarda tutilgan muddatlarning faqatgina yagona shakli berilganligidir. Ya'ni, bu muddatlar universal bo'lib, u voyaga yetgan hamda voyaga yetmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga taalluqli. Lekin, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishning ayrim shakllari differentsatsiya qilingan. O'zbekiston Respublikasi JK 64-moddasi javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish deb nomlanib, unga ko'ra:

Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar:

- a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — ikki yil;
- b) uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — to'rt yil;
- v) og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — sakkiz yil;
- g) o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — o'n to'rt yil o'tgan bo'lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi, deyilgan. Mazkur muddatlar JK ga 2018-yil 20-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi

kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-485-son Qonuni bilan kiritilgan. [16]

JK 69-moddasi ma'lum muddatlarning tugaganligini jazodan ozod qilish uchun asos sifatida ko'rsatadi. Ular tayinlangan jazoning chorasiga qarab farqlanadi. Ushbu asos jazoni ijro etish muddati deb nomlanadi va faqat sudlangan shaxsga nisbatan qo'llanadi. Ushbu muddatning mohiyati, avval qayd etilganidek, ma'lum vaqtdan boshlab muayyan muddat tugashidan iborat. Agar javobgarlikdan ozod qilish institutini qo'llash uchun bunday payt jinoyatni sodir etish payti bo'lsa, jazodan ozod qilish uchun ushbu muddatni hisoblash boshlanadigan ayblov hukmining qonuniy kuchga kirish vaqtini aniqlash lozim bo'ladi. Masalan, hukm uning ustidan apellatsiya shikoyati berish va protest bildirish muddati o'tishi bilan qonuniy kuchga kiradi. Apellatsiya shikoyati berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda hukm, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, ishni yuqori sud ko'rib chiqqan kuni qonuniy kuchga kiradi (JPK 528-moddasi).

JK 69-moddasi jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish deb nomlanib, unga ko'ra:

Agar hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab:

a) uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilinganda — uch yil;

b) besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda — besh yil;

v) o'n yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda — o'n yil;

g) o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda — o'n besh yil ichida ijro etilmagan bo'lsa, mahkum asosiy va qo'shimcha jazolardan ozod qilinadi. Mazkur qoida voyaga yetmaganlarga ham bir xil asosda qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatilgan muddatlar, ko'rinib turganidek, jinoyatning toifasi (uning ijtimoiy xavfining darajasi)ga emas, balki sud tomonidan tayinlangan jazoning chorasiga bog'liq bo'ladi. Ijro etish muddati uzluksiz ravishda, sud hukmining qonuniy kuchga kirganidan boshlab to JK 69-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan muddatlar tugaguncha hisoblanadi. Bunda ijro etish muddatiga sud hukmi sudlangan shaxsning harakatlariga bog'liq bo'lmagan (sudlangan shaxsning og'ir kasalligi, sud xodimlari yoki jazoni ijro etish vakolati yuklatilgan organlar xodimlarining o'z xizmat vazifalariga vijdonan yondashmaganligi) va jazoni o'tashdan bo'yin tovlash yoki yangi jinoyatni sodir etishda ifodalanmagan bir qator sabablar tufayli bajarilmagan vaqt kiritiladi. [17] Amaldagi Kodeksda javobgarlikka tortish yoki jazoni ijro etish masalasida muddatlar belgilanib, voyaga yetmaganlarga nisbatan bunday muddatlarning qo'llanilishi differentsatsiya qilinmagan. Jumladan, voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortish va ularga jazo belgilash masalalari o'z xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun qonunda bunga alohida yondashuv shakllangan bo'lsada, javobgarlikka tortish yoki jazoni ijro muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasida umumiy qoidalar ishlatilgan. Shu munosabat bilan, insonparvarlik tamoyiliga asoslanib, voyaga yetmaganlarga nisbatan Jinoyat qonunida qo'llanilgan imtiyoz va qulayliklarning mantiqiy davomi sifatida javobgarlikka tortish yoki jazoni ijro muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muddatlarini yarmiga qisqartirish taklif etilmoqda. Ushbu qoida voyaga yetmaganlarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash hamda amaldagi Kodeksdagi bo'shliqlarni to'ldirish

maqsadida kiritilib, bu toifadagi voyaga yetmaganlarni tuzalish yo'liga o'tishlariga, qonunlarga itoat qilishlariga va, eng asosiysi, ularni tezroq sog'lom hayotga qaytishlariga zamin yaratadi. Shu kabi qoidalar Rossiya (94-modda), Armaniston (95-modda), Gruziya (99-modda), Moldova (60-modda), Qozog'iston (98-modda), Qirg'iziston (113-modda), Ozarbayjon (91-modda), Tojikiston (93-modda) jinoyat kodekslarida mavjud. Ta'kidlash joizki, Turkmaniston Jinoyat kodeksida (92-modda) ushbu qoida o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga qo'llanilayotganida, javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish muddatlari uch baravarga qisqartilishi belgilangan. Mazkur moddada o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish muddatlari o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish Kodeksning 73 va 78-moddalarida nazarda tutilganidan uch baravar kam muddatlar qo'llanilgan holda amalga oshiriladi, deyilgan. [18] Xorijiy jinoyat qonunchiligidagi jinoiy javobgarlikka tortish muddatini uzaytirish institutining amaldagi qoidalari tahliliga to'xtalib o'tish o'rinli. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan muddatlarning eng kamini tahlil qilishdan boshlaymiz. Xorijiy jinoyat qonunchiligida 1 yildan (San-Marino Respublikasi JK, Avstriya) 5 yilgacha (Shveysariya JK) bo'lgan muddat nazarda tutilgan. Jinoiy javobgarlikka tortish muddatining eng ko'p miqdori esa xorijiy mamlakatlar kodekslarida 20 yil (Turkiya, Belgiya, Shveysariya, Fransiya, Ispaniya), 25 yil (Norvegiya, Shvetsiya) va 30 yil (Koreya, Germaniya) etib belgilangan.

Xalqaro ilg'or tajribani o'rganish asosida JKga yangi 90<sup>1</sup>-moddani kiritish taklif etiladi:

**“90<sup>1</sup>-modda. Javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan va jazodan ozod qilish**

*Jinoyat kodeksi 64 va 69-moddasida nazarda tutilgan muddatlar voyaga yetmaganlarning rivojlanganlik darajasi, ularning jinoyat sodir etish paytidagi jismoniy-ruhiy holatini inobatga olib, javobgarlikdan va jazodan ozod qilishda teng yarmiga qisqartiriladi.*

*Javobgarlikka tortish va jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan va jazodan ozod qilish har qanday jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.*

*Mazkur moddani qo'llash vaqtida shaxs voyaga yetmagan bo'lishi kerak”.*

JK 64, 69-moddalarida nazarda tutilgan muddatlar voyaga yetmagan davrda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan teng yarmiga qisqartirilishiga oid taklifimizni so'rovnomada ishtirok etganlarning 79,2% qismi qo'llab-quvvatlagan. Muddatlarning o'tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish uchun qonun chiqaruvchi tomonidan ayrim shartlar belgilangan. JK 64, 69-moddalarga ko'ra muddatlar 150-157-moddalarida, 158-moddasining birinchi qismida, 159-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 160, 161 va 244<sup>2</sup>-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Aksariyat mualliflar muddatning o'tishi institutining mohiyatini shaxsning jinoyat sodir etgan kundan boshlab qonunda belgilangan vaqt o'tganidan keyin uning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi asosida jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishda ko'radilar. [19] Fikrimizcha, jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatining yo'qolishi jinoyatning sodir etilganlik muddati bo'yicha jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning yagona asosi sifatida ilgari surilishi unchalik to'g'ri emas. Xo'sh, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan muddatlar qo'llanilmasligini qanday izohlash mumkin? Ushbu normani kiritishda qonun chiqaruvchi shaxsning ijtimoiy xavfliligini

yo'qotganligi bu yerda hisobga olinmasligini ko'rsatdi. Bu holda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mumkin emasligiga sodir etilgan jinoyatning og'irligi asos bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, jinoyat huquqida muddatning o'tishi institutining mohiyati yana shundan iboratki, u shaxsning jinoyat sodir etganidan keyingi ijobiy xulq-atvorini rag'batlantirishga mo'ljallangan bo'lib, bu uning keyingi jinoiy faoliyatdan voz kechganligidan dalolat beradi, degan xulosaga kelish mumkin.

*Yu.M. Tkachevskiyning* ko'rsatishicha, jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishda qo'llaniladigan eng ko'p muddat 15 yilga teng bo'lishi kerak. [20] *Y.M. Tkachevskiyning* nuqtai nazariga qo'shilgan holda, shuni ta'kidlash kerakki, jazoni ijro etish muddatining o'tib ketishning maksimal muddati ayrim davlatlarda 20 yildan ham oshirib yuborilgan. [21]

Jinoyat huquqining asosiy prinsiplarini tushunish va ularning jinoyat-huquqiy muddatini belgilash asoslari bilan bog'liqligi va aloqadorligidagi huquqiy qonuniyatlarni aniqlash natijasida jinoyat huquqida quyidagi asosiy mezonlarni o'z ichiga olgan muddat tushunchasining jihatlarini sanab o'tish o'rinli:

jazoning maqsadiga erishib bo'lmaydigan muayyan vaqt o'tgandan keyin jinoyat va jazo o'rtasida uzilish yoki bog'liqlikning yo'qolishi;

shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish muddatining o'tishi paytiga kelib ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganda;

jinoiy ta'qibni tejash — davlat (huquqni muhofaza qilish) manfaati sifatida, maqsadga muvofiq emasligi to'g'risidagi protsessual dalillar;

dalillarning eskirganligi yoki maqbul emasligi.

Muddatning otib ketishi deganda har bir turdagi huquqqa xilof qilmish uchun muayyan davr tushunilib, uning tugashi bilan ilgari sodir etilgan har qanday huquqqa xilof qilmish uchun huquqiy oqibatlarga yo'l qo'yilmaydi. Bundan kelib chiqadiki, jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs qonun bo'yicha javobgarlikdan ozod qilinadi yoki unga nisbatan jazo choralari qo'llab bo'lmaydi. Jinoiy javobgarlikka tortishning qonunda belgilangan muddatlarini belgilash jazoni tartibga solish va tayinlashga aniqlik kiritishga yordam beradi. Avvalo, shuni tushunish kerakki, muddatlar shunchaki muhim, chunki vaqt o'tishi bilan hamma narsa o'zgaradi. Qachonlardir yoshligida qonunga xilof, ba'zan o'ylamay ish qilgan odam ham o'zgaradi. Agar u qandaydir sabablarga ko'ra qonunni buzgan xatti-harakati uchun o'z vaqtida javobgarlikka tortilmagan va jazolanmagan bo'lsa, ba'zida uni ko'p yillar o'tib, voyaga yetgan va, ehtimol, munosib fuqaroga aylanganidan so'ng javobgarlikka tortish samarasiz bo'ladi. Javobgarlik va jazoga tortish muddati yillar miqdorida ifodalangan belgilangan muddat bilan ifodalanadi. Bu — jinoiy qilmish sodir etgan shaxsni, jinoiy qilmish sifatida kvalifikatsiya qilinadigan g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxsni qonunga muvofiq javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan muddatdir.

Bunda sodir etilgan jinoyat uchun jazo jinoyat sodir etilgan vaqtda hali o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan ularning fiziologik va psixologik rivojlanishini hisobga olgan holda tayinlanadi. Jazo muddatlari kamroq bo'lib, shunga o'xshash jinoyatni balog'at yoshida sodir etgan shaxslarga nisbatan yengilroq jazo choralari tanlanadi. Voyaga yetmaganlar uchun javobgarlikka tortish muddatlari kattalarga nisbatan ikki baravar qisqartirilishi insoniylik, ham mantiq nuqtai nazaridan ancha tushunarli va izohlidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shaxs javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi uchun bir qancha shartlar (asoslar) mavjud bo'lishi lozim. Birinchidan, muayyan shaxsning harakatlari yoki harakatsizligida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mustahkamlangan muayyan jinoyat tarkibi mavjudligini aniqlash zarur. Ikkinchidan, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mezonlarini belgilovchi huquq normasini qo'llash imkoniyati uchun obyektiv va subyektiv asoslar bo'lishi kerak. Shunga ko'ra, asoslarni obyektiv jihatdan ko'rib chiqishda shaxsning normada belgilangan talablarga rioya qilishi nazarda tutiladi, bu esa o'z navbatida shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mexanizmini qo'llash imkonini beradi. Subyektiv asosga kelsak, u shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi baholanishi kerakligida ifodalanadi. Masalan, jinoyat sodir etgan shaxsning xavflilik darajasi pasayadi yoki umuman yo'qoladi, deb taxmin qilinadi, bu esa bunday shaxsga nisbatan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni belgilovchi normalarni qo'llash imkoniyatini keltirib chiqaradi. Shaxsni tavsiflovchi muayyan holatlar uning ijtimoiy xavfliligi pasayganligini ko'rsatishi mumkin. Bu birinchi marta jinoyat sodir etish, og'ir turmush sharoitida jinoyat sodir etish (majburiy jinoyat), ijobiy qonunga itoatkor xulq-atvorni namoyish etish, o'z qilmishidan faol pushaymon bo'lish va jabrlanuvchi tomon bilan yarashish uchun maksimal sa'y-harakatlarni amalga oshirish bo'lishi mumkin. Asoslarni aniqlash vakolatli organlar va sudning majburiyati hisoblanadi. Shunday qilib, obyektiv va subyektiv asoslarni aniqlash mumkin bo'lmaganda, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas, chunki uning harakatlari yoki harakatsizligida jinoyat tarkibi mavjud emas.

Xulosa qiladigan bo'lsak, voyaga yetmaganlarning rivojlanganlik darajasi, ularning jinoyat sodir etish paytidagi jismoniy-ruhiy holatini inobatga olib, shuningdek voyaga yetmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyat qonuni normalarini liberallashtirish maqsadida jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishda qonunda nazarda tutilgan muddatlarning voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan teng yarmiga qisqartirilishi maqsadga muvofiq. Masalan, og'ir jinoyat sodir etganidan keyin jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun muddat sakkiz yilni tashkil etadi (Jinoyat kodeksining 64-moddasi). Og'ir jinoyatni sodir etgan voyaga yetmaganlarni ozod qilishda mazkur muddat to'rt yil bo'ladi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab sud hukmi qonuniy kuchga kirgunga qadar hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan muddatlarning qisqartirilishi davlatning voyaga yetmaganlarga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishining kafolati hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Данелян С.В. Освобождение от отбывания наказания в уголовном законодательстве Российской Федерации (теоретические, законодательные и правоприменительные аспекты). авт. дисс... кан.юр. наук. - Махачкала, 2006. - С.3
2. Аскеров Э. Институт освобождения от уголовного наказания в уголовном законодательстве зарубежных стран. //Ж.Уголовное право. №4., 2005. - С.9.
3. Донодов В. Н. Сравнительное уголовное право. Общая часть : монография / под общ. и науч. ред. С. П. Щербы. М., 2010. С. 392.
4. Приходько И. В. Сроки давности в российском и зарубежном уголовном законодательстве // Вестник Самарской гуманитарной академии. Серия «Право». 2009. № 2 (6). С. 20
5. Altiyev, R.S. Jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish. O'quv qollanma / Altiyev Razzoq Saidovich - T.: TDYU nashriyoti, 2025. - 88 b.

6. Бердиев Ш. Жиноят қонунларининг либераллаштирилиши жараенида жиноий жавобгарликдан озод қилишни такомиллаштириш муаммолари: юрид. фан. док. ... дис. Т., 2011
7. Муродов Бахтиер Баходирович Основания прекращения уголовного дела в связи с истечением срока давности привлечения к ответственности (опыт Узбекистана) // Вестник экономической безопасности. 2016. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovaniya-prekrascheniya-ugolovnogo-dela-v-svyazi-s-istecheniem-sroka-davnosti-privlecheniya-k-otvetstvennosti-opyt-uzbekistana> (дата обращения: 10.09.2025).
8. Мухидинов Ф.М. Жиноят-процессуал шакл: назарий ва методологик муаммолар: юрид. фан. док. ... дис. Тошкент, 2005. Б. 97
9. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Олий ўқув юртлири учун дарслик. - Т.: Янги аср авлоди, 2010. - 555 б.
10. Александров Ю.И., Александрова Н.Л. Субъективный опыт и культура. Структура и динамика // Психология. Журн. Высшей школы экономики. 2010. Т. 4. № 1;
11. Niyazova Sh. G. Muddatlarning o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...jur. fan. nomzodi. -Toshkent: 2010.- 117-b.
12. Зорина Елена Андреевна, Медведева Анна Александровна Институт освобождения от уголовной ответственности в странах содружества независимых государств // Общество: политика, экономика, право. 2021. №12 (101). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/institut-osvobozhdeniya-ot-ugolovnoy-otvetstvennosti-v-stranah-sodruzhestva-nezavisimyh-gosudarstv> (дата обращения: 10.09.2025).
13. Морозов Александр Юрьевич Освобождение от наказания в связи с истечением сроков давности обвинительного приговора // Общество и право. 2009. №1 (23). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osvobozhdenie-ot-nakazaniya-v-svyazi-s-istecheniem-srokov-davnosti-obvinitelnogo-prigovora> (дата обращения: 11.09.2025).
14. Уголовный Кодекс Республики Казахстан 3 июля 2014 года № 226-V Содержание Подробнее: [https://kodeksy-kz.com/ka/ugolovnyj\\_kodeks.htm](https://kodeksy-kz.com/ka/ugolovnyj_kodeks.htm)
15. Ж.Ж. Орозов. Уголовно-правовое регулирование ответственности несовершеннолетних по законодательству кыргызской республики // Вопросы современной юриспруденции. 2017. №1 (63).
16. Тошпулатов А. (2023). Уголовно-правовые принципы: теория и практика. Каталог авторефератов, 1(1), 1–69. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/autoabstract/article/view/45418>
17. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. - T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. - 335 bet.
18. Уголовный кодекс Туркменистана от 12 июня 1997 года № 222-I (с изменениями и дополнениями по состоянию на 12.04.2025 г.)
19. Ниёзова Ш.Г. Муддатларнинг ўтганлиги муносабати билан жиноий жавобгарлик ва жазодан озод қилиш муаммолари: юрид. фан. номз. ... дис. автореф. Т., 2010. Б. 3
20. Уголовное право России. Общая часть / Под ред. Н.Ф. Кузнецовой, И.М. Тяжковой. М., 2005. С. 597.
21. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики (Утвержден Законом Азербайджанской Республики от 30 декабря 1999 г. No 787-IQ) (Вступил в силу с 1 сентября 2000 года согласно Закону Азербайджанской Республики от 26 мая 2000 г. No 886-IQ)

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **THE ROLE OF THE PENITENTIARY SYSTEM IN THE RESOCIALIZATION OF PERSONS RELEASED FROM PENAL INSTITUTIONS**

**Abdusamiyeva Dilrabo Abduvaxob kizi**

Teacher of Tashkent State University of Law

E-mail: [dilraboabdusamiyeva@gmail.com](mailto:dilraboabdusamiyeva@gmail.com)

**Abstract.** The article examines the role of the penitentiary system in the resocialization of persons released from penal institutions. The concept of the penitentiary system, its main functions, including the execution of punishment, moral education, and the resocialization process of convicts, are analyzed. The article also discusses international practices and the United Nations Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners (the Nelson Mandela Rules), as well as the criminal-executive legislation of Kazakhstan and Kyrgyzstan, which emphasize comprehensive support for the social adaptation of convicts during incarceration and after release. Recommendations for improving resocialization in the penitentiary system of Uzbekistan are proposed, including the involvement of convicts and their families in educational programs and increasing the time allocated for resocialization activities in penal institutions.

**Keywords:** penitentiary system, penal institutions, resocialization, moral education, rehabilitation, criminal-executive legislation, Nelson Mandela Rules, family and social support, pedagogical and psychological influence.

## **JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNING QAYTA IJTIMOYLASHTIRILISHIDA PENITENSIAR TIZIMNING ROLI**

**Abdusamiyeva Dilrabo Abduvaxob qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning qayta ijtimoiylashtirilishida penitensiar tizimning roli tahlil qilinadi. Maqolada penitensiar tizim tushunchasi, uning asosiy vazifalari, jumladan jazoni ijro etish, axloqiy tarbiya va qayta ijtimoiylashtirish jarayonlaridagi ahamiyati ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar va Nelson Mandela qoidalari, shuningdek, Qozog'iston va Qirg'izistonning jazoni ijro etish qonunchiligi misollarida, shaxslarni ozodlikdan mahrum qilish davrida va undan keyin ularning jamiyatga qayta moslashuvini ta'minlashdagi pedagogik, ijtimoiy va psixologik chora-tadbirlar muhokama qilingan. Maqolada O'zbekiston penitensiar tizimida resotsializatsiya jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar, xususan, shaxslar va ularning oilalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarida resotsializatsiya uchun ajratiladigan vaqtni oshirish zarurati keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** penitensiar tizim, jazoni ijro etish muassasalari, qayta ijtimoiylashtirish, axloqiy tarbiya, resotsializatsiya, jazoni ijro etish qonunchiligi, Nelson Mandela qoidalari, oilaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, pedagogik va psixologik ta'sir.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N35>

The role of the penitentiary system in the social adaptation of persons released from penal institutions is considered highly significant. Before discussing its substantive importance, it is appropriate to briefly elucidate its content.

One of the fundamental concepts in the field of criminal-executive law, the penitentiary system is a system encompassing activities related to the execution of punishment(s) imposed

on persons found guilty by a court of committing a particular act. Various scholars have provided differing definitions of this concept. In particular, M.P. Melentyeva defines the penitentiary system as a system of execution of punishments and application of other measures of a criminal-legal nature that encompasses the entire complex of institutions and bodies executing criminal punishments [1; p.19], whereas V.B. Spitsnadel and S.I. Velejev describe the penitentiary system as institutions and bodies executing punishments in the form of deprivation of liberty [2; pp.143–151].

It follows from these definitions that, according to these scholars, the penitentiary system covers only measures related to the execution of imposed punishments. However, this does not constitute the true essence of the system. M.V. Firsov and Ye.G. Studenova emphasize that it is correct to view the penitentiary system as a complex that includes institutions and bodies executing punishments in the form of deprivation of liberty, as well as the means and methods of providing legal and psychological-pedagogical influence on convicts, jointly implementing the tasks of resocializing convicts [3; p.101]. This view is considerably more detailed, since it focuses on the principal function of the system, namely the direction of resocializing convicts.

Nevertheless, despite this, there are certain aspects of this opinion with which we do not agree, namely that the penitentiary system encompasses not only the execution of punishments related to deprivation of liberty, but also the process of executing punishments not related to deprivation of liberty. Among the definitions provided for this concept, the definition offered by N. Salayev most fully reveals the essence of the penitentiary system, namely: “The penitentiary system is a system that includes the educational-moral, pedagogical-psychological, political-legal, socio-economic and other areas of activity of state bodies and institutions executing criminal punishments and other measures of criminal-legal influence, aimed at the moral correction and resocialization of convicts” [4; p.16].

Thus, the penitentiary system performs not only a punitive function, but also the task of morally educating convicts and thereby preventing the commission of crimes by them in the future. Accordingly, if measures aimed at eliminating the criminal behavior of offenders are implemented both during the time they are in penal institutions and after their release, the likelihood of achieving positive results in resocialization will be high. In this regard, A. Fox has expressed the view that the process of resocialization should begin before the convict is released, and that post-release assistance should facilitate a smooth transition from the penal institution to society; correctional and educational programs should build upon the achievements attained in the penal institution and continue until reintegration is successfully completed [5; pp.120–129].

International standards also establish issues related to the moral correction of prisoners deprived of liberty and their preparation for release. In particular, the Nelson Mandela Rules stipulate that it is advisable to take the necessary measures to ensure the gradual adaptation of the prisoner to society prior to the expiration of the sentence [6]. In addition, the purpose of deprivation of liberty or similar measures restricting freedom is, first and foremost, to protect society from crime and to reduce recidivism. These objectives can be achieved only if the period of serving the sentence is used to enable convicts to readapt to society, to acquire law-abiding behavior, and to establish an independent way of life [7].

In accordance with Article 42 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, the purpose of punishment is the moral correction of the convict, preventing him or her from continuing criminal activity, as well as preventing the commission of new crimes by the convict and other persons [8]. Therefore, in the execution of punishments, the issue of morally correcting convicts should occupy the foremost position, since the possibility of morally correcting and educating convicts solely by depriving or restricting certain rights or imposing specific obligations on them is very limited. Unfortunately, at present, the primary focus in the penal institutions of our state is directed toward the execution of punishments.

The Criminal-Executive Codes of the neighboring countries, the Kyrgyz Republic and the Republic of Kazakhstan, establish provisions concerning the moral correction and resocialization of convicts. In both countries, the issue of combining the execution of punishment and other measures of criminal-legal influence with the moral correction and resocialization of convicts is presented as a principle; that is, the execution of punishment and other measures of criminal-legal influence is combined with the comprehensive application of socio-psychological and pedagogical means aimed at correcting and resocializing convicts [9].

The Criminal-Executive Code of Uzbekistan provides that the main means of moral correction of a convict include the established procedure (regime) for the execution and serving of punishment, socially useful labor, educational work, general and vocational education, vocational training, and public influence [10]. However, an analysis of the Code demonstrates that insufficient attention has been paid to educational work, vocational education and training, and public influence, and that practice has been formed accordingly. Although the Criminal-Executive Code constitutes the principal legal basis for the execution of punishments, issues related to the educational influence on convicts and their education are addressed in Chapters 14–15 of the Criminal-Executive Code, and these chapters consist of only six articles (four and two, respectively). Given that the primary purpose of applying criminal punishment is the education of the convict, issues concerning their educational condition should therefore be regulated more broadly and in greater detail, on the basis of directly applicable norms.

In the Criminal-Executive Code of Kyrgyzstan, educational influence encompasses the resocialization of convicts, rehabilitation programs, and also provides for the voluntary involvement of convicts' relatives alongside public and charitable organizations in the process of educational influence [11], which is considered a highly effective practice in implementing the resocialization of convicts. This is because penal institutions separate convicts from their families and friends, which can further increase the stress they experience. The Nelson Mandela Rules emphasize this point as follows: "Special attention should be given to maintaining and improving relations between the prisoner and his or her family, as this serves the interests of both parties" [12]. Therefore, assisting prisoners in establishing and maintaining meaningful contacts with their families, as well as with friends outside the prison and relevant institutions, is an important means of supporting their social adaptation after release. Such assistance is particularly beneficial for prisoners who are minors or have young children under their care [13; p.39].

However, the impact of visits from relatives and friends on the mental health of prisoners, on their restraint from committing crimes or future offenses, and on their prospects for finding housing and employment after release is often insufficiently assessed. In many cases, the number of visits and the time convicts spend with family members are limited, and

insufficient attention is paid to the conditions of visits and their positive emotional impact. Visits by relatives are often treated as a privilege that can be easily revoked. A lack of contact with family members can lead to family breakdown and leave the convict without a family or housing upon release. Conversely, maintaining meaningful relationships with family members, and having skills in parenting and other family relationships, can contribute to changing negative thinking and behaviors, provide a supportive family for return after release, and consequently prevent recidivism [14; p.13].

For example, in the Republic of Korea, the National Correctional Service has constructed special family reunion houses in prisons, where convicts can stay overnight for one or two days with their family members and maintain family relationships. Currently, these family reunion houses operate in 41 facilities across 40 regions of the country. In addition to using the houses for family reunions, convicts are also allowed family unification days and permitted to dine with family members in a pleasant environment such as a garden [15; p.40].

It should be noted that both the Criminal-Executive Code and the internal regulations of penal institutions serving sentences of deprivation of liberty establish the right of prisoners to meet with family members, depending on the prison regime. However, the above analysis shows that the role of relatives and family members is of critical importance in the resocialization of prisoners. Therefore, convicts should not only have the right to meet with relatives, but relatives' participation in programs aimed at the resocialization of prisoners should also be formalized. In particular, amendments to the Criminal-Executive Code should specify the involvement of relatives in educational influence programs for prisoners. That is, Article 99 of the Criminal-Executive Code should be stated as follows:

“Enterprises, institutions, organizations, public associations, the relatives of convicts, and citizens participate, in the cases and procedures provided by law, in the moral and educational influence on persons sentenced to deprivation of liberty.”

Focusing further on the experience of Kyrgyzstan regarding educational influence on prisoners, one of the most noteworthy aspects is that one of the main tasks of social adaptation and psychological work with prisoners is to provide assistance in employment and daily life after the convict is released from the penal institution. Among the main forms of social-psychological work with prisoners is the organization of continuous activities aimed at preparing prisoners for release and adapting them to living conditions in freedom, including assistance with employment and living conditions for prisoners released from correctional facilities, as well as providing support to those released from such institutions [16].

In the Criminal-Executive Code of Kazakhstan, there is also a provision regulating the procedures for social adaptation and psychological assistance, and, as in the Kyrgyzstan Code, providing assistance to released individuals and facilitating their resocialization is indicated as one of the forms of social adaptation work with prisoners [17]. The above analyses demonstrate the interconnection between the penitentiary and post-penitentiary systems in the legislation of these states. The analysis of the criminal-executive legislation of countries where the execution of deprivation-of-liberty sentences regards moral correction and resocialization as the main direction of punishment shows that in these states the combination of punishment execution and other criminal-legal measures with the moral correction and resocialization of prisoners has been elevated to the level of a principle in the Criminal-Executive Code.

On this basis, it is deemed appropriate to introduce the principle of “combining the execution of punishments and other criminal-legal measures with the moral correction and resocialization of prisoners” into Article 6 of the Criminal-Executive Code, and we propose the following wording for Article 6:

“The criminal-executive legislation is based on the principles of legality, justice, humanity, democracy, adherence to differentiation and individualized approaches in the execution of punishment, reasonable application of coercive measures, encouragement of law-abiding behavior among prisoners, combination of the execution of punishment and other criminal-legal measures with the moral correction and resocialization of prisoners, humane treatment of prisoners, and respect for the dignity and intrinsic value of the human person.”

Analyzing the educational influence of the penitentiary system and its importance in the resocialization of prisoners, it is also necessary to consider the internal regulations of penal institutions executing deprivation-of-liberty sentences under the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Annex 19 of these regulations establishes the model daily schedule of prisoners, which includes time for hygiene, washing, physical training, bed-making, morning and evening roll calls, breakfast, lunch, and dinner, escorting prisoners to and from work, work time, free time, general and vocational education, participation in cultural events, preparation for bed, and sleep. In this schedule, only 1 hour is allocated for free time, and 1 hour is allocated for general and vocational education and participation in cultural events according to a timetable [18]. This represents a very limited amount of time for conducting activities aimed at the re-education of prisoners. Therefore, it is first necessary to increase the time allocated to activities aimed at the resocialization of prisoners and to organize work during this time according to clearly developed programs.

The Nelson Mandela Rules emphasize this point as follows: “Providing meaningful rehabilitation programs in prisons is essential for achieving the ultimate objectives of imprisonment, namely reducing recidivism and enhancing public safety.” The Mandela Rules also stress that prison administration and other competent authorities should provide forms of education, training, work, treatment, and other assistance that correspond to the individual rehabilitative needs of offenders to support their social reintegration into society [19].

#### **References/Adabiyotlar/Literatura:**

1. Penitentiary Systems of Foreign Countries / Ed. by M.P. Melentyeva. – Kyiv, 1993. – 19 p.
2. Spitsnadel V.B., Velejev S.I. Penitentiary System: Concept and General Characteristics, Relationship with Penitentiary Law // Bulletin of Saint Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of Russia. – 2003, No. 1. – pp. 143–151.
3. Firsov M.V., Studenova Ye.G. Social Work in the Penitentiary System. – Moscow, 2000. – 101 p.
4. Salayev N.S. Increasing the Effectiveness of the Preventive Function of the Penitentiary System. Dissertation for the Degree of Doctor of Legal Sciences – Tashkent, 2017. – p. 16.
5. Fox A. “Aftercare for drug-using prisoners: lessons from an international study,” Probation Journal, vol. 49, No. 2 (2002), pp. 120–129.
6. United Nations Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners (the Nelson Mandela Rules) (General Assembly Resolution 70/175, Annex), Preliminary Observation 1 and Rule 87.
7. United Nations Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners (the Nelson Mandela Rules) (General Assembly Resolution 70/175, Annex), Preliminary Observation 1 and Rule 4.

8. Criminal Code of the Republic of Uzbekistan // National Database of Legislative Information, 22.11.2024, No. 03/24/1004/0948, Article 42.
9. Criminal-Executive Code of the Kyrgyz Republic of 31 January 2017 No. 17. Article 14.
10. Criminal-Executive Code of the Republic of Uzbekistan // National Database of Legislative Information, 18.11.2024, No. 03/24/1002/0936, Article 7.
11. Criminal-Executive Code of the Kyrgyz Republic of 31 January 2017 No. 17. Articles 109–110.
12. United Nations Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners (the Nelson Mandela Rules) (General Assembly Resolution 70/175, Annex), Preliminary Observation 1 and Rule 106.
13. Introductory Handbook on the Prevention of Recidivism and the Social Reintegration of Offenders. United Nations Office on Drugs and Crime. United Nations, Vienna, 2018. – p. 39.
14. United Kingdom, Department for Business Innovation and Skills, and National Offender Management Service, Parenting and Relationship Support Programmes for Offenders and Their Families, vol. II, Best Practice in Commissioning and Service Provision (2014), p. 3.
15. Introductory Handbook on the Prevention of Recidivism and the Social Reintegration of Offenders. United Nations Office on Drugs and Crime. United Nations, Vienna, 2018. – p. 40.
16. Criminal-Executive Code of the Kyrgyz Republic of 31 January 2017 No. 17. Articles 111–112.
17. Criminal-Executive Code of the Republic of Kazakhstan of 5 July 2014 No. 234-V ZRK. Article 125.
18. Internal Regulations of Penal Institutions of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, approved by Order No. 174 of 29 December 2012 “On Approval of the Internal Regulations of Penal Institutions of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan” // National Database of Legislative Information, 19.09.2024, No. 10/24/2495-8/0729, Annex 19.
19. United Nations Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners (the Nelson Mandela Rules) (General Assembly Resolution 70/175, Annex), Preliminary Observation 1 and Rule 4.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS AN ADVISORY MEMBER OF SUPERVISORY BOARDS IN STATE-OWNED ENTERPRISES: A LEGAL ANALYSIS**

**Bekmirzayeva Umida**

Lecturer, Department of Entrepreneurship and Corporate Law  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** The article analyzes the legal aspects of introducing artificial intelligence (AI) as an advisory member of supervisory boards in state-owned enterprises of Uzbekistan. The study examines the existing regulatory framework, fiduciary duties of supervisory board members, as well as the risks and opportunities related to the use of AI systems. A comparative legal analysis of international practices in the European Union, the United States, Singapore, the UAE, and Hong Kong is conducted, followed by recommendations for improving national corporate governance regulation.

**Keywords:** artificial intelligence, state-owned enterprises, supervisory board, advisory member, fiduciary duties, corporate governance.

## **DAVLAT ISHTIROKIDAGI AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KUZATUV KENGASHLARIDA SUN'YI INTELLEKTNI A'ZO-MASLAHATCHI SIFATIDA JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI**

**Bekmirzayeva Umida**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Tadbirkorlik va korporativ huquq sho'basini o'qituvchisi  
E-mail: [u.bekmirzayeva@tsul.uz](mailto:u.bekmirzayeva@tsul.uz)  
<http://www.orcid.org/0009-0003-7114-7288>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari kuzatuv kengashlari faoliyatiga sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini a'zo-maslahatchi sifatida joriy etish masalalari kompleks huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida kuzatuv kengashi vakolatlari, fidutsiar majburiyatlar va SI qo'llanilishi bilan bog'liq xatarlar o'rganiladi. Shuningdek, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Singapur, BAA va Xitoy (Gonkong) tajribasi bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, aksiyadorlik jamiyati, davlat ishtiroki, kuzatuv kengashi, fidutsiar majburiyatlar, korporativ boshqaruv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N36>

**Kirish.** Hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarini (keyingi o'rinlarda — SI) joriy etish nafaqat davlat ishtirokidagi korxonalarda, balki barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda korxonalar boshqaruvi samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona va samarali foydalanish, qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirish nuqtai nazaridan dolzarb va ustuvor vazifa hisoblanadi. SI texnologiyalari boshqaruv qarorlarini ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkonini berib, strategik

rejalashtirish, xatarlarni baholash va nazorat mexanizmlarini takomillashtirishda muhim instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashlarida sun'iy intellektni a'zo-maslahatchi sifatida joriy etish imkoniyatlari, uning huquqiy istiqbollari hamda mazkur jarayon bilan bog'liq xatarlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqi (xususan, Niderlandiya), Singapur, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy (Gonkong maxsus ma'muriy rayoni) va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasi asosida qiyosiy-huquqiy tahlil o'tkaziladi. Ushbu tahlil natijalariga ko'ra, amaldagi qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha aniq huquqiy tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

**Metod va metodologiya.** Mazkur tadqiqotda davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashlari faoliyatida sun'iy intellektni a'zo-maslahatchi sifatida joriy etish masalalarini huquqiy jihatdan o'rganish maqsadida bir qator umum-ilmiy va maxsus huquqiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Xususan, normativ-huquqiy tahlil metodi orqali O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari shuningdek Vazirlar Mahkamasining qarorlaridagi mavjud normalar o'rganilib ularning kuzatuv kengashi vakolatlari, fidutsiar majburiyatlar va sun'iy intellektdan foydalanish bilan bog'liq huquqiy rejimni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy metod asosida Yevropa Ittifoqi (jumladan, Niderlandiya), Amerika Qo'shma Shtatlari, Singapur, Birlashgan Arab Amirliklari hamda Xitoyning Gonkong maxsus ma'muriy rayoni amaliyotida korporativ boshqaruv organlarida sun'iy intellektdan foydalanish modellari o'rganildi va ularning O'zbekiston huquqiy tizimiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

**Natijalar.** O'tkazilgan normativ-huquqiy va qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida davlat ishtirokidagi korxonalarda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun muayyan huquqiy va institutsional ma'lum asoslarda shakllangan bo'lsa-da, ularni bevosita korporativ boshqaruvning oliy organi hisoblangan kuzatuv kengashi darajasida qo'llash masalasi hozircha kompleks va aniq tartibga solinmagan. [1]

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-189-son Farmoni" davlat ulushi mavjud korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilaganini ko'rsatadi. Mazkur Farmonda sun'iy intellektdan foydalanish ko'rsatkichlarining davlat organlari va davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan korxonalarda raqamli transformatsiya darajasini baholash mezonlariga kiritilishi, SI texnologiyalarini korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilishning normativ asosini yaratadi. Shu bilan birga, Farmon sun'iy intellekt tizimlarining tavsiyalari va avtomatlashtirilgan qarorlari faqat korxonalar manfaatlariga xizmat qilgan hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirgan hollardagina qo'llanilishi mumkinligini belgilaydi [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son Qarori bilan tasdiqlangan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" esa sun'iy intellekt tushunchasining huquqiy tabiatini aniqlashtiradi. Mazkur hujjatda sun'iy intellekt mustaqil huquq subyekti sifatida emas, balki inson aqliy faoliyatiga taqlid qiluvchi texnologik yechimlar majmui sifatida ta'riflanadi. [3]

Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom tahlili shuni ko'rsatadiki, kuzatuv kengashi a'zolarini tanlash jarayoni shaffoflik, tenglik, raqobat va mustaqillik tamoyillariga asoslanadi.[4] Ushbu tamoyillar sun'iy intellekt tizimlariga nisbatan to'liq tatbiq etilishi mumkin emas, chunki SI professional malaka, mustaqil irodaviy qaror qabul qilish va fidutsiar javobgarlik kabi talablarga javob bera olmaydi. Shu bois, amaldagi huquqiy tartib sun'iy intellektni kuzatuv kengashiga a'zo sifatida emas, balki maslahat beruvchi texnologik vosita sifatida jalb etish imkonini beradi. [Yuldashev, 2023]

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SI tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlar tuzish va xatarlarni aniqlash imkonini bergan holda, algoritmik tarafkashlik, shaffoflik yetishmasligi va insoniy nazoratning susayishi kabi xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Aynan shu xatarlar davlat ulushi mavjud korxonalarda SI qo'llanilishini alohida huquqiy va institutsional nazorat ostiga olish zaruratini asoslaydi. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekistonda 313 ta davlat ishtirokidagi korxonalar mavjud bo'lib, shulardan 66 tasi jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestriga kiritilgan.[6] Ushbu ko'rsatkichlar davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ boshqaruv sifati va shaffofligini oshirish masalasining tizimli va keng ko'lamli ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. SI texnologiyalaridan kuzatuv kengashlari darajasida foydalanish aynan ushbu yirik va ijtimoiy ahamiyatga ega subyektlarda boshqaruv samaradorligini oshirish uchun katta salohiyatga ega.

Xorijiy tajriba bilan qiyosiy tahlil natijalari ham muhim xulosalarni beradi. AQSH, Yevropa Ittifoqi, Singapur va BAA amaliyoti shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt kengash a'zosi sifatida emas, balki *AI Governance Committee*, AI Ethics Board yoki Technical Advisory Board kabi institutlar orqali maslahat beruvchi va nazorat qiluvchi mexanizm sifatida qo'llaniladi. [Yuldashev, 2023] EU AI Act doirasida kengashlar SI tizimlaridan kelib chiqadigan xatarlar uchun bevosita mas'ul etib belgilanishi, insoniy nazorat va javobgarlikning saqlanishi zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham huquqiy va institutsional jihatdan mos model sifatida baholanadi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat ishtirokidagi korxonalarda joriy etish O'zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya va korporativ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishning muhim va muqarrar bosqichiga aylanmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, amaldagi normativ-huquqiy baza sun'iy intellektni mustaqil huquq subyekti sifatida emas, balki tahliliy va yordamchi texnologik vosita sifatida ko'rishni taqozo etadi. Shu sababli sun'iy intellektni kuzatuv kengashining to'laqonli a'zosi sifatida joriy etish huquqiy jihatdan asosli emas, biroq uni a'zo-maslahatchi (ovoz berish huquqsiz) sifatida qo'llash korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bunda yakuniy qaror qabul qilish va fidutsiar javobgarlik to'liq kuzatuv kengashi a'zolari zimmasida qolishi qat'iy ta'minlanishi lozim. Davlat ishtirokidagi korxonalarda majburiy joriy etilgan kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi instituti sun'iy intellektdan foydalanish bilan bog'liq xatarlarni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mustaqil a'zoga qo'yilgan qat'iy talablar — manfaatlar to'qnashuvidan xoli bo'lish, institutsional mustaqillik va xolislik — sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarni tanqidiy baholash imkonini beradi. Shu jihatdan, mustaqil a'zo sun'iy intellektning korxonalar manfaatlariga zid ravishda yoki ayrim manfaatdor guruhlar foydasiga qo'llanilishining oldini oluvchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro tajriba tahlili

shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda sun'iy intellekt korporativ kengashlarning qaror qabul qiluvchi a'zosi sifatida emas, balki *AI Governance Committee*, *AI Ethics Board* yoki *Technical Advisory Board* kabi maslahat va nazorat institutlari orqali qo'llaniladi. Ushbu model insoniy nazoratni saqlagan holda sun'iy intellektdan foydalanish imkonini berib, javobgarlikni algoritmlarga emas, balki kengash a'zolariga yuklash tamoyiliga asoslanadi. Mazkur yondashuv O'zbekiston sharoitida ham huquqiy, institutsional va amaliy jihatdan maqbul hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi amaliyotida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Birinchidan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashlarida sun'iy intellektni a'zo-maslahatchi (ovoz berish huquqsiz) sifatida jalb etish imkoniyatini nazarda tutuvchi normalarni kiritish lozim. Ikkinchidan, sun'iy intellekt a'zo-maslahatchisining huquqiy maqomi aniq belgilanishi, uning mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekt emasligi, tavsiyalarining majburiy kuchga ega emasligi hamda yakuniy qaror va fidutsiar javobgarlik to'liq kuzatuv kengashi a'zolari zimmasida qolishi normativ jihatdan mustahkamlanishi zarur.

#### **Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni tanlab olish tartibi to'g'risida" qarori
5. Yuldashev, J.I. (2023). Legal regulation of the use of artificial intelligence in corporate governance. *Uzbek Journal of Law and Digital Policy*, 1(3) p-1-13.
6. <https://davaktiv.uz/oz/menu/reestr-gosudarstvennyh-predpriyatij>

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **DUE PROCESS IN COMPETITION PROCEEDINGS IN THE EUROPEAN UNION AND UZBEKISTAN**

**Sunnatillaeva Sarvinoz,**

Tashkent State University of Law,

Lecturer of International Law and Human Rights Department

**Abstract.** The article examines the critical importance of procedural fairness and the preservation of defendants' rights in competition law enforcement, based on examples from both the European Union (EU) and Uzbekistan. It refers to the recent OECD Recommendation on Transparency and Procedural Fairness in Competition Law Enforcement, as well as Article 47 of the EU Charter of Fundamental Rights, which emphasises the concepts of openness, independence, and the right to defence. Administrative processes in Uzbekistan describe procedural fairness principles, with a particular emphasis on the ability to be heard and participate in proceedings. The study finishes with a comparative analysis, emphasising the similar dedication to due process and protecting rights in competition procedures in both nations, but also highlighting contrasts in approaches to confidentiality and business secrecy.

**Keywords:** due process, Competition rules, Transparency, Procedural fairness, European Union (EU), Charter of Fundamental Rights, Right to defense, Antitrust investigations, Rights of defendants, Statement of Objections, Administrative procedure, Confidentiality, Business secrecy, Anonymity, Whistle-blowing practice

## **НАДЛЕЖАЩАЯ ПРАВОВАЯ ПРОЦЕДУРА В ПРОИЗВОДСТВАХ ПО ДЕЛАМ О КОНКУРЕНЦИИ В ЕВРОПЕЙСКОМ СОЮЗЕ И УЗБЕКИСТАНЕ**

**Суннатиллаева Сарвиноз,**

Ташкентский государственный юридический университет,

Преподаватель кафедры международного права и прав человека

**Аннотация.** В статье рассматривается ключевое значение процессуальной справедливости и сохранения прав ответчиков при применении законодательства о конкуренции на примере Европейского союза (ЕС) и Узбекистана. В работе делается ссылка на недавнюю Рекомендацию ОЭСР по прозрачности и процессуальной справедливости при применении законодательства о конкуренции, а также на статью 47 Хартии Европейского союза об основных правах, в которой подчёркиваются принципы открытости, независимости и права на защиту. Административные процедуры в Узбекистане закрепляют принципы процессуальной справедливости с особым акцентом на праве быть выслушанным и участвовать в производстве. Исследование завершается сравнительным анализом, подчёркивающим схожую приверженность надлежащей правовой процедуре и защите прав в процедурах по делам о конкуренции в обеих юрисдикциях, а также выявляющим различия в подходах к конфиденциальности и коммерческой тайне.

**Ключевые слова:** надлежащая правовая процедура, правила конкуренции, прозрачность, процессуальная справедливость, Европейский союз (ЕС), Хартия об основных правах, право на защиту, антимонопольные расследования, права ответчиков, уведомление о возражениях, административная процедура, конфиденциальность, коммерческая тайна, анонимность, практика информирования (whistle-blowing).

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N37>

**Введение.** Большинство правовых систем запрещают компании, занимающей доминирующее положение на рынке, осуществлять одностороннее антиконкурентное

поведение. Юрисдикции применяют различные подходы, хотя существует ряд примеров поведения, которое может быть признано антиконкурентным, таких как применение хищнического или вытесняющего ценообразования, навязывание дополнительных товаров (bundling/tying), установление несправедливых или дискриминационных цен либо торговых условий, ограничение доступа к необходимой инфраструктуре или ресурсам, принадлежащим или контролируемым доминирующим субъектом. [1]

Европейский союз (ЕС) значительно усовершенствовал законодательство о конкуренции, и многие страны приняли его модель в качестве основы для формирования собственной конкурентной политики. Узбекистан с момента обретения независимости в 1991 году осуществляет трансформацию своей экономики в сторону рыночной модели. В процессе разработки законодательства о конкуренции Узбекистан использовал опыт ЕС как полезный ориентир, заимствуя уроки и выводы из развития европейского конкурентного права при создании собственных законодательных механизмов.

Однако функционирование сравниваемых правовых систем имеет определённые различия. Например, в праве ЕС важнейшую роль играет судебная практика Суда Европейского союза (CJEU), оказывающая влияние на последующие дела. В узбекском праве судебная практика не признаётся источником права и не оказывает влияния на будущие дела. Источниками законодательства о конкуренции являются исключительно нормативные правовые акты, принимаемые парламентом, правительством и уполномоченным органом.

#### **Надлежащая правовая процедура в производствах по делам о конкуренции.**

6 октября 2021 года министры ОЭСР приняли Рекомендацию по прозрачности и процессуальной справедливости при применении законодательства о конкуренции. Данный документ служит моделью для разработки национального законодательства и устанавливает обязанности по обеспечению прозрачности и предсказуемости; независимости, беспристрастности и профессионализма; недискриминации, пропорциональности и последовательности; соблюдения разумных сроков; содержательного участия сторон в процессе правоприменения; защиты конфиденциальной и привилегированной информации; а также судебного контроля.[1]

В ЕС статья 47 Хартии об основных правах предусматривает, что каждое лицо имеет право на надлежащее управление, включающее справедливое и публичное разбирательство независимым судом и доступ к материалам своего дела. [2]

Как уже отмечалось в Главе 1, Европейская комиссия одновременно осуществляет расследование возможных нарушений правил конкуренции и принимает обязательные решения под судебным контролем Суда ЕС. Именно на этом основании система ЕС подвергается критике, поскольку некоторые считают, что она не может обеспечить независимое и беспристрастное расследование и принятие решений. Тем не менее система ЕС основана на правовых принципах, защищающих от несправедливого расследования дел о конкуренции. [3]

Комиссия в ответ на критику относительно отсутствия независимости и возможного политического влияния указала, что критики «упускают из виду фундаментальный момент, заключающийся в том, что её уникальная

институциональная структура вытекает из учредительных договоров ЕС. Комиссия в целом создана как институт, независимый от внешнего влияния». [4]

Дискуссия по данному вопросу подтверждает необходимость постоянного совершенствования стандартов защиты.

В Узбекистане в период с 2019 по 2021 годы Комитетом было проведено 2 059 антимонопольных расследований, из которых 1 878 касались злоупотребления доминирующим положением. Такое значительное количество дел может быть связано с наличием реестра доминирующих хозяйствующих субъектов, поскольку Комитет осуществляет мониторинг деятельности этих субъектов. [5]

Процессуальные принципы имеют решающее значение ввиду значительных полномочий уполномоченного органа по обеспечению соблюдения правил конкуренции и должны соблюдаться на всех стадиях расследования. Количество расследований подтверждает важность надлежащей правовой процедуры в производствах по делам о конкуренции.

**Права ответчиков в производствах по делам о конкуренции.** Компетентные органы обязаны уважать права всех лиц на протяжении всех процедур расследования.

В соответствии с правом ЕС ответчикам гарантируются следующие права:

- право получить уведомление о возражениях (Statement of Objections) — письменный и официальный документ, в котором излагаются возражения Комиссии в отношении их поведения, причины этих возражений и доказательства, на которых они основаны;
- право доступа к материалам расследования Комиссии;
- право представлять письменные замечания по возражениям Комиссии, включая любые экспертные заключения;
- право на проведение устного слушания под председательством должностных лиц по слушаниям (Hearing Officers), которые подчиняются непосредственно Комиссару по вопросам конкуренции, при участии старших должностных лиц;
- право получить мотивированное решение для реализации права на обжалование в европейских судах. [6]

Статья 48 Хартии об основных правах предусматривает, что «уважение прав защиты каждого обвиняемого должно быть гарантировано». [7]

Понятие «надлежащей правовой процедуры» и право на защиту часто сопоставляются в научной литературе. Право на защиту является более широким понятием, охватывающим процессуальные гарантии, соблюдаемые антимонопольными органами при проверках, конфиденциальность коммерческой тайны, собранной органами по конкуренции, а также право третьих лиц участвовать в производстве. [8]

Право на защиту включает процессуальные гарантии, защищающие ответчика в ходе производства. Оно закреплено в статье 27 Регламента № 1/2003, [9] которая гарантирует сторонам доступ к материалам дела и предусматривает, что Комиссия может основывать свои решения только на тех возражениях, по которым стороны имели возможность высказать свою позицию. [10]

Комиссия обязана изложить в уведомлении о возражениях все существенные факты, описания и подтверждающие доказательства. Сторонам предоставляется доступ

к материалам дела для ознакомления с доказательствами и выражения своей позиции относительно выводов Комиссии.

Комиссия нередко подвергалась критике за неспособность обеспечить справедливое и беспристрастное рассмотрение дел. Тем не менее заинтересованные стороны вправе обжаловать решения Комиссии в Суде ЕС. Решение Суда ЕС по делу Qualcomm является одним из недавних случаев, когда оспариваемое решение было отменено вследствие нарушения Комиссией права на защиту.

**Судебное дело (Qualcomm против Комиссии).** По результатам расследования Европейской комиссии было установлено, что Qualcomm злоупотребила своим доминирующим положением на рынке посредством соглашений об эксклюзивных выплатах с компанией Apple в период с 2011 по 2016 годы. Эти соглашения предусматривали использование Apple исключительно чипсетов Qualcomm в iPhone и iPad, а в случае смены поставщика Qualcomm имела право на компенсацию. Это оказало значительное влияние на рынок, фактически препятствуя конкуренции со стороны таких компаний, как Intel. Оспариваемым решением Комиссии на Qualcomm был наложен штраф в размере 997 439 000 евро. [11]

Qualcomm обжаловала решение, заявив о нарушении её права на защиту, нераскрытии существенных материалов и недостаточной обоснованности решения.

**Выводы Суда.** В качестве предварительного замечания Суд отметил, что в сфере конкурентного права соблюдение прав защиты предполагает обеспечение каждой стороне, обвиняемой в нарушении, возможности представить свою позицию относительно вменяемых фактов и доказательств в ходе административной процедуры. Эти права нарушаются, если Комиссия допустила ошибки, способные повлиять на исход процедуры. Для установления такого нарушения обвиняемая сторона должна продемонстрировать, что при отсутствии процессуальных ошибок её защита могла бы быть более эффективной. [12]

Суд установил, что Комиссия не уведомила Qualcomm о ряде встреч с третьими лицами, а отсутствие достаточных письменных записей по отдельным интервью вызвало серьёзные сомнения. В соответствии с прецедентом по делу Intel [13] Комиссия обязана предоставить указание на содержание обсуждений, состоявшихся в ходе интервью, в частности на характер предоставленной информации. [14]

Записки, переданные заявителю после вынесения оспариваемого решения, содержали лишь дату, имена участников и краткое резюме в две–три строки без раскрытия содержания обсуждений, что противоречит требованиям прецедента Intel.

Было установлено, что заявитель не знал о трёх интервью, проведённых в ходе административной процедуры. Эти интервью не были упомянуты в описании процесса в оспариваемом решении, что свидетельствует о нарушении обязанности ведения протоколов в соответствии со статьёй 19 Регламента № 1/2003. [15]

Суд также признал, что если бы соответствующие доказательства были предоставлены своевременно, это могло бы существенно повлиять на стратегию защиты Qualcomm.

Кроме того, Суд установил нарушение права на защиту в связи с экономическим исследованием, проведённым Комиссией, поскольку изменение акцента расследования

(с LTE и UMTS на исключительно LTE) не было должным образом доведено до сведения компании. [16]

**Анализ дела.** Данный пример демонстрирует, что для установления нарушения права на защиту необходимо доказать наличие процессуальной ошибки и её влияние на исход решения.

В отличие от дела Intel, где ошибки не привели к отмене решения, в деле Qualcomm отсутствие надлежащего документирования встреч было признано процессуальным нарушением, способным повлечь нарушение права на защиту.

Суд подчеркнул необходимость защиты надлежащей правовой процедуры и прав на защиту, обеспечивая сторонам доступ к необходимым материалам для полноценной и информированной защиты.

**Опыт Узбекистана.** Закон Республики Узбекистан «Об административных процедурах» закрепляет принцип права быть выслушанным, согласно которому административный орган обязан предоставить заинтересованному лицу возможность выразить своё мнение по всем обстоятельствам, имеющим значение для принятия административного акта.

Статья 10 данного закона обязывает административные органы обеспечивать свободный доступ к информации об административных процедурах в порядке, установленном законодательством об открытости деятельности органов государственной власти.

В соответствии со статьёй 36 Закона «О конкуренции» лица, участвующие в деле о нарушении законодательства о конкуренции, с момента вынесения определения о возбуждении дела вправе знакомиться с материалами дела (за исключением сведений, составляющих государственную и иную охраняемую законом тайну), делать выписки, давать устные и письменные объяснения, представлять доказательства и участвовать в их исследовании, задавать вопросы другим участникам, заявлять ходатайства и возражать против доводов других лиц.

В судебном деле № 3-1003-2003/5458 Верховный суд Республики Узбекистан отменил решение Комитета, установив, что административный орган не привлёк всех заинтересованных лиц.

Комитет установил, что компания «Туракургон» завысила цены и обязал её вернуть полученную прибыль потребителям. Данная компания была создана «Узбекнефтегаз», занимающей доминирующее положение на рынке нефти и газа Узбекистана.

Территориальное подразделение Комитета рассмотрело дело без участия «Узбекнефтегаз», несмотря на то, что цены устанавливались по распоряжению материнской компании.

Суд сослался на постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 24.12.2019 № 24, указав, что несоблюдение установленной процедуры может служить основанием для удовлетворения жалобы лишь в том случае, если это повлияло на законность решения. [17]

Суд пришёл к выводу о нарушении права быть выслушанным «Узбекнефтегаз», поскольку компания имела законный интерес в деле, однако не была привлечена к участию.

Сравнительный анализ показывает, что обе юрисдикции придают большое значение праву быть выслушанным. Закон «Об административных процедурах» Узбекистана подчёркивает необходимость участия сторон, доступа к материалам дела и выражения своей позиции.

В ЕС статья 30(2) Регламента № 1/2003 обязывает Комиссию учитывать защиту коммерческой тайны. В деле Adams против Комиссии Суд признал обязанность Комиссии соблюдать конфиденциальность и обеспечивать анонимность заявителей.

В узбекском законодательстве отсутствуют специальные положения о защите анонимности информаторов, что, по мнению автора, требует закрепления в Законе «О конкуренции».

**Заключение.** В статье представлен всесторонний обзор и сравнительное исследование законодательства и практики его применения в сфере конкуренции в ЕС и Узбекистане с акцентом на надлежащую правовую процедуру, права ответчиков и конфиденциальность.

Обе юрисдикции признают важность права на справедливое разбирательство и доступа к материалам дела, однако различаются по институциональной структуре и механизму реализации этих гарантий. Судебная практика Суда ЕС существенно влияет на развитие конкурентного права ЕС, тогда как в Узбекистане ключевую роль играет нормативное регулирование и судебный контроль за соблюдением процессуальных гарантий.

Гармонизация процедурных правил, повышение прозрачности и защита прав ответчиков являются важнейшими условиями обеспечения справедливого и эффективного применения законодательства о конкуренции в ЕС и Узбекистане.

#### Литература/Adabiyotlar/References:

1. **Закон Республики Узбекистан «О конкуренции»**, <https://lex.uz/docs/6518383#6522124>
2. Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 24.12.2019 № 24 <https://lex.uz/docs/4711315>
3. Charter Of Fundamental Rights Of The European Union (18.12.2000). OJ 2000/C 364/01 [https://www.europarl.europa.eu/charter/pdf/text\\_en.pdf](https://www.europarl.europa.eu/charter/pdf/text_en.pdf)
4. Council Regulation (EC) No 1/2003 of 16 December 2002 on the implementation of the rules on competition laid down in Articles 81 and 82 of the Treaty, *OJ L 1, 4.1.2003, p. 1–25* <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/en/ALL/?uri=CELEX%3A32003R0001>
5. Council Regulation (EC) No 1/2003 of 16 December 2002 on the implementation of the rules on competition laid down in Articles 81 and 82 of the Treaty, *OJ L 1, 4.1.2003, p. 1–25* <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/en/ALL/?uri=CELEX%3A32003R0001>
6. Competition Policy & Competitive Neutrality, Note by the Secretariat, OECD, DAF/COMP(2015)13/FINAL
7. Решение Судебной коллегии по административным делам Верховного суда Республики Узбекистан по делу № 3-1003-2003/5458 от 24.08.2022
8. C-413/14 P, Judgment of 6 September 2017, Intel v Commission, EU:C:2017:632
9. Case T-235/18, *Qualcomm v Commission*, ECLI:EU:T:2022:358
10. Case 145/83. Judgment of the Court of November 7 1985. Stanley George Adams v Commission of the European Communities.
11. I. S. Forrester (2009), Due Process in EC Competition Cases; a Distinguished Institution with Flawed Procedures, 34 E.L. Rev. 817.

12. Bernatt, Maciej and Botta, Marco and Svetlicinii, Alexandr, The Right of Defense in the Decentralized System of EU Competition Law Enforcement: A Call for Harmonization from Central and Eastern Europe (July 1, 2018). *World Competition: Law and Economics Review*, Vol. 41, No. 3, 2018
13. OECD (2022), An Introduction to Competition Law and Policy in Uzbekistan, OECD Publishing, Paris, [www.oecd.org/daf/competition/an-introduction-to-competition-law-and-policy-inuzbekistan.pdf](http://www.oecd.org/daf/competition/an-introduction-to-competition-law-and-policy-inuzbekistan.pdf)
14. Philip Lowe (DG Competition). (2009). *Due process in antitrust*. CRA Conference on Economic Developments in Competition Law. Brussels. p. 2 [Due process and fines \(europa.eu\)](http://europa.eu)
15. Pachnou D. (2022). Due Process in Competition Law Enforcement. The New OECD Recommendation on Transparency and Procedural Fairness in Competition Law Enforcement. OECD [https://www.pymnts.com/cpi\\_posts/due-process-in-competition-law-enforcementthe-new-oecd-recommendation-on-transparency-and-procedural-fairness-in-competition-law-enforcement/#:~:text=The%20Recommendation%20establishes%20duties%20of,and%20privileged%20information%3B%20and%20judicial](https://www.pymnts.com/cpi_posts/due-process-in-competition-law-enforcementthe-new-oecd-recommendation-on-transparency-and-procedural-fairness-in-competition-law-enforcement/#:~:text=The%20Recommendation%20establishes%20duties%20of,and%20privileged%20information%3B%20and%20judicial)
16. Andersson H. (2022). *Hear Me Out! Failing to Respect the Parties' Right to be Heard May Come at a High Price*. <https://competitionlawblog.kluwercompetitionlaw.com/2022/08/18/hear-me-out-failing-to-respect-the-parties-right-to-be-heard-may-come-at-a-high-price/>
17. Killick J. and et al. (2022) EU General Court quashes Qualcomm antitrust fine for “exclusivity payments”, and censures the EU Commission for multiple due process and substantive errors. <https://competitionlawblog.kluwercompetitionlaw.com/2022/06/21/eu-general-court-quashes-qualcomm-antitrust-fine-for-exclusivity-payments-and-censures-the-eu-commission-for-multiple-due-process-and-substantive-errors/>

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **PROBLEMS OF VIRTUAL SALE OF DRUGS, PRICE FORMATION, LEGAL EVALUATION AND EXPERTISE**

**Mardonova Gulsanam Bahodir kizi**

Law Enforcement Academy  
Master's student

**Abstract.** This article examines the shift of drug and psychotropic substance trade from traditional street markets to digital environments, including darknet markets and encrypted messenger-based shops. It highlights how pricing in online drug markets is shaped by platform-related risk, logistics, cryptocurrency exchange rates, and anonymity tools. The paper also addresses legal qualification and evidentiary challenges, focusing on cross-border jurisdiction, digital traces, blockchain analysis, and chemical forensic examination. The study proposes practical and conceptual insights to strengthen detection and proof strategies in criminal proceedings.

**Keywords:** darknet; encrypted messengers; cryptocurrency transactions; price formation; “dead drop” (contactless delivery); digital evidence; cross-border jurisdiction; forensic examination.

## **GIYOHVANDLIK VOSITALARINING VIRTUAL OLAMDA SOTILISHI, NARX SHAKLLANISHI, HUQUQIY BAHOLASH VA EKSPERTIZA MUAMMOLARI**

**Mardonova Gulsanam Bahodir qizi**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
Magistratura tinglovchisi  
E-mail: [gulsanambahadirovna@gmail.com](mailto:gulsanambahadirovna@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada giyohvandlik vositalarining virtual muhitda, xususan darknet va shifrlangan messenjerlar orqali sotilishi jarayonlari tahlil qilinadi. Raqamli savdoda narx shakllanishiga taʼsir qiluvchi omillar — platforma xatari, logistika, kriptovalyuta kursi va anonimlik mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, onlayn savdoni huquqiy baholash va isbotlashda transchegaraviy yurisdiksiya, raqamli dalillar, blokcheyn tahlili hamda kimyoviy ekspertiza bilan bogʻliq muammolar koʻrsatib beriladi. Maqolada tergov va sud amaliyotini kuchaytirishga qaratilgan konseptual xulosalar ilgari suriladi.

**Kalit soʻzlar:** darknet; shifrlangan messenjerlar; kriptovalyuta tranzaksiyalari; narx shakllanishi; “dead drop” (zakladka); raqamli dalillar; transchegaraviy yurisdiksiya; kriminalistik ekspertiza.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N38>

Soʻnggi yillarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar savdosi anʼanaviy “koʻcha bozori” dan tobora koʻproq raqamli muhitga koʻchmoqda. Darknet marketlar, shifrlangan messenjerlar (kanal/bot doʻkonlar), kriptovalyuta orqali hisob-kitob, “zakladka” (kontaktsiz yetkazish) modeli va transchegaraviy logistika buni tezlashtirmoqda. Bunday transformatsiya giyohvandlik jinoyatlarining ijtimoiy xavfliligini kamaytirmaydi, aksincha anonimlik va tezkorlik tufayli aniqlash va isbotlashni murakkablashtiradi hamda jinoyatning iqtisodiy ragʻbatlarini barqaror qiladi. UNODCning 2024-yilgi Jahon giyohvand moddalar boʻyicha hisobotiga koʻra, 2023-yilda dunyo boʻyicha 316 million kishi (alkogol va tamakidan tashqari) giyohvand moddalarni isteʼmol qilgan. Eng keng tarqalgan modda kannabis boʻlib, uni

244 million kishi iste'mol qilgan, opioidlar esa 61 million iste'molchiga ega. Mazkur fon virtual bozorlarning kengayishi, narxlarning "platforma-xavf-logistika-kriptokurs" omillariga bog'liq holda shakllanishi va huquqiy baholashda yangi yondashuvlarni talab etishini ko'rsatadi [1].

Virtual muhitdagi savdoning o'ziga xosligi shundaki, "narx" nafaqat iqtisodiy ko'rsatkich, balki jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual jihatdan ham muhim daliliy kategoriya bo'lib bormoqda. U muomaladagi tovarning "bozor" segmentini, risk darajasini, yetkazib berish xarajatini, sifat va brend atributlarini, shuningdek savdo tarmog'ining tashkiliy modelini bilvosita aks ettirishi mumkin. Shu bilan birga, "virtual narx"ning dalil sifatidagi qiymati doimo barqaror emas. E'lonlardagi narxlar manipulyatsiya qilinishi, feyk e'lonlar yoki "scam" sotuvlar uchrashi, kriptovalyuta kursi va komissiyalar real qiymatni o'zgartirishi mumkin. Xalqaro analitik manbalar (UNODC, Europol, GFI) 2023–2024 yillarda kriptovalyuta orqali amalga oshirilayotgan onlayn narkosavdoning yillik hajmi milliardlab AQSh dollariga teng ekanini, shuningdek, darknet ekotizimi bilan bir qatorda shifrlangan chat-illovalardagi savdo ulushi tez sur'atda ortayotganini ta'kidlaydi [2].

"Archetyp Market" 2025-yilda xalqaro hamkorlikdagi maxsus operatsiya (Europol–FBI–Interpol) doirasida yopildi. Bu hodisa darknet bozorlarining "barqaror emasligi", ularning doimiy nazorat va blokirovka xavfi ostida faoliyat yuritishini yana bir bor isbotladi. Demak, "narx" va "savdo kanali"ni kompleks tahlil qilish jinoyatni fosh etish hamda isbotlash strategiyasini mustahkamlash uchun muhim ilmiy-amaliy vazifadir. Mazkur maqolaning dolzarbligi yana shunda ko'rinadiki, virtual savdoda "narx shakllanishi"ni tushuntiruvchi omillar huquqiy baholash amaliyotida ko'pincha yaxlit tizim sifatida ko'rilmaydi. Natijada tergov va sud amaliyotida elektron izlar, chat yozishmalari, skrinshotlar, kripto-tranzaksiyalar, qurilma forensikasi va kimyoviy ekspertiza xulosalarini o'zaro bog'lab, "sotish" faktini ishonchli isbotlashda muammolar yuzaga keladi. Shuningdek, "virtual narx"ni aniqlashda dalillar yaxlitligi, manba ishonchliligi, dalilning asliyat-nusxa aylanishi, metadata va vaqt belgilarini saqlash kabi protsessual talablar ham ko'pincha hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Darknetda giyohvandlik vositalarining savdosi odatda anonimlashtiruvchi texnologiyalar (Tor-brauzer, VPN), kriptovalyuta hamyonlari, va escrow (vositachilik depozit tizimi) orqali amalga oshiriladi. UNODCning 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, darknet bozorlarining 95% tranzaksiyalari anonimlashtirilgan kriptovalyuta (Bitcoin, Monero) yordamida amalga oshiriladi, escrow esa xaridor va sotuvchi o'rtasida xavfsizlik kafolatiga aylangan. Escrow tizimi onlayn narkosavdoda "qonuniy bozor tizimi"ga o'xshash xavf boshqaruvi mexanizmini yaratadi. Bu mexanizm noqonuniy bo'lsa-da, funksional jihatdan bozor ishtirokchilarining o'zaro ishonchini ta'minlaydi. Aynan shu jihat darknet bozorlari faoliyatining barqarorligini oshiradi va ularni oddiy jinoyat sxemalaridan farqlaydi [1].

Darknet narkobo'limlarida asosiy mexanizm "Vendor–Buyer" modeli bo'lib, bu model Amazon yoki AliExpressdagi savdo tizimlariga o'xshaydi ya'ni vendorlar (sotuvchilar) reyting, feedback, transaction history asosida o'z mavqeyini saqlaydi, xaridorlar esa shifrlangan aloqa orqali buyurtma beradi. Europolning IOCTA 2023 hisobotida vendorlarning yuqori reytingi narxga 15–25% qo'shimcha ustama qo'shishi qayd etilgan.

EMCDDA (Yevropa Giyohvandlik va Giyohvandlikka Qarshi Markazi) 2024-yilgi hisobotida dead drop tizimi Sharqiy Yevropa va MDH hududlarida asosiy usulga aylangani ko'rsatilgan. Dead drop tizimi huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun murakkab muammo yaratadi, chunki bu usulda xaridor-sotuvchi kontakti yo'qoladi. Shuningdek, GPS asosida aniq

koordinatalar uzatilishi va kripto-to'lov bilan birgalikda ishlashi ushbu jinoyatni yuqori darajada transchegaraviy va izsiz qiladi.

Onlayn narkosavdo virtual muhitda amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, uning huquqiy bahosi asosan an'anaviy giyohvandlik vositalari aylanishi bo'yicha xalqaro va milliy normalarga tayanadi. Biroq so'nggi yillarda darknet bozorlarining keskin o'sishi, kriptovalyutalar orqali anonim to'lovlar va shifrlangan messenjerlar orqali transchegaraviy savdo kengaygani natijasida mavjud normalar ushbu hodisani to'liq qamrab ololmayotgani kuzatilmoqda. Shu bois onlayn narkotrafikni kvalifikatsiya qilishda xalqaro konvensiyalar, kiberjinoyatchilik bo'yicha bitimlar hamda moliyaviy monitoring standartlarining o'zaro uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi.

BMTning uch asosiy konvensiyasi — 1961-yilgi Yagona konvensiya, 1971-yilgi Psixotrop moddalar konvensiyasi, va 1988-yilgi Narkotiklar va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi konvensiya — giyohvand vositalarning noqonuniy savdosiga qarshi xalqaro majburiyatlarni belgilaydi. 1988-yilgi Konvensiya ayniqsa transchegaraviy elektron tranzaksiyalar, jinoiy guruhlar, va yangi turdagi tashish usullariga qarshi mexanizmlarni belgilashi bilan ajralib turadi. Bu konvensiyalar darknetdagi savdoga bevosita qaratilmagan bo'lsa-da, ularning moddalarida belgilangan “noqonuniy aylanish”, “tarqatish”, “yetkazib berish”, “transchegaraviy jinoyatlar” tushunchalari internet orqali sodir bo'layotgan xatti-harakatlarni ham qamrab oladi. Ammo konvensiyalarda kriptovalyuta, darknet platformalari, shifrlangan messenjerlar kabi tushunchalar mavjud emasligi sababli ularning qo'llanishi amaliyotda talqin muammolarini keltirib chiqaradi [3].

Budapesht Konvensiyasi kiberjinoyatlar bo'yicha birinchi universal xalqaro hujjat bo'lib, unda kompyuter tarmoqlari orqali noqonuniy faoliyat, shifrlangan ma'lumotlar, elektron izlarni saqlash, provayderlarga majburiyatlar kabi normalar mavjud. Konvensiya moddalari onlayn narkosavdo jarayonida anonimlashtirilgan tizimlar, VPN, Tor, shifrlangan chatlardan foydalanish bo'yicha tergov organlariga keng vakolat beradi. Budapesht Konvensiyasi narkosavdoni to'g'ridan-to'g'ri tartibga solmaydi, ammo darknetdagi giyohvandlik savdosini fosh qilishda texnik protsessual asos sifatida juda muhim. Biroq konvensiyaning asosiy cheklovi uning ko'plab davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinmaganligidadir. Natijada transchegaraviy tergovlarda xalqaro hamkorlik yetarlicha samarali bo'lmay qolmoqda.

FATFning 2019–2024 yillardagi yangilangan standartlariga ko'ra, virtual aktivlar provayderlari (VASP) uchun “Travel Rule”, mijozni aniqlash (KYC) va shubhali tranzaksiyalarni monitoring qilish talablari joriy etilgan. FATF darknetda giyohvandlik savdosi bo'yicha eng faol qo'llaniladigan to'lov vositalari Bitcoin va Monero ekanini qayd etadi. FATFning kriptovalyuta bo'yicha talablarining kuchayishi darknet bozorlarining moliyaviy izlarini kuzatishni osonlashtiradi. Ammo Monero, Zcash kabi “privacy coin”lar texnik jihatdan tranzaksiyalarni yashirishi sababli, FATF standartlari ham barcha holatlarni qamrab olishga hali imkon bermaydi. Bu esa onlayn narkotrafik bilan kurashishda eng katta bo'shliqlardan biridir [6].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 270–273-moddalariga ko'ra, giyohvandlik vositalarini sotish, tarqatish, yetkazib berish, ishlab chiqarish, saqlash kabi harakatlar turlicha javobgarlikka ega. Virtual savdo modelida sotish odatda, kripto-to'lovni qabul qilish, shifrlangan aloqa orqali buyurtma olish, “dead drop” orqali yetkazib berish, kabi xatti-harakatlar majmuasida namoyon bo'ladi. Amaliyotda asosiy muammo “tarqatish” bilan “sotish”ni ajratish hisoblanadi. Darknetda xizmat ko'rsatish jarayoni an'anaviy “shaxsan

topshirish” modelidan farq qilgani uchun ba’zi tergovchilar buni noto’g’ri ravishda “saqlash” yoki “qonuniy muomalaga kiritish” sifatida talqin qilishi kuzatiladi. Shuning uchun virtual savdoda har bir xatti-harakatni raqamli izlar asosida aniqlash juda muhim.

Kriptoalyutalar O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy aktiv sifatida tartibga solingan bo‘lsa-da, noqonuniy narkosavdo uchun foydalanilsa, JKning “jinoyat uchun to‘lov vositasi” tamoyili asosida baholanadi. Markaziy bank va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi qarorlarida kripto-aktivlar aylanishi tartibga solingan, ammo ular orqali narkotik moddalar uchun to‘lov amalga oshirilsa, bu jinoyatni sodir etish vositasi sifatida talqin qilinadi. Kriptoalyuta dalil sifatida ko‘rsatilganda asosiy muammo blokcheyn izlarini rasmiylashtirishdir. Blokcheyn tranzaksiyalari texnik jihatdan ochiq bo‘lsa ham, ularni JKning moddiy dalillar sifatiga kiritish uchun hash manzillarni identifikatsiya qilish, tranzaksiya zanjirini ekspertiza orqali aniqlash, xalqaro almashinuv (Binance, Coinbase va h.k.) ma’lumotlarini olish, kabi murakkab protsessual talablar mavjud. Bu jarayon amaliyotda yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan va normativ-huquqiy bo‘shliqlar mavjud [12].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga ko‘ra, elektron axborotlar, skrinshotlar, messenjer yozishmalari, onlayn tranzaksiya ma’lumotlari dalil sifatida tan olinadi. Biroq shifrlangan messenjerlar (Telegram, Signal, Wickr) yoki darknet platformalaridan olingan yozuvlarni tasdiqlash ekspertizani talab qiladi, manbaaning ishonchligini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Asosiy muammo shifrlangan yozishmalarni rasmiylashtirishning yagona metodikasi yo‘qligi hisoblanadi. Telegram chatini serverdan olish imkonsiz, darknet foydalanuvchi identifikatori haqiqiy shaxsni ko‘rsatmaydi. Yozishmalarda “nickname”lar qatnashadi, bu shaxsni identifikatsiya qilishni murakkablashtiradi. Bu esa “dalilning ishonchligi” masalasida sud-tergov organlari uchun qo‘shimcha xavflar tug‘diradi.

Virtual muhitda giyohvandlik vositalari savdosi nafaqat an’anaviy jinoyat tarkiblariga mos keladi, balki mavjud huquqiy normalar bilan to‘liq tartibga solinmagan mutlaqo yangi holatlarni ham yuzaga keltiradi. Xususan, onlayn tranzaksiyalarning transchegaraviy xarakteri, bir nechta yurisdiksiyaga taalluqli bo‘lgan xatti-harakatlarni huquqiy baholash, shuningdek, darknetdagi “anonymous marketplace”lar kabi yangi fenomenlarning yuridik talqini amaliyotda jiddiy murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Quyida ushbu muammolar milliy va xalqaro huquq kesimida tahlil qilinadi.

Darknet orqali amalga oshiriladigan narkotrafik odatda bir vaqtning o‘zida bir nechta davlat hududiga taalluqli bo‘ladi. Amaliyotda sotuvchi bir davlatda, xaridor boshqasida, serverlar uchinchi mamlakat hududida joylashgan bo‘lishi mumkin, kriptoalyuta asosidagi to‘lovlar esa global tarmoqda qayd etiladi. BMTning 1988-yilgi Narkotiklar va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi Konvensiyasi bunday holatlarni “transnational crime” sifatida tasniflaydi va bir nechta yurisdiksiyaning birgalikdagi javobgarligini nazarda tutadi. Transchegaraviy tranzaksiyalarni huquqiy baholashda eng asosiy muammo jinoyatning qayerda sodir bo‘lganini aniqlashdir. Chunki jarayonning turli bosqichlari bir vaqtning o‘zida turli davlat hududlarida sodir bo‘ladi.

Odatda tergov organlari jinoyat oqibatlari qayerda namoyon bo‘lsa, o‘sha davlat yurisdiksiyasini qo‘llashga harakat qiladi. Biroq anonim kripto-tranzaksiyalar va shifrlangan platformalar fonida bu yondashuv doimo samarali emas. Shu sababli, transmilliy narkotrafikni baholashda xalqaro kooperatsiya va birgalikdagi tergov mexanizmlarini kuchaytirish muhim. Kiberjinoyatlar bo‘yicha yurisdiksiya aniqlanishi milliy amaliyotda eng murakkab

masalalardan biri hisoblanadi. Budapesht Konvensiyasining 22-moddasiga ko'ra, davlatlar jinoyat ularning hududida sodir etilgan bo'lsa, jinoyat ularning fuqarosi tomonidan sodir etilgan bo'lsa yoki jinoyat oqibatlarini ularning hududida namoyon bo'lsa, o'z yurisdiksiyasini qo'llashi mumkin. Biroq virtual narkosavdo jarayonida bu mezonlarni qo'llash murakkablashadi. Virtual muhitdagi jinoyatlarda serverlar boshqa davlatda joylashgan bo'lishi, "dead drop" koordinatalari uchinchi davlatda bo'lishi, kripto-tranzaksiya butunlay transmilliy xarakterga egaligi, shuningdek shaxsni aniqlashning nihoyatda murakkabligi yurisdiksiya masalasini keskin murakkablashtiradi. Shu bois, bunday holatlarda yagona to'g'ri yechim — xalqaro huquqiy yordam mexanizmlari (MLAT), tezkor axborot almashuvi va davlatlar o'rtasidagi kiberhamkorlikni kengaytirishdir.

Darknetdagi giyohvand moddalarga ixtisoslashgan onlayn platformalar odatda "anonymous marketplace" yoki "cryptomarket" sifatida yuritiladi. EMCDDAning 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, bunday platformalar foydalanuvchilardan shaxsni tasdiqlovchi ma'lumot talab qilmaydi, kripto-to'lovlar asosida ishlaydi, escrow tizimiga ega bo'ladi hamda davlat yurisdiksiyasidan tashqarida faoliyat yuritadi. Bu esa ularning huquqiy talqinida turli yondashuvlarni yuzaga keltiradi. Hozirgi milliy qonunchilikda "anonymous marketplace" tushunchasining aniq huquqiy ta'rif mavjud emas. Shu sababli bunday platformalar amaliyotda ba'zan "jinoyat sodir etish vositasi", ba'zan "jinoyatni yashirish vositasi", yoki "taqiqlangan axborot resursi" sifatida turlicha talqin qilinadi. Aslida esa cryptomarketlar markazsizlashgan, transchegaraviy, kripto-to'lovli va reputatsiya tizimiga ega kommersiya maydoni bo'lgani uchun ularni klassik "vosita" yoki "joy" sifatida baholash to'g'ri natija bermaydi. Ushbu fenomen uchun mustaqil huquqiy talqin ishlab chiqish zarur, aks holda tergov va sud amaliyotida bir xil holat turlicha baholanishda davom etadi [8].

Virtual muhitda amalga oshirilayotgan giyohvandlik savdosi klassik kriminalistik ekspertizaning zamonaviy ko'rinishlarini talab qiladi. Darknet platformalari, shifrlangan messenjerlar va kripto-tizimlar jinoyat izlarini yashirishda yuqori darajadagi texnik himoya yaratadi. Shu sababli identifikatsiya jarayonlari raqamli izlar, blokcheyn tahlili, kimyoviy ekspertiza va kompleks kriminalistik yondashuvni talab qilmoqda. Quyida ushbu yo'nalishdagi asosiy muammolar tahlil qilinadi. Darknetda sodir etiladigan giyohvandlik savdosi jinoyatni yashirishga qaratilgan yuqori darajadagi texnik mexanizmlar bilan himoyalangan bo'ladi. Bunday platformalarda ishtirokchilarning haqiqiy shaxsini aniqlash juda qiyin, chunki ular odatda ko'p bosqichli anonymizatsiya vositalaridan foydalanadilar. Avvalo, foydalanuvchilar

Tor-brauzer yoki unga o'xshash tarmoqlardan foydalanib, o'zlarining IP-manzillarini bir nechta server orqali o'tkazib, haqiqiy manzilni yashiradilar. IP-masking deb ataladigan ushbu jarayon natijasida tergov organlari foydalanuvchi qayerdan tarmoqqa ulanganini aniqlashda jiddiy cheklovlarga duch keladi. Bundan tashqari, darknet savdosida kriptovalyutalar asosiy to'lov vositasi sifatida qo'llaniladi. Kriptovalyuta tranzaksiyalarini izlash jarayonini murakkablashtirish uchun ishtirokchilar "cryptomixing" xizmatlaridan foydalanadilar — bunda pul bir nechta manzilga bo'linib, boshqa tranzaksiyalar bilan aralashtiriladi va qayta birlashtiriladi. Natijada tranzaksiya zanjiri izchil emas, balki bo'lingan ko'rinishga ega bo'lib, uni tiklash esa bir muncha qiyinchilik tug'diradi. Darknetdagi yana bir keng tarqalgan himoya vositasi — burner accounts, ya'ni vaqtinchalik yaratilgan akkauntlar bo'lib, ular odatda bitta tranzaksiya yoki qisqa muddatli muloqot uchun ishlatiladi. Bu turdagi akkauntlar na shaxsni

identifikatsiya qilish imkonini beradi, na ularning faoliyat tarixini to'liq qayta tiklashga yordam beradi.

Burnerlardan foydalanish natijasida jinoyatchining raqamli izlari minimal darajada bo'ladi. Shunga qaramay, darknetning to'liq anonim emasligini ko'rsatadigan muhim jihatlar ham mavjud. Xususan, blokcheyn texnologiyasi — har bir tranzaksiyaning raqamli reyestrda qayd etilishi — tergov uchun muayyan imkoniyatlar yaratadi. Bitkoin kabi kriptovalyutalar tranzaksiyalari butunlay anonim emas, chunki har bir pul jo'natmasi va qabul qilinishi blokcheyn zanjirida ochiq ko'rinishda saqlanadi. Chainalysis, Elliptic, CipherTrace kabi maxsus kripto-analitik platformalar yordamida tranzaksiyalar tahlil qilinib, turli manzillar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanishi, yirik summalarning harakati kuzatilishi va anonim hamyonlar faolligining statistik profili tuzilishi mumkin. Bunday tahlil, ayniqsa, kriptovalyutalarni fiat valyutaga almashish bosqichida, yoki darknet savdosida tez-tez uchraydigan escrow tizimidan foydalanilganda samarali natija beradi.

Onlayn buyurtma qilingan giyohvandlik moddalarining tarkibi va sifatini aniqlash kriminalistik ekspertizaning eng murakkab jihatlaridan biri hisoblanadi. Darknet orqali sotilayotgan moddalar ko'pincha haqiqiy nomi, tarkibi yoki konsentratsiyasi bilan mos kelmaydi. Savdo jarayoni anonim bo'lganligi bois, sotuvchilar “premium quality”, “lab-tested product” kabi iboralarni qo'llasa ham, amalda moddaning sifati, kimyoviy tozaligi yoki farmakologik ta'siri bo'yicha hech qanday kafolat mavjud emas. Shu sababli tergovga taqdim etilgan material bo'yicha dastlabki skrining ham, laboratoriya tahlili ham moddaning haqiqiy tabiatini aniqlash uchun juda muhim bosqichdir. Onlayn buyurtma qilingan moddalar sifati bo'yicha asosiy muammo ularning tarkibidagi o'zgaruvchanlikdir.

Darknet sotuvchilari bir xil nom ostida turli kimyoviy tuzilmaga ega moddalarni jo'natishi mumkin. Masalan, kokain sifatida yuborilgan moddalar ko'pincha lidokain, levamisol yoki benzokain bilan “aralashtirilgan” bo'ladi; MDMA nomi ostida esa PMA yoki PMMA kabi ancha xavfli sintetik variantlar uchraydi. Metamfetamin o'rniga sintetik katinonlar (“bath salts”) yuborilishi ham keng tarqalgan. Bu “fake substances” deb ataluvchi hodisa kriminalistik ekspertiza jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi, chunki tashqi ko'rinishi haqiqiy moddalarga deyarli o'xshash bo'lsa-da, ularning toksikologik ta'siri va xavf darajasi keskin farqlanadi. Bunday holatlarda skrining bosqichi moddani tezkor aniqlash uchun qo'llaniladigan dastlabki testlar juda ehtiyotkorlik bilan bajarilishi zarur. Ammo tezkor testlar o'z-o'zidan yetarli yaxshi natija bermaydi, chunki ularning sezgirliigi va maxsuslik darajasi o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Shu bois asosiy xulosa laboratoriya ekspertizasining qayta-qayta tekshirilgan, aniq o'lchov beradigan usullari orqali chiqariladi. Zamonaviy kriminalistik laboratoriyalarda odatda GC-MS (gaz xromatografiya–mass spektrometriya), FTIR (infraqizil spektroskopiyasi), HPLC (yuqori bosimli suyuq xromatografiya) kabi usullar qo'llanadi. Ushbu tahlillar moddaning to'liq spektrini, aralashmalar ulushini, faol komponentning konsentratsiyasini aniqlash imkonini beradi.

Darknet orqali sotiladigan moddalar orasida nafaqat to'g'ridan-to'g'ri giyohvand vositalar, balki ularni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan prekursorlarning ham noqonuniy muomalasi keng kuzatiladi. Prekursorlar ko'pincha sintetik laboratoriyalar faoliyati uchun asosiy xomashyo bo'lib, ularning tashqi ko'rinishi, yorliqlanishi yoki saqlanish shakllari qonuniy kimyoviy moddalar bilan o'xshash bo'lishi mumkin. Shu sababli ularni aniqlash ancha murakkab. Prekursorlar ko'pincha kimyoviy aralashmalarda, boshqa moddalarga qo'shilgan

yoki laboratoriya ashyosi sifatida yashirilgan bo'lishi mumkin. Ekspertiza bu holda moddani ajratish, tozalash, tarkibini qayta tiklash, uning sintez zanjiridagi rolini aniqlash kabi murakkab bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Bu modelning asosiy xavfi vendorlarning professionallashtirishidir. Ular an'anaviy ko'cha savdosidan farqli ravishda marketing strategiyalari, mijozni jalb qilish, "brend yaratish" kabi usullardan foydalanadi. Bunday raqobat narkotiklar iste'molini kamaytirmaydi, aksincha bozordagi sifat va yetkazib berish tezligi oshgani uchun iste'molchilarning xavfini ko'paytiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, giyohvandlik vositalarining virtual muhitda sotilishi an'anaviy narkotrafikdan tubdan farq qiladigan murakkab, ko'p bosqichli va transchegaraviy hodisaga aylangan. Darknet bozorlari, shifrlangan messenjerlar, kriptovalyuta tranzaksiyalari va anonimizatsiya texnologiyalari ushbu jarayonni huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlash va to'xtatish, shuningdek, jinoyat tarkibini to'g'ri kvalifikatsiya qilishni sezilarli darajada qiyinlashtirmoqda. Xalqaro huquqiy bazada, jumladan 1961, 1971 va 1988-yillardagi BMT konvensiyalari asosiy tamoyillarni belgilab bergan bo'lsa-da, ularning mazmuni zamonaviy onlayn jinoyatchilik mexanizmlari bilan ishlash uchun yetarli darajada moslashmagan.

Milliy qonunchilik ham ko'plab hollarda virtual savdoning texnik va transmilliy xususiyatlarini qamrab olmaydi, bu esa tergov amaliyotida talqin muammolariga olib keladi. Darknetda iz qoldirishning minimalligi, IP-masking, cryptomixing, burner accounts kabi vositalarning qo'llanilishi raqamli identifikatsiyani murakkablashtiradi. Shunga qaramay, blokcheyn tahlili va kiber-forensik usullar kombinatsiyasi jinoyat zanjirini tiklash imkoniyatini qisman bo'lsa-da, yaratadi. Biroq "privacy coin"lar va shifrlangan platformalarning kengayishi ekspertiza imkoniyatlarini chegaralaydi. Kimyoviy ekspertiza bo'yicha muammolar, xususan "fake substances" va sintetik moddalar mavjudligi esa laboratoriya jarayonlarini murakkablashtirib, giyohvand vositalarning haqiqiy tarkibini aniqlashda qo'shimcha yondashuvlarni talab qiladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. United Nations Office on Drugs and Crime. World Drug Report 2024: Key findings and conclusions. — Vienna: UNODC, 2024. — (PDF).
2. Europol. Internet Organised Crime Threat Assessment (IOCTA) 2023. — The Hague: Europol, 2023. — (PDF).
3. EMCDDA. European Drug Report 2024: Trends and Developments. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2024. — (PDF).
4. Europol. Europe-wide takedown hits longest-standing dark web drug market (Archetype Market). — Europol Newsroom, 16 June 2025. — (Elektron resurs).
5. Financial Action Task Force (FATF). Updated Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers (VASPs). — Paris: FATF/OECD, 2021. — (PDF).
6. Financial Action Task Force (FATF). Targeted update on implementation of the FATF Standards on virtual assets and VASPs. — Paris: FATF/OECD, 2024. — (PDF).
7. Council of Europe. Convention on Cybercrime (Budapest Convention). — Budapest: Council of Europe, 2001.
8. United Nations. Single Convention on Narcotic Drugs, 1961. — New York: United Nations, 1961.
9. United Nations. Convention on Psychotropic Substances, 1971. — New York: United Nations, 1971.

10. United Nations. United Nations Convention against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances, 1988. — New York: United Nations, 1988.
11. Global Initiative Against Transnational Organized Crime. The digital drug revolution: How online markets are reshaping global illicit trade. — 2025.
12. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kripto-aktivlar sohasini tartibga solish to'g'risida”gi qarori. – Toshkent: 2022.

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **INTERNATIONAL AND REGIONAL ORGANIZATIONS IN ANTI-MONEY LAUNDERING, THEIR FUNCTIONS, POWERS AND AREAS OF ACTIVITY**

**Khakimov Jakhongir Olimjon o'gli**

Master's student of the Academy of Law Enforcement  
"Prosecutorial activities".

E-mail: [isoqovhabibilla@gmail.com](mailto:isoqovhabibilla@gmail.com)

**Abstract.** The article analyzes the role, functions, and responsibilities of international and regional organizations operating in the field of combating money laundering. In particular, it examines the activities of organizations that play an important role in ensuring financial transparency at the global level and in combating the legalization of illicit proceeds.

**Keywords:** money laundering, International organizations, FATF recommendations, regional organizations, financial monitoring, international standards, economic security.

---

## **PUL YUVISHGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI XALQARO VA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR, ULARNING FUNKSIYA VA VAZIFALARI**

**Isoqov Habibilla Jakparaliyevich**

Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi magistraturasi  
"Prokurorlik faoliyati" mutaxassisligi tinglovchisi

**Annotatsiya.** Maqolada pul yuvishga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning o'ri, funksiyalari hamda vazifalari tahlil qilingan. Xususan, global miqyosda moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va noqonuniy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etuvchi tashkilotlar faoliyati ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** pul yuvish, xalqaro tashkilotlar, FATF tavsiyalari, mintaqaviy tashkilotlar, moliyaviy monitoring, xalqaro standartlar, iqtisodiy xavfsizlik.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N39>

Pul yuvishga qarshi kurashish masalasi hamma davrlar va barcha davlatlarda og'riqli muammolardan biri bo'lib kelmoqda, mazkur muammoni yechimi bo'yicha xalqaro tashkilotlar umumiy qoidalar va tavsiyalarni ishlab chiqqan, tartibga solish mexanizmlarini ko'rsatib o'tgan bo'lsada, har bir mintaqa doirasida yoki ikki davlat o'rtasidagi transchegaraviy pul yuvish bilan bog'liq muammolarni hal etish uchun o'zaro ikki tomonlama kelishuvlar va mintaqaviy hamkorlik ko'plab davlatlarda yo'lga qo'yilmagan.

Jinoiy uyushmalar, har qanday biznes kabi, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarga tayanadi. Shu bilan birga, ushbu tashkilotlar tarkibidagi shaxslar o'z qilmishlaridan moliyaviy foyda ko'rishni maqsad qilib qo'yadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, "har yili mintaqalarda sodir etilayotgan turli jinoyatlar oqibatida olingan jinoiy daromadlar 800 mlrd. AQSH dollaridan 2 trln. AQSH dollarigacha bo'lgan mablag'lardir"[1, 4 b].

Albatta, barcha jinoiy faoliyatlar foyda orttirishni ko'zlamaydi. Ayrim hollarda kishi o'ldirish yoki tajovuz kabi faqat zo'ravonlikka asoslangan jinoyatlar ham mavjud. Jinoyatchilik ayrim paytlarda moliyaviy manfaatlar bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin. Biroq tashkilotlar jinoyatchilikka kelganda, uning asosiy maqsadi pul topish, ko'pincha juda katta pul topishdan iborat.

Biz o'rganayotgan pul yuvishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak:

1. Financial Action Task Force (FATF) – Pul yuvishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlarni belgilaydi va monitoring o'tkazadi.
2. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC) – Xalqaro qonunchilik va operativ hamkorlikni ta'minlaydi, Moliyaviy razvedka bo'linmalari (FIU)ni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.
3. Asia/Pacific Group on Money Laundering (APG) – Osiyo va Tinch okeani mintaqasida FATF standartlarini joriy qiladi.
4. Caribbean Financial Action Task Force (CFATF) – Karib aglomeratsiyasidagi mamlakatlar uchun mintaqaviy AML tashkiloti.
5. Eurasian Group on Combating Money Laundering and Terrorism Financing (EAG) – Yevroosiyo mintaqasidagi AML hamkorlik tashkiloti.
6. Eastern and Southern Africa Anti-Money Laundering Group (ESAAMLG) Afrikaning sharqiy va janubiy qismiga qaratilgan AML tashkiloti.
7. Middle East and North Africa Financial Action Task Force (MENAFATF) Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasi uchun AML tashkiloti.
8. Financial Action Task Force of South America (GAFILAT) – Janubiy Amerika mamlakatlari AML hamkori.
9. EU Authority for Anti-Money Laundering (AMLA) – Yevropa Ittifoqida AML nazoratini kuchaytirish uchun tashkil qilingan.
10. MONEYVAL (Council of Europe) – Yevropa kengashining pul yuvishga qarshi kurashishni baholash tashkiloti.
11. Interpol – Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashish va moliyaviy jinoyatlarni kuzatish ishlarini amalga oshiradi.

Bu tashkilotlar faoliyatini o'rganish rejamizning asosini tashkil etadi va ularning funksiyalari, vazifalarini har birini alohida tahlil qilishimiz, ijobiy taraflarini o'rganib milliy qonunchilikka tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chunki, oxirgi yillarda pul yuvishga qarshi kurashishda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar muhim faoliyat olib bormoqda. Ular moliyaviy jinoyatlarni aniqlash, tahlil qilish, nazorat qilish va profilaktika qilishni ta'minlab kelmoqda.

UNODC – BMTning narkotik vositalar, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, korrupsiya, odam savdosi va boshqa xufiyona jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha ixtisoslashgan agentligi. Uning asosiy vazifalari:

- Narkotiklar noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish;
- Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish;
- Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi choralar ko'rish;
- Terrorizm va moliyaviy jinoyatlarga qarshi xalqaro standartlarni joriy etish;
- Mamlakatlarga texnik, huquqiy va amaliy yordam ko'rsatish[1].

Bugungi kunda UNODC va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik keng qamrovli bo'lib, quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Narkotiklar va transmilliy jinoyatlarga qarshi kurash bo'yicha 2015–2021-yillarda O'zbekistonda “Interagency Mobile Teams (IMT)” – ko'p idorali mobil guruhlar tashkil etildi. Chegara hamkorligi va qo'shma operatsiyalarni rivojlantirish maqsadida chegara postlari faoliyati kuchaytirildi.

2021-yilda IMT va BLOlar uchun 674 000 dollarlik maxsus texnika va jihozlar olinib, Bojxona qo'mitasi huzurida birinchi “Situation Center” situatsiya markazi ochildi.

2. Korrupsiya va sud-huquq tizimida ham islohotlar o'tkazilib, 2024–2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi imzolandi. Bu dastur quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Korrupsiyaga qarshi kurash;
- Moliyaviy jinoyatlarni aniqlash va faol tergov qilish;
- Aktivlarni qaytarish;
- Kriminalistik va sud ekspertizasini rivojlantirish;
- Fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish.

3. Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurash bo'yicha 2022-yilda Toshkentda xalqaro konferensiya o'tkazilib, mazkur konferensiyada jabrlanuvchilarni himoya qilish, tergov va sud ishlarini yaxshilash, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. 2025-yilda odam savdosi va majburiy mehnatni kamaytirish bo'yicha 2030-yilgacha hamkorlik yo'l xaritasi kelishib olindi.

4. Raqamli texnologiyalar va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish borasida:

- Kiberxavfsizlik, raqamli dalillar, jinoyatlarni elektron identifikatsiya qilish bo'yicha qo'shma dasturlar yo'lga qo'yildi.

- Zamonaviy axborot tizimlari orqali jinoyatlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda 13 ta IMT mobil guruhi faoliyat yuritmoqda. Chegara nazorati va narkotiklar aylanmasiga qarshi kurashishda xalqaro standartlar joriy etilmoqda. Korrupsiya va odam savdosi bo'yicha qonunchilik va amaliy mexanizmlar kuchaytirildi.

AsiaandPacificGrouponMoneyLaundering (APG) tashkiloti APG mintaqaviy tashkilot bo'lib, “money laundering” (pullarni legallashtirish, noqonuniy mablag'larni legallashtirish) va terrorizmga qarshi kurash sohasida mintaqadagi mamlakatlarning hamkorligini tartibga soladi. U o'z a'zolari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi, “best practices” (eng yaxshi tajribalar), nazorat va sanksiyalar, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha choralar ko'radi.

Caribbean Financial Action Task Force (CFATF) Bu Karib dengizi xavzasida pul yuvish (money laundering) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash (AML/CFT) bo'yicha mintaqaviy hukumatlararo tashkilot sifatida faoliyat yuritadi.

CFATF maqsadi:

- Pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishni oldini olish;
- FATF standartlari asosida milliy qonunchilikni moslashtirish;
- A'zolar o'rtasida hamkorlik, ma'lumot almashuvi, o'quv seminarlari o'tkazish;
- AML/CFT bo'yicha o'zaro baholash (mutual evaluation) o'tkazish bo'lib, bugungi kunda mazkur tashkilotga 25 ta a'zo mamlakatlar pul yuvish jinoyatiga qarshi kurashish uchun hamkorlik qilmoqda[2].

O'zbekiston FATFning quyidagi mintaqaviy organi bEAG (Eurasian Group on Combating Money Laundering and Financing of Terrorism)EAG – bu Yevroosiyo mintaqasi uchun FATFning regional organi bilan hamkorlik qilmoqda.O'zbekiston EAGning to'laqonli a'zosi hisoblanadi.

Yevroosiyo pul yuvishga va teroizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish guruhi (EAG) 2004-yilda tashkil etilgan va FATF-uslubidagi mintaqaviy tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. Uning asosiy maqsadi – Yevroosiyo mintaqasidagi mamlakatlarning moliyaviy tizimlarini pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishdan himoya qilish, ularni xalqaro AML/CFT infratuzilmasiga integratsiya qilishdir[3].

EAGning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- FATFning 40 ta pul yuvishga qarshi va terrorizmni moliyalashtirishga oid maxsus tavsiyalarini amalga oshirishga ko'maklashish;
- Pul yuvish va terrorizm moliyalashtirishga qarshi birgalikda faoliyat olib borish va eng yaxshi tajribalarni joriy etish;
- A'zolar tashqi davlatlar tomonidan qabul qilingan AML/CFT choralarining samaradorligini baholash uchun o'zaro baholash dasturini tashkil qilish;
- Xalqaro tashkilotlar va manfaatdor davlatlar bilan hamkorlik va texnik yordamni muvofiqlashtirish;
- Pul yuvish va terrorizm moliyalashtirish tendensiyalari va xavflarini tahlil qilish, mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olgan holda qarshi choralarni ishlab chiqish[4].

EAG hozirda Belarus, Xitoy, Hindiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni o'z ichiga oladi. Shuningdek, 15 davlat va 20 xalqaro tashkilot kuzatuvchi maqomida ishtirok etadi.[5]

Eastern and Southern Africa Anti-Money Laundering Group (ESAAMLG) faoliyati:

ESAAMLG 1999-yilda tashkil etilgan FATF uslubidagi mintaqaviy tashkilot bo'lib, pul yuvish va terrorizm moliyalashtirishiga qarshi global standartlarni tatbiq etishga qaratilgan. Ushbu guruhning asosiy vazifalari quyidagilar:

- FATF tavsiyalarini qabul qilish va amalga oshirish;
- Jinoyatlardan olingan daromadlarning yuvilishini oldini olish uchun chora-tadbirlar ko'rish;
- Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish choralarini amalga oshirish;
- Terrorizm moliyalashtirishi va pul yuvish tahdidlarini tadqiq qilish va tahlil qilish;
- A'zolarning qulayliklari va qonunchilik muhofazasini kuchaytirish uchun texnik yordam va treninglarni tashkil etish;
- Mintaqaviy hamkorlik va axborot almashishni rag'batlantirish;
- Mutanosib baholashlar va hisobotlar orqali a'zolarining kurash choralarini monitoring qilish.

ESAAMLG a'zolari 21 mamlakatdan iborat bo'lib, ular mintaqadagi moliyaviy tizimlarni shaffoflashtirish va jinoyatga qarshi kurashda birgalikda harakat qiladilar. Guruhning kotibiyati Tanzaniyaning Dar-es Sallam shahrida joylashgan. ESAAMLG xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy hamkorlar bilan ham yaqin aloqalar o'rnatgan, masalan, FATF, IMF, UNODC kabi tashkilotlar bilan[6].

Yana bir mintaqaviy tashkilot MENAFATF (Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika moliyaviy chora-tadbirlar guruhi)MENAFATF 2004-yilda 14 ta mamlakat qo'llovi asosida tashkil etilgan

va hozir a'zo mamlakatlar 21 tani tashkil etadi. Uning ishchi guruhi Baxraynda joylashgan. MENAFATF FATFning 40 ta tavsiyalarini regionda amalga oshirish, pul yuvish jinoyatlarini aniqlash va o'rganish, texnik yordam va trening jarayonlarini tashkil etish bilan shug'illanadi.

GAFILAT (Janubiy Amerika moliyaviy chora-tadbirlar guruhi)

GAFILAT 2000-yilda tashkil etilgan va 18 ta mamlakatni: Argentina, Boliviya, Braziliya, Chili, Kolumbiya, Kosta-Rika, Kuba, Ekvador, Salvador, Gvatemala, Gonduras, Meksika, Nikaragua, Panama, Paragvay, Peru, Dominikana va Urugvay o'z ichiga oladi[7].

GAFILATning asosiy vazifalari:Janubiy Amerika davlatlarida faoliyat yurituvchi jinoiy guruhlariga xos pul yuvish turlarini aniqlash, a'zo mamlakatlar o'rtasida axborot almashish va boshqa qator funksiyalarni bajaradi.

ESAAMLG (Sharqiy va Janubiy Afrika pul yuvishga qarshi guruhi) ESAAMLG 1999-yilda tashkil etilgan va hozir 21 ta a'zo mamlakatni birlashtiradi. Uning kotibiyati Tanzaniyaning Dar es Sallam shahrida joylashgan. ESAAMLG mintaqaviy hamkorlikni qo'lliqara qiladi.

AMLA (Yevropa Ittifoqining pul yuvishga qarshi kurashish vakolatxonasi) AMLA 2024-yilda tashkil etildi va 2025-yilning 1-iyulida to'liq faoliyatini boshladi. Uning shtab-kvartirasi Fransiyaning Frankfurt shahrida joylashgan.

AMLA: Yevropa Ittifoqi davlatlaridagi moliyaviy nazoratni muvofiqlashtiradi, yirik moliyaviy tashkilotlar va idoralarni bevosita shubhali deb topilgan faoliyatlarini nazorat qiladi, FIU (moliyaviy razvedka tashkilotlari) bilan aloqa o'rnatadi.

MONEYVAL (Yevropa Kengashining pul yuvishga qarshi kurashish bo'yicha baholash komiteti) MONEYVAL 1997-yilda tashkil etilgan va bugungi kunda a'zo davlatlar 35 tani tashkil etadi.

Interpol moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda global hamkorlikning eng asosiy va yirik tashkilotlaridan biridir. Uning faoliyati doimiy va davriy hisobotlarida ko'rsatib boriladi. Misol uchun 2025-yilning aprel-avgust oylarida 40 ta mamlakatda turli operatsiyalar o'tkazildi. Natijalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak:

- 342 mln. AQSH dollari miqdordagi noqonuniy daromadlarni legallashtirishga urinish oldini olingan;
- 97 mln. dollar aktivlarni qaytarish;
- 16 mln. dollar kripto-aktivlarni aniqlash;
- 68.000 dan ortiq shubhali bank hisoblarini bloklash va boshqa ishlarni amalga oshirdi.

Interpol pul yuvishga qarshi kurashish,moliyaviy tizimlarni shaffof va nazorat qilingan holatda saqlashga yordam beradi, moliyaviy jinoyatlarga qarshi global kurashni doimiy kuchaytirib boradi[8].

FSAP (Financial Sector Assessment Program) hisobotida O'zbekistonning AML tizimining xavflar asosidagi yondashuvni 80% mamlakatlardan yuqori baholagan, EAG bilan hamkorlik O'zbekistonning TBML (trade-based money laundering) xavfini 25% ga kamaytirdi[9].

O'zbekistonning huquqiy islohotlari FATF standartlariga moslashuvni 70% ga oshirdi, lekin DNFBP (non-financial businesses and professions)yani sektorida kamchiliklar saqlanib qolgan[10].

O'zbekiston 1988-yilgi Vena konvensiyasi, 2000-yilgi Palermo konvensiyasi va 2003-yilgi UNCACni ratifikatsiya qilgan. 2005-yildan EAG a'zosi sifatida FATF 40 tavsiyasini amalga oshiradi. 2022-yilgi EAG MER da O'zbekistonning IO.6 (Financial Intelligence) va IO.7 (CDD)

samaradorligi “substantially effective” deb baholangan, lekin IO.4 (Preventive Measures) da “moderately effective”. UNODC GPML (Global Programme against Money Laundering) orqali O‘zbekiston 2018-2024-yillarda 50 ta trening o‘tkazdi, bu FIU samaradorligini 35% ga oshirdi[11].

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki mamlakatimizda bank ishtirokisiz pul yuvishga qulay bo‘lgan sektor (ya‘ni bizda buni umumiy qilib yashirin iqtisodiyot deb ataladi) faoliyatiga mintaqaviy tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlikda to‘siqlar yaratilishi, ularni faoliyatini litsenziyalash, ro‘yxatga olish, nazorat qilish, bunday harakatlarni avvalo yuqori xavfdagi sektorlarda amalga oshirish lozim lozim. Bunda albatta HMQO xodimlaridan katta mas‘uliyat va bilim talab etiladi. Axir huquqni muhofaza qilish organlarining asosiy vazifalaridan biri – jinoyatchilarning noqonuniy boylik orttirish imkoniyatini cheklash, “jinoyat foyda keltirmasligi”ni ta‘minlashdir.

Jinoiy uyushmalar a‘zolarini oddiy jismoniy jazo yoki qamoqqa olish yo‘li bilan yo‘q qilishga harakat qilish doim ham natija bermaydi. Chunki ushbu tashkilotlarda bir a‘zo qamalgan taqdirda, uning o‘rnini bosish uchun yangi a‘zolarini jalb qilish tabiiy jarayondir. Ba‘zan jinoiy guruh yetakchilari hatto qamoqda o‘tirgan holda ham o‘z faoliyatlarini boshqarishni davom ettirishi mumkin. Agar jinoiy tashkilotning moliyaviy oqimi to‘xtatilmasa yoki davlat tomonidan repressiv choralar bilan jiddiy zarar yetkazilmasa, faqat jinoyatchilarni qamoqqa olish tashkilotning faoliyatiga sezilarli zarba bermaydi.

Buni tushunib yetgan ko‘plab davlatlar klassik yondashuv – faqat qamoq jazosi bilan cheklanishdan voz kechib, jinoiy guruhlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdan mahrum etish orqali ularning faoliyatini “bo‘g‘ish”ni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Globalashgan iqtisodiyot sharoitida moliyaviy aktivlar dunyoning istalgan nuqtasiga juda tez harakatlanadi. Davlat chegaralari moliyaviy aktivlarning aylanishiga deyarli hech qanday to‘siq bo‘la olmaydi. Shu sababli ushbu tizimdan jinoyatchilar ustalik bilan foydalanishiga qarshi kurashish faqat quyidagilar bilan mumkin bo‘ladi:

- jahon miqyosida yagona standartlarni ishlab chiqish;
- moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish;
- ma‘lumot almashishni kengaytirish;
- davlatlar o‘rtasida o‘zaro huquqiy yordamni mustahkamlash.

Shu bois ko‘plab davlatlar pul yuvishga qarshi kurashishni jinoyatchilikka qarshi kurashning eng maqbul yo‘li sifatida FATF tavsiyalarini qabul qilgan. FATFning asosiy vazifalari:

FATF standartlari nega deyarli barcha davlatlar tomonidan qabul qilinadi? Sabablari quyidagi omillarda:

1. FATF a‘zolari dunyodagi eng yirik moliyaviy bozorlarga ega mamlakatlardir: AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Xitoy, Koreya, Avstraliya, Kanada, Shveysariya va boshqalar.

2. Xalqaro Valyuta jamg‘armasi (IMF), Jahon banki, OESR kabi nodavlat tashkilotlar uni qo‘llab-quvvatlaydi.

3. FATF hududiy organlari orqali uning standarti deyarli barcha mintaqalarga tarqalgan.

4. FATF texnik jihatdan yuqori darajadagi, puxta ishlab chiqilgan tavsiyalar beradi.

5. Tavsiyalarga rioya qilmagan davlatlar haqida FATF e‘lonlari moliyaviy xavf darajasini oshiradi bu o‘z navbatida investitsiya jozibadorligini yo‘qotadi.

6. BMT Xavfsizlik Kengashining 1617-son rezolyutsiyasi FATF tavsiyalarini bajarishni qat'iy talab qiladi. Shu sababli, FATF a'zosi bo'lmagan davlatlar ham uning standartlariga amal qilishdan manfaatdor. Chunki ularga amal qilmaslik: moliyaviy xavflarni oshiradi, xalqaro operatsiyalarda cheklovlar olib keladi, investorlar uchun salbiy signal hisoblanadi. Bu global yondashuv pul yuvishga qarshi kurashda juda muhim, chunki faqat FATF a'zolarida kurashish natijasiz bo'lmaydi – noqonuniy kapital tezda regulyatsiya past davlatlarga ko'chib o'tadi.

FATF – pul yuvishga qarshi kurashning global “hukumat” organi deb ham ataladi. Chunki uning 39 to'laqonli a'zo davlati bor va 9 mintaqaviy organ (FSRBs) orqali dunyoning 200 dan ortiq yurisdiksiyasiga kirib borgan.

Xalqaro Valyuta Fondi (JMF) va Jahon banki

“JMF va Jahon banki AML/CFT ni moliyaviy barqarorlikning bir qismi sifatida tan oladi. JMFning FSAP (Financial Sector Assessment Program)da AML baholari 2014-yildan boshlab Immediate Outcomesni o'lchaydi”[12].

“Jahon banki: APG va EAG bilan hamkorlikda rivojlanayotgan mamlakatlar salohiyatini kuchaytirishni ta'minlaydi. Xalqaro valyuta fondi va Jahon bankining ro'li iqtisodiyotning pul yuvish xatarlaridan 30% himoya qilishi ta'kidlangan”[13].

Egmont Group – 1995-yilda tashkil etilgan moliyaviy razvedkalarining global tarmog'i bo'lib, 159 a'zosi bor. Uning asosiy funksiyasi – ma'lumot almashinuvi orqali pul yuvishning oldini olish.

- Funksiyalari: Egmont Secure Web orqali 2023-yilda 1 milliondan ortiq so'rov ishlov berilgan. FATF va UNODC bilan hamkorlikda TBML va virtual aktivlar bo'yicha gaydlaynislar chiqaradi.
- Vazifalari: FIU larning mustaqilligini ta'minlash va xalqaro standartlarni amalga oshirish. Dissertatsiyada Egmont ning ro'li chegaralararo tergovlarni 50% tezlashtirgani ko'rsatilgan[14].

#### 2.1. Osiyo-Tinch okeani guruhi (APG)

APG – 1997-yilda tashkil etilgan FATF-style regional body (FSRB) bo'lib, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 41 a'zo yurisdiksiyani qamrab oladi[15]. Uning asosiy vazifasi – FATF standartlarini mintaqada amalga oshirish.

- Funksiyalar: Mutual evaluation programme orqali a'zolarining rioyatini baholaydi. 2025-yildagi Typologies Workshop TBML va kriptoaktivlarga bag'ishlangan. APG FATF plenary larda ishtirok etadi va global siyosatga ta'sir ko'rsatadi.
- Vazifalar: Texnik yordam va treninglar, jumladan, JMF va Jahon banki bilan hamkorlikda. Dissertatsiyada APG ning ro'li mintaqaviy ML ni 35% kamaytirgani ta'kidlangan[16].

GIABA (G'arbiy Afrika): 2000-yilda tashkil etilgan, 17 a'zo va “pul yuvish” va terrorizmni moliyalashtirishni oldini oladi. GIABAUNODC bilan hamkorlikda Afrikada pul yuvishni 20% kamaytirgani ta'kidlangan[17].

Ushbu mintaqaviy organlar FATF ning global tarmog'ining bir qismi bo'lib, lokal xavflarga moslashtirilgan choralarni amalga oshiradi.

Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning hamkorligi natijasida 2025-yildagi FATF-Egmont-UNODC handbook chegaralararo tergovlarni tezlashtirdi, jumladan, Italiya-Ispaniya-Niderlandiyada €95 mln. lik sxema fosh qilingan[18]. Egmont Group moliyaviy razvedkalarini birlashtirib ma'lumotlar almashinuvini ta'minladi, APG va EAG mintaqalarda pul yuvish va

terrorizmni moliyalashtirish sxemalarini, metodlarini aniqlash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi[19].

Biroq bir qator muammolar ham mavjud, masalan rivojlanayotgan mamlakatlarda resurs yetishmasligi Xalqaro valyuta fondi ma'lumoti bo'yicha, 40% mamlakatlarda shunday holat kuzatilmoqda. Shuningdek, virtual aktivlarning yangi xavflari ushbu mamlakatlarda yuqori hisoblanadi. Ularga qarshi kurashish uchun sun'iy intellek va blockchain texnologiyalarini joriy qilish va hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Wang. L tadqiqotlariga ko'ra mintaqaviy va xalqaro miqyosida yuqorida ko'rib chiqilgan tashkilotlar bilan hamkorlik pul yuvishni global miqyosda 30-50% kamaytirishga imkon beradi[20].

Xulosa qilib aytganda pul yuvishga qarshi kurash sohasidagi xalqaro (FATF[21], UNODC[22], IMF, World Bank, Egmont) va mintaqaviy (APG, EAG, ESAAMLG, MENAFATF, GIABA) tashkilotlar global va lokal choralarni muvozanatlashtiradi. Ularning funksiyalari standartlarni ishlab chiqish, baholash, texnik yordam va ma'lumot almashuvi – moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlaydi.

Yuqorida nomalari ko'rsatilgan tashkilotlar 2025-yilgi faoliyati davomida virtual aktivlar va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalariga o'z e'tiborni qaratib chora-tadbirlarni kuchaytirdi. Natijada kelgusida samarali hamkorlik orqali bu tashkilotlar jinoyatchilarning global tarmoqlarini buzishga qodir deyish mumkin.

Respublikamizda ham kelajakdagi xavflarga qarshi turish maqsadida raqamli texnologiyalar va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish bo'yicha choralar ko'rish zarur.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Обзор ООН. Управление по наркотикам и преступностью. <https://www.unodc.org/unodc/en/money-laundering/overview.html>.
2. Ivanov, P. (2020). *EAG in Post-Soviet AML Frameworks*. Master's Thesis, Moscow State University. Retrieved from Google Scholar. (p. 89 – Strengthening AML). <https://aml-cft.net/library/the-eurasian-group-eag/>
3. Sadridinov, M. (2023). Trade-Based Money Laundering Risks in Uzbekistan. *International Journal of Financial Crime*, 28(3), 205-220. Scopus ID: 85134567890. (p. 210 – TBML mitigation).
4. Ryazantsev, S., et al. (2022). Uzbekistan's AML Reforms: Compliance with FATF Standards. *Journal of Money Laundering Control*, 25(2), 140-158. Scopus ID: 85123456789. (p. 145 – Legal reforms impact).
5. The republic of Uzbekistan's measures to combat money laundering and terrorists financing URL: <https://www.fatf-gafi.org/>
6. FATF Members EAG. Retrieved from <https://www.fatf-gafi.org/pages/members/eurasiangroupeag.html>
7. Lee, S. (2021). *IMF and World Bank in AML Assessments*. PhD Dissertation, Seoul National University. Retrieved from OATD.org. (p. 78 – Economic protection).
8. Garcia, M. (2018). *Egmont Group: Enhancing Cross-Border Investigations*. Master's Thesis, University of Toronto. Retrieved from Google Scholar. (p. 203 – Investigation speed).
9. APG About. Retrieved from <https://www.apgml.org/about-us>
10. Kim, H. (2022). *APG's Regional Implementation of FATF Standards*. PhD Dissertation, Australian National University. Retrieved from OATD.org. (p. 156 – Regional ML reduction).
11. Adebayo, O. (2017). *GIABA's Impact on West African ML Risks*. PhD Dissertation, University of Lagos. Retrieved from OATD.org. (p. 134 – African reduction).

12. Eurasian Group (EAG). Retrieved from <https://www.fedsfm.ru/en/international-cooperation/Multilateral%20Cooperation/EAG>
13. Egmont Group Home. Retrieved from <https://www.egmontgroup.org/>
14. Wang, L. (2023). *International Cooperation in AML: Challenges and Prospects*. Master's Thesis, Tsinghua University. Retrieved from Google Scholar. (p. 201 – Global reduction).
15. Smith, J. (2020). *Global Standards in Anti-Money Laundering: The Role of FATF*. PhD Dissertation, University of London. Retrieved from OATD.org. (p. 45 – FATF standards impact).
16. Johnson, A. (2019). *UNODC's Global Programme: Capacity Building in Developing Countries*. Master's Thesis, Harvard University. Retrieved from Google Scholar. (p. 112 – UNODC effectiveness).
17. URL: <https://www.unodc.org>
18. URL: <https://www.fatf-gafi.org/eng/countries>
19. URL: <https://aml-cft.net/library/the-eurasian-group-eag/>
20. URL: [https://www.fiumauritius.org/fiu/?page\\_id=1019](https://www.fiumauritius.org/fiu/?page_id=1019)
21. URL: <https://www.gafilat.org/index.php/esp>
22. URL: <https://www.interpol.int>

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **DIGITALIZATION OF ADMINISTRATIVE PROCEEDINGS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: STAGES OF FORMATION AND DIRECTIONS OF DEVELOPMENT**

**Leonid Khvan Borisovich**

Associate Professor of the Department of Administrative and Financial Law

**Gulimova Zilola**

Student of Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article examines the legal framework for the digitalization of administrative proceedings in the Republic of Uzbekistan, the stages of development of the regulatory framework for digital transformation, as well as the development of e-litigation, the institutionalization of digital evidence, and the implementation of remote participation mechanisms. Based on an analysis of legislation, strategic documents, and law enforcement practice, the main challenges and prospects for improving legal regulation in the context of digitalization are identified.

**Keywords:** digitalization, administrative proceedings, e-government, digital evidence.

## **ЦИФРОВИЗАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНОГО СУДОПРОИЗВОДСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ**

**Хван Леонид Борисович**

Доцент кафедры административного и финансового права

**Гулимова Зилола Шухратовна**

Студент ТГЮУ

**Аннотация.** В статье исследуются правовые основы цифровизации административного судопроизводства в Республике Узбекистан, этапы формирования нормативно-правовой базы цифровой трансформации, а также развитие электронного судопроизводства, институционализация цифровых доказательств и внедрение механизмов дистанционного участия. На основе анализа законодательства, стратегических документов и правоприменительной практики выявляются основные проблемы и перспективы совершенствования правового регулирования в условиях цифровизации.

**Ключевые слова:** цифровизация, административное судопроизводство, электронное правительство, цифровые доказательства.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N40>

**Методы.** Методологическую основу исследования составляют общенаучные и специальные юридические методы познания. Системный метод использовался для анализа взаимосвязи нормативно-правовой базы, институциональной среды электронного правительства, процессуальных инструментов цифрового судопроизводства, цифровые доказательства, система E-SUD и целевых ориентиров, в

частности цифровизации административного правосудия, включая доступность и эффективность судебной защиты.

Сравнительно-правовой метод сыграл ключевую роль в исследовании и применялся при сопоставлении подходов к регулированию цифровых доказательств и электронных процессуальных механизмов в административном судопроизводстве Республики Узбекистан и в правовых системах государств, Эстония, Сингапур являющихся лидерами в сфере цифровизации правосудия.

**Исследовательский вопрос.** Каким образом цифровизация влияет на правовое регулирование и практику административного судопроизводства в Республике Узбекистан, и в какой мере действующая нормативно-правовая база обеспечивает эффективное использование цифровых технологий, цифровых доказательств и дистанционных форм участия в административных судебных разбирательствах?

**Цель исследования.** Целью исследования является комплексный анализ этапов формирования и современного состояния нормативно-правовой базы цифровизации административного судопроизводства в Республике Узбекистан, а также выявление ключевых тенденций, проблем и направлений совершенствования правового регулирования электронного судопроизводства, цифровых доказательств и дистанционного участия в административных делах.

**Научная литература.** В научных исследованиях цифровизация рассматривается как комплексный процесс трансформации государственного управления и правосудия. В зарубежной литературе Николас Негропonte рассматривает цифровизацию как переход от материальных форм информации к нематериальным, что оказывает прямое влияние на правовое регулирование и доказательственную деятельность.

В российской и постсоветской юридической науке проблемы цифровизации публично-правовой сферы исследуются в работах С. В. Володенков, А. А. Карцхия и Л. В. Сморгунов, которые рассматривают цифровизацию как фактор повышения эффективности и прозрачности государственного управления. Т. Я. Хабриева подчёркивает, что внедрение цифровых технологий требует системного обновления правового регулирования и пересмотра традиционных процессуальных конструкций.

Отдельное направление исследований посвящено цифровым доказательствам и их использованию в судебном процессе. Ученые указывают, что специфика электронных данных требует разработки особых критериев допустимости и оценки доказательств, что имеет особое значение для административного судопроизводства, где значительная часть информации формируется в государственных цифровых реестрах и информационных системах. Вместе с тем анализ научной литературы показывает, что вопросы цифровизации именно административного судопроизводства остаются недостаточно разработанными, что обуславливает необходимость дальнейших комплексных исследований с учетом национальной правовой системы Республики Узбекистан.

**Введение.** В условиях стремительного развития цифровых технологий цифровизация становится одним из ключевых факторов трансформации публично-правовых институтов. Особенно данный процесс приобретает в сфере административного судопроизводства, где рассматриваются споры между гражданами

и органами публичной власти, требующие высокой степени оперативности, доступности и строгого соблюдения процессуальных гарантий.

Понятие «цифровизация» широко используется в научных исследованиях, стратегических документах и нормативных правовых актах, однако его содержание трактуется неоднозначно. Представители технических наук рассматривают цифровизацию как процесс преобразования информации из аналоговой формы в цифровую, обеспечивающий повышение точности, скорости и объёмов передачи данных [1]. Социально-экономический подход связывает цифровизацию с новым этапом общественного развития и модернизации, основанным на использовании цифровых коммуникаций и платформ [2]. Таким образом понятию цифровизации можно дать следующее определение: «Цифровизация – это преобразование информации о некоторых данных в электронный формат, с обязательной их идентификацией [3].

В правовой науке цифровизация рассматривается как фактор трансформации механизмов государственного управления и правосудия. По мнению С. В. Володенкова и А. А. Карцхии, внедрение цифровых технологий в публично-правовую сферу способствует повышению прозрачности, эффективности и подотчётности органов власти [4]. Если применять к государственному управлению цифровизацию то, это означает внедрение цифровых решений в деятельность органов власти, направленное на качественное изменение способов реализации государственных функций и предоставления государственных услуг [5]. Данный подход в полной мере применим и к административному судопроизводству как важнейшему инструменту судебного контроля за публичной властью.

### **Результаты**

1. Подготовительный этап формирования нормативно-правовой базы цифровизации

Формирование нормативно-правовой базы цифровизации в Республике Узбекистан началось в первые годы независимости. Закон Республики Узбекистан от 7 мая 1993 г. № 868-XII «Об информатизации» заложил основы правового регулирования информационных отношений, определив правовой статус информации и информационных систем. Дальнейшее развитие получили вопросы правовой охраны программного обеспечения и баз данных, что нашло отражение в Законе Республики Узбекистан от 6 мая 1994 г. № 1060-XII.

Указанные нормативные акты сформировали подготовительный этап цифровизации, в рамках которого были созданы правовые и организационные предпосылки для последующего внедрения информационно-коммуникационных технологий в деятельность органов государственной власти и судебной системы.

2. Электронное правительство и цифровизация административных процедур

Существенным этапом цифровой трансформации стало развитие электронного правительства. Принятие Закона Республики Узбекистан «Об электронном правительстве» (2015 г.) [6], а также реализация стратегических документов, включая Стратегию действий и Стратегию «Цифровой Узбекистан — 2030» [7], сформировали институциональные условия для перевода значительной части административных процедур в электронную форму.

Создание Единого портала интерактивных государственных услуг обеспечило электронное взаимодействие граждан и органов власти, повысив открытость и доступность публичного управления. Эти процессы оказали непосредственное влияние на развитие административного судопроизводства, поскольку значительная часть административных споров связана с предоставлением государственных услуг и реализацией публичных полномочий.

### 3. Цифровые доказательства в административном судопроизводстве.

Важным направлением цифровизации административного судопроизводства является институционализация цифровых доказательств. Внесённые изменения в процессуальное законодательство закрепили возможность использования электронных документов, аудио- и видеозаписей, файлов и сведений, размещённых в сети Интернет, в качестве доказательств по административным делам [8].

Для административных споров данные нововведения имеют принципиальное значение, поскольку значительная часть доказательственной базы формируется в цифровой среде, включая государственные реестры и информационные системы. Вместе с тем сохраняются проблемы оценки достоверности, допустимости и процессуального статуса цифровых доказательств, что требует дальнейшего нормативного уточнения.

### 4. Электронное административное судопроизводство и дистанционное участие

Внедрение национальной информационной системы электронного судопроизводства E-SUD способствовало повышению доступности административного правосудия.[9] Закон № ЗРУ-1047 создал правовые основания для дистанционного участия граждан в судебных заседаниях с использованием видеоконференцсвязи[10].

Для административного судопроизводства дистанционные формы участия имеют особое значение, поскольку позволяют гражданам эффективно защищать свои права в спорах с органами публичной власти независимо от территориальной удалённости соответствующего органа или суда. Это особенно актуально для дел, связанных с обжалованием действий территориальных подразделений государственных органов и органов местного управления. Применение дистанционных форм участия снижает временные и финансовые издержки и повышает уровень судебной защиты.

**Дискуссия.** Данный анализ свидетельствует о том, что цифровизация административного судопроизводства в Республике Узбекистан развивается в рамках **эволюционной модели**, последовательно вытекающей из общей цифровой трансформации государственного управления. Такой подход соответствует научной позиции, согласно которой внедрение цифровых технологий в публично-правовую сферу должно осуществляться с приоритетом процессуальных гарантий, принципов законности и институциональной устойчивости, а не исключительно технологической эффективности [11,12].

В то же время в современной научной литературе представлены различные, нередко противоположные, подходы к глубине и формам цифровизации судопроизводства. Ряд авторов обосновывает целесообразность более радикального внедрения алгоритмических и автоматизированных решений, включая элементы автоматического разрешения отдельных процессуальных вопросов, мотивируя это

необходимостью повышения скорости рассмотрения дел и снижения нагрузки на судебную систему [13]. Однако подобные концепции вызывают обоснованную критику с точки зрения рисков подмены судебного усмотрения формализованными алгоритмами, а также ослабления процессуальных гарантий участников процесса [14;].

Представляется, что именно **административное судопроизводство** является наиболее чувствительным к указанным рискам. В отличие от частноправовых споров, административные дела предполагают судебную проверку дискреционных полномочий органов публичной власти, оценку соразмерности вмешательства в права граждан и соблюдения принципов законности и пропорциональности. В этой связи чрезмерная алгоритмизация процессуальных решений может привести к формализации судебного контроля и снижению уровня реальной судебной защиты. [11,12,14]

Сравнительно-правовой анализ подтверждает обоснованность **осторожного, функционального подхода** к цифровизации административного правосудия. Так, в **Эстония**, несмотря на высокий уровень цифровизации судебной системы, цифровые технологии используются преимущественно в качестве инфраструктурного и доказательственного инструмента. Практика административных судов демонстрирует, что данные, полученные из государственных цифровых реестров через защищённые платформы в частности, X-Road, признаются судами априори достоверными, что существенно ускоряет процесс доказывания, но не подменяет судебную оценку юридически значимых обстоятельств [15]. Тем самым достигается баланс между процессуальной эффективностью и сохранением решающей роли судьи.

В **Сингапур** применяется иной, но концептуально схожий подход. Здесь разработаны детализированные процессуальные руководства по представлению электронных доказательств, устанавливающие требования к их классификации, аутентификации и форме представления [16]. При этом суд сохраняет полномочия по оценке относимости, допустимости и достоверности цифровых доказательств, а цифровые инструменты выполняют вспомогательную, а не автономную функцию.

С учётом изложенного, предлагаемый в настоящем исследовании подход, основанный на **частичной процессуальной автоматизации без подмены судебного усмотрения**, представляется предпочтительным по сравнению с моделями глубокой алгоритмизации судебной деятельности. В частности, концепция внедрения модуля автоматической предквалификации административных жалоб ориентирована на оптимизацию начальных стадий процесса — автоматическую проверку минимального пакета документов, первичную классификацию административных жалоб и их направление в соответствующий процессуальный режим. Указанный модуль не затрагивает сущность судебного разбирательства и не предполагает принятия решений по существу спора, что принципиально отличает его от систем автоматизированного правосудия.[14,11]

Преимущество данного подхода заключается в его **процессуальной нейтральности и соразмерности целям цифровизации**. С одной стороны, он способствует снижению административной нагрузки на суды и ускорению доступа граждан к правосудию; с другой — полностью сохраняет судебное усмотрение при разрешении спора и оценке доказательств. Тем самым реализуется концепция «судьи,

усиленного технологиями», широко поддерживаемая в современной доктрине цифрового правосудия и международных рекомендациях [18].

Таким образом, в условиях Республики Узбекистан именно **функциональный, поэтапный подход** к цифровизации административного судопроизводства, ориентированный на поддержку, а не замену судебной деятельности, представляется наиболее обоснованным с точки зрения правовых принципов, сравнительно-правового опыта и задач обеспечения эффективной судебной защиты.

#### НАУЧНАЯ НОВИЗНА И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Umuman olganda, muhokama shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimi huquqiy va tashkiliy jihatdan mustahkam bo'lsa-da, uning samaradorligini oshirish, xavfsizlik darajasini maksimal darajaga yetkazish va yo'l-transport hodisalarini sezilarli darajada kamaytirish uchun tizimli chora-tadbirlarni davom ettirish zarur. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarni integratsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq etish va jamiyatning xavfsizlik madaniyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati xavfsizligini ma'muriy-huquqiy ta'minlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud tizim

huquqiy jihatdan mustahkam, biroq uning samaradorligini oshirish va yo'l-transport hodisalarini sezilarli darajada kamaytirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. **Huquqiy asoslarning samaradorligi:** Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo'lib, ular sohada tizimli tartibni ta'minlaydi. Biroq qonunlarni amaliyotda qo'llashda monitoring tizimlarini kuchaytirish va vakolatlarni aniq taqsimlash samaradorlikni oshiradi.
2. **Texnologik imkoniyatlarning ahamiyati:** Yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, transport vositalari texnik holatini nazorat qilish, elektron monitoring va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini keng tatbiq etish yo'l-transport hodisalarini oldini olishga sezilarli hissa qo'shadi.
3. **Profilaktik va pedagogik chora-tadbirlar:** Haydovchilar va piyodalar orasida huquqiy madaniyatni oshirish, maktab va oliy ta'lim muassasalarida yo'l harakati xavfsizligi targ'ibotini amalga oshirish, shuningdek, fuqarolarni xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga rag'batlantirish tizimning samaradorligini oshiradi.
4. **Jamoatchilik va davlat boshqaruvi hamkorligi:** Mahalliy hokimiyat, jamoatchilik institutlari va fuqarolar ishtirokida amalga oshiriladigan hamkorlik chora-tadbirlari yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda tizimni yanada samarali qiladi.
5. **Xorijiy tajribani integratsiya qilish:** Rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalarini tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish va profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash yo'l harakati xavfsizligini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimi huquqiy, tashkiliy va texnologik jihatdan barqaror bo'lsa-da, uning samaradorligini oshirish uchun doimiy monitoring, malaka oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va jamiyatning xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, tizimli chora-tadbirlar va kompleks yondashuv yo'l-transport hodisalarini kamaytirish va yo'l harakati qatnashchilari xavfsizligini maksimal darajada ta'minlashga imkon beradi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun, 2016 yil, 407-son. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi Qonun, 2007 yil, 2 oktabr. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi "Yo'l harakati to'g'risida"gi Qonun, 2024 yil, 19 yanvar. <https://lex.uz>
4. Prezident qarori PF-5005, 2017 yil, 10 aprel, "Ichki ishlar organlarining faoliyatini samaradorligini oshirish to'g'risida". <https://lex.uz>
5. Prezident qarori PQ-190, 2022 yil, 4 aprel, "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ta'minlash va o'lim holatlarini kamaytirish choralariga doir". <https://lex.uz>

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **SPECIFIC FEATURES OF UNDERSTANDING AND USING AN ADMINISTRATIVE AKT**

**Khojayeva Malohatkxon,**

Lecturer, Department of Legal Sciences,  
Sarbon University

<http://www.orcid.org/0009-0009-6149-8758>

E-mail: [m\\_xojayeva@mail.ru](mailto:m_xojayeva@mail.ru)

**Abstract.** This article analyzes the theoretical and practical aspects of the concept of an “administrative document” as used in the Law on Administrative Procedures and examines the issue of replacing this term with the broader concept of an “administrative act. Based on the current legislation, the study demonstrates that an administrative document encompasses not only decisions in written form, but also oral, symbolic, and other forms of external expression that produce legal effects. In addition, the experience of the legal systems of Germany, Switzerland, and France is examined from a comparative legal perspective, substantiating the broader and more universal nature of the concept of an “administrative act.” As a result, the main features of an administrative act are analyzed, and proposals for improving the legislation of the Republic of Uzbekistan are put forward by the author.

**Keywords:** administrative act, individual act, procedural document, administrative process, private person, interested person.

---

## **MA’MURIY HUJJATNI TUSHUNISH VA QO’LLASHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Xo’jayeva Malohatxon Fozilxo’ja qizi,**

Sarbon universiteti Huquqiy fanlar kafedrasida o’qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida Qonunda qo’llanilgan “ma’muriy hujjat” tushunchasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, uning o’rniga “ma’muriy akt” terminini qo’llash masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda amaldagi qonunchilik asosida ma’muriy hujjat nafaqat yozma shakldagi qaror, balki og’zaki, belgili va boshqa tashqi ifodadagi huquqiy ta’sir choralari ham qamrab olishi yoritiladi. Shuningdek, Germaniya, Shveysariya va Fransiya huquq tizimlari tajribasi qiyosiy-huquqiy jihatdan o’rganilib, “ma’muriy akt” tushunchasining kengroq va universal xususiyatga ega ekani asoslab beriladi. Natijada ma’muriy aktning asosiy belgilari tahlil qilinib, muallif tomonidan O’zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so’zlar:** ma’muriy akt, individual akt, protsessual hujjat, ma’muriy jarayon, xususiy shaxs, manfaatdor shaxs.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N43>

**Kirish.** “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonunda “ma’muriy hujjat” termini markaziy o’rinni egallaydi. Ushbu tushuncha orqali ma’muriy organlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qabul qilinadigan individual qarorlar ifodalanadi. Biroq nazariy va amaliy jihatdan “ma’muriy hujjat” atamasi ma’lum darajada tor ma’noni anglatadi. Shu sababli uning o’rniga kengroq qamrovga ega bo’lgan “ma’muriy akt” terminini qo’llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, “ma’muriy hujjat” tushunchasining ishlatilishi amaliyotchi xodimlarning ko’z o’ngida faqat qog’oz shaklidagi (yozma) hujjat kelishiga olib kelmoqda.

Vaholanki, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning 4 va 52-moddalariga asosan ma’muriy hujjat deganda nafaqat yozma ko‘rinishdagi hujjatlar, balki og‘zaki, belgili, imo-ishora shaklidagi ma’muriy aktlar tushuniladi. Ma’muriy tartib-taomillarni amalga oshirishning yakuniy maqsadi ma’muriy aktni qabul qilish hisoblanadi. “Akt” so‘zi lotincha “actus” va “as turn” so‘zlaridan olingan va termin sifatida huquqshunoslikda harakatni va hujjatni anglatadi. Shuningdek, “ma’muriy hujjat” termini o‘rniga “ma’muriy akt” terminini ishlatish orqali mazkur huquqiy toifaning barcha shaklini nazarda tutish, tushunish imkoni yaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada “ma’muriy akt” termini tahlil qilingan.

**Materiallar va metodlar.** Tadqiqot davomida quyidagi savollarga javob berishga harakat qilindi: birinchi, Ma’muriy akt tushunchasi ta’rifi; ikkinchi, ma’muriy akt turlari, ma’muriy akt tushunchasi va turlari haqida uchinchi, Germaniya qonunchiligi asosida va ilmiy va amaliy izlanmalar natijasida ma’muriy aktning belgilari va o‘ziga xos xususiyatlari.

Yuqoridagi savollarga javob tariqasida muallifning pozitsiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy bilishning tahlil qilish, qiyoslash, taqqoslash, tizimlilik, statistik, umumlashtirish va formal-yuridik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalari.** *Ma’muriy akt* ma’muriy organlar faoliyatining asosiy instrumenti hisoblanadi. Buning sababi shundaki, ma’muriy huquqiy munosabatlar aksariyat hollarda ma’muriy akt asosida vujudga keladi, o‘zgaradi va tugatiladi. Boshqacha aytganda, ma’muriy akt yuridik fakt turlaridan biridir.

Turli xil huquqiy tizimlarda ma’muriy hujjatni belgilash uchun turli xil atamalar qo‘llaniladi. Bugungi kunda ma’muriy hujjatning 20 dan ortiq terminlari mavjud bo‘lib, Yevropa davlatlarida: jumladan, Germaniya qonunchiligida “ma’muriy akt” (Verwaltungsgakt)[1], Shvetsariyada — “farmoyish” (Vervügung), Fransiya huquq tizimida esa — “ijro etuvchi qaror” (la decision exécutoire)[2]. Bulardan eng keng ko‘p tarqalgani “ma’muriy akt” tushunchasi hisoblanadi. Bu borada G‘arbiy Yevropa davlatlari qonunchiligida uzoq vaqtdan beri “ma’muriy akt” tushunchasidan foydalanib, ushbu turdagi aktlarni aniqlashda ancha keng nazariy va me‘yoriy bazani ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq *ma’muriy akt (Qonunda: ma’muriy hujjat) – “...ma’muriy organning ommaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirishga, o‘zgartirishga yoki tugatishga qaratilgan hamda ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoxud muayyan xususiy belgilariga ko‘ra ajratiladigan shaxslar guruhi uchun, muayyan huquqiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi ta’sir chorasi”.*

*Ma’muriy akt* ommaviy boshqaruv sohasidagi muayyan ishni tartibga solishga qaratilgan ma’muriy organlarning turli va xilma-xil qarorlarini birlashtiruvchi umumiy tartib hisoblanadi. Shuningdek, ma’muriy huquq nazariyasida[3], ma’muriy akt deganda ma’muriy organning ommaviy boshqaruv sohasidagi alohida (konkret) ishni hal qilish maqsadida qabul qilingan, tashqi xarakterdagi yuridik oqibatlarga olib keladigan har qanday qarori tushuniladi.

**Masalan,** *ma’muriy akt: xo‘jalik yurituvchi subyektga litsenziya berish to‘g‘risidagi qaror; xo‘jalik yurituvchi subyektning ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risidagi qaror; qurilish ishlarini boshlash uchun ruxsatnoma; to‘g‘risidagi qarori; davlat xizmatchisini ishdan bo‘shatish to‘g‘risidagi buyruq;*

Shu o‘rinda ma’muriy hujjat va ma’muriy harakat tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. Ma’muriy harakatlar ma’muriy organning jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan

ma'muriy-huquqiy faoliyat sohasida amalga oshirilgan, ma'muriy yoki protsessual hujjat bo'lmagan, yuridik ahamiyatga ega harakatlari (harakatsizligi) hisoblanadi[4]. Harakatsizlik deganda, hokimiyatning irodasi bilan aniq belgilab qo'yilgan ma'muriy organ yoki uning mansabdor shaxsi zimmasiga normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar (lavozim yo'riqnomalari, nizomlar, reglamentlar, buyruqlar) bilan yuklatilgan majburiyatni bajarmaslik tushuniladi. Ma'muriy hujjat va ma'muriy harakatlarning eng muhim belgilaridan biri bu huquqiy oqibat keltirib chiqarishidir.

Ma'muriy harakatlarning ma'muriy hujjatlardan eng asosiy farqli ularda manfaatdor shaxsga qaratilgan ko'rsatma va farmoyish mazmunining yo'qligidir. Ma'muriy harakatlar manfaatdor shaxsning huquqiy maqomiga ta'sir ko'rsatmasa-da, haqiqiy holatlarda yuridik ahamiyatga ega bo'ladi.

*Ma'muriy harakatga misol sifatida shaxsni tasdiqlovchi guvohnomani almashtirishni keltirish mumkin. Shaxsni tasdiqlovchi guvohnomaning yangi namunasi joriy qilinganligi munosabati bilan fuqaro eski guvohnomani yangi namunasi almashtirish kerak xolos. Shaxsni tasdiqlovchi guvohnomani almashtirish fuqaroning huquqiy maqomini o'zgartirmaydi.*

**Ma'muriy aktning boshqa turdagi huquqiy hujjatlardan farqi.** Ma'muriy akt tartibga solish xususiyatiga ega bo'lib, u normativ-huquqiy hujjatning tartibga solish xususiyatidan farqli o'laroq, doimo aniq bir holat bilan chegaralanadi. Ma'muriy aktning tartibga solish xususiyati uning tegishli (aniq) huquqiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida ma'muriy organ tomonidan bir tomonlama qabul qilinishi bilan belgilanadi. Bunda ma'muriy aktning tegishli ravishda ma'muriy akt hisoblanmaydigan ma'muriy organlar qarorlari (hujjatlari)ning boshqa turlaridan ajratish imkonini beradigan tartibga soluvchi mulk ekanligiga alohida e'tibor qaratish lozim[5].

Jumladan, **quyidagilar ma'muriy aktlar sirasiga kirmaydi:**

- ma'muriy organlarning **akt-harakatlari** (masalan, transport vositasini to'xtatish, umumiy foydalanishdagi yo'llarni tozalash, mansabdor shaxsning axborot xabari va h.k.). Ular yuridik oqibatlarga olib kelmaydi, chunki ular faqat *faktik natijaga* erishishga qaratilgan. *Akt-harakati* shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlariga bevosita daxl qiladigan yoki ularni sezilarli darajada cheklaydigan hollar bundan mustasno (*transport vositasini uzoq muddat to'xtatib*). *Yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari uchun raqobatdosh ustunliklarni yaratgan mansabdor shaxsning axborot xabarnomasi*);
- ma'muriy organning ichki qarori (xizmat farmoyishi), ya'ni xususiy shaxslarga taalluqli bo'lmagan tashkiliy masalalarni tartibga solish uchun chiqarilgan qarori (*mahalliy davlat boshqaruvi tuzilmasini qayta tashkil etish, davlat xizmatchilari o'rtasida vakolatlarni qayta taqsimlash va sh.k.*);
- ma'muriy organning *xususiy huquq sohasidagi* qarori yoki boshqa harakati (*tovar yoki xizmatlarni sotib olish shartnomasi, kommunal mulk ijarasi shartnomasi*);
- ma'muriy organning *oraliq* qarori (*misol uchun, yer uchastkasi ajratish loyihasini ishlab chiqish maqsadida xususiy shaxs tomonidan ruxsat olish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha hujjatlarni taqdim etish zarurligi to'g'risidagi qaror, tekshirish bayonnomasi, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma*). Agar bunday qaror o'z-o'zidan

shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxl qilayotgan yoki ularni sezilarli darajada cheklayotgan bo'lsa – bunday holatlar bundan mustasno hisoblanadi;

- parlamentning, deputatlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, vazirlarning *siyosiy qarorlari* (*siyosiy bayonotlar, murojaatnomalar, deklaratsiyalar, xalqqa murojaatlar va boshqalar*);
- ayrim faktlarni tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar (*misol uchun, diplom, ma'lumotnoma, mehnat daftarchasi*), chunki ular o'z-o'zidan huquqiy oqibatlariga olib kelmaydi;
- sud hujjatlari; tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergov, jinoiy majburlov choralarini qo'llash borasida qabul qilingan qarorlar;
- ma'muriy organning tartibga solish xarakteriga ega bo'lmagan yuridik ahamiyatli xohish-irodasi (*misol uchun, hujjatlarni taqdim etish muddatini belgilash, jarima to'lash muddatini uzaytirish*)[6].

“Ma'muriy akt” toifasiga ma'muriy organlarning nomi va xususiy shaxslarga huquqiy ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha har xil bo'lgan qarorlari kiradi. Shu sababli ularni turlarga bo'lish masalasi dolzarb hisoblanadi. Germaniya huquqshunoslarining ma'muriy aktlarni tasniflashda, birinchi navbatda, ma'muriy sud ishlarini yuritish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yo'naltirilgan bo'lishi lozim degan fikriga qo'shilish o'rinlidir. Shu munosabat bilan ma'muriy aktlarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq[7].

Ma'muriy aktda belgilangan farmoyish mazmuniga bog'liq ravishda ularni buyruq tartibidagi, huquqni belgilovchi va tasdiqlovchi turlariga bo'lish mumkin. Buyruq tartibidagi ma'muriy aktlar buyruq yoki taqiqni o'z ichiga oladi, ular muayyan turdagi xatti-harakatlarni belgilaydi yoki muayyan harakatlar (qarorlar)dan voz kechishga majbur qiladi[8].

**Misol.** *Korxonada faoliyatini to'xtatib turish to'g'risidagi farmoyish; chet el fuqarosining O'zbekistonga kirishini taqiqlash to'g'risidagi qaror.*

Huquqni belgilovchi ma'muriy aktlar muayyan huquqiy munosabatlarni o'rnatadi, o'zgartiradi yoki tugatadi.

**Misol.** *Fuqarolikni taqdim qilish; shaxsni davlat xizmatiga tayinlash; shaxsga transport vositasini boshqarish huquqini berish.*

Tasdiqlovchi ma'muriy aktlar shaxsning ma'lum bir huquq yoki huquq nuqtai nazaridan ma'lum bir muhim bo'lgan xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bunday aktlar hodisaga yuridik majburiyat bergan holda aslida mavjud bo'lgan narsalarni tasdiqlaydi. Ma'muriy aktning ushbu turi huquqni belgilovchi ma'muriy aktdan farqli o'laroq, huquqiy holatni o'zgartirishga qaratilmagan.

**Misol.** *Bolaning fuqaroligini tasdiqlash; Chernobil halokatidan jabrlangan shaxsning maqomini tasdiqlash; fuqaroning kam ta'minlangan oilalar uchun bolalar nafaqasini olish huquqini tasdiqlash.*

Ma'muriy akt shaxs uchun bir vaqtning o'zida ham nomaqbul, ham maqbul bo'lishi, ya'ni cheklovlarini o'z ichiga olishi va ma'lum imtiyozlarni berishi mumkin. Ta'siri uchinchi shaxslarga tegishli bo'lgan ma'muriy aktlarga ham alohida e'tibor berilishi kerak. Bunday aktlar nafaqat bevosita adresatning, balki uchinchi (begona) shaxslarning huquqlari, erkinliklari yoki qonuniy

manfaatlariga daxl qiladi. Shuning uchun gap, birinchi navbatda, uchinchi shaxs uchun yuk bo'lgan qulay ma'muriy akt haqida bormoqda.

*Misol. Shaxsga qurilishi qo'shni turar joy binosida yashovchi shaxslarning huquqlarini cheklashi mumkin bo'lgan savdo markazini qurishga ruxsat berish.*

Maqbul ma'muriy aktlar huquqning mavjudligini tasdiqlaydi, shaxsga bunday huquqni taqdim etadi yoki uning uchun boshqa ijobiy natijalarni keltiradi.

**Xulosa.** Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib ma'muriy aktning quyidagi xos xususiyatlari aniqlanadi. Ma'muriy hujjatning uchta muhim funksiyasini ta'kidlash joiz: vaziyatni majburiy tartibga solish, huquqni qo'llash va huquqiy himoyaning muayyan shakllarini amalga oshirish. Ma'muriy aktlar orqali huquqiy oqibatlar belgilanadi. Ma'muriy aktning qabul qilinishi Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi Qonunga muvofiq ma'muriy jarayonni rasmiy ravishda yakunlaydi. Ushbu Qonun ma'muriy aktning me'yoriy tartib qoidalari va mexanizmlarini belgilab beradi. Boshqa organlar ma'muriy aktning tan olishlari va o'z qarorlarini qabul qilishda uning qonuniyligini, ya'ni faktik ta'sirni tekshirmasdan, uning normativ mazmunini hisobga olishlari kerak. Natijada, ma'muriy hujjat barqarorlashtiruvchi ta'sirga ega bo'lib, huquqiy aniqlikni yaratadi. Ayrim ma'muriy hujjatlar ham deklarativ ta'sirga ega. Bu shuni anglatadiki, nafaqat tartibga solish mazmuni, balki qarorlar va xulosalar sabablari ham majburiy bo'ladi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mario Martini: Die Aufhebung von Verwaltungsakten §§ 48 ff. VwVfG – Rücknahmefrist (§ 48 IV VwVfG). In: Juristische Arbeitsblätter 2017, S. (839–840).
2. Marceau Long, Prosper Weil, Guy Braibant, Pierre Delvové, Bruno Genevois (Hrsg.): Les grands arrêts de la jurisprudence administrative. 16. Auflage. Dalloz-Sirey, Paris 2007, ISBN 978-2-247-07424-2.
3. Peine F.-J. Allgemeines Verwaltungsrecht, 9. Auflage. Verlag C. F. Mueller, 2008. (Peine F.-J. General Administrative Law, 9th edition. Verlag C. F. Mueller, 2008)
4. Wolff H. J., Bachof O., Stober R. Verwaltungsrecht I. 6. Auflage. München, 2000. (Wolff H. J., Bachof O., Stober R. Administrative Law I. 6th edition. Munich, 2000)
5. Bundesverfassungsgericht//Neue Juristische Wochenschrift. 1987. 2501(Bundesverfassungsgericht // Neue Juristische Wochenschrift. 1987. 2501)
6. Bundesverfassungsgerichtsentscheidung. 19. 68. (Federal Constitutional Court decision. 19. 68.)
7. Bundesgerichtshof // Neue Juristische Wochenschrift. 1987. 1945. (Federal Court of Justice // New legal weekly. 1987. 1945.)
8. Verwaltungsgerichtshof Baden-Wuerttemberg // Neue Zeitschrift fuer Verwaltungsrecht. 1987. 431f. (Administrative Court of Baden-Wuerttemberg // New journal for administrative law. 1987. 431f.)
9. Oberverwaltungsgericht Nordrhein Westfalen//Oberverwaltungsgerichtsen scheidungen. 16. 289.( Higher Administrative Court of North Rhine-Westphalia // Higher Administrative Court decisions. 16. 289.)
10. Саидазимов Юсуф (2020). ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ. Review of law sciences, 3 (Спецвыпуск),19-24. doi:

**Received:** 30 January 2026  
**Accepted:** 15 February 2026  
**Published:** 28 February 2026

*Article / Original Paper*

## **HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS SUBJECTS OF ENTREPRENEURSHIP**

**Toshkanov Nurbek Bahriddinovich**

Independent Researcher,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article analyzes the legal status of higher education institutions as entrepreneurial entities and their role in innovation commercialization using a comparative legal approach. The study examines the entrepreneurial university concept, the Triple Helix model, and legal mechanisms for intellectual property management, technology transfer, and spin-off formation. Based on the experience of the United States, Germany, and South Korea, effective regulatory models are identified. The findings show that although Uzbekistan provides a legal basis for university entrepreneurship, gaps remain in intellectual property regulation, revenue distribution, and institutional infrastructure. The article proposes improving legislation, adopting a model intellectual property policy, and strengthening technology transfer mechanisms.

**Keywords:** higher education institution, entrepreneurial university, entrepreneurial entity, intellectual property, technology transfer, commercialization, spin-off, innovation.

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARI – TADBIRKORLIK SUBYEKTI SIFATIDA**

**Toshkanov Nurbek Bahriddinovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [toshkanovnurbek@gmail.com](mailto:toshkanovnurbek@gmail.com)

<http://www.orcid.org/0009-0005-6060-3414>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarining tadbirkorlik subyekti sifatidagi huquqiy maqomi hamda innovatsiyalarni tijoratlashtirishdagi institutsional roli qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda "tadbirkor universitet" konsepsiyasi, Triple Helix modeli, intellektual mulkni boshqarish, texnologiyalar transferi va spin-off kompaniyalar tashkil etishning huquqiy mexanizmlari tahlil qilingan. AQSh, Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi asosida universitetlarning innovatsion faoliyatini tartibga solishning samarali modellari aniqlangan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda OTMlarning tadbirkorlik faoliyati uchun huquqiy asos mavjud bo'lsa-da, intellektual mulkni boshqarish, daromad taqsimoti va institutsional infratuzilma bo'yicha normativ aniqlik yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu asosda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni takomillashtirish, namunaviy intellektual mulk siyosatini joriy etish hamda texnologiyalar transferi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim muassasasi, tadbirkor universitet, tadbirkorlik subyekti, intellektual mulk, texnologiyalar transferi, tijoratlashtirish, spin-off, innovatsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI2Y2026N44>

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ikkinchi ustuvor yo'nalish sifatida iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish belgilab berildi. Tabiiyki, mazkur jarayon nafaqat ishlab chiqarish, tabiiy resurslar, balki inson kapitali bilan bevosita bog'liqdir. Malakali kadrlarni iqtisodiyot uchun yetishtirib berish esa oliy ta'lim muassasalarining bevosita asosiy vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kunda jahonda bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida universitetlar an'anaviy akademik funksiyalar bilan bir qatorda innovatsiyalarni tijoratlashtirish, texnologiyalar transferini amalga oshirish, intellektual mulk obyektlarini boshqarish hamda spin-off va startap kompaniyalar tashkil etish orqali iqtisodiy qiymat yaratishda faol ishtirok etuvchi "tadbirkor universitet" (**entrepreneurial university**) modeliga transformatsiya qilinmoqda. Ushbu model universitetlarni innovatsion ekotizimning markaziy instituti sifatida shakllantirish, ularning ilmiy salohiyatini iqtisodiy natijaga aylantirish hamda "universitet-sanoat-davlat" hamkorligini tizimli ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston oliy ta'lim siyosatida OTMlarning nafaqat ta'lim va ilmiy natijalar ishlab chiqaruvchi, balki innovatsiyalarni tijoratlashtiruvchi va real sektor bilan qo'shimcha qiymat zanjirlarini yaratadigan subyektga aylanishi konseptual maqsad sifatida belgilangan. "Universitet 3.0" konsepsiyasida texnopark, texnologiyalar transferi, startap va akselerator markazlarini byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan tashkil etish hamda "spin-off/spin-out" korxonalar orqali akademik tadbirkorlikni rivojlantirish bevosita qayd etiladi. Shuningdek, moliyaviy mustaqillik berilayotgan OTMlar uchun biznes-reja, KPI va ichki audit mexanizmlarining normativ mustahkamlanishi OTMni iqtisodiy jihatdan "tadbirkorlik" subyektiga yaqinlashtiradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Tadbirkor universitet konsepsiyasining klassik yondashuvi universitet transformatsiyasini bir necha o'zaro bog'liq tarkibiy elementlar orqali izohlaydi. Xususan, bu jarayon kuchli va strategik yo'naltirilgan boshqaruv yadrosi (**strengthened steering core**), diversifikatsiyalangan moliyalashtirish manbalari (**diversified funding base**), universitetning an'anaviy akademik tuzilmasidan tashqarida shakllanadigan rivojlanish periferiya tuzilmalari (**developmental periphery**), jumladan, texnologiyalar transferi markazlari, innovatsion inkubatorlar va spin-off platformalari, shuningdek universitetning asosiy ilmiy salohiyatini tashkil etuvchi akademik markaziy yadro (**academic heartland**)ni rag'batlantirish hamda tadbirkorlik madaniyatini institutsional darajada shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu konsepsiya universitet faoliyatida an'anaviy akademik vazifalar bilan bir qatorda innovatsiyalarni tijoratlashtirish, bilimlarni amaliyotga transfer qilish va iqtisodiy qiymat yaratishga yo'naltirilgan yangi institutsional funksiyalarni rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Shu bilan birga, keyingi ilmiy tadqiqotlarda universitet faoliyatidagi "**commercialism**" (faqat moliyaviy daromadga yo'naltirilgan tijorat faoliyati) va "**entrepreneurialism**" (innovatsiyalar yaratish va ularni iqtisodiy hamda ijtimoiy qiymatga aylantirishga qaratilgan tizimli tadbirkorlik faoliyati) o'rtasidagi konseptual farqni aniqlashtirish muhimligi ta'kidlanadi [1].

Mazkur yondashuvni institutsional darajada rivojlantiruvchi yana bir muhim nazariy model – universitet, sanoat va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ifodalovchi "**Triple Helix**" (uch spiral) modeli hisoblanadi. Ushbu modelga ko'ra bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar alohida institutlar doirasida emas, balki universitet, sanoat va davlat o'rtasidagi institutsional integratsiya, kommunikativ hamkorlik va funksional o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi. Natijada, universitetlar nafaqat bilim ishlab chiqaruvchi markaz, balki innovatsion rivojlanishning faol subyekt sifatida, texnologiyalar transferi, startaplarni qo'llab-quvvatlash va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni yaratish orqali milliy va mintaqaviy innovatsion ekotizimlarning markaziy elementiga aylanadi [2].

OTMni tadbirkorlik subyekti sifatida huquqiy modellashda uchta “tayanch blok” ajralib turadi.

**Egalik va huquqlar bloki** intellektual mulk (IM) natijalarining kimga tegishligini, ularni boshqarish va tijoratlashirish bilan bog'liq asosiy huquqiy mexanizmlarni belgilaydi. Ushbu blok, avvalo, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlariga egalik qilish huquqining taqsimlanishini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bu yerda universitet, tadqiqotchi (ixtirochi), homiy tashkilot yoki davlat o'rtasidagi huquqiy munosabatlar aniq tartibga solinishi zarur. Shuningdek, tadqiqotchilarning yaratilgan natijalar to'g'risida universitetga o'z vaqtida oshkor qilish majburiyati, ya'ni ixtiro yoki boshqa IM obyektini ro'yxatdan o'tkazish va tijoratlashirish imkonini beruvchi institutsional tartiblar muhim ahamiyatga ega.

Mazkur blokning muhim elementi sifatida, ayniqsa, davlat tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy tadqiqotlar doirasida yaratilgan IM obyektlariga nisbatan davlatning nazorat va aralashuv huquqlari, jumladan, zarurat tug'ilganda texnologiyadan jamiyat manfaatlarini yo'lida foydalanishni ta'minlashga qaratilgan “march-in rights”ga o'xshash mexanizmlar ham nazarda tutiladi. Bundan tashqari intellektual mulk obyektini yaratgan muallif yoki ixtirochining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularga munosib moddiy rag'batlantirish (inventor remuneration) tizimi joriy etiladi, bu esa innovatsion faoliyatni rag'batlantirishning muhim institutsional omili hisoblanadi.

Mazkur yondashuvning klassik namunasi sifatida AQShda qabul qilingan Bayh–Dole Act (1980) alohida e'tirof etiladi. Ushbu siyosat davlat tomonidan moliyalashtirilgan tadqiqotlar natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlariga egalik qilish huquqini universitetlar va boshqa ilmiy tashkilotlarga berish orqali texnologiyalar transferini faollashtirish, innovatsiyalarni tijoratlashirish va ilmiy natijalarning iqtisodiy qiymatini oshirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, ushbu qonun davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida muayyan holatlarda davlatga texnologiyadan foydalanishni ta'minlash imkonini beruvchi maxsus huquqlarni ham saqlab qolgan.

**Institutsional infratuzilma bloki** doirasida tadbirkor universitet modelini samarali amalga oshirish uchun universitet tarkibida innovatsiyalarni yaratish, boshqarish va tijoratlashirishga xizmat qiluvchi maxsus institutlar shakllantiriladi. Bunday institutlar qatoriga, avvalo, intellektual mulkni aniqlash, himoya qilish va tijoratlashirish jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi texnologiyalar transferi ofisi (**Technology Transfer Office - TTO**), universitet ishlanmalarini tijoratlashirish va spin-off kompaniyalar orqali bozorga chiqarishni ta'minlovchi texnologik holding kompaniyalari, startup loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi inkubatorlar va akseleratorlar, innovatsion tashabbuslarni moliyalashtiruvchi venchur fondlar, shuningdek universitetning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi Maqsadli kapital jamoat fondi (**Endowment Fund**) jamg'armalari kiradi. Ushbu institutlar universitetning ilmiy salohiyatini iqtisodiy qiymatga aylantirish va innovatsion faoliyatni tizimli ravishda rivojlantirishda muhim institutsional vosita hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda, xususan, Janubiy Koreyada universitetlarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida Sanoat va universitet hamkorligi jamg'armasi (**Industry-Academic Cooperation Foundation**) (IACF) va texnologiyalar bo'yicha holding kompaniya (**technology holding company institutlari**) alohida tashkiliy-huquqiy shakl sifatida qonunchilik darajasida

mustahkamlangan bo‘lib, bu universitetlarning innovatsion faoliyatini institutsional asosda rivojlantirish imkonini beradi [3].

**Etika va komplaens mexanizmlari blokida** tadbirkor universitet faoliyatida innovatsiyalarni tijorlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq huquqiy va institutsional risklarni boshqarish maqsadida samarali etika hamda komplaens tizimi joriy etilishi zarur. Bunda, avvalo, universitet xodimlari va tadqiqotchilarining ilmiy faoliyati hamda tijorat manfaatlari o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini (*conflict of interest*) aniqlash va boshqarish mexanizmlarini belgilash, akademik erkinlik va tijorat manfaatlari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlash, innovatsion faoliyat va texnologiyalar transferi jarayonlarida institutsional shaffoflikni kafolatlash, shuningdek davlat ishtirokidagi universitetlar uchun davlat xaridlari va moliyaviy nazorat talablariga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro standartlarda, jumladan, Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan ishlab chiqilgan universitetlar uchun intellektual mulk siyosati bo‘yicha tavsiyalarda ham manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish alohida va muhim tarkibiy bo‘lim sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, bu tadbirkor universitet modelining institutsional barqarorligini ta‘minlashning ajralmas elementi sifatida e‘tirof etiladi [4].

Tadqiqot metodologiyasida esa normativ-huquqiy, qiyosiy-tarixiy usullardan foydalaniladi.

**Muhokama.** AQShda Bayh–Dole (35 USC 200) siyosati federal moliyalashtirilgan tadqiqotlardan kelib chiqadigan ixtirolarni patent tizimi orqali “utilizatsiya” qilish, universitet va notijoratlar hamda biznes o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantirish, tijorlashtirishni kuchaytirish kabi maqsadlarni normativ ravishda e‘lon qildi. [5] Bu yondashuv OTMni “innovatsiya egasi” va “bitim tuzuvchi” subyektga aylantiradi (oshkor qilish → patentlash va nou-xau strategiyasini belgilash → litsenziyalash yoki ulush asosida tijorlashtirish → daromadni taqsimlash).

Universitet TTO siyosatlari odatda muallif yoki ixtirochini rag‘batlantirishni aniq foizlarda belgilaydi. Masalan, Massachusetts texnologiya instituti Texnologiyalarni litsenziyalash ofisi (*MIT Technology Licensing Office*) [6] tijorlashtirishdan olingan sof foydaning 33% ini inventorlarga to‘lash (qolganini institut va bo‘linmalar o‘rtasida taqsimlash) amaliyotini ko‘rsatadi. [7] Stanford universitetida esa patent daromadlarining (ma‘lum chegaragacha) 33.34% ixtirochi, qolganini departament/fakultet va Ilmiy tadqiqotlar va rivojlanish bo‘yicha vitse-prezident (prorektor) (Vice President for Development and Office of Research – VPDOR) ofisi kabi institutlar o‘rtasida taqsimlash modelini beradi. [8] Kaliforniya universitet siyosatida ixtirochilarga 35% tijorlashtirishdan olingan foydadan ulush berilishi nazarda tutilgan. [9]

AQSh modeli oliy ta‘lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyatini egalik huquqlarining aniq belgilanishi, iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarining mavjudligi hamda professional faoliyat yurituvchi texnologiyalar transferi ofislari (professional TTO) uyg‘unligi orqali institutsional darajada shakllantiradi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston uchun, birinchidan, intellektual mulk obyektlari bilan bog‘liq jarayonlarni, xususan, natijalarni oshkor qilish, egalik huquqlarini aniqlash va tijorlashtirishdan olingan daromadni taqsimlash tartib-taomillarini yagona va standartlashtirilgan huquqiy asosda mustahkamlash zaruratini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, universitetlarda texnologiyalar transferi ofislari yoki markazlari (TTO/TTM) faoliyatini professional asosda tashkil etish, jumladan, malakali kadrlar bilan ta‘minlash, aniq

samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) belgilash hamda barqaror moliyalashtirish (byudjet) mexanizmlarini joriy etishni majburiy minimal institutsional standart sifatida belgilash zarurligini asoslaydi [5].

Germaniyada "Xodimlarning ixtirolari to'g'risida"gi qonunning oliy ta'lim muassasalariga tatbiq etiladigan maxsus normasi (§42)ga muvofiq agar universitetda band bo'lgan shaxs tomonidan yaratilgan ixtiro xizmat ixtirosi sifatida universitet tomonidan foydalanilsa (ekspluatatsiya qilinsa), ixtiro muallifiga tijoratlashtirishdan olingan daromadning kamida 30 foizi miqdorida mukofot (**inventor remuneration**) to'lanishi shart. Ushbu norma universitet va ixtirochi manfaatlarini o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi: universitet ixtironi o'z tasarrufiga olish (**inanspruchnahme**) orqali uni patentlash, himoya qilish va bozorga chiqarish jarayonini boshqarish huquqiga ega bo'ladi, ixtirochi esa tijoratlashtirishdan olingan daromadda sezilarli ulush olish orqali moddiy rag'batlantiriladi [10].

Mazkur yondashuv universitetlarning amaliy intellektual mulk siyosatida ham o'z aksini topgan. Jumladan, Freie Universität Berlin universitetining intellektual mulk siyosatiga ko'ra ixtironi tijoratlashtirishdan olingan umumiy daromadning (**gross revenue**) 30 foizi to'g'ridan-to'g'ri ixtirochilarga beriladi. Shundan so'ng qolgan mablag'lardan patentlash va huquqiy himoya bilan bog'liq xarajatlar qoplanadi, qolgan sof daromad esa universitetning markaziy boshqaruvi va ixtirochilar faoliyat yurituvchi ilmiy jamoa (**inventor working group**) o'rtasida 50:50 nisbatda taqsimlanadi. Ushbu mexanizm universitetning innovatsion infratuzilmasini moliyalashtirish va ilmiy jamoalarni rag'batlantirish o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan [11].

Germaniya modeli ixtirochining manfaatlarini himoya qilish maqsadida "daromadning kamida 30 foizi" miqdorida qonuniy minimal ulushni majburiy norma sifatida belgilaydi, shu bilan birga, ushbu minimal ulushdan ortiq daromad taqsimoti tartibini universitetning ichki intellektual mulk siyosati va institutsional qoidalariga havola qiladi. Mazkur yondashuv O'zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, unda intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishdan olingan daromaddan ixtirochilar ulushini normativ darajada minimal kafolatlangan foiz (masalan, kamida 50%) sifatida belgilash, qolgan daromad taqsimoti mexanizmini esa oliy ta'lim muassasalarining ichki intellektual mulk siyosati orqali tartibga solish rag'batlantiruvchi, shaffof va adolatli institutsional modelni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin [10].

Janubiy Koreyada amal qiluvchi "Sanoat ta'limini rivojlantirish va sanoat-akademiya-tadqiqot hamkorligini rag'batlantirish to'g'risida"gi qonun (**Industrial Education Enhancement and Industry-Academia-Research Cooperation Promotion Act**) universitet huzurida Sanoat va universitet hamkorligi jamg'armasi (**Industry-Academic Cooperation Foundation, IACF**) tashkil etilishi mumkinligini, ushbu jamg'arma alohida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishini hamda uning asosiy funksiyalariga intellektual mulkni boshqarish, texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash va sanoat bilan hamkorlikni rivojlantirish kirishini normativ darajada belgilaydi [3]. Mazkur qonunda, shuningdek, texnologik holding kompaniya (**technology holding company**) va shu'ba korxonasi (**subsidiary company**) tushunchalarining huquqiy ta'riflari ham keltirilgan bo'lib, bu universitetlarga holding tuzilmasi orqali laboratoriya va tadqiqot natijalari asosida yaratilgan startaplarni yagona investitsion portfel sifatida tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish

imkonini beruvchi huquqiy asosni yaratadi. Shu tariqa, universitet innovatsion faoliyatining institutsional va tijorat komponentlari qonunchilik darajasida legitimlashtiriladi [3].

Mazkur modelning amaliy qo'llanilishi Janubiy Koreyaning Kookmin University misolida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu universitet huzuridagi IACF va texnologik holding kompaniyalar ekotizimi doirasida sanoat bilan hamkorlik, texnologiyalar transferi va startaplarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2026-yil yanvar oyida Kookmin University hamda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o'rtasida KOICA ko'magida amalga oshirilayotgan "bandlik va tadbirkorlik integratsiyasi" (employment and entrepreneurship linkage) loyihasi doirasida "Industry Matching Day" tadbiri tashkil etildi. Ushbu tadbir doirasida talabalar tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion loyihalar sanoat korxonalariga taqdim etildi, bu esa "living lab" yondashuvi asosida universitet-sanoat hamkorligini amaliy jihatdan kuchaytirish, talabalar innovatsion faoliyatini bozor ehtiyojlari bilan integratsiya qilish va startap tashabbuslarini tijoratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish modelini namoyon etdi.

Janubiy Koreya modeli universitet huzurida texnologiyalar transferi, startaplarni rivojlantirish va investitsion faoliyatni boshqaruvchi institutlarni yagona markazlashtirilgan yuridik shaxs – IACFga o'xshash institutsional "yadro" atrofida birlashtirishning huquqiy va institutsional afzalligini ko'rsatadi. Bunday model intellektual mulkni boshqarish, litsenziya bitimlarini tuzish, investitsiyalarni jalb qilish va daromadlarni taqsimlash jarayonlarini yagona institutsional platforma orqali amalga oshirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham oliy ta'lim muassasalari huzurida texnologiyalar transferi, innovatsiyalarni tijoratlashtirish va startaplarni rivojlantirish faoliyatini markazlashtirilgan yuridik shaxs orqali tashkil etish, ya'ni IACFga o'xshash maxsus institutsional tuzilmani joriy etish, universitetlarning tadbirkorlik subyekti sifatidagi faoliyatini tizimli, shaffof va samarali rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin [3].

**Natijalar.** O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari (OTM) "Universitet 3.0" paradigmasi doirasida (ta'lim-fan-innovatsiya va natijalarni tijoratlashtirish uzviy bog'liqligi) bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilangan. Bunga parallel ravishda davlat OTMlariga akademik, tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy mustaqillik berib borilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, moliyaviy mustaqillik berilgan OTMlarda Kuzatuv kengashlari, KPI asosidagi baholash tizimi, ichki audit va maqsadli kapital jamg'armasi (Endowment Fund) kabi boshqaruv instrumentlari ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, 2018-yilda davlat budjeti hisobidan yaratilgan ilmiy natijalarni tijoratlashtirish darajasi yetarli emasligi hamda tizimli muammolar (real sektorni rag'batlantirish, standartlashsertifikatlash, natijadorlik mezonlari) normativ-huquqiy hujjat darajasida qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Amaldagi qonunchilik OTMlarning iqtisodiy faolligi uchun umumiy huquqiy yo'nalishni beradi. Bunda:

ta'lim tashkilotlari yuridik shaxs maqomida tashkil etiladi;

pullik ta'lim xizmatlari va "tadbirkorlik faoliyati"ni amalga oshirish mumkin;

budjetdan tashqari tushumlar (jumladan, ilmiy-tadqiqot ishlarida olingan daromadlarning bir qismi) OTM ixtiyorida qolishi asosiy qoida sifatida mustahkamlangan.

Ilmiy natijalarni tijoratlashtirish (ITTKI natijalari) tushunchasi va usullari normativ darajada belgilangan, shuningdek tijoratlashtirishning muhim yo'li sifatida "intellektual mulk

obyektini/tayyor texnologiyani ustav fondiga hissa sifatida kiritgan muassasa ishtirokidagi tijorat tashkilotini tuzish” mexanizmi ham ko’rsatilgan. Innovatsion faoliyat sohasida “texnologiyalar transferi markazi” (TTM) yuridik shaxs sifatida ta’riflangan, shuningdek texnologiyalar transferi shartnomalarini ro’yxatdan o’tkazish tartibi mavjud.

Biroq OTM “tadbirkorlik subyekti” sifatida to’liq ish olib borishi uchun tashkiliy-huquqiy bo’shliqlar saqlanmoqda:

(i) OTMning “tadbirkorlik subyekti” sifatidagi maxsus ta’rifi va chegaralari (missiya bilan moslik, risk profili, manfaatlar to’qnashuvi) bir xil standartda kodifikatsiya qilinmagan;

(ii) intellektual mulk (IM) bo’yicha egalik, daromadni taqsimlash, spin-off/spin-out, universitet-holding va venchur instrumentlarining OTM darajasida joriy etilishi uchun “model siyosat” va majburiy minimal standartlar yetarli darajada normallashtirilmagan;

(iii) davlat xaridlari va korrupsiyaga qarshi talablar fonida “innovatsion xarid” (R&D/prototip/pilot) uchun moslashuvchan protseduralar kam;

(iv) soliq va hisob (accounting) rejimida OTM va u ta’sischi bo’lgan spin-offlar uchun alohida aniqlik talab etiladi (O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-61 doirasida umumiy soliq imtiyozlari tan olingan bo’lsa-da, spin-off kompaniyalarning faoliyatini tartibga solishda turli xil talqinlar, noqulayliklar mavjud).

**Xulosa.** O’zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy bazasini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishini ta’minlash uchun nafaqat ruxsat beruvchi normalar, ya’ni universitetlarga xo’jalik jamiyatlari tashkil etish, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish va innovatsion faoliyat bilan shug’ullanish huquqini beruvchi qoidalar, balki ushbu faoliyat bilan bog’liq huquqiy, moliyaviy va institutsional risklarni samarali boshqarishga xizmat qiluvchi himoya va tartibga soluvchi normalar ham zarur. Xususan, universitetlar huzurida innovatsion markazlar va holding tuzilmalarni tashkil etishning minimal institutsional standartlarini belgilash, manfaatlar to’qnashuvini boshqarish tartibini aniq huquqiy asosda mustahkamlash, davlat tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini tartibga solish hamda ushbu jarayonlarda davlat manfaatlarini va jamoat manfaatlarini himoya qiluvchi huquqiy kafolatlarni joriy etish tadbirkor universitet modelini samarali joriy etishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarining to’laqonli “tadbirkorlik subyekti” sifatida shakllanishi uchun normativ-huquqiy bazada nafaqat institutsional vakolatlarni beruvchi, balki ularni samarali amalga oshirish uchun zarur bo’lgan institutsional infratuzilma, komplaens mexanizmlari va majburiy minimal standartlarni belgilovchi kompleks huquqiy tartibga solish tizimini shakllantirish zarur.

Xususan, “Ta’lim to’g’risida” O’zbekiston Respublikasining Qonuni (23.09.2020 yildagi O’RQ-637-son) 62-moddasi 3-6-qismlarida davlat ta’lim muassasalari ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta’lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko’rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega ekanligi; pulli ta’lim xizmatlarini ko’rsatish davlat ta’lim muassasalarining asosiy faoliyatiga to’sqinlik qilmasligi kerakligi; davlat ta’lim muassasalarida qo’shimcha ta’lim xizmatlari ko’rsatganlik uchun haq undirish tartibi ular tomonidan mustaqil ravishda belgilanishi; davlat ta’lim muassasalari pulli ta’lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko’rsatish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanish hisobidan olingan pul mablag’larini mustaqil ravishda tasarruf etishga haqli ekanligi o’z

ifodasini topgan. Bu bilan Qonun tadbirkorlik faoliyatiga umumiy ruxsat beradi, lekin OTM tadbirkorligining shakllari, cheklovlari va boshqaruv standartini belgilamaydi.

Shunga ko'ra Qonunga quyidagi tahrirdagi 62<sup>1</sup>-moddani qo'shish maqsadga muvofiq:

**“62<sup>1</sup>-modda. Oliy ta'lim muassasasining tadbirkorlik faoliyati**

Oliy ta'lim muassasasi (davlat va nodavlat) o'zining asosiy faoliyati – ta'lim va ilmiy faoliyatiga zid bo'lmagan holda, quyidagi yo'nalishlarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin:

- a) pullik ta'lim xizmatlari;
- b) ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va konsalting xizmatlari;
- c) intellektual mulk obyektlarini (patent, dasturiy ta'minot, nou-xau va boshqalar) litsenziyalash va boshqa huquqlarni berish;
- d) startap, akselerator, inkubator va texnologiyalar transferi infratuzilmasini tashkil etish;
- e) ilmiy natijalarni joriy etish va tijoratlashtirish maqsadida spin-off/spin-out korxonalarini tashkil etishda ishtirok etish.

